

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“ALISHER NAVOIY MEROSINING ILMIY, MA’NAVIY
AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

T O ‘ P L A M I



Navoiy-2026



Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2026. 187 b.

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan “Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida uzluksiz ta'lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbirlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o'qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta'lim fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY'ATI

| | | |
|-------------------|---|--|
| Mardanov U.R. | - | pedagogik mahorat markazi direktori |
| Safarov D.X. | - | direktor o'rinbosari, professor |
| Pulotov A.M. | - | pedagogika fanlari nomzodi. dotsent |
| Usmonova R.M. | - | kafedra mudiri, dotsent |
| Suvonova M.X. | - | filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent |
| Ravshanova O.S. | - | katta o'qituvchi |
| Tuxfatullina D.T. | - | direktor o'rinbosari, katta o'qituvchi |
| Hodiyeva Yu. | - | katta o'qituvchi |
| Ozotov A.O. | - | katta o'qituvchi |
| Boboqulov J.Q. | - | UKTTE bo'limi boshlig'i |

Texnik muharrir: Boboqulov J.Q.

Maqolalar mazmuni va ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

Konferensiya materiallari to'plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining (2026-yil 27-fevral, 2-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Aziz ustozlar va ziyolilar, muhtaram mehmonlar!

Bugun biz buyuk mutafakkir, shoir, davlat va jamoat arbobi, butun turkiy dunyo iftixori – hazrat Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligini keng nishonlash maqsadida yig‘ilganimizdan g‘oyat mamnunmiz.

Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyoti va milliy tafakkurining asoschisi, ona tilimizning beqiyos qudratini butun jahonga namoyon etgan ulug‘ zotdir.

U zotning ilmiy, adabiy va ma'naviy merosi nafaqat o‘z davri, balki bugungi kunda ham xalqimiz hayoti, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Navoiy hazratlari o‘z asarlari orqali insonparvarlik, adolat, komil inson g‘oyalarini ilgari surdi. U kishining “Xamsa”si, g‘azallari, falsafiy va axloqiy risolalari asrlar davomida xalqimizni ma'naviy jihatdan oziqlantirib kelmoqda.

Ayniqsa, turkiy tilda yuksak adabiyot yaratish mumkinligini amalda isbotlab bergani — Navoiy hazratlarining tarix oldidagi eng ulug‘ xizmatlaridan biridir.

Bugun Yangi O‘zbekiston sharoitida buyuk bobokalonimiz merosini chuqur o‘rganish, uni yosh avlod qalbiga singdirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan hazrat Alisher Navoiyni ulug‘lash, ma'naviy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, tarjima va ilmiy tahlillarini amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Bobomiz mir Alisher Navoiy ijodiga dunyoning turli mintaqalarida bo‘lgan qiziqishning muttasil oshib borayotgani, shoir xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmualarining ochilishi, yangi-yangi kitoblar, ilmiy tadqiqotlar, badiiy va hujjatli filmlar yaratilishi, Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan mutafakkir bobomiz nomida xalqaro mukofot ta’sis etilishi, Alisher Navoiy tavallud topgan sana har yili ko‘tarinki ruhda nishonlanayotganligi buyuk ajdodimizga ko‘rsatilayotgan ehtirom ekanligidan dalolat beradi.

Qadrli tadbir ishtirokchilari,

Barchangizga yaxshi ma'lum Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich tashabbuslari bilan o'tgan 2025-yilni Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"deb e'lon qilinishi va alohida Qaror qabul qilinganligi barchamiz uchun faxr va mas'uliyat timsolidir.

Qarorga asosan, viloyatda Navoiy nomini abadiylashtirish, ulug' ajdodimizga munosib ma'naviy muhitni shakllantirish, adabiyot va ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga bugun Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan **"Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati"** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman ham Alisher Navoiy ijodini yanada chuqurroq anglashga, uning g'oyalarini zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa barchamiz uchun katta ma'naviy yutuqdir.

Buyuk Navoiy merosi barchamiz uchun ma'naviy dasturilamal bo'ladi deb hisoblayman hamda bugungi konferensiya ishiga omad tilayman!

E'tiboringiz uchun rahmat!

U.R. Mardanov
Navoiy viloyati PMM direktori

1-SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI.

NAVOIY ASARLARIDA TARBIIYA MASALASI

*Mardanov Uktamjon Rustamovich,
Navoiy viloyati PMM direktori*

Annotatsiya Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyondasi Alisher Navoiyning asarlari jahon madaniy merosidagi o'rni, uning g'oyalari (do'stlik, adolat, sevgi, sadoqat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat) va insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi muhim ahamiyati yoritiladi. Navoiyning "Munshaot", "Saddi Iskandariy", "Hayrat ul-abror", "Sab'ai sayyor" kabi asarlaridan iqtiboslar va misollar keltirilib, shoirning yosh avlodni, shahzodalarni va shogirdlarni o'z farzandidek ko'rganligini, tarbiyaning asosiy quroli sifatida so'z va basiratni ta'kidlaganini ko'rsatadi. Navoiy ijodida yovuzlik illatlaridan (masalan, qaroqchi Jobir hikoyasi, aysh-ishratning halokati) saboq olish, ezgulik g'oyalarini singdirish va inson umrini yaxshilikka sarflash zarurligi falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Maqola mustaqil yurt farzandlarini ajdodlar merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish mas'uliyatiga chaqiradi.

Kalit so'zlar Alisher Navoiy, tarbiya, ta'lim, so'z tarbiyasi, basirat, insoniy fazilatlar, do'stlik, adolat, sevgi, sadoqat, mehr-oqibat, Xamsa, Saddi Iskandariy, Hayrat ul-abror, Sab'ai sayyor, Munshaot, yosh avlod tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ma'naviy meros, o'zbek mumtoz adabiyoti, komil inson, ezgulik va yovuzlik.

Mumtoz adabiyotimiz asrlar davomida jahon adabiyotining bebaho xazinasi bo'lib kelmoqda. Bu xazinadan avlodlarimiz bahramand bo'lib, o'z tafakkur dunyosini boyitib bormoqda. Mustaqil yurtning har bir farzandi ajdodlarimizning boy ma'naviy-ma'daniy merosini o'rganib, ularni kelgusi avlodlarga ko'z qorachig'idek asrab yetkazishga mas'uldirlar. Ulug' zotlar asarlari hamisha inson tarbiyasiga katta ahamiyat kasb etib kelgani azaldan bizga ayondir. Hazrat Navoiy ham ana shunday buyuk siymolar qatoridan o'rin olgan mutaffakkirdir. Navoiy asarlarida yo'g'rilgan g'oyalar do'stlik, adolat, sevgi, sadoqat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat hamda barcha insoniy fazilatlarni qamrab olgandir. Navoiy asarlari butun dunyoda o'rganilayotganligi, qadrlanayotganligi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Hazrat Navoiy o'zining "Munshaot" asarida shunday deya ta'kidlaydi: "Hayotimni sening tarbiyanga bag'ishladim va umrimni sening hayotingni muhofaza qilishga sarfladim; farzandlik nomingni xotiramga bitdim va otalik mehru shafqatini holingga muqarrar etdim". Navoiy o'z shogirdlarini, shahzodalarni, qolaversa kelajak avlodni o'z farzandidek ko'rgan. Ularning tarbiyasi ertangi hayot uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini har doim ta'kidlagan.

Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida tarbiyaning bosh tamoyili so'z ekanligini aytadi:

Senga berdi haq oncha lutfi mijoz,
Ki, ermas bu so'zlar demak ehtiyoj.

Ushbu misralarda ko'rinib turibdiki, insonga qilingan yaxshilik bu uning so'zga, so'zlashishga ega ekanligidir. Yurak va aql yolqinini aks ettirmagan so'zni shoir ishq va ma'rifat fayzidan mahrum deb biladi. Insonni so'z tarbiyalaydi. "Biz yoshlarga basirat sir-asrorlarini yetarli darajada tushuntirib, dunyoga basirat ko'zi bilan boqishni o'rgatmagunimizcha, ular Navoiy she'riyatining tub mohiyati va go'zallik sirlarini mushohada qilishdan ojiz bo'lib qolaveradi. Bu dunyoda bilmagan narsani bilganday

bo'lib ko'rinish, xabarsizlikdan xotirjam tortishdan ortiq gumrohlik yo'q" deganda haqli edi Navoiyshonos olim Ibrohim Haqqul. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida ta'kidlaganidek:

Sirri daqiqatdin o'lub bahravar,
Ayla basirat ko'zi birla nazar.

Shoir "Sab'ai sayyor" dostonining beshinchi iqlimidan kelgan darvesh Bahromga qaroqchi Jobir haqidagi hikoyani gapirib bergach, bu salbiy qahramonning yurish turishi, yovuz ishlari o'zining boshini yeganligini o'quvchilarga yanada tushunarli tarzda bayon etish maqsadida quyidagi maqolni keltiradi:

Har kishikim birovga qozg'ay choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh.

Navoiy bu asarida tarixiy va afsonaviy voqealar, mashhur asarlardagi muhim lavhalarni keltirib ulardan munosib xulosa chiqarishga undaydi. Bizga ma'lumki. Navoiy davlat taqdiriga, xalqning farovonligiga befarq bo'lmagan. Shuning uchun o'z qahramonlariga ezgulik g'oyalarini singdiradi yoki yovuzlik illatlaridan saboq chiqarishga undaydi. Xususan, Navoiyning Bahromi-yaxshi ta'lim olgan, ajoyib jangchi va ovchi bo'lib yetishgan temuriylarning badiiylashgan qiyofasidir. Shoir aysh-ishrat Bahromni qanday halokatlarga olib kelgan bo'lsa, temuriylarni ham shunday fojiiyaga olib kleishi mumkinligini bashorat qiladi. Shoir o'z dostonini falsafiy fikr bilan yakunlaydi.

Shoir o'zining so'nggi asarida "...terning nopok suvini obi hayvon qilaman deb uringan va tunda yaltirab ko'rinadigan qurtning qora tanasidan jahd bilan yorqin quyosh yasayman deb behuda xayol qilgan kishi ko'p bora xijolat barmog'ini tishlaydi va pushaymonlik bir biriga uradi. Va bu g'ofil banda do'st so'zi bilan hisoblashmay sening tarbiyanga kundan kunga qat'iyroq va rioyatingda lahzadan lahzaga beqarorroq etdim" deya tarbiyaning o't muhim ekanligini aytib o'tadi.

Shoir inson umrining qisqa va bir zumdan iboratligini qayd etib, uni faqat yaxshilikka sarflamoq kerakligini uqtiradi. Bu fikr Navoiy asarlarining asosiy g'oyalarini tashkil etadi.

Xulosa

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng buyuk namoyondasi sifatida asrlar davomida jahon madaniy merosining bebaho qismi bo'lib kelmoqda. Uning asarlari do'stlik, adolat, sevgi, sadoqat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Navoiy "Munshaot", "Saddi Iskandariy", "Hayrat ul-abror", "Sab'ai sayyor" kabi asarlarida so'zni tarbiyaning asosiy quroli deb biladi va yosh avlodni, shahzodalarni o'z farzandidek ko'rib, ularni basirat ko'zi bilan dunyoga qarashga, ezgulik yo'lidan borishga undaydi.

Shoir yovuzlik illatlari (aysh-ishrat, xiyonat, yomonlik) oqibatlaridan saboq berib, inson umrini faqat yaxshilikka sarflash zarurligini ta'kidlaydi. Navoiy ijodi nafaqat o'tmishdagi buyuk siymolarni ulug'laydi, balki mustaqil yurtning har bir farzandiga ajdodlarning ma'naviy-merosini chuqur o'rganib, uni kelajak avlodlarga ko'z qorachig'idek asrab yetkazish mas'uliyatini yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. *Munshaot*. – Toshkent: Fan, 2011. – 320 b.
2. Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abror (Mukammal asarlar to'plami, 7-jild)*. – Toshkent: Fan, 1991. – 450 b.
3. Alisher Navoiy. *Saddi Iskandariy (Mukammal asarlar to'plami, 12-jild)*. – Toshkent: Fan, 1993. – 480 b.

4. Alisher Navoiy. *Sab' ai sayyor (Mukammal asarlar to'plami, 11-jild)*. – Toshkent: Fan, 1993. – 410 b.
5. Haqqul Ibrohim. *Navoiyga manzil*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 280 b.
6. Ishoqov Yoqubjon. *Navoiyning badiiy olami*. – Toshkent: Sharq, 2009. – 240 b.
7. Komilov Najmiddin. *Tafakkur karvonlari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 320 b.

ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINI O'RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV

*G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dots v/b., filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Maqola kompyuter lingvistikasi sohasini rivojlantirish borasidagi muhim masalalarga bag'ishlangan. Alisher Navoiyning ilmiy va ijodiy merosini o'rganish borasida olib borilayotgan innovatsion tadqiqotlar, xususan, "Xazoyin ulmaoniy" kulliyoti asosida Alisher Navoiy mualliflik korpusining yaratilishi haqida ba'zi mulohazalar yoritilgan. Alisher Navoiyni xalqqa yaqinlashtirish, uning bebaho ma'naviy merosini kelajak avlod ko'ngil mulkiga aylantirish o'ta murakkab ilmiy jarayon hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asrida Navoiy g'azallaridagi izohtalab leksik birliklarning lingvistik xususiyatlarini grammatik va semantik teglab korpusda taqdim etilishi, Navoiy asarlarining keng ommaga tushunarli va o'qishli bo'lishi, global tarmoqdagi auditoriyasining ham kengayishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: mualliflik korpusi, g'azal, devon, semantik teg, chastota, statistik tahlil.

Jahon tamaddunida barcha yo'nalishlar singari tilshunoslik sohasida ham kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni topish, saqlash, qayta ishlash, tahrirlash va keng ommaga yetkazishning qulay usullarini yaratishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bu esa kompyuter texnologiyalari sohasi uchun ulkan vazifani vujudga keltirdi. Ayni damda matnli ma'lumotlarga zarar yetkazmay kompyuter xotirasiga kiritish, ishonchli saqlash, qulay va hammabop tarzda foydalanuvchiga yetkazib berish korpus lingvistikasi sohasi bilan bevosita bog'liqdir [1]. Alisher Navoiy MKdan XV asr bilan hozirgi zamon tilidagi yangilanish va bugungi ijtimoiy hayotda ba'zi so'zlarning iste'moldan chiqishi, faollashish va passivlashish holatlarini bilib oladi, Navoiy ijodidagi muayyan so'z qo'llanish bo'yicha statistika va uning chastotasini, g'azallarda qo'llangan she'riy san'atlarni tezkor, aniq va to'liq bilib oladi. Mualliflik korpusidagi semantik tahlillarning ishonchli ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi korpusning ishonchlilikini kafolatlaydi, korpusda lingvistik hodisalarning butun spektri to'liq aks ettirilganligi – zaruriy ma'lumotlarni har tomonlama va obyektiv o'rganishga imkon beradi [2].

“Badoyi’ ul-bidoya” (“Badiiylikning boshlanishi”) devoni Husayn Boyqaroning taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig’i bilan Navoiyning o’zi tartiblagan ilk devon hisoblanadi. Shoir bu devonning debochasida devon tartib berish masalalariga to’xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko’rsatib o’tadi: “Avval *budurkim*, har kishikim *devon tartib qilibdurur*, o’ttiz ikki harfdinki, *xaloyiq iboratida voqi’durur* va *ulus kitobatida shoyi’*, to’rt harfg’a *taarruz qilmaydururlar*. *Chun* so’z *arusi* nazm *haririning matbu’ kisvatin* va *mavzun xil’atin* kiyib, *jilva og’oz* qilsa, *huqqayi yoquti dog’i o’ttuz ikkita gavhardin* qachonkim to’rtig’a *nuqson voqi’* bo’lsa, *muqarrardurkim*, *jamolig’a andin qusur* va *kalomig’a andin futur voqi’* bo’lg’usidurur [3]. Alisher Navoiy bu

o'rinda devonni g'azallar bilan boshlash, ularni 28 ta harf emas, balki 32 harf (چيم > – chim, جي – je, جوف – gof va لوم – lom-alifni ham qo'shgan holda) bilan tugallash zarurligini aytadi [4]. Mazkur ma'lumot 56 so'zdan iborat bo'lib, 36 tasi izohtalab, ya'ni hozirgi zamonda iste'molda emas, ular semantik izohlanmasa, oddiy kitobxon ma'lumot mazmunini tushunolmaydi. Bundan Navoiyning hatto nasriy manbalaridagi izohtalab so'zlarni maxsus ID kodlar orqali identifikatsiyalash va ularning kontekstual tushunchasini semantik teglab mualliflik korpusi bazasiga kiritishning muhim ekanligi ayon bo'ladi. Navoiy kulliyotidagi devonlarni inson umrini majoziy to'rt faslga qiyoslab nomlagan bo'lsa-da, ular tarkibiga kiritilgan g'azallar mazmunan yosh davri bilan mutanosib emas. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar" da:

Yoshing ellik bo'ldi, yuz qo'yg'il fano tufrog'ig'a
Kim, shabob ayyomi aysh-u beadablig' chog'i bas.

"Navodir ush-shabob"da:

Ey Navoiy, huzn ila o'tkar qarilig' mehnatin,
Chun yigitlik bordi aysh-u ishrat ayyomi bila.

Yana:

Yoshim ellik bo'ldi yuz hasrat yesamkim sudi yo'q,
O'zni maydin hush tutay chun o'tti umrum xushrog'i.

"Favoyid ul-kibar" devonida esa umrning bahori – yoshlikni aks ettiruvchi g'azallar mavjud, ya'ni shoirning ta'biri bilan aytganda: "...yigitlik avoilida bayonim kilkidin namoyish devonig'a va oroyish bo'stonig'a kiribdurkim, ul navodir tamoshosidin yigitlik mulkida g'avg'o solibmen va mulk yigitlari ko'nglidin orom va qarorni olibmen": [5].

Mast o'lub bir dam shabob ayyomini tut mug'tanam

Kim, yigitlik dam-badam o'tmakdadur ayyom aro.

Yoki:

Ishq ajab dard emish, dardqadur chora sabr,
Vahki, Navoiy base oshiq-u bechoradur.

Shubhasiz, "Xazoyin ul-maoniyy" Navoiyning ulug' kashfiyotidir. Bu devon ulug' shoirning butun hayoti davomida yaratgan barcha 16 xil lirik janrga mansub bo'lgan deyarli barcha o'zbekcha she'rlarini o'z ichiga olgan [6]. Shoir ushbu kulliyotni hozirgi ko'rinishdagi mukammal holatda tartiblash uchun 6 yildan (1492-1498-yillar) ortiq vaqt sarflab, uning ichki tuzilishiga nihoyatda mustahkam tarzda tartib bergan va 16 turdagi lirik janrni 4 devonga mazmunan mutanosiblikda joylashtirgan.

Navoiy devonlari uning boshqa asarlari kabi, adabiyot, san'at va ilm-fan ahllarining diqqat-e'tiborini tezda o'ziga jalb qildi, kitobxonlar orasida shuhrat qozondi. Navoiy yaratgan devonlarga bo'lgan qiziqishning ortib borishi natijasida XV asrning o'zidayoq Sulton Ali Mashhadiy, Abdujalil kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Muhammad bin Nur, Sulton Muhammad Xamdon kabi mashhur xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan. To'rt devondan iborat mazkur kulliyot qo'lyozmalari ko'chirish miqdori bo'yicha Navoiy asarlari ichida birinchi o'rinda turadi [7]. Qo'qon xoni Muhammad Alixon 1838-yili chiqargan farmonga binoan Muhammad Siddiq Tunqotar zimmasiga Alisher Navoiy "Chor devon"idan 300 nusxani xonlikning eng yaxshi xattotlari tomonidan ko'chirtirish vazifasi yuklangan[8]. Yuzlab hattotlar bir vaqtning o'zida Navoiy asarlarini ko'chirishgan. Kotiblar Navoiyning ushbu muborak asarlarini ko'chirishni sharaf deb bilganlar va shu asar ta'sirida o'z kechinmalarini tushirar ekanlar, faxrlanganlar. Navoiy devonlari asrdan asrga, kitobdan kitobga o'tib borishi bilan o'z tuzilishi, tartibi, hajmi, matni va boshqa jihatlari turli o'zgarishlarga uchraydi.


Hamid Sulaymonov “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi devonlarini XV-XVI asrlarda ko‘chirilgan nodir nusxalar hamda Toshkent, Leningrad, Dushanbe, Boku, Parij, London va boshqa shaharlarning kutubxona va muzeylarida saqlanayotgan ko‘p sonli qo‘lyozmalarni qiyosiy o‘rganib, “Xazoyin ul-maoniy”ning hozirgi matn ko‘rinishini nashrga tayyorladi. Uning asosida kulliyot keyinchalik bir necha nashriyotlarda chop etildi. 2013-yilda “G‘afur G‘ulom” nashriyoti tomonidan bosmadan chiqarilgan 10 jildli Alisher Navoiy to‘la asarlar to‘plamining 1-jildida kulliyotning ilk devoni “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni 2011-yilda “Tamaddun” nashriyoti tomonidan chop etilgan nashridagi g‘azallar bilan qiyosiy tahlil qilinganda aynan g‘azallardagi ba’zi so‘zlarning yozilishida farqlarni kuzatish mumkin. Masalan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibiga kirgan 67-g‘azalning 1-baytidagi “*Go‘yiga boshimni yozin yetkurub chavgonin o‘p*” misrasi bir devonda *go‘yida*, ikkinchi devonda *ko‘yida* so‘zlari bilan boshlangan (1-jadval). Shu bilan birga, ushbu izohtalab so‘zlarning ma‘nosi izohli lug‘atlarda turli ma‘nolarni ifodalab keladi. Shoir ushbu o‘rinda qanday ma‘nodagi so‘zdan foydalanganligini bayt mazmunidan bilib olish mumkin bo‘ladi. **G‘oyida**. – “chavgon” o‘yinida o‘rtaga qo‘yib, ot ustida uchi egri uzun tayoq bilan o‘ynaladigan kichkina yog‘och to‘p, **ko‘yida**– ko‘chasida, yo‘lida ma‘nolarini ifodalaydi. “Favoyid ul-kibar” devonidagi 8-g‘azalning: “*Chu derlar insonni mushtoq o‘ldi nisyondin*” deb boshlanuvchi to‘rtinchi baytini bir devonda **nisyon** – esdan chiqarish, unutish, ikkinchi devonda **isyon** – itoatsizlik, bo‘ysunmaslik, qo‘zg‘alon ma‘nolarini anglatadi. G‘azallardagi ayrim so‘zlarning bu tarzda farqli ko‘chirilganligi g‘azal mazmunini to‘g‘ri tushunishga mone‘lik qiladi, natijada shoir ko‘zlagan maqsad oydinlashmay qoladi. G‘azallarda yuzlab bunday farqli o‘rinlarni kuzatish mumkin. “Mahbub ul-qulub” asarining “Kotiblar zikrida” deb nomlangan o‘n yettinchi faslida Navoiy: “Xushnavis kotib so‘zga oroyish berur va so‘zlaguvchiga osoyish yetkarur” deb yozadi. Ma‘lumki, arab alifbosidagi harflarda nuqtalar ham muhim ahamiyatga ega: kotibning birgina diqqatsizligi so‘zning asl ma‘nosiga zarar yetkazishi haqida shoir: “Ulki, bejo nuqta bila “habib” (do‘st)ni “habis” (yaramas) qilg‘ay va “muhabbat”ni “mehnat” – aningdek habisi mehnatzadag‘a yuz la‘nat” deydi. Kotibning xatosi o‘quvchini haqiqatdan chalg‘itishi, xat mohiyatini yanglish tushunishga sabab bo‘lishi, kayfiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

1-jadval. “G‘afur G‘ulom” va “Tamaddun” nashriyotlari nashrlarida devonlardagi farqli ko‘chirilgan so‘zlar:

| G‘azal raqami | “G‘afur G‘ulom” nashriyotida chop etilgan | “Tamaddun” nashriyoti da chop etilgan |
|---------------|---|--|
| | “G‘aroyib us-sig‘ar” | “G‘aroyib us-sig‘ar” |
| 29 | Er tutar ko‘nglumda gardundin judo bo‘lg‘an balo | Yor tutar ko‘nglumda gardundin judo bo‘lg‘an balo |
| 36 | Bir sari qulog‘ingda gavharmu ekin yoxud | Har sari qulog‘ingda gavharmu ekin yoxud |
| 36 | Bir jonibida oyning axtarmu ekin oyo? | Har jonibida oyning axtarmu ekin oyo? |
| 67 | Go‘yiga boshimni yozin yetkurub chavgonin o‘p | Ko‘yiga boshimni yozin yetkurub chavgonin o‘p |

Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi devonlarning har biriga 650 tadan g‘azal joylashtirgan va ularni ham qofiyalanishiga ko‘ra arab alifbosi, ham miqdori bo‘yicha

qat'iy tarzda tartiblagan. “alif” harfi bilan tugallanuvchi g‘azallarni to‘rttala devonda hisoblaganda 156 ta, “be” harfi bilan 108 ta, “pe” harfi bilan tugallangan g‘azallar 8 ta kabi joylanganligini quyidagi diogrammada kuzatish mumkin:



Ijodkor uslubini aniqlashda matnning statistik tarkibi ahamiyatli hisoblanib, korpusdagi statistik tahlil metodi yordamida yozuvchi uslubini ham qisqa vaqtda aniqlash mumkin. Matnning statistik strukturasi deyilganda, shartli ravishda, ma'lum matndagi turli so'zlar miqdori bilan shu matnda uning qaytarilish-qaytalanish chastotasi orasidagi munosabat tushuniladi.

Asarlarni lingvostatistik tahlilida undagi otlar, sifatlar, fe'llar, grammatik shakllar, jumalarning qurilish usuli kabi til birliklari yordamida ijodkorning idiositili, ya'ni o'ziga xos yozish uslubi, yozuvchining so'z qo'llash mahorati aniqlanadi. Lingvostatistik tahlillar bizga matnning mazmuni, yozilgan davri va zaruriyat tug'ilganda mualliflikni aniqlashga imkon beradi. F. Dostoyevskiy, L. Tolstoy, M. Sholoxov kabi yozuvchilarning matnlari atributsiyasini amalga oshirish natijasida asarlarning sujet qurilishi, matn strukturasi qiyosiy tahlil qilingan. “Statistika” termini lotincha “status” so'zidan olingan bo'lib, hodisalarning holati, ahvolini bildiradi. Navoiyning turkiy tilda yozgan 2600 g'azallarini statistik tahlil qilish orqali mutafakkirning so'z qo'llash mahorati, ijod uslubini, hatto Navoiy asarlarida so'zlarning qo'llanish ko'lamini ham bilish mumkin. Har bir davr, millat adabiyoti, o'z uslubini namoyon etadi. Navoiyning so'z imkoniyatlari turkiy adabiyotning o'ziga xos yangi uslubini yaratdi.

“Xazoyin ul-maoniy”da g'azallar hajmi 5 baytdan 13 baytgacha: 5 baytli – 2 ta, 6 baytli – 5 ta, 7 baytli – 1747 ta, 8 baytli – 58 ta, 9 baytli – 695 ta, 10 baytli – 19 ta, 11 baytli – 69 ta, 12 baytli – 1 ta, 13 baytli – 5 tani tashkil etadi. Demak, Navoiy lirikasida 7 baytdan 9 baytgacha hajmda bo'lgan g'azallar ko'p. Alisher Navoiy MKni bu kabi statistik tahlillar, muhim hisoblanib, foydalanuvchiga aniq hisobni beradi va ma'lumotlar bazasi ustida ishlash qamrovini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda shoir g'azallarini lingvistik va lingvopoetik mezonlar asosida tadqiq etish orqali o'zbek adabiy tilining tarixiy tadriji haqida aniq xulosa chiqarish mumkin. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti turkiy tilda kulliyot tuzish an'anasini boshlab bergan yirik o'ziga xos hodisa bo'lishi bilan birga, lirikaning barcha jihatlarini mujassam etgan nazmiy ensiklopediya hisoblanadi. Nazm fikrni lo'nda, ixcham, badiiy tarzda ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotda badiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda uning nimalarni tasvirlaganini emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratiladi. Shu ma'noda mualliflik korpusidan g'azallarda uchragan *mubolag'a*, *tanosub*,

iyhom, tazod, talmeh, tazmin, tashbih, istiora, tajohuli orifona, husni ta'lil, tajnis, irsoli masal she'riy san'atlari ham tahlil qilindi o'rganiladi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan asarlardagi she'riy san'atlarni o'rganishda ham, Navoiyning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, falsafiy-axloqiy qarashlarini anglashimizda ham "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Korpusda g'azallarni semantik teglagan holda aks ettirish, she'riy san'atlar bazasini berish foydalanuvchilarning ma'naviy va mental tafakkurini kengaytirib, tarixga oid bilimlarini oshiradi, Navoiy ijodini o'qib o'rganish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гуломова Н. Создание лингвистической базы данных для авторского корпуса Алишера Навои. Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков "Turklang2023" – Вухоро, 2023 – В. 659-669.
2. Волков С., Герд А., Гринбаум Н., Захаров П., Муратов А., Панков И. Корпус текстов как особый тип лингвистической электронной библиотеки / Словарь русского языка XIX века. Проблемы. Исследования.
3. Sirojiddinov Sh. Davlatov O. Yusupova D. Navoiyshunoslik. 1-kitob: – Tamaddun, 2018. B. 35.
4. Исхоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б 10.
5. Срожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг киёсий-типологик, текстологик таҳлили. Тошкент: Академнашр. 2011. – Б. 8.
6. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey.– pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55 850. 2022. 9919546.
7. Шамсиев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Гулом, 1972. – Б. 171.
8. <https://alishernavoiykorpusi.uz/>

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA LISONIY SHAXS VA NUTQIY MADANIYAT MUSHTARAKLIGI

*Normo'minov Sherzod To'uchiyevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida inson va tilning o'zaro mushtarakligi antroposentrik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Buyuk mutafakkir ijodida shaxsning ma'naviy va axloqiy qiyofasi uning gap-so'zida, nutqida qanday namoyon bo'lishi "Mahbub ul-qulub" hamda "Xamsa" dostonlari misolida ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda Navoiyning nutq odobi, so'z qadri va nutq madaniyati haqidagi qarashlari bugungi kunning lisoniy shaxs nazariyalari bilan uyg'unlikda o'rganiladi. A.Navoiy asarlaridagi "komil inson" g'oyasi so'z va ma'no butunligiga erishgan "so'z sohibi" timsoli bilan uzviy bog'liqlikda asoslanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, inson va til, lisoniy shaxs, nutq odobi, so'z qadri, muloqot madaniyati, Mahbub ul-qulub, komil inson, so'z sohibi, etnomadaniy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье с антропоцентрической точки зрения анализируется взаимосвязь между человеком и языком в произведениях Алишера Навои. Способ проявления духовного и нравственного характера человека в его речи демонстрируется на примерах стихотворений «Махбуб уль-клуб» и «Хамса».

В исследовании рассматриваются взгляды Навои на речевой этикет, ценность слова и культуру речи в сопоставлении с современными теориями лингвистической личности. Концепция «идеального человека» в произведениях А. Навои основана на неразрывной связи с фигурой «мастера слов», достигшего единства слова и смысла.

Ключевые слова: Алишер Навои, человек и язык, лингвистическая личность, речевой этикет, ценность речи, культура общения, Махбуб уль-Кулуб, совершенный человек, мастер речи, этнокультурные ценности.

Annotation: *This article analyses the relationship between humans and language in the works of Alisher Navoi from an anthropocentric perspective. The way in which a person's spiritual and moral character is manifested in their speech is demonstrated using examples from the poems "Makhubul-Klub" and "Hamsa". The study examines Navoi's views on speech etiquette, the value of words and speech culture in comparison with modern theories of linguistic personality. The concept of the 'ideal person' in the works of A. Navoi is based on an inseparable connection with the figure of the 'master of words' who has achieved unity of word and meaning.*

Keywords: *Alisher Navoi, man and language, linguistic personality, speech etiquette, value of speech, culture of communication, Makhubul ul-Kulub, perfect man, master of speech, ethnocultural values.*

Jahon tilshunosligida inson va til munosabati XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ustuvor yo'nalishga aylangan bo'lsa-da, o'zbek lisoniy tafakkurida bu qarashlar XV asrda Alisher Navoiy tomonidan mukammal falsafiy-lingvistik tizim holiga keltirilgani hech kimga sir emas. Navoiy hazratlari tilni inson mohiyatini, uning intellektual va axloqiy qiyofasini belgilovchi bosh mezon deb bilganlar. Mutaffakir bobomiz o'zining umrining so'nggi yillarida yozgan "Mahbub ul-qulub" asarida til va ko'ngil munosabatini shunday ta'riflaydi: "Ko'ngil xazinasining qulfi til va ul xazinaning kalitini so'z bil" [1, 56-b.]. Ushbu iqtibos zamonaviy psixolingvistikaning asosiy tamoyili tilning kognitiv funksiyasini mumtoz uslubda ochib beradi. Ya'ni, insonning ichki olami faqat lisoniy birliklar yordamida tashqi olamga namoyon bo'ladi.

Navoiy talqinida so'z shaxsning ma'naviy darajasini o'lchovchi lisoniy mezondir. U o'zining "Mahbub ul-qulub" asarining "So'z ta'rifida va uning odobida" nomli bobida: "So'zki, ko'ngul xazinasini durlarining manzili va ganjinasining gavharlarining maxzani erur", - deb yozadi [1, 57-b.]. Bu o'rinda hazrat Navoiy so'zni inson tafakkurining moddiylashgan shakli deb baholaydi va e'tirof etadi. Binobarin, Navoiy konsepsiyasida nutq madaniyati lisoniy shaxsning botiniy mohiyatini zohirga chiqaruvchi va uning ma'naviy qiyofasini muhrlovchi eng oliy voqelik hisoblanadi. Shunday boisdan, mutafakkir qarashlarida til insonning ma'naviy va intellektual olamini birlashtiruvchi markaziy nuqta bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon o'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs nazariyasi nafaqat g'arb metodologiyasiga, balki Navoiy asos solgan mustahkam milliy-falsafiy poydevorga ega ekanligini isbotlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida lisoniy shaxs tushunchasi shaxsning ijtimoiy maqomi va muloqot vaziyatidagi o'rni bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Shoir talqinida nutq madaniyati shaxsning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatuvchi va uning axloqiy qiyofasini ochib beruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi. Navoiy qahramonlari o'z ijtimoiy mansubligiga ko'ra tabaqalangan, o'ziga xos nutqiy strategiyalarga ega lisoniy subyektlar sanaladi. Bu borada "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod va Xusrav munozarasi ikki xil lisoniy shaxs hamda qarama-qarshi nutqiy jarayonlar to'qnashuvining yuksak namunasini tashkil etadi. Xusrav nutqi hukmronlik, takabburlik va tashqi bosimga asoslangan sotsial

tabaqalanishni ifodalasa, Farhodning javoblari soʻz ahlidin boʻlgan chinakam maʼrifat sohibiga xos lisoniy ixchamlikni namoyon etishi barobarida, muloqotdagi mantiqiy ustunlikni ham taʼminlaydi. Uning nutqida har bir soʻz tashqi bezaklardan holi boʻlib, bevosita botiniy mohiyatga, maʼno oʻzagiga yoʻnaltiriladi. Bu holat raqibning keng koʻlamli, ammo mazmunan tarqoq savollariga nisbatan pragmatik muvaffaqiyat qozonish imkonini yaratadi. Natijada, Farhodning qisqa va keskir javoblari muloqot strategiyasida raqibning kibrli lisoniy hujumlarini parchalab, soʻzning ruhiy va mantiqiy qudratini isbotlovchi asosiy vositaga aylanadi. Farhodning “Dedi: Qay dindasiz? Dedi: Ishq dindan...” [2, 189-b.] kabi loʻnda va keskir javoblari muloqotdagi adresat omilini hisobga olgan holda qoʻllangan pragmatik usul boʻlib, lisoniy shaxsning ruhiy ustunligini taʼminlaydi.

Navoiy “Mahbub ul-qulub”da jamiyatning turli qatlamlari muloqot odobini tahlil qilar ekan, har bir toifa uchun oʻziga xos nutqiy meʼyorlar zarurligini taʼkidlaydi. Xususan, voizlar nutqida mantiqiy izchillik va taʼsirchanlik, vazirlar muloqotida ehtiyotkorlik va oʻylangan mulohaza, oddiy xalq tilida esa samimiylik ustuvorlik qilishi kerakligini uqtiradi. Shoir qarashlaridagi “kimga, qachon va qanday gapirish” sanʼati bugungi kun sotsiolingvistikasidagi “muloqot kompetensiyasi” tushunchasi bilan toʻla hamohanglik kasb etadi.

Alisher Navoiyning nutqiy odob konsepsiyasi zamonaviy muloqot etikasi va sotsiolingvistik tabaqalanish nazariyalari uchun fundamental asos boʻlib xizmat qiladi. Shoir asarlaridagi nutqiy vaziyatlar shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasini yaratishda lisoniy vositalarning naqadar muhimligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Buyuk mutafakkir ijodida lisoniy shaxs masalasi oʻzining mantiqiy choʻqqisini “komil inson” va “soʻz sohibi” tushunchalarining uzviy birligida namoyon etadi. Shoir talqinida til va dil birligi komil lisoniy shaxsning eng oliy darajasi sanaladi. Mutafakkirning soʻnggi falsafiy xulosalari jamlangan “Lison ut-tayr” asarida qushlarning ramziy nutqlari orqali insonning ruhiy kamoloti uning lisoniy masʼuliyati bilan barobar oʻsib borishi mahorat bilan koʻrsatib beriladi.

Navoiy asarlarida markaziy oʻrin tutadigan “soʻz sohibi” fenomeni oʻzida yuksak masʼuliyat, rostgoʻylik va kamtarinlikni mujassam qiladi. Shoir nazdida haqiqiy soʻz sohibi oʻz nutqining har bir birligi uchun maʼnaviy javobgarlikni his qiladigan, soʻzning ichki quvvatini anglaydigan shaxsdir. Shu bois mutafakkir nutqdagi ixtiyorsizlikdan, yaʼni oʻylanmay aytilgan soʻzning shaxs taqdiriga salbiy taʼsiridan qattiq ogohlantiradi. Zero, tilga ixtiyorsizlik el orasidagi eʼtiborsizlikka, shaxsiyatning inqiroziga olib kelishi muqarrar haqiqat sifatida talqin etiladi.

Navoiyning lisoniy shaxs haqidagi taʼlimoti oʻz mohiyati bilan bugungi kun yoshlari nutq madaniyatini yuksaltirishda fundamental milliy asos vazifasini oʻtaydi. Shoir ilgari surgan til va dil muvozanati, soʻzning muqaddasligi va muloqot odobi kabi qadriyatlar zamonaviy jamiyatning maʼnaviy-lisoniy qiyofasini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy merosi lisoniy shaxsni nafaqat til tizimini egallagan subyekt, balki soʻz vositasida olamni isloh qiluvchi maʼnaviy kuch sifatida anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд: Махбуб ул-кулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – 312 б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 8-жилд: Фарход ва Ширин. – Тошкент: Фан, 1991. – 236-бет.
3. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 264 с.

4. Малаев, Н. М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 529-530.
5. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – 696 с.

TARIX FANINI O'QITISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

*Haydarov Yuldash,
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlaridan foydalanib tarix fanidan o'qitishning dolzarb masalalari va uning bugungi kundagi ahamiyati bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarix, ta'lim, tarbiya, yondashuv, ma'naviyat, madaniy meros, davlat, adolat, jamiyat, fuqarolik jamiyati/huquqiy davlat, Yangi O'zbekiston*

Аннотация: *В данной статье на основе произведений Алишера Навои освещаются актуальные вопросы преподавания истории и их значение в современный период.*

Ключевые слова: *история, образование, воспитание, подход, духовность, культурное наследие, государство, справедливость, общество, гражданское общество, правовое государство, Новый Узбекистан.*

Annotation/Abstract: *This article describes the current issues of teaching history based on the works of Alisher Navoi and their significance in the present day.*

Keywords: *history, education, upbringing, approach, spirituality, cultural heritage, state, justice, society, civil society / rule of law, New Uzbekistan.*

Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta'lim va tarbiya bo'lgan hozirgi kunda yosh avlod ongi va qalbiga buyuk allomalarimizning yaratgan boy ma'naviy merosni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotdagi va insonlar tafakkuridagi o'zgarishlar taraqqiyotning yangilanishi va modernizatsiya qilinishi, zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish buyuk allomalarimizning boy ma'naviy merosini o'rganishni ham taqozo etadi. Bu borada Ikkinchi Renessans davrining buyuk allomasi Mir Alisher Navoiyning ham o'ziga xos o'rni bor. U inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat darajasiga ko'tariluvchi insonparvar, xalqparvar davlatning tarafdori edi. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "...Xalqimizning ongi va qalbidan mustahkam o'rin olib, umummilliy harakat darajasiga ko'tarilgan Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etish g'oyalari buyuk ajdodlarimizning ham orzu-intilishlarini o'zida mujassam qilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi."(1.33)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda buyuk shoir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning tarix faniga oid qarashlarini bayon qilish o'quvchilarni tarixiy voqealarni puxta o'rganish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatida buyuk allomalarning merosini o'rganish, ayniqsa Alisher Navoiy va Amir Temurning tavallud kunlarini tantanali nishonlash haqida fikr yuritar ekanlar, ularning boy ma'naviy merosini yosh avlod ongi va qalbiga singdirishni ham e'tiborga olgan edilar. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi haqida fikr yuritar ekanmiz, uni tarix va adabiyot tutashgan nuqtada turgan siymo sifatida anglamog'imiz kerak. Alisher Navoiy Temuriylar davri tarixini atroflicha yoritgan buyuk tarixchi sifatida qadrlanadi. Uning ko'plab asarlari tarixiy mazmunga ega bo'lib, uning ayrim qirralarini atroflicha tahlil etishga bag'ishlangan. "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi anbiyo va

hukamo” (Payg‘ambarlar va donishmandlar tarixi yoritilgan), “Xamsa”, “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlari tarixning muhim masalalariga bag‘ishlangan.

“Tarixi mulki Ajam”da Markaziy Osiyo va qo‘shni davlatlar tarixi yoritilgan bo‘lsa, “Mahbub ul-qulub” da jamiyatdagi turli tabaqalar (dehqon, hunarmand, savdogar, olimu-ulamolar) haqida fikr yuritib, ularni jamiyatning tayanchi sifatida ta’riflaydi. Shuningdek ushbu asarda mansabdorlarning burchi va javobgarligini ochiq bayon qiladi. U jamiyatni turli ijtimoiy qatlamlardan tashkil topgan yagona tizim deb hisoblaydi. Uning fikricha, jamiyat sog‘lom bo‘lishi uchun uning har bir a’zosi axloqan pok bo‘lmog‘ini ta’kidlaydi. “Saddi Iskandariy” dostonida adolatli hukmdor haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Uning fikricha adolat davlat boshqaruvi asosi, adolatli hukmdor esa xalq bilan birga yashovchi ilm ahliga homiylik qiluvchi, zolimlikdan yiroq inson bo‘lmog‘i kerak.

Alisher Navoiy ilm-ma’rifatni tarixni oldinga siljituvchi kuch sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham ilm ahliga hamisha homiylik qilgan.

Tarixchi olim Akbar Zamonovning ta’kidlashicha: “U Mir sifatida shunday jiddu jahd ko‘rsatdiki, natijada katta boylik to‘plandi, dehqonchilikdan va boshqa taraflardan tushgan kunlik daromad o‘n sakkiz ming shohruxiyini tashkil etgan. U qudrati yetganча muhtojlarga, olimu fozillarga homiylik qildi. “(2.52) Ko‘rinib turibdiki, o‘sha davr tarixchilari ham bunday homiylikdan bahramand bo‘lganlar. Alisher Navoiyning tarix fani o‘rganish borasidagi o‘ziga xos ko‘rsatmalari bugungi kunda ham tarix fanini o‘rganish uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi, ular quyidagilar:

1. Alisher Navoiy tarixni ibrat manbai sifatida talqin qiladi.
2. Tarixni oddiy voqealar ketma-ketligi sifatida emas, inson tarbiyasi va jamiyat taraqqiyoti vositasi sifatida o‘rganishni tavsiya qiladi.
3. Tarixni sabab va oqibat kategoriyasi asosida tahlil qilishni muhim deb hisoblaydi.
4. Tarixda tahlil qilish, qaror qabul qilish va yakuniy xulosa chiqarish tamoyillarini ustuvor bo‘lishini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning fikricha, agar davlat adolatli bo‘lsa, jamiyatda tinchlik bo‘ladi, ilm –fan rivojlanadi, xalq farovon yashaydi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqat shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, vaqtni-imkoniyatga, imkoniyatni-yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq-buyuk xalqdir.

Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, ko‘zlagan murod-maqсадlariga, albatta erishadi.”(3.3)

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, buyuk allomalarimizning ma’naviy merosi ham ko‘zlagan murod –maqсадlarimizga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda Alisher Navoiyning tarixiy asarlaridan foydalanish o‘sha davr tarixiy voqea va hodisalarining haqiqiy manzarasini anglab yetishga ko‘maklashadi.

Buyuk alloma Alisher Navoiyning tarix fani haqidagi fikrlari bugungi huquqiy va adolatli davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy mas’uliyat kabi tushunchalar bilan mushtarakdir va uning g‘oyalari Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaati. 2025-yil, 27-dekabr
2. Shavkat Mirziyoyev .Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston.T,2024,3,33-betlar

3. Akbar Zamonov. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari Toshkent 2019, 52-bet

MAKTAB O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH VA KASBIY RIVOJLANISHIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Maqolada maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va ularning kasbiy rivojlanishiga zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida noformal ta'limning tamoyillari, uzluksiz kasbiy rivojlanish, motivatsiya va mentoring kabi mexanizmlar pedagoglarning kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatildi. Shuningdek, ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va o'zbek hamda xorijiy olimlarning yondashuvlari asosida pedagogik malakani oshirish metodologiyasi va amaliy tavsiyalar taqdim etildi. Maqola zamonaviy maktab pedagogikasida o'qituvchilar kasbiy o'sishi va ta'lim sifatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, kasbiy rivojlanish, noformal ta'lim, uzluksiz malaka oshirish, mentoring, o'qituvchi kompetensiyasi

Kirish. Bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining pedagogik mahorati ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat fan bilimlari, balki pedagogik va psixologik yondashuvlarni puxta egallagan o'qituvchi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini belgilovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi bilim beruvchi shaxs bilangina cheklanmay, balki o'quvchilarning shaxsiy rivoji, mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi yetakchi subyekt sifatida maydonga chiqmoqda. Bu holat pedagogik mahoratni metodik, kommunikativ, psixologik hamda innovatsion kompetensiyalar majmui sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbari — Shavkat Mirziyoyev ushbu fikrlarni **2020-yil 30-sentabr kuni Toshkent shahrida O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida** ta'kidlaganidek, "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi." Mazkur fikrlar o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish davlat taraqqiyotining muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim sharoitida pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Metodologiya. Abu Nasr Forobiy "Ikkinchi Ustoz" asarida aytganidek, "Ta'lim — bu insonning aqlini, axloqini va ruhini kamolga yetkazish jarayonidir; ta'lim orqali shaxs jamiyat hayotiga samarali hissa qo'shadigan, bilimli, mantiqiy fikrlay oladigan va axloqiy qadriyatlarni qadrlaydigan fuqaroga aylanadi." Forobiy pedagogik kompetensiyani shunchaki bilim berish emas, balki shaxsning to'laqonli rivojlanishi jarayoni sifatida qaraydi. Bu zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik mahoratini keng ko'lamda talqin etish bilan uzviy bog'liqdir.

Abu Rayhon Beruniy ham “Haqiqiy bilim — bu shunchaki fakti yodlash emas, balki uni anglash, tahlil qila bilish hamda uni amaliyotga tatbiq etish san’atidir.” O’qituvchi nafaqat faktlarni o’rgatishi, balki o’quvchilarga fikrlash usullarini o’rgatishi zarurligini ta’kidlaydi. Bu pedagogik mahoratning zamonaviy yondashuvidagi asosiy element — ta’limni trans-discipliner ravishda tashkil etish bilan bog’liq.

Moturidiy ta’kidganidek “O’rganish — bu insonning aqliy faoliyatini chuqur tushunish va uni hayotga tatbiq etish yo’lidir; shuning uchun o’qituvchi bilimni tushuntirib berishdan tashqari uni qo’llash yo’llarini ham ko’rsatishi lozim.” Ta’lim jarayonida o’rganilgan bilimni amaliyotga tatbiq etish zarurati pedagogik kompetensiyaning markaziy komponenti ekanini ko’rsatadi.

Yusuf Xos Hojib “Bilimli bo’lish — bu faqat bilimga ega bo’lish emas; balki uni boshqalarga yetkazish va boshqalarning ongini boyitish san’atini egallashdir.” O’qituvchilarning kommunikativ va pedagogik ko’nikmalari muhimligini zamon qadriyatlari bilan uyg’un yoritadi.

Abu Hamid al-Gazzoliy “O’qituvchi — bu faqat ilm manbaiga yo’l ko’rsatuvchi emas, balki o’quvchi qalbini ochuvchi, uning ichki motivatsiyasini uyg’otuvchi va uni o’ziga ishonch bilan boyituvchi rahbardir.” Motivatsiya, shaxsiy o’sish va didaktik strategiya — bularning barchasi zamonaviy pedagogik mahorat konsepsiyasining ajralmas qismidir. [1, 86-b]

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda kompetensiyaviy yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari N.Azizxodjayeva, R.Jo’rayev, O.Musurmonova, X.Ibragimov, M.Quronov, N.Shodiyev, M.Mahmudova, N.Egamberdiyeva, Sh.Sharipov, M.Urazova, O. Jamoldinova, B.Xodjayev, Z.Saliyeva, K.Riskulova, M.Mirsoliyeva, Sh.Urakov, M.Pardayevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Aydagulova, A.Ashanin, N.Beylina, N.Boritko, A.Verbitskiy, A.Voronin, E.Zeyer, T.Ivanayskaya, V.Kirillova, S.Kunitsina, Y.Kustov, Y.Livshits, O.Togushova, D.Xorvatlar tomonidan tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga metodik kompetentlikning ilmiy-pedagogik, psixologik asoslari o’rganilgan.

Xorijlik olimlardan K.Dyrli, F.Koenen, R.Land, R.Shavelson (P.Шавелсон), H.Rheingold (Г.Рейнгольд), S.Reid (С.Рейд), H.Spencer-Oatey (Г.Спенсер-Оатей)lar tomonidan oliy ta’lim jarayoniga kompetent yondashuvni joriy etishning fenomenologik tahlili hamda nazariy-metodologik jihatlari yoritib berilgan.

Jamiyatning bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimlarining yangi modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Mazkur modellar zamon talablari bilan uyg’un bo’lishi, uzluksiz xarakter kasb etishi hamda umumta’lim maktabi oldiga qo’yilayotgan yangi ta’limiy maqsadlarga mos kelishi zarur. Bu holat, o’z navbatida, shaxslarning turli shakllarda va bir necha marotaba ta’lim jarayoniga qayta jalb etilishini nazarda tutadi. Tadqiqotchi E.L. Frumina ta’kidlaganidek, yangi bilimlar va kompetensiyalarni egallash jarayonida an’anaviy, chiziqli tuzilgan formal ta’limdan ko’ra, noformal ta’lim yetakchi ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda uzluksiz ta’lim olish g’oyasi tobora ko’proq informallashtirilgan mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. [8, 32-b]

Ushbu mexanizmlar amalda shaxsning mustaqil ta'lim olishi (o'z-o'zini rivojlantirishi) vositalari sifatida faoliyat yuritmoqda hamda ta'lim jarayonining individuallashtirilishi va moslashuvchanligini ta'minlamoqda.

Ta'lim sohasidagi umumiy strategik yo'nalish sifatida **“uzluksiz ta'lim”** konsepsiyasi qaror topmoqda. Ushbu strategiya o'quv faoliyatini modernizatsiya qilishni, ta'lim jarayoniga amaliy yo'naltirilganlik xususiyatini berishni (ya'ni ta'lim shaxsning qarashlari va xulq-atvor modellarini o'zgartirishi lozimligini), shuningdek, bilimlarning ommaviyligi va shaxsga maksimal darajada yaqinlashtirilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, mazkur strategiya ta'lim jarayoniga jalb etilayotgan shaxslarning yosh chegaralarini kengaytirishni, ya'ni nafaqat yoshlar, balki voyaga yetgan aholining ham ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Maktab o'qituvchilari pedagogik mahoratini oshirish va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. S.G. Vershlovskiy tadqiqotlariga ko'ra, sobiq Sovet davrida kattalar ta'limi rivojlanishida hayotiy tajribaga asoslangan yondashuv asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan bo'lib, bu prinsip o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni pedagoglarning malakasi nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy tajriba va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish orqali shakllantiriladi. [10, 76-b]

Shuningdek, **uzluksiz ta'lim konsepsiyasi** o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. Bu jarayon quyidagi zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi:

1. **Kasbiy kompetensiyaga bo'lgan talabning ortishi** – o'qituvchi nafaqat fan bilimiga ega bo'lishi, balki pedagogik va psixologik yondashuvlarni bilishi, innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llay olishi kerak. Bu ularning raqobatbardoshligini oshiradi va kasbiy identifikatsiya inqirozlarini yengishga yordam beradi.

2. **Sotsiomadaniy muhitga moslashish** – migratsiya jarayonlari, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, yangi texnologiyalarni joriy etish kabi sharoitlarda pedagoglar doimiy ravishda o'z mahoratini yangilashi va o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ish yuritishi zarur.

3. **Shaxsiy va axloqiy rivojlanishga urg'u** – o'qituvchi nafaqat bilim uzatuvchi, balki o'quvchilarning axloqiy, ma'naviy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi yetakchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Milliy an'ana va qadriyatlarni, ona tiliga hurmatni uyg'un tarzda ta'lim jarayoniga kiritish pedagogik mahoratning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. **Himoyalovchi va qo'llab-quvvatlovchi rol** – ijtimoiy o'zgarishlar, xavotirlik va psixologik zaiflik sharoitida o'qituvchi pedagogik jarayonda o'quvchilarning ruhiy barqarorligi, o'zini anglashi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydigan himoyalovchi funksiyani ham bajarishi muhimdir. [3, 69-b]

Shu nuqtai nazardan, **maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va kasbiy rivojlantirish** tizimi, S.G. Vershlovskiy fikrlariga mos ravishda, uzluksiz, amaliy va shaxsiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilishi lozim. Bu esa nafaqat pedagoglarning kasbiy darajasini oshiradi, balki ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlash va yangi avlodning kompetent va ijtimoiy moslashuvchan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Bilimlar jamiyati tomonidan qo'yilayotgan yangi talablar hamda ta'lim sohasida kechayotgan modernizatsiya jarayonlari pedagog kadrlar kasbiy professionalizmi darajasiga nisbatan yanada yuqori mezonlarni belgilamoqda. Shu bois, kattalar bilan ishlovchi, hamkorlikka yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda andragog faoliyatining funksional xususiyatlari

yangi terminlar orqali ifodalanmoqda va bu terminlar mazkur faoliyat turining o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Jumladan, quyidagi rollar ajratib ko'rsatiladi:

—**tyutor** – malaka oshirish tizimida individual ta'lim dasturlarini loyihalash va ularni amalga oshirish jarayonini pedagogik jihatdan kuzatib boruvchi mutaxassis;

—**fasilitator** – kattalarning yangi bilimlarni egallash jarayonini yengillashtiruvchi va o'quv muhitini qulay tashkil etuvchi shaxs;

—**moderator** – konsultant sifatida faoliyat yuritib, kattalar guruhining ichki resurslarini dolzarb (xususan, kasbiy) muammolarni hal etishga yo'naltiruvchi mutaxassis.

Kattalar bilan ishlovchi o'qituvchi andragogik kompetentlikka ega bo'lishi lozim. Xususan, u kattalar ta'limining psixologik-pedagogik xususiyatlarini bilishi, kattani ta'lim faoliyatining faol subyekti sifatida tan olishi, kattalar pozitsiyasiga mos keluvchi ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishi hamda hamkorlik va sheriklikka asoslangan o'zaro munosabatlarni amalga oshira bilishi zarur.

Shuningdek, S.G.Vershlovskiy ta'kidlaganidek, pedagoglar o'z kasbiy faoliyatida andragogik yondashuv prinsiplari asosida quyidagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

- o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini va kasbiy moslashuvchanligini doimiy ravishda oshirish;

- ta'lim jarayonida yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy va pedagogik o'zgarishlarni anglash va ularga moslashish;

- shaxsning o'z professional imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va kasbiy o'sish motivatsiyasini rivojlantirish;

- pedagogik jarayonning uzluksiz, rivojlanish va takomillashuvga yo'naltirilgan xarakterini tushunish va amalda qo'llash. [10, 42-b]

Ushbu yondashuvlar maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish va ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirishda nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi.

Natijalar. Pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va ularning professional kompetensiyasini oshirish jarayonida noformal ta'limning tamoyillari muhim o'rin tutadi. **Ta'limni ehtiyojlarga yo'naltirish tamoyili** o'qituvchilarning malaka oshirish dasturlari va kurslarining mazmuni avvalo ularning dolzarb ehtiyojlariga mos bo'lishini talab qiladi. Shu tamoyilni amaliyotga tatbiq etishda tajribali andragog malaka oshirish kursi boshlanishidan oldin o'qituvchilarning o'qishga bo'lgan motivlarini, maqsadlarini va ilgari o'z-o'zini ta'lim orqali rivojlantirish tajribasini aniqlaydi.

Ta'limning amaliyot bilan uzviy bog'liqligi tamoyili pedagoglarning hayotiy va ish joyidagi ko'nikmalarini rivojlantirishga, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga hamda o'z tajribasini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashga yo'naltirilgan. Shu jihatdan ish joyida murabbiylik texnologiyasi ("faoliyatdan bilimga") samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv pedagoglarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish va mustahkamlash muammosini hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Ta'limning o'quvchilarning faolligi bilan bog'liqligi tamoyili real hayotiy vaziyatlarga tayanish va yechim talab qiladigan dolzarb pedagogik muammolarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida dastur mazmunining ahamiyatini tushuntirishdan boshlash tavsiya etiladi. Auditoriya faoliyati yetarli bo'lmasa, noformal ta'lim jarayoni odatda endigina boshlangan paytidayoq samaradorligini yo'qotadi. Buni bartaraf etish uchun bilimlarni shakllantirish va

uzatishning maxsus metodlari qo'llanadi, o'qitish jarayoni esa amaliy faoliyat bilan boyitiladi.

Malaka oshirish tizimida turli modellar qo'llaniladi. Jumladan, P. Jackson tomonidan ishlab chiqilgan **“defitsit modeli”** o'qituvchilarning kasbiy qiyinchiliklarini hisobga olgan holda individual malaka oshirish dasturlarini tuzish imkonini beradi. Ushbu model asosida o'qituvchiga aynan yetishmayotgan, biroq muayyan vaziyatda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar beriladi. Pedagog professionalizmi bosqichma-bosqich, ya'ni bir “defitsit”dan boshqasiga, bir malaka oshirish kursidan keyingisiga o'tish orqali rivojlanadi.

So'nggi yillarda pedagoglarning kasbiy rivojlanishida **“mentoring”** – tajribali hamkasblar yoki ekspertlar tomonidan ish joyida maslahat berish g'oyasi keng qo'llanilmoqda. Bu tushuncha an'anaviy “murabbiylik” terminiga yaqin bo'lsa-da, yanada tizimli va rejalashtirilgan hamkorlikni nazarda tutadi. Mentoring orqali tayyor mutaxassislar ish jarayonida kasbiy faoliyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda malaka oshirishga urg'u beriladi va uzluksiz kasbiy rivojlanish resurslaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu tamoyillar va zamonaviy yondashuvlar maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va ularni kasbiy jihatdan barqaror rivojlantirishning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

Tahlil va muhokama. S.Sugru uzluksiz kasbiy rivojlanishni formal, noformal va informal ta'lim shakllarining integratsiyasi sifatida talqin qiladi (1-jadval).

1-jadval

Formal, noformal va informal ta'limning integratsiyasi

| Formal ta'lim | Noformal ta'lim | Informal ta'lim |
|--|--|---|
| Universitet o'qituvchilari, ekspertlar va fasilitatorlar ishtirok etadigan kurslar. O'qish yakunida ilmiy daraja, diplom yoki sertifikat beriladi. | Ta'lim jarayoniga yo'naltirilganlik, izlanishga urg'u berish, maktabga yo'naltirilganlik. Maktab va universitet o'rtasidagi hamkorlik. Umumiy qiziqishlar, fanlar va innovatsiyalar bo'yicha tarmoqlar. Amaliyotchilar hamjamiyatlari. Ta'lim jarayoniga yo'naltirilganlik, izlanishga urg'u berish, maktabga yo'naltirilganlik. Maktab va universitet hamkorligi. Umumiy qiziqishlar, fanlar va innovatsiyalar bo'yicha tarmoqlar. Amaliyotchilar hamjamiyatlari. | Individual va shaxsiy xarakterga ega. Quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qituvchilar xonasidagi suhbatlar, bir martalik ma'ruzalar, oilada va do'stlar bilan muloqot, ixtisoslashgan jurnallarni o'qish, televideniye va video materiallar. Rejalashtirilmagan, tasodifiy suhbatlar, hobbi va qiziqishlar. |

Masalan, OECDga a'zo mamlakatlarda har bir o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlariga doimiy asosda jalb etish vazifasi izchil ravishda amalga oshirilmoqda.

Xulosa va tavsiyalar. Pedagog kadrlar malakasini oshirish sohasida bir qator ijobiy tendensiyalar shakllanayotganini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, tarmoq (onlayn va oflayn) pedagogik hamjamiyatlarning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hududiy koordinatorlar faoliyati kengayib, ularning asosiy funksiyalariga o'qituvchilarga maslahat (konsultativ) yordam ko'rsatish, yangi ishtirokchilarni jalb etish orqali professional hamjamiyatni kengaytirish kiradi.

Shuningdek, hozirgi paytda malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan o'qituvchilarning loyihaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, pedagoglarni qiziqtirgan dolzarb muammolar bo'yicha noformal uchrashuvlar (seminarlar) tashkil etish, shuningdek, yangiliklar, metodik ishlanmalar va metodik adabiyotlar bilan tizimli almashinuvni yo'lga qo'yish jarayoni tobora faollashib bormoqda. Mazkur yo'nalishlar pedagoglarning kasbiy o'sishini ta'minlash, ularning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish hamda uzluksiz professional rivojlanish muhitini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmedov, B. R. (2018). Pedagogik mahorat nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Guliyeva, N. S., & Tursunova, D. M. (2020). O'qituvchining pedagogic kompetensiyalari va ularni shakllantirish yo'llari. Pedagogika va psixologiya, 4(2), 45-52. V SON May, 2025.30
3. Kozlov, V. V. (2016). Pedagogik mahorat: kontseptual yondashuvlar. Moskva: Prosveshchenie.
4. Mukhamedov, I. K. (2019). Zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratning ro'li. Xalq ta'limi, 6, 15-21.
5. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. *Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari*. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 b.
6. Ismailov A.A., Daminov X.J., Kosimova Z.A., Pirimov G.A. Kreativ fikrlashni baholash (PISA 2022 o'quvchilarni kreativ fikrlashlarini baholash bo'yicha qo'llanma). Qo'llanman. – T. 2021. – 95 b. <https://www.tsbm.uz/uploads/docs/e56ef0506d1cbf53486d63fe2e4507db.pdf>
7. UNESCO. (2015). Teacher competencies and professional development. UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000234891>
8. Frumina, E.L. *Nepreryvnoe obrazovanie dlya pedagogov: modeli i osobennosti* [E/r]. – R/d:<http://www.isras.ru>
9. Vershlovskiy, S.G. *Obrazovanie vzroslykh v Rossii: voprosy teorii* [E/r]. – R/d: <http://www.znanie.org/>
10. *Rabochaya kniga andragoga / pod red. S.G. Vershlovskogo*. – SPb., 1998
11. Tojiboyeva G.R., Pulatova D.T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot // Academic research in educational sciences. Volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385. – B. 209-215. <https://cyberleninka.ru/article>

INTERAKTIV METODLAR VA AXBOROT-KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI

*Kushanova D.U.,
Rahmanova D.A.,*

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada interaktiv metodlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foylanib ta'lim tizimini samarali tashkil etish va Blum taksonomiyasi asosida o'quvchilarda konginitiv fikrlashni rivojlantirish haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: "Klaster", "Debat", "Blum", "Wordvall", "Skywork"

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun nafaqat an'anaviy metodlardan, balki interaktiv usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) keng foydalanish zarurati tug'ilmoqda. Interaktiv metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, AKT ta'lim jarayonini vizual, qulay va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ularning integratsiyasi esa ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Darslarni sifatli va samarali tashkil etishda interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faol fikrlashga, muhokama qilishga, mustaqil xulosa chiqarishga undovchi ta'lim usullaridir. Ushbu metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida hamkorlik muhitini yaratadi.

Mashg'ulotlarni olib borish jarayonida o'quvchilarning mavzuni mustahkamlash va mustaqil o'rganishi uchun "Klaster" dan foydalanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda "Debat" tashkil etish yaxshi natija beradi.

O'quvchilarning kognitiv fikrlashni rivojlantirish Blum taksonomiyasining o'rni yuqori. Blum taksonomiyasi bu o'qituvchi va o'quvchilarga o'quv maqsadlarini aniq belgilash, tasniflash va bosqichma-bosqich tartibga solishda yordam beradigan metodik vositalar tizimidir.

Darsda o'quvchilarini fan materiallari bilan mustahkam bog'lanishlar hosil qilishiga yordam berishda Blum taksonomiyasida belgilangan kognitiv fikrlashning oltita darajasining barchasidan foydalanish muhim.

Quyi darajadagi fikrlash savollari o'quvchilarni bilimni eslab qolish, tushunish va qo'llashga undaydi. Bu esa yuqori darajadagi fikrlash savollari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yuqori darajadagi savollar o'quvchilarni tahlil qilish, baholash va yaratishga chorlaydi.

Quyi darajadagi fikrlash ko'nikmalari savollari:

- Bilish – eslab qolish, yodlash;
- Tushunish – izohlash, tushuntirish;
- Qo'llash – o'rganilgan bilimni oddiy vaziyatda ishlatish.

Masalan: ta'rifni aytib berish, formulani qo'llash, matnni qayta hikoyalash.

Yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari savollari:

- Tahlil – solishtirish, sabab-oqibatni aniqlash;
- Baholash – fikr bildirish, xulosa chiqarish;
- Yaratish – yangi g'oya, loyiha yoki yechim ishlab chiqish.

Masalan: muammoni tahlil qilish, fikrni asoslab baholash, yangi reja tuzish.

Yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari. Tahlil qilish, baholash va ijodiy fikrlashni talab qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. AKT – bu ta'lim jarayonida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatishga xizmat qiluvchi texnologiyalar majmuasidir. Darslarda turli xildagi o'yinlarni tayyorlashda va o'quvchilar bilan ishlashda "Wordvall", "Skywork" kabi dasturlardan foydalanish juda qiziqarli. Bugungi kunda quyidagi vositalar keng qo'llanilmoqda:

- Kompyuter va planshetlar
- Interaktiv doskalar
- Multimedia taqdimotlari
- Onlayn platformalar (Google Classroom, Moodle)
- Videokonferensiya vositalari (Zoom, Microsoft Teams)

AKT o'quv materialini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish, masofaviy ta'limni tashkil etish, bilimni nazorat qilish va tahlil qilish imkonini beradi. Interaktiv metodlar va AKTni birgalikda qo'llash quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

1. O'quvchilarning faolligi oshadi – multimedia va interaktiv topshiriqlar qiziqishni kuchaytiradi.
2. Ta'lim jarayoni samaradorligi ortadi – vizual va audio materiallar mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
3. Individual yondashuv ta'minlanadi – onlayn platformalar orqali har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini kuzatish mumkin.
4. Mustaqil ta'lim rivojlanadi – o'quvchilar qo'shimcha manbalardan mustaqil foydalanadi.
5. Vaqt tejaladi va nazorat tizimi avtomatlashtiriladi – test va topshiriqlarni avtomatik tekshirish imkoniyati mavjud.

Masalan, "Aqliy hujum" metodini interaktiv doska yoki onlayn platforma orqali tashkil etish o'quvchilarning bir vaqtning o'zida fikr bildirishiga imkon beradi. Shuningdek, "Debat" metodini videokonferensiya orqali o'tkazish masofaviy sharoitda ham samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. U ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va innovatsion shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Kelajak ta'limi aynan raqamli texnologiyalar va interaktiv yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi. Shu bois pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni puxta egallab, ularni interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov T., Xolov A. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti, 2019.
2. Jumanazarov S. Ta'limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2023.
3. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
4. Qodirov X. O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. Toshkent: Akademiya, 2021.

ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI

*Ravshanova Orzigul Sayfullayevna,
Navoiy viloyati PMM katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, ayniqsa "Muhokamat ul-lug'atayn" asari asosida tahlil qilinadi. Shoirning turkiy til boyligi, uning ifoda imkoniyatlari, so'z va ma'no munosabati, nutq madaniyati hamda til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi fikrlari yoritiladi. Navoiy o'z asarlari orqali turkiy tilning mustaqil adabiy til sifatida shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan mutafakkir sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, turkiy til, fors tili, "Muhokamat ul-lug'atayn", leksik boylik, nutq madaniyati, balog'at.

Asrlar osha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan Navoiy ijodi bugun ham insonni komillikka, ezgulikka va vatanparvarlikka chorlab kelmoqda. U turkiy xalqlarning ma'naviy taraqqiyotida beqiyos o'rin tutgan ulug' siymodir. Navoiy o'z davridayoq

nafaqat iste'dodli shoir, balki yirik davlat arbobi, olim va xalqparvar inson sifatida tanilgan. Uning butun faoliyati inson qadrini ulug'lash, adolat va haqiqatni qaror toptirishga qaratilgan edi.

Navoiy ijodining eng muhim jihati shundaki, u o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida turkiy tilda yuksak badiiy asarlar yaratdi. "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" kabi durdona asarlar Sharq adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi. Ayniqsa, "Xamsa" turkumiga kirgan dostonlar orqali Navoiy insoniy fazilatlar, muhabbat, adolat va ma'rifat g'oyalarini chuqur falsafiy mazmunda yoritib berdi.

XV asrda yashab ijod qilgan Navoiy turkiy tilning ijtimoiy-madaniy mavqeini mustahkamlash, uning boy va imkoniyatlarga ega til ekanini ilmiy asoslash yo'lida ulkan ishlar amalga oshirdi.

O'sha davrda ilm-fan va adabiyot asosan fors tilida olib borilgan bir paytda Navoiy turkiy tilda yuksak badiiy asarlar yaratdi va bu tilning ham fors tili kabi mukammal adabiy til bo'la olishini amalda isbotladi. Uning tilshunoslikka doir qarashlari, asosan, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'z ifodasini topgan. 1499-yilda yozilgan "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asari Navoiy tilshunoslik qarashlarining asosiy manbai hisoblanadi. Mazkur asarda shoir turkiy va fors tillarini qiyosiy tahlil qiladi.

Navoiy asarni yozishdan ko'zlagan asosiy maqsad — turkiy tilning kamsitilishiga barham berish va uning boy hamda ifoda imkoniyatlari keng til ekanini ko'rsatishdir. U fors tilining adabiyot va ilm tiliga aylanganini inkor etmaydi, biroq turkiy tilning ham undan kam emasligini dalillar bilan isbotlaydi. Asarda Navoiy turkiy tilning so'z boyligini, sinonimlarga boyligini, so'z yasash imkoniyatlarining kengligini, ma'no nozikliklarini ifodalashdagi ustunligini aniq misollar orqali ko'rsatadi. Bu jihatdan "Muhokamat ul-lug'atayn"ni turkiy tilning ilk qiyosiy-ilmiy tadqiqoti deyish mumkin. Navoiy turkiy tilning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida uning leksik boyligini alohida ta'kidlaydi. U birgina harakat yoki holatni ifodalash uchun turkiy tilda bir necha o'nlab so'z mavjudligini misollar bilan ko'rsatadi. Masalan, yig'lash, kulish, yurish, qarash kabi oddiy harakatlarning turli nozik ma'nolarini ifodalovchi ko'plab fe'llar mavjudligini sanab o'tadi. Bu orqali shoir turkiy tilning tasviriy va emotsional imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini isbotlaydi. Uning fikricha, til boyligi millat tafakkuri va ma'naviy darajasining ko'rsatkichidir. Shuning uchun ham u turkiy tilni rivojlantirishni milliy iftixor masalasi sifatida ko'radi.

Navoiy tilshunoslik qarashlarida so'z va ma'no masalasiga katta e'tibor beradi. Uningcha, so'z — ma'no gavharini ifodalovchi qobiqdir. Agar so'z o'rinli va maqsadga muvofiq qo'llansa, ma'no to'la namoyon bo'ladi. Shoir ortiqcha, mazmunsiz yoki o'rinsiz ishlatilgan so'zlarni tanqid qiladi. U nutqda aniqlik, lo'ndalik, ma'nodorlik bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar Navoiy ijodida amaliy jihatdan ham namoyon bo'ladi. Uning asarlari tilining ravonligi, musiqiyliigi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Navoiy tilni inson tafakkuri bilan chambarchas bog'laydi. Uning fikricha, til insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini va ma'naviy kamolotini aks ettiradi.

Tilning boyligi — fikrning boyligi demakdir. Agar til imkoniyatlari keng bo'lsa, inson murakkab va nozik fikrlarni ham aniq ifodalay oladi. Shu bois Navoiy tilni rivojlantirishni ma'naviy taraqqiyot bilan bog'laydi. U turkiy tilda yuksak badiiy asarlar yaratish orqali milliy tafakkurning yuksalishiga xizmat qiladi.

Navoiy o'z asarlarida nutq madaniyatiga katta e'tibor beradi. U fasohat (ravonlik) va balog'at (badiiy yetuklik) tushunchalarini mukammal qo'llaydi. Shoirning fikricha: so'z o'z o'rnida ishlatilishi kerak; ortiqcha bezak nutqni og'irlashtiradi; mazmun va shakl uyg'un bo'lishi zarur. Bu qarashlar Navoiy poetikasining ham asosini tashkil etadi. Uning g'azallari va dostonlarida til nafisligi, ohangdorlik va aniqlik uyg'unlashgan.

Navoiy turkiy tilning grammatik tuzilishini ham ustun jihat sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, qo'shimchalar yordamida yangi so'zlar yasash imkoniyatining kengligini ta'kidlaydi. Aggyutinativ xususiyatga ega bo'lgan turkiy til so'z yasash va shakl o'zgartirishda qulaylik yaratadi. Bu esa murakkab ma'nolarni ixcham va aniq ifodalash imkonini beradi. Navoiy buni fors tiliga qiyosan tahlil qilib, turkiy tilning mustaqil va mukammal tizim ekanini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy ijodi bilan ham tilshunoslik tarixida muhim o'rin egallaydi. U turkiy tilni saroy va adabiyot tiliga aylantirdi; yuksak badiiy asarlar orqali uning imkoniyatlarini namoyon etdi; keyingi avlod shoir va yozuvchilariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Navoiy ijodi natijasida turkiy til mustaqil adabiy til sifatida shakllandi va rivojlandi.

Xulosa: Alisher Navoiyning tilshunoslikka doir qarashlari o'z davri uchun nihoyatda ilg'or va ilmiy asoslangan edi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asari orqali u turkiy tilning boy, mukammal va ifoda imkoniyatlari keng til ekanini dalillar bilan isbotladi. Shoir tilni millat ma'naviyati va tafakkuri bilan bog'lab, uning rivojini ijtimoiy ahamiyatga ega masala sifatida ko'rdi. So'z va ma'no uyg'unligi, nutq madaniyati, leksik boylik va grammatik imkoniyatlar haqidagi fikrlari bugungi tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli hisoblanadi. Shu bois Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki turkiy til taraqqiyoti yo'lida beqiyos xizmat ko'rsatgan yirik tilshunos mutafakkir sifatida ham e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami (10 jildlik). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011–2016.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Karimov B. Navoiyshunoslik asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
7. O'zbek tili va adabiyoti masalalari (ilmiy maqolalar to'plami). – Toshkent: Fan, 2019.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALISHER NAVOIYNING MA'NAVIY QADRIYATLARINI SINGDIRISHDA TADBIRLARNING O'RNI

*Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna,
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tadbirlarni interfaol metodlar asosida tashkil etgan holda Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlarni berish yo'nalishi tadbir namunasi asosida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, boshlang'ich sinf, tadbir, interfaol, "Sinkveyn" metodi, "Ijodiy mehnat" metodi.

Sharq mutafakkirlaridan biri o'zbek adabiyotining zabardast siyosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o'rganish, undan ta'lim -tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodi shunchalar serqirradi, uning asarlari tarjimasiga qo'l urish islom dini g'oyasi va qarashlari, turkiylar madaniyati, yashash tarzi va so'zlarning kelib chiqishini sinchiklab o'rganish talab etiladi. Bularni boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh va psixofiziologik qobiliyatlarini inobatga olgan holda yetkazish muhim omil sanaladi. Quyida "Alisher Navoiy bobomiz" mavzusidagi tadbirni interfaol metodlar asosida tashkil etish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan tadbir namunasini ko'rsatib o'tmoqchimiz.

I. Tashkiliy qism. Sinf ikki guruhga birlashtiriladi va nomlanadi. Masalan: G'azalxon va Shoira yoki Munajat va Ruboiy.

Asosiy qism. 1-shart. Alisher Navoiy hayotiga oid chiqish.

("Ijodiy mehnat" metodi asosida guruh ikkiga birlashtirilib, har bir guruh mavzu yuzasidan yo kichik axborot yo sahna ko'rinishi yoki she'r, qo'shiq, chizgilar, rasmlar ishlashlari lozim).

Masalan: 1-guruh Navoiy hayotiga oid sahna ko'rinishi, ya'ni yosh Alisherning Lutfiy bilan suhbat sahna ko'rsatiladi va Navoiy hayoti va ijodiga old chiqishlar beriladi:

Navoiy bobomiz juda yoshligidanog she'r yozganlar

Besh dostonidan iborat "Xamza" asarini yaratganlar.

Vazir vazifasida ishlaganlar.....

2-guruh A.Navoiy rasmini chizadilar va Navoiy yoshligi, ijodi va hayotiga oid axborotlar berib o'tadilar.

Navoiy Hirotda tug'ilgan.

5-6 yoshida she'r yozgan.

G'azal mulkini sultoni..... kabi.

2-shart. Navoiy qalamiga oid g'azal, ruboiy ayting

Masalan: 1-guruh: G'urbanda g'arib shodmon bo'lmas emish

El anga shafiq mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

2-guruh: Oz-oz o'rganib dono bo'lur

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

3-shart. Navoiy hukmatlaridan ayting.

1-guruh: Olamdan g'amsiz o'tay desang, ilmu-hunar o'rgan.

2-guruh: Bilmaganni so'rab o'rgangan olim. Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

4-shart. Navoiy hayoti va ijodiga oid hikoyalari asosida sahna ko'rinishini ko'rsating.

1-guruh: "Alisher va bulbul" hikoyasi rolli o'yinlar asosida ijro etiladi.

2-guruh: "Non isi" rivoyati asosida sahnalashtirib ko'rsatiladi.

5-shart. Navoiyga atab sinkveyn yozing, ya'ni

Ot _____

Sital _____, _____

Fe'l _____, _____, _____

Gap _____

Ma'nodoshi _____

NAVOIY

Mutafakkir, oliyjanob

Tanilgan, yaratgan, ulug'langan

Navoiy so'z mulki sultoni

Foniy

6-shart. "Navoiy" krossvordini yechish.

| | | | | | | |
|---|---|---|--|---|--|--|
| | | | | N | | |
| | 1 | | | A | | |
| | | | | V | | |
| 2 | | | | O | | |
| 3 | | | | I | | |
| | | 4 | | Y | | |

1. Navoiyning eng yaqin do'sti—Husayn.

2. Navoiy hokimlik qilgan joy nomi—Astrobod.

3. Bolalarga old hikoyatlar to'plami mujassamlangan doston—Oush till.

4. "Xamsa" qahmmonlaridan biri—Layli.

Tadbir yakunida har ikkala guruhning ishtirokchilari yiqqan ballari umumlashtirilib g'olib guruh e'lon qilinadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tadbirlar asosida o'quvchilarda darslarda olingan va qo'shimcha ma'lumotlar asosida buyuk mutaffakirimizni ijodini o'rganishga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Tadbirlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish esa o'quvchilar faolligi va qiziqishlarini oshirishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xojjayev B. Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Darslik.T.: "Sano -standart" nashriyoti, 2017-yil.
2. Alisher Navoiy "Xamsa" "Yangi asr avlodi", 2016-yil.
3. Alisher Navoiy "Hikmatlar". O'zbekiston. – T. 2011-yil.

NAVOIY ASARLARINI O'QITISHNING METODIK VA DIDAKTIK USULLARI

*Xudoynazarov Dilshodbek Obidjon o'g'li,
Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi metodisti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida Alisher Navoiy asarlarini o'qitish jarayonida uchrayotgan asosiy muammolar ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Navoiy ijodining lingvistik murakkabligi, o'quvchilarning badiiy tahlil ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, an'anaviy metodlarning ustunligi hamda motivatsiya bilan bog'liq masalalar aniqlandi. Shuningdek, muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlarning ahamiyati asoslab berildi. Maqola EMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion, Conclusion) talablari asosida tuzilgan bo'lib, adabiyot ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ta'lim tizimi, adabiyot o'qitish metodikasi, badiiy tahlil, pedagogik texnologiyalar.

Kirish (Introduction)

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir va davlat arbobi sifatida milliy ma'naviyat va madaniyat taraqqiyotida beqiyos o'rin egallaydi. Uning asarlari nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki insonning axloqiy kamoloti,

ijtimoiy adolat, ma'rifatparvarlik va ma'naviy uyg'onish masalalarini yoritadi. Shu sababli Navoiy ijodi ta'lim tizimida yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash, milliy ongini mustahkamlash hamda o'zbek adabiyoti tarixini chuqur anglashda muhim manba sifatida qo'llaniladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida Navoiy asarlarini o'qitish bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lib, ular ta'limning samaradorligini pasaytiradi. O'quvchilar asar mazmunini yuzaki qabul qilishi, badiiy tahlil ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi, til murakkabligi va metodik ta'minotning cheklanganligi kabi omillar dars jarayonida ko'p uchraydi. Bu holat Navoiy asarlarining g'oyaviy-ma'naviy ahamiyatini o'quvchilarga yetkazishda to'siq bo'lmoqda.

Shu bois mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, Alisher Navoiy asarlarini o'qitish jarayonidagi muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maqolaning maqsadi — ta'lim tizimida Navoiy asarlarini o'qitishdagi muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va samarali yechimlar taklif etishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Navoiy asarlarini o'qitish jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash;
2. Muammolarning sabablarini ilmiy-adabiy tahlil va pedagogik kuzatuv orqali tahlil qilish;
3. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari (Methods)

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ✓ **Ilmiy-adabiy tahlil** — Navoiy ijodini o'qitish bo'yicha mavjud ilmiy va metodik manbalarni o'rganish;
- ✓ **Taqqoslash metodi** — an'anaviy va innovatsion ta'lim metodlarini solishtirish, ularning samaradorligini taqqoslash orqali eng maqbul yondashuvlarni aniqlash;
- ✓ **Pedagogik kuzatuv** — umumta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarini tizimli kuzatish va tahlil qilish;
- ✓ **Umumlashtirish va tizimlashtirish** — tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolar, kuzatuv va taqqoslash natijalarini umumlashtirib, ularni tizimli shaklga keltirish hamda muammoning sabab–oqibat bog'liqligini aniqlash.

Ilmiy-adabiy tahlil

Ilmiy-adabiy tahlil jarayonida Alisher Navoiy ijodini o'rganish va o'qitishga bag'ishlangan klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar chuqur o'rganildi. Xususan, Navoiy asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari, til va uslub masalalari, g'oyaviy yo'nalishlari adabiyotshunos olimlar qarashlari asosida tahlil qilindi. Navoiyshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shoir asarlarida ramziy obrazlar, tasavvufiy tushunchalar va falsafiy qarashlar yetakchi o'rin tutadi.

Shuningdek, adabiyot o'qitish metodikasiga oid manbalarda Navoiy ijodini o'qitishda qo'llanilayotgan yondashuvlar o'rganildi. Ilmiy-adabiy tahlil natijasida an'anaviy izohli o'qish usullari ko'p hollarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash Navoiy asarlarini o'rganishda samarali ekanligi asoslab berilgan.

Ilmiy-adabiy tahlil natijalari mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etib, aniqlangan muammolarni tizimli yoritish hamda ularning yechimlarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Taqqoslash metodi

Taqqoslash metodi orqali darslarda qo'llanilayotgan an'anaviy va zamonaviy metodlar o'rtasida farq va o'xshashliklar aniqlandi. An'anaviy yondashuvda ko'pincha matnni o'qish, tarjima va izohlash ustun bo'ladi. Bunda o'qituvchi markaziy rolni egallab, o'quvchilar passiv qabul qiluvchiga aylanadi. Natijada, o'quvchilar asar mazmunini yodlashga ko'proq e'tibor qaratadi, lekin g'oyaviy-badiiy tahlil ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Zamonaviy metodlar esa o'quvchini faol subyekt sifatida jalb etadi. Masalan, klasterlar, konseptual xaritalar, muammoli savollar, guruhli ishlash, sahnalashtirish, multimedia vositalari orqali matnni turli qirralardan tahlil qilish mumkin. Taqqoslash natijasida an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, ularni uyg'unlashtirish orqali eng samarali metodik yondashuv ishlab chiqildi.

Taqqoslash metodi natijasida o'quv jarayonida interaktiv metodlar va an'anaviy izohni muvofiqlashtirishning ahamiyati ochiqlandi: an'anaviy tushuntirish asos sifatida qoldirilgan holda, zamonaviy usullar bilan boyitish o'quvchilarning tushunish darajasini oshiradi va darsga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

Pedagogik kuzatuv

Pedagogik kuzatuv metodi tadqiqotning muhim amaliy qismi bo'lib, u umumta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida Alisher Navoiy asarlarini o'qitish jarayonini bevosita o'rganishga xizmat qildi. Kuzatuvlar adabiyot fanidan o'tkazilgan dars mashg'ulotlari jarayonida olib borilib, unda o'qituvchilarning metodik yondashuvi, dars tuzilishi, qo'llanilgan usul va vositalar hamda o'quvchilarning faolligi tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuvlar natijasida ko'plab darslarda an'anaviy tushuntirish va izoh berish usullari ustunligi aniqlandi. Ayrim hollarda o'quvchilar faqat matnni o'qish va yodlash bilan cheklanib, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga yetarli darajada ega bo'la olmayotgani kuzatildi. Shuningdek, interaktiv metodlar, guruhli ishlash va ijodiy topshiriqlarning kam qo'llanilishi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini pasaytirayotgani ma'lum bo'ldi.

Shu bilan birga, ayrim ilg'or tajribaga ega o'qituvchilar faoliyatida sahnalashtirish, badiiy o'qish, muammoli savollar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali Navoiy asarlarini o'qitish samaradorligi oshayotganligi kuzatildi. Pedagogik kuzatuv natijalari tadqiqotda ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalarni amaliy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish

Umumlashtirish va tizimlashtirish bosqichi tadqiqotda olingan barcha ma'lumotlarni yagona tizimga birlashtirishni nazarda tutadi. Ilmiy-adabiy tahlil, taqqoslash va pedagogik kuzatuv natijalari birlashtirilib, Navoiy asarlarini o'qitishdagi muammolar sabab-oqibat aloqalari aniqlab berildi. Natijada, muammolarni quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin: til va uslubiy murakkablik, metodik ta'minotning yetishmasligi, o'quvchilarning motivatsiyasi pasayishi va badiiy tahlil ko'nikmalarining sust rivojlanishi.

Umumlashtirish natijalariga ko'ra, muammolar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Masalan, til murakkabligi o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytirsam, bu esa badiiy tahlil ko'nikmalarining

yetishmasligiga olib keladi. Shu bois metodik ta'minotni takomillashtirish, interaktiv va innovatsion usullarni joriy etish muammoni yechishda asosiy yo'nalish hisoblanadi. Umumlashtirish va tizimlashtirish natijalari maqolaning xulosa va tavsiyalar bo'limlariga asos bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J. Adabiyot o'qitish metodikasi . — Toshkent, 2016 yil.
2. Mamatqulov O. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2014 yil.
3. Islomov B. Mumtoz adabiyotni o'qitish metodikasi . – Toshkent, 2019 yil.
4. Maqsudov A. Adabiyotshunoslik: nazariya va metodika. – Toshkent, 2021 yil.
5. Abdullaev R. Navoiy va milliy ma'naviyat. — Toshkent, 2017 yil.
6. Wikipediya
7. Ziyonet.uz

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

*Qurbonova Xolbibi To'raqulovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda o'quvchilardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida o'quvchilar konkret tafakkur qilishadi. Yangicha o'qitish uslubi, o'quv jarayonini nazorat qilish yoki boshqarishning ilg'or tajribalari, o'quv jarayonini tashkil qilish va tahlil qilishga nisbatan yangicha yondashuvlar "pedagogik texnologiya" deb yuritilishlari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** tafakkur, texnologiya, tahlil, xotira, jarayon, konkret.*

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu **ta'lim-tarbiya tizimi** bilan chambarchas bog'liqdir.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur"

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, o'zgarlar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, o'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish, o'quvchi- ta'lim- o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

Ona tili metodikasi fani egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy qilish, ilg'or texnologiyadan foydalanish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirgan. Til metodikasini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan bir ma'noni turli shakllarda bera bilish ko'nikmasi shakllangan adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

Ona tili o'qitish metodikasini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

- o'quv mashg'ulotlarida til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash , qiyoslash , umumlashtirish asosida olib borib , o'quvchining mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

- o'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish , nutqiy salohiyatni shakllantirish;

- o'quvchilarni kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l va usullarini o'rganish.

o'qish darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi.

O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashni shakllantirishda, o'quvchilarning nutqini oshirish maqsadga muvofiqdir. Oqish fanidan qiziqarli savol, topshiriqlar tuzish va o'tiladigan mavzular bo'yicha mustahkamlashdan iborat. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishgan iborat.

Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bilib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutushimiz lozim:

- til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir;

- tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas;

- tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi;

- maktabning vazifasi tilni aloqa- kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Til oqilona ,mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish .tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham usadi.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi maktabda o'qitishning o'quvchilar nutqining yaxshi rivojlanishiga kafolat beradigan tilni har tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yullari bilan ta'minlashi kerak. Demak, nutq o'stirish maktabning muhim vazifasidir.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda o'quvchilardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida o'quvchilar konkret tafakkur qilishadi. Avvalo, "Pedagogik texnologiya" haqida ikki og'iz so'z. Bu atama mutaxassislar tomonidan turlicha tahlil qilinmoqda. Jumladan, yangicha o'qitish uslubi, o'quv jarayonini nazorat qilish yoki boshqarishning ilg'or tajribalari, o'quv jarayonini tashkil qilish va tahlil qilishga nisbatan yangicha yondashuvlar "Pedagogik texnologiya" deb yuritilmoqda.

Demak, pedagogik texnologiyani joriy qilish jarayoni yangicha yondashuvlar, yangilik kiritish jarayoni, deb qabul qilinar ekan, maqsadimiz ham o'qituvchilarni ana shu jarayonga - innovatsion faoliyatga tayyorlash haqidaligi ravshan bo'ladi.

Xo'sh, "Innovatsiya" so'zining ma'nosi nima? Bu so'z inglizcha "inoveyshin" so'zidan olingan bo'lib, yangiliklar kiritish, degan ma'noni bildiradi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga tadbiq etish, innovatsion faoliyatlarni tahlil qilish orqali bu faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi.

Demak, innovatsion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Bu faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlab, uni takomillashtirib berishdan iboratdir. Shunday ekan, pedagogning ish ko'lamini kengaytirish bugungi o'qituvchining asosiy faoliyati sanaladi. O'qituvchidagi intellektual salohiyat-ishchanlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik xususiyatlari ta'lim mazmunining boyishida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o'tishiga olib keladi, o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi maqolamiz har bir o'qituvchining o'qitishning ilg'or, samarali usullariga, yangilik tarzidagi uslublarga tayyor bo'lishi talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori 2017-yil 16-aprel.
2. Ona tili: 1- sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma/ U. Masharipova, M. Umarova, D. Baynazarova, M. Nabiyeva. – T.: "Sharq" 2014. – 120 b
3. Savod o'rgatish darslari 1- sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma/ H. Boqiyeva, N. Ahmedova va bosh. – Toshkent.: "Extremum – Press" nashriyoti, 2014. – 120 b.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ НА УРОКАХ РКИ

*Дадажоновна Зухра Акромовна,
Старший преподаватель Центра педагогического мастерства
Ташкентской области*

Аннотация. *Ushbu maqolada rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda Alisher Navoiy asarlarini o'rganishning pedagogik va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Navoiy ijodi orqali talabalar til bilan bir qatorda madaniy kompetensiyani ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.*

Калит so'zlar: *rus tili xorijiy til sifatida, Alisher Navoiy, madaniyatlararo kompetensiya, adabiy matn, ta'lim metodikasi.*

Аннотация. *В статье рассматривается педагогическое и культурное значение изучения произведений Алишера Навои при обучении русскому языку как иностранному. Использование художественных текстов Навои способствует развитию языковой и межкультурной компетенции обучающихся.*

Ключевые слова: *русский язык как иностранный, Алишер Навои, межкультурная компетенция, художественный текст, методика обучения.*

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and cultural significance of studying the works of Alisher Navoi in teaching Russian as a foreign language. Navoi's literary heritage contributes to the development of both linguistic and intercultural competence among learners.*

Keywords: *Russian as a foreign language, Alisher Navoi, intercultural competence, literary text, teaching methodology.*

Введение (Introduction)

В условиях глобализации и активного межкультурного взаимодействия особое значение приобретает обучение иностранным языкам на основе культурно значимых текстов. Русский язык как иностранный (РКИ) требует не только

усвоения лексико-грамматических норм, но и глубокого понимания культурного контекста. В этом аспекте произведения великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои представляют собой ценный дидактический материал.

В своем Послании Олий Мажлису и народу Узбекистана Президент Ш. М. Мирзиёев отметил: “Уже сейчас мы должны приступить к подготовке исторических юбилеев Сохибкирана Амира Темура, Мир Алишера Навои. Примем соответствующие постановления для их проведения на высоком, достойном уровне.

Уверен, что в их выполнении примут активное участие махалли, образовательные и воспитательные учреждения, трудовые коллективы, представители интеллигенции, работники наших посольств за рубежом, весь наш народ”

Материалы и методы (Materials and Methods)

В качестве материалов исследования использованы поэтические и прозаические произведения Алишера Навои в русских переводах, а также учебно-методические пособия по РКИ. Методологическую основу исследования составляют сравнительно-сопоставительный анализ, текстоцентрический подход и методы педагогического наблюдения.

В учебниках нового поколения даны материалы для изучения творчества среднеазиатского тюркского поэта, учёного, мыслителя, государственного деятеля Мир Алишера Навои. Он много занимался, стремился к знаниям, получил всестороннее образование. Изучая эти материалы, можно познакомиться с жизнью великого поэта, о том, что он является основоположником узбекского литературного языка.

На тюркских струнах музыкант сыграл, на тюркский лад, Народ на языке родном услышать песню рад.

А как государственный деятель решал сложные задачи, где нужны были его знания и опыт. Под руководством Алишера Навои в Герате и Астрабаде были построены медресе, мечети, библиотеки, больницы. Он поддерживал учёных, философов, художников, музыкантов, поэтов и каллиграфов.

В своих произведениях Алишер Навои писал о государственном управлении, нравственности, религии и науке, образовании и культуре. Он воспевал благородство, щедрость, справедливость, умение противостоять трудностям, осуждал вражду, зависть, ненависть, зло, жадность, ложь. Навои считал, что человека нужно оценивать по его делам, а не по внешности, богатству или национальности. Герои его были представителями разных народов и вероисповеданий. Эти темы не потеряли своего значения, они остаются актуальными и в настоящее время.

Любовь к Родине, народу - одно из лучших качеств, украшающих облагораживающих его. Так считал великий поэт и мыслитель А. Навои. Его любимый герой Фархад (из поэмы “ Фархад и Ширин”) нежно и глубоко любит свою Родину – Китай. Ему тяжела разлука с отчизной. Умирая, он говорит ветерку:

“О, ветерок, не знающий преград!

Во имя бога взвейся и слетай

**В мой мипечаль других людей.лый край, в далёкий мой
Китай,**

И прах моей отчизны поцелуй... ”

Также нужно отметить его поучительные притчи, которые призывают к добру, дружбе, знаниям, гуманизму.

1. “ **Коль ты сам человек тем самым: звать не смей
Того, кому чужда печаль других людей.**”

2. “ **Тот, от кого другим исходит зло,
Увидит: всё назад к нему пришло.**”

3. “ **Почёт и честность не в знатности и в званье,
А в скромности и честном воспитанье!** ”

При обучении РКИ можно пользоваться сопоставительной работой с литературой родного языка, где учащиеся знакомятся с жизнью и творчеством Мир Алишера Навои. И эти знания дополняют материал учебника нового поколения. Этим они вспоминают и повторяют, ранее полученные знания, закрепляют их и дополняют новыми данными на русском языке. Этот интегративный подход, где учитель обращается межпредметной связи, обосновывая, что все предметы нужны, они взаимосвязаны, они дополняют друг друга.

А произведения Алишера Навои, которые воспевают Родину, дружбу, доброту, любовь играют огромную воспитательную и поучительную роль в обучении учащихся.

Результаты (Results)

Анализ показал, что включение произведений Алишера Навои в процесс обучения РКИ способствует:

- расширению словарного запаса обучающихся;
- формированию навыков интерпретации художественного текста;
- развитию межкультурной компетенции;
- повышению мотивации к изучению русского языка.
- Носит поучительный характер
- является примером для подрастающего поколения
- Развитию жизненных навыков
- Формированию навыков и умений, компетенций XXI (навыки 4К).
- Патриотизму и гуманизму
- Интеграции предметов (русского языка, родной литературы, истории, искусства).

Использование адаптированных текстов и фрагментов произведений позволяет учитывать уровень языковой подготовки обучающихся.

Обсуждение (Discussion)

Полученные результаты подтверждают целесообразность использования классического литературного наследия в обучении РКИ. Произведения Навои, насыщенные философскими и нравственными идеями, способствуют формированию ценностных ориентиров и расширению культурного кругозора обучающихся. Вместе с тем важно учитывать сложность оригинального текста и необходимость качественного перевода, где можно провести сопоставительную работу текстов на русском языке с текстами на родном языке.

Заключение (Conclusion)

Таким образом, изучение произведений Алишера Навои в процессе обучения русскому языку как иностранному является эффективным средством формирования языковой и культурной компетенции. Данный подход способствует комплексному развитию личности обучающегося и повышает качество языкового образования.

- Учитель — центральная фигура реформ
- Школа должна готовить к будущему.

Вот какая ответственная задача стоит перед школой и перед учителями.

Жизнь, деятельность, творчество и научные открытия наших предков – это большая плодотворная поучительная школа для всех нас и нашей молодёжи.

И то, что в городе Навои проходит этот форум, посвящённый Мир Алишеру Навои, это как бы ответ к Посланию нашего президента.

Использованная литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана Ташкент. 26 декабря 2025
2. Навои А. Избранные произведения. — Ташкент: Издательство литературы и искусства, 2015.
3. Щукин А.Н. Методика обучения русскому языку как иностранному. — М.: Русский язык, 2018.
4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — М.: Просвещение, 2019.
5. Khodjimuhamedov A. Alisher Navoi and World Literature. — Tashkent: Fan, 2020.

A MODERN INTERPRETATION OF ALISHER NAVOI'S WORKS AND TEACHING THEM TO STUDENTS BASED ON THE SCAMPER TECHNIQUE

Khodiyeva Yulduz Yunusovna,

Navoi region pedagogical skill center "Methodology of teaching languages" department senior teacher

Abstract. *This article explores modern interpretations of the literary heritage of Alisher Navoi and proposes innovative strategies for teaching his works to students using the SCAMPER technique. As a classical poet, thinker, and statesman, Navoi's writings remain central to Turkic literature and moral philosophy. However, traditional teaching methods often fail to fully engage contemporary learners. By integrating the SCAMPER creative-thinking model—Substitute, Combine, Adapt, Modify, Put to another use, Eliminate, Reverse—educators can foster critical thinking, creativity, and deeper comprehension of Navoi's works in modern educational contexts.*

Key words: *contemporary, interpretations, statesman, innovative, heritage, creative-thinking, creativity.*

Introduction. Alisher Navoi (1441–1501) occupies a foundational place in Turkic literary history. His masterpieces, including Khamsa, lyrical ghazals, and moral-philosophical treatises, shaped the development of Chagatai literature and influenced generations of writers. In the 21st century, however, students often perceive classical texts as distant or difficult. Therefore, modern pedagogical approaches are necessary to reinterpret Navoi's ideas in ways that resonate with contemporary learners.

One effective strategy is the SCAMPER technique, widely used in creative problem-solving and innovative education. Applying SCAMPER to Navoi's works allows students to interact actively with texts rather than passively analyze them.

Literature Review. Research on Navoi traditionally focuses on his poetic mastery, linguistic contributions, Sufi philosophy, and ethical teachings. Scholars highlight themes such as justice, love, humanism, and spiritual perfection. Modern educators emphasize learner-centered approaches, including interactive methods and critical-thinking frameworks.

The SCAMPER model, developed by Bob Eberle, is based on creative questioning strategies. Although commonly applied in business and innovation fields, its adaptation to literature teaching opens new possibilities for interpretive learning.

1. Theoretical Framework

1.1 Modern Interpretation of Navoi's Works

Modern interpretation does not change the original meaning of a text; rather, it recontextualizes themes within contemporary realities. For example:

Navoi's concept of justice can be linked to modern discussions on social equality. His reflections on love and morality can be connected to ethical decision-making in today's society. His humanistic ideas can be explored through global citizenship education. This approach bridges classical literature and modern life.

1.2 Overview of the SCAMPER Technique

SCAMPER stands for:

S – Substitute

C – Combine

A – Adapt

M – Modify (or Magnify/Minify)

P – Put to another use

E – Eliminate

R – Reverse (or Rearrange)

Each element provides structured prompts that encourage creative and critical thinking.

2. Applying SCAMPER to Navoi's Works

2.1 *Substitute*

Students may substitute historical settings or characters with modern equivalents. For instance, in analyzing Navoi's epic poems, learners can imagine how a hero from *Khamasa* would act in today's digital society. This substitution enhances relevance and engagement.

2.2 *Combine*

Students can combine Navoi's ideas with modern literary genres such as social media storytelling, short films, or spoken-word poetry. For example, they may create a multimedia presentation merging Navoi's ghazals with contemporary music.

2.3 *Adapt*

Adapting Navoi's moral lessons to present-day scenarios encourages practical application. A classroom discussion might explore how Navoi's teachings on honesty apply to academic integrity or online behavior.

2.4 *Modify*

Students may modify a poem's structure while preserving its message. For example, transforming a classical ghazal into free verse allows learners to explore poetic form and stylistic evolution.

2.5 *Put to Another Use*

Navoi's texts can be used as inspiration for debates, ethical case studies, or leadership workshops. This approach highlights the versatility of classical literature beyond literary analysis.

2.6 *Eliminate*

Students may remove certain narrative elements and analyze how meaning changes. Eliminating symbolic imagery from a poem, for instance, reveals its structural importance.

2.7 Reverse

Reversing perspectives—such as retelling a story from a minor character's viewpoint—develops empathy and interpretive depth. This method strengthens analytical skills and creative expression.

3. Pedagogical Implications

Integrating SCAMPER into literature classes offers several advantages:

- Encourages active learning and student participation
- Develops higher-order thinking skills
- Bridges classical literature and contemporary issues
- Enhances creativity and collaboration
- Teachers become facilitators of exploration rather than sole interpreters of meaning. Students gain ownership of their learning process.

4. Sample Lesson Plan Outline

Topic: Justice in Navoi's Poetry

Objective: Students will reinterpret Navoi's concept of justice using SCAMPER.

Warm-up discussion on justice in modern society.

Close reading of selected verses.

Group work applying each SCAMPER step.

Presentation of creative reinterpretations.

Reflection and evaluation.

This structure promotes analytical, creative, and reflective competencies.

Conclusion. A modern interpretation of Alisher Navoi's works ensures that his literary heritage remains vibrant and meaningful in contemporary education. By applying the SCAMPER technique, educators can transform traditional literature lessons into dynamic, student-centered experiences. Such integration not only preserves Navoi's intellectual legacy but also equips students with creative and critical-thinking skills essential for the modern world.

References:

1. Alisher Navoi. *Khamsa* (various editions).
2. Alisher Navoi. *Muhakamat al-Lughatayn* (The Judgment of Two Languages).
3. Eberle, Bob. (1996). *SCAMPER: Creative Games and Activities for Imagination Development*. Waco, TX: Prufrock Press.
4. Carter, R., & Long, M. (1991). *Teaching Literature*. London: Longman.
5. Fisher, R. (2005). *Teaching Children to Think*. London: Nelson Thornes.

NAVOIY ASARLARINING FARZANDLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

*Qurbonova Xolbibi To'raqulovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim Alisher Navoiyning ilmiy merosi va uning bugungi kun yosh avlod tarbiyasidagi ma'naviyat, axloqiy, ilmiy va ma'rifiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, axloqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy qadriyatlar, ilm-ma'rifat.

Ma'naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushunchadir. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'ni" so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olami uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi va hatti-harakatlari kiradi. Ichki olamiga esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari,

his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shunday ichki olami ma'naviyatdir. Ma'naviyat va axloq bir-biri bilan bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi. Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotidagina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n -u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik ko'p va xo'p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xitoydan to Xuroson" gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o'z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga buyuk ta'sir ko'rsatdi. Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o'rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko'rina boradi. Adabiy aloqalarning o'rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to'laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o'zbek xalqining adabiyotini o'rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag'ishlagan bu ulug' san'atkorning hayoti va ijodini o'z madaniyatlarini o'z adabiyotlari tarixini chuqur o'rganish, o'zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatgan. Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi, vafo va ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Axloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir".

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish-2 Toshkent : Fan, 2011.-198 b.
2. Yoqubjon Isoqov. Navoiy poetikasi.-T.: Fan, 1983.-167

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSONPARVARLIK G'UYALARINING BADIY TALQINI

*Haydarova Shahrizoda Sobir qizi,
Uchquduq tuman 20- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning lirik va epik asarlarida insonparvarlik g'oyalarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Shoir ijodida inson qadri, mehr-oqibat, adolat, komillik va ma'naviy poklik masalalari badiiy obrazlar orqali yoritilgani misollar asosida ko'rsatib beriladi. Navoiy asarlaridagi obrazlar, hikmatlar va rivoyatlar orqali insonning ichki dunyosi, uning ma'naviy rivojlanish bosqichlari va o'zini jilovlash qobiliyati kabi jihatlar badiiy vositalar orqali qanday ifodalangani atroflicha ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: insonparvarlik, komil inson, adolat, ma'naviyat, lirika, badiiy talqin.

Alisher Navoiy — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, so'z mulkining sultoni sifatida nafaqat turkiy adabiyot, balki jahon madaniyati rivojiga ham beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkirdir. Uning boy ijodiy merosida insonparvarlik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Navoiy insonni eng oliy mavjudot sifatida ulug'laydi va uning ma'naviy kamolotini hayotning bosh maqsadi deb biladi. Navoiyning boy adabiy merosi markazida inson, uning qalbi, ruhiy olami va axloqiy kamoloti masalalari turadi. Shoir ijodining bosh g'oyasi — insonni ulug'lash, uning sha'ni va qadr-qimmatini yuksak darajada talqin etishdan iborat.

XV asr ijtimoiy-siyosiy hayoti murakkab va ziddiyatlarga boy bo'lgan bir davrda yashab ijod etgan Navoiy o'z asarlari orqali jamiyatni ma'naviy poklanishga, adolat va mehr-oqibat tamoyillariga amal qilishga chaqirdi. Uning insonparvarlik qarashlari diniy-falsafiy manbalar, tasavvuf ta'limoti hamda Sharq mutafakkirlari an'analari bilan uyg'unlashgan holda badiiy mukammallik darajasiga ko'tarilgan.

Navoiyning insonparvarlik konsepsiyasi, avvalo, "komil inson" g'oyasida mujassamdir. Shoir nazarida insonning buyukligi uning nasl-nasabida yoki boyligida emas, balki ilmga intilishi, halolligi, adolati va saxovatidadir. Shu jihatdan, Navoiy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik g'oyalari nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyotimizda insonni tasvirlash an'anasi mavjud bo'lsa-da, Navoiy bu masalaga yangicha badiiy-falsafiy yondashuv olib kiradi. U insonni ilohiy ne'mat sifatida ko'radi, uning qalbini ma'naviy poklanish maskani sifatida talqin etadi. Shoirning lirik va epik asarlarida mehr-muhabbat, sadoqat, sabr-toqat, adolat va saxovat kabi fazilatlar insonni komillikka eltuvchi asosiy mezon sifatida tasvirlanadi. Komil inson" — Navoiy nazarida insonning ma'naviy va axloqiy mukammallik darajasi. Bu tushuncha shoirning

barcha asarlarida markaziy o'rin egallaydi. Komil inson — ilimga intiluvchi, odobli, jamiyat foydasiga ishlashga tayyor shaxs.

Misol uchun, "Hayrat ul-abror" dostonida komil inson sifatida Abror timsoli keltiriladi: u halol, saxovatli, ilmi va adolatli bo'lib, jamiyat rivojiga hissa qo'shadi.

"Farhod va Shirin" dostonida Farhod mehnatsevarligi va jasorati orqali komil insonning jasorat va fidoyilik jihatlarini namoyish etadi. Zamonaviy ahamiyati shundaki, yoshlar ma'naviy va axloqiy tarbiya olishda, jamiyatda adolat va halollikni rivojlantirishda komil inson modeliga intilishlari kerak.

Adolat — Navoiyning insonparvarlik g'oyalari ustuvor tamoyil. U hukmdor va oddiy odam o'rtasida tenglik, xalq dardini tinglash, haqiqatni himoya qilishni bildiradi. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar hukmdor sifatida adolatli qarorlar qabul qiladi. Shoir adolatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishni tavsiya qiladi. "Hayrat ul-abror" asarida shaxsiy boyluk va maqomdan ko'ra, insonning adolati va sadoqati yuqori qadrlanadi. Jamiyatda insonning adolatga intilishi va boshqalar bilan teng muomala qilish madaniyatini shakllantirishda Navoiyning g'oyalari dolzarbdir.

Saxovat va mehr-oqibat - inson qalbining pokligi, yordam berishga tayyorligi va boshqalarga nisbatan mehribonlikni bildiradi. Navoiy buni jamiyatni barqaror va iliq muhitga aylantirishning asosiy omili sifatida ko'radi.

"Farhod va Shirin" dostonida Farhodning sevgisi va yordam berishga tayyorligi — saxovatning ramzi.

G'azallarda esa shoir inson qalbining boshqa odamlar duch kelgan dardlarni his etishi va ularga hamdardlik ko'rsatishi zarurligini ta'kidlaydi. Saxovat va mehr-oqibat bugungi kun ijtimoiy va ma'naviy muhitini yaxshilash uchun muhim qadriyatdir. Yoshlarni insoniylik ruhida tarbiyalashda Navoiy g'oyalari amaliy qo'llaniladi.

Ma'naviyat va axloqiy poklik Navoiy ijodidagi eng asosiy g'oyadir. Inson qalbi pok va barqaror bo'lsa, jamiyat ham poklanadi. "Layli va Majnun" dostonida qalb pokligi va sadoqat timsol sifatida tasvirlangan.

G'azallarda sabr, shukronalik va fidoyilik insonning axloqiy kamolotini oshiradi. Ma'naviy qadriyatlarni saqlash va yoshlarni axloqiy yetuklik ruhida tarbiyalashda Navoiyning merosi manba bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ijodi – ma'nolar ummoni, bebaho xazina. Ulug' shoirning tafakkur gavharlarini kashf etish ulardan bahramand bo'lish dilga quvvat, ruhga madad bag'ishlaydi, bizni komillik sari yetaklaydi. Alisher Navoiy cheksiz badiiyati bilan ikkinchi Renessans rivojiga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa, innovatsion fikrlari yo'g'rilgan nodir asarlari bilan Uchinchi Renessans davrida ham o'z qiymatini yo'qotmadi. Ya'ni Navoiy asarlari insonning o'zligini anglashi, komillikka intilishi, hayotda o'zining munosib o'rnini topishi uchun yo'lyo'riq ko'rsatib turuvchi katta imkoniyatlar xazinasidir desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bugungi ma'rifatli jamiyat bunyodkorlari vatanimiz kelajagi, Yangi O'zbekiston ertasi ularning aql-u tafakkuriga, ilm va idrokiga bog'liq ekanligini yaxshi anglaydi. Navoiy baytlari qatida yashirinib yotgan ma'nolar shu qadar teran, shu qadar ko'lamlilik, u durlar to'la dengizga o'xshaydi. Bu dengizga sho'ng'igan odam, albatta, yangi ma'no durlarini qo'lga kiritib, bahramandlik baxtini tuya oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazriyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. – B. 243.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011

3. Olimov S. Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va ta'lim-tarbiya g'oyalari. Toshkent, 2021.
4. Rahimberdiyeva X.A. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi va undagi pedagogik qarashlar. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2023
5. Karimova Z. Alisher Navoiy va ma'naviy tarbiya. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.
6. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2011.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Berdibayeva Nasiba Kenjabayevna,
Jumayeva Gulhayo Nurillayevna,
Uchquduq tuman 7-MFCHO'IDU maktabi o'qituvchilari*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.*

***Kalit so'zlar:** texnologiyalar, shakllar, vositalar, axborot-kommunikatsiyalar uzluksiz.*

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq pedagogik texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari—tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ham o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan, darsni oson o'zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o'rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab etiladi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini

ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali lar insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, darslarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta'lim olish jarayonini tashkil etishni ta'minlovchi o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladi. Ta'minot bazasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyati bo'lishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tal'at G'afforova. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent – 2011
2. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsiya" Toshkent -2010

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ALISHER NAVOIY IJODINING O'RGANILISHI

*Murodova Ma'mura Kamolxo'jayevna,
Zangiota tumani 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur matnda Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning shaxsiyati va ijodining bugungi jamiyat, xususan ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Muallif Navoiy merosining nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishini, dunyo mamlakatlarida o'rnatilgan haykallari orqali uning ijodining olamshumulligini asoslaydi. Shuningdek, Navoiyning hikmatli so'zlari yosh avlodda shukronalik, mehr-oqibat, ustozga hurmat kabi ma'naviy fazilatlarni shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Аннотация. В данном тексте освещается роль и значение личности и творчества Низомиддина Мир Алишера Навои в современном обществе, в частности, в системе образования. Автор обосновывает признание наследия Навои не только национальной, но и универсальной ценностью, а универсальность его творчества подтверждается памятниками, воздвигнутыми в странах по всему миру. Также на примерах демонстрируется воспитательное значение мудрых слов Навои в формировании у молодого поколения таких духовных качеств, как благодарность, доброта и уважение к учителю.

Abstract. This text highlights the role and significance of the personality and work of Nizomiddin Mir Alisher Navoi in today's society, in particular the education system. The author justifies the recognition of Navoi's heritage as not only a national, but also a universal value, and the universality of his work through the statues erected in countries around the world. Also, the educational significance of Navoi's wise words in the formation of spiritual qualities such as gratitude, kindness, and respect for the teacher in the younger generation is shown through examples.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ma'naviy meros, turkiy adabiyot, she'riyat sultoni, ta'lim jarayoni, ma'naviy tarbiya, AKT texnologiyalari, Navoiyxonlik, milliy o'zlik, ma'rifiy tadbirlar.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовное наследие, турецкая литература, султан поэзии, образовательный процесс, духовное воспитание, ИКТ-технологии, Навоийское ханство, национальная идентичность, образовательные мероприятия.

Keywords: Alisher Navoi, spiritual heritage, Turkish literature, sultan of poetry, educational process, spiritual education, ICT technologies, Navoi Khanate, national identity, educational events.

Agar biz u zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir (Islom Abdugʻaniyevich Karimov. Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prezidenti). Nizomiddin Mir Alisherning shaxsiyati va ijodining bugungi bizning jamiyat uchun afzalligini bir dalil bilan isbotlamoqchiman. Insoniyat tarixida yashab oʻtgan qaysi alloma sharafiga dunyo shaharlarida eng koʻp yodgorlik oʻrnatilgan? degan tanlov oʻtkazilsa, birinchi oʻrinni albatta sheʼriyat mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy hazratlari oladi. Chunki hozirgi kunda bobomiz sharagiga 40 dan ziyod haykallar oʻrnatilgan. Jumladan, Oʻzbekistonimiz shaharlaridan tashqari Tokio, Nyu YORK, Moskva, Shanxay, Boku, Ostona kabi dini, qadriyati har xil boʻlgan mamlakatlar poytaxtida bobomizning bu qadar sharaflanishi Navoiyning ijodi olamshumullikdan darak.

Bobomizning “Haq yoʻlinda kim sanga bir harf oʻqutmush ranj ila Aylamak boʻlmas ado oning haqqin yuz ganj ila” kabi soʻzlari hozirgi taʼlim jarayonining eng muhim shiori boʻlmogʻi lozim. Bugungi kunda bolajonlarda shukronalik tuygʻusi risoladagidek emas. Hazratning “Kivushim teshik deb noliysan ,yangi mahsi olishga pulim yoʻq deb noliysan, anavini qara ,yangi mahsi kiyadigan oyogʻi yoʻq” kabi hikmatlari oʻquvchilarimizda bugungi kundagi tinchlik, farovonlik qadrini anglashga undaydi.

Navoiyning asarlarida komil inson konsepsiyasi markaziy oʻrin egallaydi. “Mahbub ul-qulub” asarida inson fazilatlarini, jamiyatdagi adolat, rahm-shafqat va saxovat masalalari chuqur tahlil qilinadi. Masalan:

“Kimki bir koʻngli buzuqning xotirin shod aylagay, Oncha borki Kaʼba vayron oʻlsa obod aylagay.”

Bu misra bugungi maktab muhitida empatiya, ijtimoiy hamkorlik va tolerantlikni shakllantirishning kuchli maʼnaviy asosidir. Zamonaviy pedagogika konsepsiyasi ham aynan shunday qadriyatlarga tayanadi. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi haykallar va madaniyat markazlari Oʻzbekiston bilan bir qatorda Rossiya, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Ozarbayjon, Qozogʻiston va boshqa davlatlarda mavjud. Bu holat Navoiyning ijodi milliy chegaralardan chiqib, umuminsoniy qadriyat darajasiga koʻtarilganini koʻrsatadi. Shuningdek, UNESCO tomonidan Navoiy tavalludining 550 yilligi xalqaro miqyosda nishonlangan. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Navoiy turkiy adabiy merosning ramziy timsoli sifatida eʼtirof etiladi. Bu faktlar Navoiyning ijodi faqat tarixiy meros emas, balki madaniy diplomatiyaning ham vositasi ekanini isbotlaydi. AKT vositalari orqali oʻqitish fikri metodik jihatdan toʻliq asosli. Quyidagi innovatsion yondashuvlar qoʻllanilishi mumkin:

- **Digital storytelling** – gʻazallar asosida animatsion videolar yaratish
- **Gamifikatsiya** – “Navoiy kvest” yoki interaktiv viktorinalar
- **Nano-taʼlim texnologiyasi** – 3–5 daqiqalik qisqa maʼnaviy lavhalar
- **Rolli sahnalashtirish** – “Xamsa” qahramonlarini jonlantirish

QR-kodli darsliklar – sheʼrlarni audio va video shaklda tinglash imkoniyati. Navoiy asarlarini oʻqitishda zamonaviy AKT vositalari vositasida turli videofilmlar,

jumladan qisqa metrajli filmlardan, tarqatmali qisqa ma'lumotlar bazasi (Nano ta'lim) namoyishini ko'rsatish orqali o'quvchilarda qiziqish uyg'otish, yoki asarlarini dars jarayonida turli obrozlarda jonlantirish orqali orgatish ko'proq samara beradi deb hisoblayman.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual va interaktiv metodlar o'quvchilarning eslab qolish ko'rsatkichini 40–60% ga oshiradi.

“Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam”

Ushbu misra turkiy madaniy integratsiya g'oyasining badiiy ifodasidir. Bugungi kunda 200 milliondan ortiq turkiy xalqlar mavjud bo'lib, ularning adabiy ildizlari Navoiy ijodiga borib taqaladi. Shu ma'noda Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi, chig'atoy adabiyotining yuksak namoyandasi, turkiy uyg'onish davrining mafkuraviy yetakchisidir. Darsda, maktab hayotida bolajonlar bir - birini ayamadan haqorat qilishadi. Navoiyning “Kim-ki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylag'ay ,omcha borki Ka'ba vayron o'lsa obod aylag'ay” kabi hikmatlari bizni bir - birimizga mehrlan bo'lishga undaydi .

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflar uchun chiqarilgan darsliklarda o'quvchi uchun Alisher Navoiy bobomizning bir dona g'azali yoki ,bir dona ruboiysi keltirilmagan .O'quvchi ahlining bu qismi 1-sinf dan to 11-sinfgacha Navoiy bobomizning bir dona she'rini yod bilmasdan maktabni bitirishadi. Bu keltirilgan faktni kamina izohsiz qoldiraman.

Dunyoda 24 xil turkiy tillar, millatlar bor. Hazrat Navoiy “Turk nazmida chu men tortib alam, ayladim ul mamlakatni yakqalam” deganlarini bitta qildim degan va bu haqiqat.

Mening fikrimcha, Alisher Navoiy faqat o'zbek tilining asoschisi emas, she'riyat sultoni butun turkiy tillarning asoschisidir. Inchunun, barcha turkiy tillardan har bir adabiy so'z va jumlaning Navoiy ijodidan topasiz. Biz kattalar Navoiyni o'qimaymiz. Chunki Navoiy ijodini qiyin deb talqin qilamiz. Birinchidan, yuqorida keltirilgan iqtibos, yoki qaysi hikmat o'zbekka tushunarsiz? Ikkinchidan, Navoiyning tili qiyin deganlarga Nizomiddin Mir Alisher Navoiydan 500 yil keyin yashagan Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarining original variantini tili jam murakkab. Kichik sinflarda ilk mavzuni o'tayotganimda Alisher Navoiyning asl to'liq ismini so'rash bilan boshlayman, bilishmaydi. Menimcha bolajonlarga bobomiz me'rosini o'zimiz risoladagidek yetkazishimiz uchun Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bobomizning shaxsiy hayoti, uning asarlariga chet davlatlarda juda yuksak baho berishidan o'rgatishimiz lozim.

Navoiy merosini ommalashtirish bo'yicha takliflar

Maktab miqyosida amalga oshirilayotgan tashabbuslaringizni yanada boyitish uchun:

1. “Navoiy haftaligi”ni hududiy miqyosga olib chiqish
2. “Bir sinf – bir g'azal” loyihasi (har sinf yil davomida bitta g'azalni chuqur tahlil qiladi)
3. “Navoiy podkasti” – o'quvchilar tomonidan audio suhbatlar
4. Chet tillarda ta'lim oladigan sinflar uchun qisqartirilgan va izohli matnlar
5. “Navoiy va zamonaviylik” mavzusida debat klublari

Navoiy – bu faqat adabiy meros emas. Umilliy o'zlik, ma'naviy komillik, til siyosati, turkiy birlik, axloqiy tarbiya, madaniy diplomatiya ramzidir.

Foyadalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.

2. Navoiy, A. (2011). *Xamsa* (to'liq nashr). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
3. Navoiy, A. (2012). *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
4. Navoiy, A. (2016). *Xazoyin ul-maoniy* (Devon). Toshkent: Akademnashr.
5. Qodiriy, A. (2019). *O'tkan kunlar* (ilmiy-tanqidiy nashr). Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Komilov, N. (2013). *Tasavvuf yoki komil inson axloqi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Hayitmetov, A. (2006). *Alisher Navoiy adabiy merosi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son Qarori. *Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida*.
9. UNESCO. (2021). *International observance of the 580th anniversary of Alisher Navoi*. Paris: UNESCO Publishing.
10. Abdug'afurov, A. (2018). *Alisher Navoiy va turkiy adabiyot taraqqiyoti*. Toshkent: Mumtoz so'z.

ALISHER NAVOIY ASARLARI –MA'NAVIY MEROSIMIZ

*Ergashova Madina Abdusalomovna,
Zarafshon shahar 13-AFCHO'I maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim Alisher Navoiyning ilmiy merosi va yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini o'rgangani sayin komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so'zlarini qalbiga o'rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Bugungi kun yosh avlod tarbiyasidagi ma'naviyat, axloqiy, ilmiy va ma'rifiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy,meros, axloqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy qadriyatlar, falsafiy,huquqiy,badiiy.

Buyuk mutafakkirning ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsak, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini kengroq anglab boraveramiz. Yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini o'rgangani sayin komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so'zlarini qalbiga o'rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma'rifatga intilib yashash ishqi asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Ma'naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushunchadir. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'ni" so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olami uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi va hatti-harakatlari kiradi. Ichki olamiga esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shunday ichki olami ma'naviyatdir. Ma'naviyat va axloq bir- biri bilan bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi. Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotidangina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z

san'atkoridir. Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik ko'p va xo'p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xitoydan to Xuroson" gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o'z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga buyuk ta'sir ko'rsatdi.

Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o'rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko'rina boradi. Adabiy aloqalarning o'rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to'laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o'zbek xalqining adabiyotini o'rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag'ishlagan bu ulug' san'atkorning hayoti va ijodini o'z madaniyatlarini o'z adabiyotlari tarixini chuqur o'rganish, o'zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatgan. Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Ahloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir".

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Shoir insonning ma'naviy kamolotini,

avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish-2 Toshkent : Fan, 2011.-198 b.
2. Yoqubjon Isoqov. Navoiy poetikasi.-T.: Fan, 1983.-167

NAVOIY G'AZALLARIDA SHE'RIY SAN'ATLAR TADQIQI

*O'ljayeva Gulbahor Ro'ziboyevna,
Uchquduq tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Alisher Navoiy asarlarning mazmun-mohiyatini anglash ancha murakkab va mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Ushbu maqolada Navoiy g'azallarida qo'llangan tadrij, talmeh, tanosib kabi ma'naviy she'riy san'atlar mumtoz lirik asarlar misolida tahlil qilingan.*

O'zbek mumtoz adabiyotining uzoq yillik tarixi shundan dalolat beradiki, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy she'riy san'atlar yaratishga alohida e'tibor qaratgan. Alisher Navoiy badiiy san'atlarga doir maxsus asar yaratmagan bo'lsa-da, ko'plab asarlarida ilmi badi'ning ba'zi nazariy jihatlariga to'xtalib o'tadi. Shoir ijodining bebaho xazinasini bo'lgan lirikasini o'rganar ekanmiz, ijodkor ifodalayotgan ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masallar mazmuni va ahamiyati, janrda keltirilgan badiiy timsollar jilosi bilan birga foydalanilgan she'riy san'atlarning rang-barangligi, badiiy tasviri, mantiqiy asoslanishi, g'azallar mazmunini yoritishdagi ahamiyati benihoya ekanligining guvohi bo'lmoqdamiz.

O'zining lirik she'rlari va dostonlarini yaratishda aruzning rango-rang vaznlarini sinchkovlik bilan sinovdan o'tkazgan Navoiy turkiy tillarda ham aruz o'lchovlari asosida turli-tuman janr va shakllarda g'oyat latif lirik asarlar yaratish va yirik dostonlarni bitish mumkinligini amalda isbot ham qilib bergan edi. Bu bilan shoir turkiy tilning beqiyos boyligi va betakror go'zalligini she'riy o'lchov jihatidan ham namoyish qildi.

Navoiy she'riy san'atning mohir san'atkori o'laroq, lirik hissiyotini to'liqroq ifodalash, asarning izchilligini, mantiqiy va she'riy tafakkurning uzviy birligini ta'minlashda tazod, tanosib, talmeh kabi turli ma'naviy san'atlardan mohirlik bilan foydalanadi. Natan Mallayev Navoiy g'azallarini tahlil qilar ekan, shoirni tadrij usulining mohir ustasi deb ta'riflaydi. Tadrij – mumtoz she'riyatda, asosan, g'azallarda muayyan obraz yoki tushunchani o'xshatishlar vositasi bilan darajama-daraja rivojlantirib borishdan iborat badiiy usul hisoblanadi. Navoiy tadrij usulining mohir hassosi sifatida ko'plab voqeaband g'azallar yaratadi hamda bir qator ramziy va ifodaviy obrazlarni g'azalning bosh g'oyasi atrofiga to'pladi.

“Navodir ush-shabob” devonida ham juda ko'plab tadrij usulida yozilgan voqeaband g'azallarni uchratamiz. Devondagi “Ul pariy paykarki, hayron bo'lmish ins-jon anga”, “Mayi la'lingga go'yokim hayoti jon erur mamzuj”, “Ko'rub dardim tarahum qilmading hech”, “Loladek yuzung xayolidin to'la qondur ko'zum” deb boshlanuvchi g'azallar oshiq shoir iztiroblarini, ahvoli va kayfiyatini baytlar ketma-ketligida tadrijiy mazmun uyg'unligida tasvirlaydi.

Tanosib (arabcha “mos”, “mutanosib”) – baytda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni (uyadosh so'zlarni) qo'llash san'ati. Bu san'at turlicha nomlar bilan atalganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, ilmi badi'ga doir

mumtoz manbalarda “*muroat un-nazir*” nomi bilan ham keladi. “Bog‘ aro ne sarv etarmen orzu, ne gul havas” deb boshlanuvchi g‘azalning har misrasida tanosib san‘ati namunalarini uchramiz. Navoiy g‘azallarida tanosib san‘atini yuzaga keltirgan aksariyat birliklar tabiat bilan bog‘liq ko‘rinishda bo‘lsa-da, mazmun ham falsafiy, ham ijtimoiy, ham axloqiy-estetik mutanosibligida bitilgandir. 1-baytda; bog‘, sarv, gul, sarvi gulruksor; 2- baytda: kechakim, sham‘e; yorutg‘amen, subh, 3-baytda: lam‘asi, o‘tig‘a, xas; 4-baytda: Nahli, mevasin; 5-bayt: tan, ko‘nglum; qushig‘a, qafas; 6-bayt: mahmilnishin, havdajda; avg‘on, jaras; 7-bayt: iltimos, desang, multamas.

Shoirning “O‘rtamak” radifli g‘azalining baytlarni qofiya, radif, mazmun va ohang mushtarakligi birlashtirib turadi, ya‘ni marvarid donalari singari baytlarni qofiya bir ipga tizib, g‘azalning dur shodasini yasaydi. Chunonchi, matla‘da ma‘shuqaning go‘zal chehrasini ko‘rgan oshiqning qalb o‘rtanishlari tasvirlanib, bir sham o‘ti butun olamni kuydirishga qodir ekanligi kabi qiyos etiladi. Ikkinchi baytda ma‘shuqaga murojaat qilib, ko‘nglimni o‘zingga maftun aylading, jismimni o‘tga solganing nimasi, qushni ovlab, uning oshyonini kuydirmoq yaxshi odat emasdur, deydi shoir. Uchinchi va to‘rtinchi baytlar tashbih vositalari yordamida badiiy mulohaza va muqoyasalar bo‘lib, ishqning qudratidan go‘zal ma‘shuqa firoqida zaif jismi o‘rtangan oshiqning ko‘ngli tinimsiz ravishda jononiga intiladi. Umuman olganda, g‘azalning barcha misralarida oshiqning masrur tuyg‘ulari, yor jamoliga intilib chekkan o‘rtanishlari g‘azalda bir qancha badiiy vositalar yordamida tasvir etiladi.

Talmeh she‘r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san‘atidir. Shoirlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko‘pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiy va Uzro” kabi qissalar, dostonlarning qahramonlariga ishora qiladilar. Navoiy g‘azallarida bunday ishoralarni juda ko‘p uchramiz. G‘azallarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchi shu kabi asar qahramonlariga ishorani o‘qir ekan, ko‘z o‘ngida mazkur obrazlarning taqdiri, qismati gavdalanadi.

Alisher Navoiy talmeh san‘atidan biror tarixiy voqea, hayrotomuz afsona yoki rivoyatga ishora qilish orqali, uning zamiridagi yashirin ma‘nolarni yoritadi. Navoiy Qur‘on va din ta‘limotiga oid adabiyotlarning bilimdoni bo‘lgan. Ko‘plab g‘azallarida Qur‘on suralarida aks etgan voqealar, payg‘ambarlar, farishtalar nomlariga ishora qiladi. Shuningdek, g‘azallarida *tarixiy shaxslar, tarixiy joy: shahar, qishloq, daryo, hovuz, ko‘l* nomlarining keltirilishi ularning ta‘limiy ahamiyatini oshishida xizmat qiladi. Talmeh san‘ati qo‘llanganda shoir ishora qiladigan afsona, tarixiy voqealar qahramonlari, nomlari ko‘rsatilayotgan shaxslar, albatta, keng o‘quvchi ommasiga tanish bo‘lishi zarur. Shundagina g‘azal matnining asl mazmun-mohiyati o‘quvchi uchun tushunarli va o‘qishli bo‘ladi.

Ushbu misralarda geografik nomlar – g‘azallarning badiiy yuksaklik va real voqelik asosida yaratilganligidan hamda Navoiyning dunyoni ilmiy tasavvur etganligidan darak beradi.

Azmi Bog‘dod-u Buxoro aylagan ahbob uchun
Bersa tong yo‘q elga ashkim Dajlov-u Jayhunni yod.
(“*Navodir ush-shabob*” 124-g‘azal)

Bu baytda *Bog‘dod, Buxoro, Dajlov va Jayhun* so‘zlari talmeh san‘atini yuzaga keltirgan bo‘lib, mazmuni quyidagicha: do‘stim uchun dunyodagi eng go‘zal va mashhur Bog‘dod va Buxoro shaharlarini berishga azm-u qaror qilsam, taajjub, ya‘ni hayronlik yo‘qki, ko‘zlarimdan oqayotgan ko‘z yoshlarim odamlarga Dajlov-u Jayhun daryolarini eslatadi (*Dajlav daryosi Markaziy va Janubiy Osiyo va O‘rta dengiz mamlakatlarini*

birlashtiruvchi yo'llar chorrahasidir. Jayhun – Amudaryoning qadimgi nomi). Ko'z yoshlarining seroblighi ikki ulkan daryoni yodga solishi *mubolag'a* san'atini ham yuzaga keltirib, tasavvuringizda o'zining ifodasini topmoqda.

Ma'lumki, Navoiy Qur'on Karimni yod bilgan va diniy bilimlarni puxta egallagan. Shu boisdan "Nizomiddin Mir Alisher" deb nom olgan. "Nizomiddin" so'zining ma'nosi – din-diyonat nizomi bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat demakdir. Navoiy asarlari sharq islom adabiyotining eng jozibali va betakror namunalari hisoblanadi. Shoir ijodiga tegishli bo'lgan barcha lirik va epik asarlarida Qur'oni Karimda nomlari keltirilgan payg'ambarlar haqidagi turli tarixiy ma'lumotlar badiiy mahorat va kuchli zakovat ila zikr etilgan. Navoiy ijodida ilohiylik va dunyoviylik uyg'unlashib ketgan. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat va saboq maydonidir.

Aslida hazrat Navoiyning betakror ijodini o'rganishga, unda bitilgan so'z sehrini his qilishga barchamiz ehtiyojmandmiz. Navoiyning har biri g'azalida, undagi baytlarida bir olam ma'no, bir olam his-tuyg'u mujassam. Bunday purma'no misralarni o'qib, ko'nglimiz surur va hayajon, ongimiz shuur va olam sir-sinoatlari bilan to'ladi, bu olmos satrlardan yangi ma'nolarni kashf qilamiz. Navoiy she'riyatining asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi. G'azalchilik tarixida Alisher Navoiy yashagan davr – o'zbek adabiyotining haqiqiy boshlang'ich davri, ko'tarilish davri edi. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil qadam tashlayotgan mamlakatimiz aholisi, qolaversa, kelajagimiz hisoblangan yoshlarimiz ma'naviy qudratiga, milliy qadriyatlariga ega bo'lishlari uchun hazrat Navoiyning ijodiy merosidan xabardor bo'lishlari kerak. Albatta, yurtimizning har bir fuqarosi donishmand bobokalonimizning xazinasidagi so'z gavharlarini mazmunan anglab, qalblarida chin vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari bilan yashashlari kerak.

Alisher Navoiy ijodi – ma'nolar ummoni, bebaho xazina. Ulug' shoirning tafakkur gavharlarini kashf etish, ulardan bahramand bo'lish dilga quvvat, ruhga madad bag'ishlaydi, bizni komillik sari yetaklaydi. Alisher Navoiy cheksiz badiiyati bilan ikkinchi Renessans rivojiga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa, innovatsion fikrlari yo'g'rilgan nodir asarlari bilan Uchinchi Renessans davrida ham o'z qiymatini yo'qotmadi. Ya'ni Navoiy g'azallari insonning o'zligini anglashi, komillikka intilishi, hayotda o'zining munosib o'rnini topishi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatib turuvchi katta imkoniyatlar xazinasidir desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bugungi ma'rifatli jamiyat bunyodkorlari vatanimiz kelajagi, Yangi O'zbekiston ertasi ularning aql-u tafakkuriga, ilm va idrokiga bog'liq ekanligini yaxshi anglaydi. Navoiy baytlari qatida yashirinib yotgan ma'nolar shu qadar teran, shu qadar ko'lamliki, u durlar to'la dengizga o'xshaydi. Bu dengizga sho'ng'igan odam, albatta, yangi ma'no durlarini qo'lga kiritib, bahramandlik baxtini tuya oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан. Наводир ушшабоб. – В. 238.
2. Ахунжанов Е. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazriyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. – В. 243.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Тўртинчи том. Наводур ушшабоб. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. – 54.
4. Аъзамов. А. Алишер Навоий ғазалларида ҳазил-мутойиба. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. – Б. 7.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA ISHQ VA RUHIY IZTIROBNING LINGVOPOETIK TALQINI

*O'ljaboyeva Marjona,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy g'azallarida ishq va ruhiy iztirob motivining lingvopoetik talqini o'rganiladi. Shoir lirikasida oshiq va yor obrazlarining semantik-struktur xususiyatlari, aql va ishq munosabati, tasavvufiy g'oyalar ifodasi hamda frazeologik birliklarning badiiy funksiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida g'azal matni filologik va semantik-stilistik metodlar asosida o'rganilib, frazeologizmlarning obraz yaratishdagi o'rni aniqlanadi. Natijada Navoiy g'azallarida ishqning insonni ruhiy poklanish va ma'naviy kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: g'azal, ishq, ruhiy iztirob, tasavvuf, lingvopoetika, frazeologik birlik, oshiq obrazi, yor obrazi, mubolag'a, istiora.

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Alisher Navoiy ijodi alohida bosqichni tashkil etadi. Uning lirik merosi, xususan, g'azallari Sharq she'riyatining estetik mezonlarini yangi bosqichga ko'tardi. Navoiy ijodida ishq mavzusi yetakchi g'oyaviy yo'nalish bo'lib, u orqali shoir inson ruhiyati, qalb iztirobi va ma'naviy komillik masalalarini yoritadi. Mumtoz she'riyatda ishq ko'pincha ilohiy va dunyoviy ma'nolar uyg'unligida talqin qilinadi. Navoiy ham ushbu an'anani davom ettirgan holda, ishqni insonni poklovchi va sinovdan o'tkazuvchi qudrat sifatida tasvirlaydi. G'azallarda oshiqning iztirobi, hijron azobi va sadoqati orqali komillikka intilish g'oyasi ilgari suriladi.

G'azal matni tarkibidagi obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari hamda frazeologik birliklar kontekstual jihatdan o'rganildi. Ularning matn semantikasini shakllantirishdagi roli aniqlashtirildi. Navoiy lirikasida ishq oddiy hissiy kechinma emas, balki ontologik mazmun kasb etgan tushunchadir. Shoir talqinida ishq insonni o'z "men"idan voz kechishga, o'zligini anglashga va yuksak haqiqat sari intilishga undaydi. Ishq jarayoni iztirob bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Oshiqning ruhiy holati ko'pincha dramatik tasvirlarda ifodalanadi. Qalbning jarohatlanishi, ko'z yoshlarining daryo bo'lishi, bag'ring qon bo'lishi kabi tasvirlar orqali ichki kechinmalar kuchli badiiy bo'yoqda beriladi. Bu yerda mubolag'a san'ati muhim rol o'ynaydi. Mubolag'a oshiq iztirobining miqyosini kengaytirib, uni umuminsoniy darajaga olib chiqadi. Ushbu g'azal Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonining 9-raqami ostida joylashgan, so'zlar miqdori 122 so'zdan iborat bo'lib, ishqiy mavzudagi g'azal hisoblanadi.

Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,
Necha bag'rim bo'lsa qon, boqmas dame dildor anga.

Bir yuguruk tiftl erur kirpiklarim ichinda yosh
Kim, yiqilib sonchilibtur har tarafdin xor anga...
Zor ko'nglum tushkali hajr o'tidin g'am changiga,
Ey Navoiy, o'xshashur ham ud anga, ham tor anga.

Oshiq va yor obrazlari tizimi: G'azalda oshiq obrazi sadoqat, fidoyilik va sabr timsoli sifatida namoyon bo'ladi. U yorning e'tiborsizligiga qaramay, muhabbatidan voz kechmaydi. Yor esa ko'pincha go'zallik va jamol timsoli sifatida tasvirlanadi.

Yor obrazining ikki qatlamli talqini mavjud:

1. Dunyoviy ma'no – go'zal ma'shuqa;
2. Tasavvufiy ma'no – ilohiy jamol timsoli.

Shu jihatdan oshiqning yorga intilishi majoziy va haqiqiy ishq uyg'unligida talqin qilinadi. Navoiy g'azallarida aql va ishq o'rtasidagi ziddiyat poetik vosita sifatida keng qo'llanadi. Aql insonni ehtiyotkorlikka undasa, ishq uni cheksiz sadoqat va fidoyilik sari boshlaydi. Shoir nazarida ishq aql chegaralarini buzadi, biroq bu buzilish ma'naviy yuksalish yo'lidagi zarur bosqichdir. Tasavvufiy qarashlarga ko'ra, haqiqiy ishq insonni nafs qulligidan ozod etadi. Shu bois g'azallarda "devonalik" ijobiy semantik yuklama kasb etadi. Shoirning majoz tariqida boshlangan g'azallari nihoyada haqiqiy ishq vasfi bilan intiho topadi, g'azallarida tasvirlangan "yor" tushunchasi tor ma'noda ma'shuqa timsolini ifodalash bilan birga keng ma'noda "do'st", "rafiq", "ustoz", "piri komil", Rasululloh (s.a.v.) va Alloh ma'nolarida ham kelishi mumkin.

Frazeologik birliklarning lingvopoetik tahlili: Navoiy g'azalidagi frazeologik birliklar obrazlilikni kuchaytiradi. Lingvopoetik jihatdan mazkur frazeologizmlar bir necha funksional qatlamda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular emotsional-ekspressiv yukni kuchaytirib, lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini intensivlashtiradi. Ikkinchidan, baytlar o'rtasida semantik izchillik hosil qilib, g'azalning kompozitsion birligini mustahkamlaydi. Uchinchidan, frazeologik birliklar metaforik va ramziy ma'no kasb etib, dunyoviy ishq tasvirini tasavvufiy-falsafiy talqin darajasiga ko'taradi. Jumladan:

"Ko'ngli pora bo'lmoq" iborasi chuqur ruhiy jarohatni bildiradi. Ko'ngilning "pora" bo'lishi metaforik xarakterga ega bo'lib, qalbning izdan chiqishini anglatadi. Bu birlik oshiqning ichki dramtizmini kuchaytiradi. **"Bag'ri qon bo'lmoq"** iborasi kuchli iztirob va alam ma'nosini bildiradi. "Qon" komponenti iztirobning yuqori darajasini ifodalovchi semantik vosita hisoblanadi. Natijada oshiqning ruhiy azobi jonli tasvirda namoyon bo'ladi. **"Jonini olmoq"** – maftun etmoq, mavh etmoq ma'nolarida ifoda etilgan. Yor nigohi o'ldiruvchi kuch sifatida tasvir qilinmoqda. **"Jon bermoq"** – bu frazeologik birlik fidoyilikni anglatadi. G'azal kontekstida u oshiqning yor yo'lida o'z hayotini ham ayamaydigan darajadagi sadoqatini ifodalaydi. Tasavvufiy talqinda esa "jon bermoq" nafsdan kechish, ilohiy ishq yo'lida o'zlikni qurbon qilish ma'nosini bildiradi. Frazeologik birliklar matnning semantik yaxlitligini ta'minlab, ishq konseptining badiiy ifodasini kuchaytiradi. **"Ko'z yumub ochmoq"**– juda qisqa vaqt ichida, bir lahzada sodir bo'luvchi ish. Umruga nisbatan qo'llanilmoqda.

1-jadval. Frazeologik birliklarning g'azal matnidagi ifodasi.

| | |
|-----------------------------|---|
| Ko'ngli pora bo'lmoq | Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas yor anga |
| Bag'ri qon bo'lmoq | Necha bag'rim bo'lsa qon, boqmas dame dildor anga |
| Jonini olmoq | La'ling ollida chekar el jonini olg'ach ko'zung |
| Jon bermoq | Vah, ne sharbatdur labingking, jon berur bemor anga |
| Ko'z yumub ochmoq | Ko'z yumub ochquncha kimning etimodi bor anga |

Alisher Navoiy g'azallarida ishq va ruhiy iztirob masalasi chuqur badiiy-falsafiy mazmunda talqin qilinadi. Shoir iztirobni salbiy hodisa sifatida emas, balki insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida baholaydi. Frazeologik birliklar esa ushbu jarayonni ifodalashda muhim lingvopoetik vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada g'azal inson ruhiyatining murakkab va serqatlam olamini ochib beruvchi yuksak poetik namuna sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M.A. and Gulomova N. S. Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words, 2024 IEEE 3rd International Conference on

- Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.
2. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N. The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
3. Rahmatullayev.Sh, Mahmudov.N, Xolmanova.Z, O'razova.I, Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
4. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik/darslik. – Toshkent: "Tamaddun", 2019. –520 b.
5. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodir ush-shabob" devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlar // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
6. <http://alishernavoicorpus.uz/uz>

BUHOROGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UNING IJTIMOYIY-MADANIY AHAMIYATI

*Sadriddinov Behzod Baxriddinovich,
Buhoro davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom dinining Buxoro hududiga kirib kelishi jarayoni, uning tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-madaniy ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Maqolada VII-VIII asrlardagi arab istilosining kechishi, mahalliy xalqlarning qarshilik harakatlari, islom dinining mustahkamlanishiga olib kelgan omillar, shuningdek, IX-X asrlarda Buxoroning yirik diniy va ilmiy markazga aylanishi kabi masalalar atroflicha o'rganiladi.

Tayanch iboralar: Buxoro, islom, Movarounnahr, arab istilosi, somoniylar, madaniyat, fiqh, hadis.

Abstract. This article analyzes the process of Islam's introduction into the Bukhara region, its historical stages, and socio-cultural impact based on scholarly sources. It examines the Arab conquests of the 7th-8th centuries, local resistance movements, factors contributing to the consolidation of Islam, and Bukhara's transformation into a major religious and scientific center in the 9th-10th centuries.

Keywords: Bukhara, Islam, Transoxiana, Arab conquest, Samanids, culture, Islamic jurisprudence (fiqh), hadith.

Аннотация. В данной статье на основе научных источников анализируется процесс проникновения ислама на территорию Бухары, его исторические этапы и социально-культурное влияние. Раскрываются арабские завоевания VII-VIII веков, местные движения сопротивления, факторы укрепления ислама и превращение Бухары в крупный религиозно-научный центр в IX-X веках.

Ключевые слова: Бухара, ислам, Трансоксиана, арабское завоевание, Саманиды, культура, исламское право (фикх), хадис.

The territory of Central Asia, particularly Transoxiana, has long been a crossroads of civilizations. The city of Bukhara, located in this region, held special significance as a political, economic, and cultural center. From the second half of the 7th century, Islam

began to spread into this area. This process initially had a military-political character but later deepened through social, spiritual, and scientific factors.

Islam entered Transoxiana through the armies of the Arab Caliphate. In 673-675, Ubaydullah ibn Ziyad conducted the first campaigns against Bukhara. However, the complete conquest of the territory occurred at the beginning of the 8th century. Between 705 and 715, as a result of military campaigns led by Qutayba ibn Muslim, the territory of Transoxiana, including Bukhara, was incorporated into the Arab Caliphate (in 709). Initially, resistance movements were observed among the local population. Uprisings erupted under the leadership of the Bukhara queen Khatun. However, due to political pressure and economic factors, the region gradually began to fall under Islamic

and the language of scholarship; Islamic jurisprudence (fiqh) and doctrinal influence.

During the period of Arab rule: Mosques and religious centers were constructed;

Arabic spread as the official language teachings developed. In the widespread propagation of Islam, not only military force played a crucial role, but also trade relations, the concept of social equality, and the integration of local nobility into the new political system. As a result, the Islamic faith gradually became ingrained in the way of life of the local population. During the reign of the Samanid state in the 9th-10th centuries, Bukhara emerged as a major political and religious center. During this period:

Bukhara became the capital of the state; Madrasas and libraries were established;

Islamic sciences flourished. It was during this era that the great hadith scholar Imam al-Bukhari rose to prominence. His work "Al-Jami' as-Sahih" is recognized as one of the most reliable hadith collections in the Islamic world. Bukhara was bestowed with the title "Qubbat ul-Islam" - meaning the Dome of Islam. This designation reflects the city's religious and spiritual prestige.

The introduction of Islam to Bukhara can be evaluated as a two-stage process:

1. Military-political stage (7th-8th centuries) - conquest of the territory;
2. Spiritual and cultural stage (9th-10th centuries) - the deep-rooting of Islam and its transformation into a center of learning.

Historical processes demonstrate that the stability of any religious change depends on its harmony with culture and knowledge. In the case of Bukhara, Islam, synthesizing with local traditions, gave rise to a new era of renaissance.

Conclusion

The introduction of Islam to Bukhara marks one of the most significant turning points in Central Asian history. The process, which initially began through military campaigns, was later consolidated through advancements in science, education, and culture. Consequently, Bukhara emerged as one of the major centers of Islamic civilization during the 9th-10th centuries.

This historical process continues to be reflected in the spiritual heritage of Bukhara to this day.

Bibliography

1. Narshakhi. (1993). History of Bukhara. Tashkent: Fan.
2. at-Tabari. (1989). Tarikh ar-rusul val-muluk (The History of al-Tabari). Albany: State University of New York Press.
3. al-Baladhuri. (1916). Futuh al-buldan. Leiden: Brill.
4. Richard N. Frye. (1975). The Golden Age of Persia. London: Weidenfeld & Nicolson.
5. Vasily V. Barthold. (1963). Turkestan Down to the Mongol Invasion. London: Luzac & Co.
6. C. E. Bosworth. (1996). The New Islamic Dynasties. Edinburgh: Edinburgh University Press.

2-SHO'BA. TA'LIM TIZIMIDA NAVOIY ASARLARINI O'QITISH MUAMMOLARI.

OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI MISOLIDA BADIY TASVIR VA ESTETIK TAHLIL

*Djurayeva Perdegul Saidovna,
Navoiy viloyat PMM dotsenti*

Annotatsiya: *Badiiy asarlarda kishilar hayoti bilan turli darajada aloqador holda bo'lgan voqealar ham aks ettirilishi, Oybekning "Navoiy" romani misolida badiiy chizgilar, "badiiy insonshunoslik"ning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq tasavvur etish zarurligi, inson badiiy tahlili xarakterining shakllanishini, Alisher Navoiyning davlatda islohotlar o'tkazishdagi iste'dodini o'rganish omillari.*

Kalit so'zlar: *tarixiy asar, Oybek, Alisher Navoiy, kitob, tasvir, munosabat, talant, iste'dod, adib, qarashlari, insoniyat, adabiyot, badiiylik, jamiyat.*

Аннотация: *Необходимость более четкого осмысления специфики «гуманитарных и художественных наук» на примере романа Ойбека «Навои», необходимость изучения формирования характера художественно-аналитического мышления личности и таланта Алишера Навои в проведении реформ в государстве.*

Ключевые слова: *историческое произведение, Ойбек, Алишер Навои, книга, образ, отношение, талант, писатель, взгляды, гуманизм, литература, искусство, общество.*

Abstract: *The need to more clearly imagine the specific features of "artistic humanities" in the case of Oybek's novel "Navoiy", the need to study the formation of the character of artistic analysis of a person, and the talent of Alisher Navoi in carrying out reforms in the state.*

Keywords: *historical work, Oybek, Alisher Navoi, book, image, attitude, talent, talent, writer, views, humanity, literature, artistry, society.*

Tarixiy mavzudagi asarlarda vaziyat, binolar, uy jihozlari tasviri kitobxonda aks ettirilgan milliy, ijtimoiy-tarixiy ruh, kishilarning yashash tarzi haqida tasavvur hosil qiladi. Ba'zida bir narsa yoki uni eslatishning o'ziyoq kishilar haqida, ularning o'y-tuyg'ulari, o'zaro munosabatlari to'g'risida muhim va turli-tuman tasavvurlar tug'dirishi mumkin. Badiiy asarlarda kishilar hayoti bilan turli darajada aloqador holda bo'lgan voqealar ham aks ettiriladi. Ko'pincha narsalar kishilar xarakterini yoki undagi biron xususiyatni tushunishga yordam beruvchi vosita sifatida ko'rsatiladi.

Oybekning "Navoiy" romanidagi XV asr yodgorliklari, madrasalar, bozorlar tasviri shunday vazifani bajaradi. Bunday badiiy tasvir markazida kishilar, ularning hayoti, ishlari, o'y-tuyg'ulari, kurashlari, tabiatga va jamiyatga munosabatlari, o'zaro aloqalari turishi ayon bo'ladi. Biroq inson faqat adabiyot va san'atninggina mavzusi emasligini unutmaslik lozim. Insonni o'rganish bilan fiziologiya, tarix, antropologiya, etnografiya, ruhshunoslik singari qator tabiiy va ijtimoiy fanlar ham shug'ullanadi. Bu hol "badiiy insonshunoslik"ning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq tasavvur etish zarurligini taqozo qiladi. Adabiyot va san'atda insonni badiiy tarzda talqin qilish fandagidan dastavval shu bilan farqlanadiki, ular o'z manbaini ilmdagi kabi qismlarga ajratib emas, balki jonli yaxlitlikda, bir butunlikda tadqiq qiladi. Jonli yaxlitlik, bir butunlik san'at va adabiyot mavzusining eng muhim xususiyatlaridan, ularning mavjudligi uchun zarur bo'lgan shartlardan biri hisoblanadi. Bunday yaxlitliksiz san'at va adabiyot kishilarning butun

vujudiga ta'sir o'tkazish qudratiga ega bo'lgan jonli obrazlar bunyod etolmas edi. O'zbek demokratik adiblari o'z zamonlaridagi yangiliklarni qalamga olish bilan cheklanib qolmadi, balki xalq e'tiborini uning hayotidagi eng muhim, murakkab tomonlarga qaratishga harakat qildilar. Shuning uchun ham, ularning asarlarida mehnatkash xalq hayotining ayanhli manzaralari, hukmron sinflardan norozilik g'oyalari keng o'rin oldi.

Ko'rinadiki, o'tgan asrdagi ulkan yozuvchilar ijodi bilan o'sha zamon xalq hayoti orasida mustahkam aloqa vujudga kelgan. Bunday aloqa bizning davrimizda ham mavjud. Adabiyot mavzusi bilan zamonaviylik orasidagi inunosabatni to'g'ri tushunmoq uchun zamonaviylik tushunchasining mohiyatini anglab olmoq zarur. Ko'pincha bu tushuncha soxtalashtiriladi va ko'pchilikka ahamiyati bo'lmagan zamonaviy mavzu haqidagi tasavvur bilan almashtirib yuboriladi. Hozirgi hayot mavzulari asosida bitilgan asar har doim ham chinakam zamonaviy bolavermaydi va kitobxonlar uchun muhim hisoblangan savollarga javob beravermaydi. Aksincha, uzoq tarixiy o'tmishni aks ettiruvchi asarlar ham chuqur zamonaviy ruh kasb etishi mumkin. Demak, o'tmishning yozuvchi yashayotgan zamonga hamohang bo'lgan tomonlarini aks ettirish kitobxonga bevosita uning davrini yorituvchi asarlar darajasida ta'sir oltkazishi mumkin.

Yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisaning zamonaviyligi yoki zamonaviy emasligini aniqlashda ikki holni, ya'ni tarix ehtiyojlarini va adabiyot taraqqiyoti oldida turgan vazifalarni hisobga olish zarur bo'ladi. Darhaqiqat, agar asarning muammolari, unda aks ettirilgan hodisalar zamon manfaatlari va turli ijtimoiy gumhlar, xalq ommasi, butun insoniyat ehtiyojlari bilan yo'g'rilsa, bu hodisalarni qamrab otishning ko'lami, ulardagi ayrim tomonlar mohiyatini ochishning chuqurligi adabiy taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Demak, tarixiy o'zgarishlarni adabiy tasvir ko'lami bilan bog'liq holda idrok etish bu ko'larning muayyan zamon va ijtimoiy hayot sharoitlari, badiiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan nurlanganligini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Badiiy adabiyot ham o'zining anglangan maqsadiga ega. Uning tarixiy taraqqiyoti va buyuk namunalari shundan guvohlik beradi. Yuqorida aytganimizdek, yozuvchilar inson va uning hayotini bosh tasvir mavzusi qilib olish hamda voqelikdagi turli tomonlar va hodisalarni unga bog'liq holda aks ettirish yo'li bilan muayyan insonshunoslik va insonparvarlik masalalarini ham hal qiladilar. Adabiyotning mavzusi kabi maqsadi ham o'ziga xos bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, inson adabiyotning mavzusigina emas, balki maqsadi ham hisoblanadi. Inson badiiy tahlilning bosh mavzusi bo'lish bilan bir vaqtda xarakterning shakllanishini, fikr tuyg'ularning boyib borishini talqin etish haqiqiy san'at asarining maqsadi bo'lib qoladi.

Qadim zamonlarda "adabiy asar yaxlitligi undagi bosh qahramonning yagonaligi bilan belgilanadi" degan fikr keng tarqalgan edi. Lekin Aristotel o'sha zamonlardayoq, Gerkules haqidagi hikoyalar bitta qahramonga bag'ishlangani bilan turli-tuman asarlar ekanini, juda ko'p qahramonlarga ega bo'lgan "Iliada" esa yagona, tugal birasarliligini aytib, yuqoridagi fikr xatoligini isbotlagan edi. Aristotel fikrlarining haqqoniyligiga yangi davr adabiyoti materiali misolida ham iqror bo'lish mumkin. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanida ham, L.G.Batning "Hayot bo'stoni" povestida ham, Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasida ham Navoiy obrazi mavjud. Shunday bo'lsa-da, bular mutlaqo birlashib ketmagan, balki alohida-alohida asarlar bo'lib qolaveradi. Adabiy asarning yaxlitligi, bir butunligi, yuqorida ko'rganimizdek, bir nechta asarda yagona qahramon mavjudligi bilan emas, balki qo'yilgan muammoning va ilgari surilgan g'oyaning yagonaligi bilan belgilanadi.

Talant tug'ma bo'lmaydi, uning nishonalari tug'ma boiadi, kuzatuvchanlik, mustaqillik, xotira o'tkirligi, xayolchanlik, individuallik ravnaqi talantning paydo

bo'lishiga olib keladi, ammo u doimo tashqi ta'sirga muhtoj, qiziqishga qaraydi. Talant taraqqiyot uchun zarur, u jamiyatni tez o'stiradi. Talant grekcha mezon degani va u darajalarga ega. Talant ishini yaxshi, tez va sifatli bajaradi, ammo inson o'zida nimaga talant borligini bilishi lozim va u bilan maxsus shug'ullanishi kerak. Talant shu sababli shaxsiyat, bilimdonlik (bilim, dunyoqarash va malaka), yetarli mehnat qilish, sharoit mavjudligi kabi masalalarga bog'liq. Qatag'onlik davrida ijod uchun yetarli sharoit yo'q edi. Talantli bo'lishning bu shartlari Oybekda mujassamdir. "Navoiy" romanining jahonda yigirmadan ortiq tillariga tajjima qilinishida buni yaqqol ko'rish mumkin. Bu roman o'zbek adabiyotini XX asrda jahon miqyosiga olib chiqqan asarlardan biridir. Turkiy xalqlar ichidan chiqqan "titan shoir" deb Alisher Navoiyni aytish mumkin. Qisqasi, iste'dod badiiylikning bosh mezonidir. Kulminatsiya yozuvchi uslubiga ko'ra asaming oxirida, o'rtasida va hatto boshida ham kelishi mumkin. Iste'dod - mezonlaming birinchisi va asosiysi. Iste'dod va boshqa mezonlami ham Oybekning "Navoiy" romani misolida estetik tahlil qilib ko'ramiz ("Navoiy" romani 1942-yili yozib tugallangan, 1944-yili bosilib chiqqan). Har qanday talant asosida layoqat, qobillik, qodirlik turadi, layoqat o'ta sezgirlik va faoliyat (praktika) bilan bog'liq. Navoiy timsolida uning iste'dodi va talantini adib o'z asarida boshqaruvdagi islohotlarini joriy etishdagi faoliyatida aks ettiradi. Alisher Navoiy davlatda islohotlar o'tkazish masalasini qo'yadi, bu islohotlarning asoslari quyidagicha edi:

1) "Jamiki muqaddasotdan xalq so'zi aziz" (421-bet).

2) "Mamlakat, davlat, el-ulus sulh va osoyishtalikka nihoyat tashna ekan, hayot va salomatlik yolg'iz shu kalimaga bog'iiq" (432-bet) (ammo bu o'sha davrda "imkonsizdir").

3) "Mamlakat boshida tili bilan dili bir bo'lgan, yolg'iz xalq manfaatini o'ylagan, oliy ruhli, pok vijdonli insonlar turmas ekan, hayot sabzasi tobora so'lur" (378-bet).

4) "Behuda qon to'kmak, yurtni parchalamoqdan azim gunoh yo'q" (376-bet).

5) "Hatto tojdor podsho ham davlat va xalqni o'z kayflari uchun o'yinchoq qilmoqqa haqli emas" (417-bet).

6) "Davlatning qonun va qoidalari oldida shoh-u gado barobar" (381-bet).

Voqea rivoji Navoiyni nazariyotchigina emas, balki amaliyotchi sifatida ham ko'rsatadi. Navoiy asli yumshoq ko'ngil, nozik ta'b, ziyrak, sezgir, dono, ishbilarmon bir kishi sifatida gavdalanadi. Sujet Navoiyni adolatli podsho g'oyasi uchun kurashuvchi va temuriylar saltanatini himoyaga oluvchi etib ko'rsatishga qaratilgan. Oybek "Navoiy" romanida bu ulkan ichki va tashqi an'analarni o'rgandi va o'ziga tegishli xulosa chiqardi. "Navoiy" romani birinchi tarixiy-biografik asardir. Unda Navoiy hayoti ilk maria o'z davri ilg'or g'oyalari fonida, psixologizm (ruhiyat) rejasi usulida, yuksak badiiy idrok etildi. Navoiy obrazi yetuk va barkamol nasriy, epik xarakter darajasiga ko'tarildi. Navoiy o'z muhiti kishilari doirasida, sababli shartlangan voqealar ichida real gavdalantirildi va qayta yaratildi. "Navoiy" romani XX asr o'zbek adabiyotidagina emas, balki butun o'zbek adabiyotida ham badiiy kashfiyot va yangilik bo'lib qoldi. "Navoiy" romani Oybekni genial (daho) yozuvchi darajasiga ko'tardi, bu roman Oybekning jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan munosib ulushidir.

Asarda voqea rivoji ham katta ahamiyatga ega. U asar tugunidan boshlanadi. Voqea rivojida kishilar orasidagi munosabat va ziddiyatlar yuzaga chiqadi; insoniy xarakterlarning turli-tuman qirralari ayon bo'ladi, shaxslarning shakllanishi va ulg'ayish tarixi aks etadi. Agar tugun kitobxonning asarda ko'rsatilgan muammoni tushunishiga yo'l ochsa, voqea rivoji jumboqning hal etilishi yo'llari haqida ham mulohaza tug'diradi.

Davr va yozuvchining o'ziga xos uslublari ijodiy metodlar, ya'ni romantizm va realizm jihatdan farq etadi. "Navoiy" romanidagi uslub realistik, Oybekning bu romanidagi uslubi bilan boshqa yozuchilarning realizmda yozilgan asarlari uslubi o'rtasida umumiylik bor. Ayni holda, bu asarlarning o'ziga xos uslubi ham mavjud. Oybekning "Navoiy" romanidagi uslub ham shu asarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari va bayon tarzida namoyon bo'ladi. Oybek asar tilini XV asr "chig'atoy tili"ga yaqinlashtirishga urinadi, ammo bunda romanning hozirgi zamon kishisiga tushunarli bolishi nazarda tutilgan. Biz yuqorida adabiyotning xosiyatiga kiruvchi obraz yaratish omillari va Navoiy obrazi masalasini tahlil etdik, bu omillardan samarali naf olish Navoiy xarakterining to'laqonli va yetuk bo'lishiga olib keladi. Navoiyning ijod jarayonlari yaxshi aks etgan, mahalliy xalqning qiliqlariga ahamiyat katta: "Ravshan ko'rish uchun qo'lini qoshlari ustiga qo'yib tikildi" (340-bet).

O'zbek adabiyotida realistik ijodiy usul, ayniqsa, tarixiy janrda jiddiy samaralar bergan Oybekning "Navoiy" asari O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani va Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragcdiyasi va boshqa ko'pgina asarlar kabi fikrimizning dalili bo'la oladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Adabiyotshunoslikka kirish. Xudoyberdiyev Erkin; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 304 b.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish
3. www.ziyouz.com kutubxonasi

NAVOIYNING "AYT" VA "DEYIN" RADIFLI G'AZALLARI TARJIMASIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

*Razzakova Muqaddas Nurumbetovna,
Qoraqalqog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Navoiy g'azallari qoraqalpoqcha tarjimalarida badiiy san'atlarning qo'llanilishi asliyat bilan qiyosiy holda o'rganilgan.

Annotation. In the article, the use of artistic arts in karakalpak translations of Navoi's ghazals is studied in a comparative manner with the original.

Аннотация. в статье изучается использование художественных приемов в каракалпакских переводах газелей Навои в сравнении с оригиналом.

Kalit so'zlar: g'azal, badiiy san'at, tashbihi muqayyad, radd ul matla', radif, qofiya, bayt.

Key words: ghazal, artistic art, tashbihi muqayyad, radd ul matla', radif, rhyme, verse.

Ключевые слова: газель, художественное искусство, ташбихи мукайяд, рadd уль матла, радиф, рифма, стих.

Taniqli shoir va tarjimon S.Ibragimov hozirgi zamon qoraqalpoq she'riyatida Navoiy g'azallarini tarjima qilib kelmoqda. Xususan, "Qoraqalpoq adabiyoti" gazetasi 2020-yil №2 (110) sonida "Mangi bulaqlar" sahifasida Navoiyning 20 ta ruboiysi, 7 qit'asi, 3ta g'azali, 10 ta hikmatli so'zi S.Ibragimov tarjimasida bosilib chiqqan. Shuningdek, Navoiyning S.Ibragimov tomonidan tarjima qilingan 10 ta g'azali mazkur gazetaning 2022-yil №1-2 (133-134)-sonida "G'azeller" nomi ostida bosilib chiqqan. Keyinchalik, S.Ibragimov va D.Aytmuratov tarjimalari 2020-yilda "G'azeller" nomi ostida kitob holida nashr qilingan.

Navoiy g'azallari tarjimasida badiiy san'atlarning qay darajada saqlanganligini S.Ibragimov tarjimasidagi "Ayt" va "Deyin" g'azallari misolida ko'rib chiqamiz. Navoiyning "Ayt" radifli g'azali matla'sida tashbihi muqayyad san'ati qatnashgan. Birinchi baytda vaji shabih va vositayi tashbihning har ikkalasi tushirib qoldirilgan. Bu holda faqat mushabbih va mushabbihun bihdan tashkil topgan o'xshatish tashbihi muqayyad deb nomlanadi. Tashbihi muqayyad tashbihning boshqa turlariga qaraganda o'xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi:

Ey nasimi subh, ahvolim diloroming'a ayt,

Zulfi sunbul, yuzi gul sarvi gulandoming'a ayt.

Tarjimada ham asliyatdagidek "**Zulpi súbil, júzi gúl**" tashbihlari qo'llanilib, tashbihi muqayyad san'ati saqlangan:

Áy tań samalı, halımdı dilaramımaayt,

Zulpi súbil, júzi gúl, sárwi gúlandamıma ayt.

Asliyatda:

Buki la'li hasratidin qon yutarmen dam badam,

Bazmi aysh ichra labo-lab bodaoshomimga ayt.

Baytdagi "la'l – qip-qizil lab, sevgilining labi [1;169];labo-lab – 1.limma-lim, liq to'la; 2.yetarli darajada; 3.kam-ko'stsiz; barobar; silliq; bodaoshom–mayxo'r" [4;51]degan ma'nolarni bildiradi. Baytda o'xshatish, mubolag'a san'ati qo'llanilgan. Qirmiz rangli tovlanuvchi tosh ham la'l deb nomlanadi. Demak, yor labi qip-qizil lab yoki qimmatbaho toshga o'xshatilmogda. Baytda tasvirlanishicha, oshiq yigit yorining qip-qizil labi hasratida dam badam qon yutadi, aysh-ishrat bazmida may quyilgan limmo-lim qadahlarni ichish bilan mashg'ul mayxo'r yorga buni aytish kerak.Tarjimada:

Sebeb lalı há siretinen qan jutarman dembe-dem,

Áysh-bázimde áline gúlgin sharap tutqanıma ayt.

Tarjimada asliyatdagi ma'no-mazmun saqlangan. Keyingi bayt asliyatda:

Kom talxu boda zahru ashk rangin bo'lganin,

Lali shirin, lafzi rangin, sho'xi xudkomimga ayt.

Kom – og'iz, tanglay, maqsad, baxt [1; 123];talx –yamon, achchiq [2;173]; sho'x-o'ynoqi chaqqon [2;556]; xudkom-faqat o'z manfaatini ko'zlovchi [2;424]Tazod san'atidan foydalanilgan: talx-shirin. Ro'zg'orim izdan chiqqanligini, shirin narsalar ham achchiq, boda zahar, ko'z yoshi rangin bo'lganin, labi shirin, lafzi turfa xil,o'ynoqi, faqat o'z manfaatini ko'zlovchimga ayt, degan ma'no anglashiladi. Tarjimada esa ifoda biroz siyqalashib qolgan. xudkomimga ayt so'zi "lábizi zaqqımıma ayt" deb tarjima qilingan. "Zaqqım-bir nárseden qayt bolıw, biyzar bolıw" degani.

Sharabım talq boldı, kózjasım záhár boldı –

Buni barıp lábi shiyrin, lábizi zaqqımıma ayt.

Navoiyning "Deyin" radifli yetti baytli g'azalida "deyin" so'zi radifda 8 marta takrorlanib kelgan. Bundan tashqari, misralar ichida yana 12 bor takrorlanadi. Jami 20 marta deyin so'zi takrorlangan. Radd ul-matla' (matla'ni takrorlash) san'atidan foydalanilgan: ya'ni birinchi misra g'azalning so'nggi misrasi sifatida yana bir bor takrorlanadi. Bu takrorlar g'azal ohanggi, jaranggini, fikr ta'kidini kuchaytirib, oshiq hishayajoni ifodasini yaqqol tasvirlagan.

Tarjimada esa "deyin" radifi misra oxirida "ekenin aytıw kerek pe" deb takrorlangan. U faqat radifdagina 8 marta qo'lanilgan. Misra ichida "deyin" so'zi birinchi baytda tushirilgan. Natijada badiylikka putur yetgan:

Qasın – káman, kóziń – qara ekenin aytıw kerek pe,

Hárbiriniń kónlime bále ekenin aytıw kerek pe?

Radd ul-matla san'ati ham g'azal so'nggida aynan qo'llanilmagan:

Áy Nawayı, zalımnın kózi-qasının táriyipin tuwar,

Ol yardın qası káman, kózi qara ekenin aytıw kerek pe?

Baytlarning birinchi misralarida saj' san'ati qo'llanilib, ikkinchi misralar oldingi misralarga qofiyadosh bo'lib kelgan. G'azalda maqta'ning birinchi misrasidan tashqari barcha baytlarda ichki qofiya, radif mavjud. Buni quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin:

| Asliyatda | | | | Tarjimada | | |
|-----------|--|--------------|-------|---|---------------|--------------------------|
| Ba yti | Qofiyasi | Ichki radifi | Radif | Qofiyasi | Ichki radifi | Radifi |
| 1 | yosinmu, qarosinmu, balosinmu | deyin | deyin | káman, qara, bále | radif yo'q | ekenin aytıw kerek pe |
| 2 | qahrinmu, zahrinmu, safosinmu | deyin | deyin | qáhárin, záhárin, aman | aytsam | ekenin aytıw kerek pe |
| 3 | dardinmu, nabardinmu, davosinmu | deyin | deyin | dártin, jábirin, dawa | aytsam | ekenin aytıw kerek pe |
| 4 | dominmu, kalominmu, adosinmu | deyin | deyin | dálilin, kálamın, bosatarın | aytsam | aytıw kerek pe |
| 5 | xolinmu, niholinmu, qabosinmu | deyin | deyin | qalıńdı, sárwi, shapandı | aytsam | aytıw kerek pe |
| 6 | ranjinmu, shikanjinmu, jafosinmu | deyin | deyin | biyráhim, miyrimsiz, jábriw-japasın | desem | aytıw kerek pe |
| 7 | yosinmu, qarosinmu, | deyin | eyin | káman, qara | radif yo'q | ekenin aytıw kerek pe |

E'tibor qilinsa, Navoiy ushbu g'azalda qofiyalarni chinakam mahorat bilan qo'llab, o'zgacha bir ohangdoshlikni yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Navoiy ushbu g'azali bilan she'riyatimizdan birinchi bo'lib musalsal qofiyali g'azal yaratgan. "Musalsal "zanjirli" ma'nosidagi bu so'z barcha misralari qofiyalangan lirik she'rni ifodalaydi. Forsiy va turkiy adabiyotlarda barcha misralari qofiyalangan she'rlar kam bo'lsa-da yaratilgan"[3;231].

Har baytning birinchi misrasidagi ikkita qofiya ikkinchi misradagi asosiy qofiyasi bilan uyg'un holda g'azalga ayricha jilo bag'ishlagan. Tarjimada esa ichki qofiya tugul, asosiy qofiya ham, saj' san'ati ham yo'qolgan. To'g'ri, tarjimada asliyatdagi mazmun saqlangan, lekin g'azalda ohangdoshlik-qofiya, vazn ham bo'lishi shart. S.Husaynning fikricha, badiiy tarjima sohasida shunga erishmog'imiz kerakki, har bir yozuvchi biron badiiy asarni tarjimaga olar ekan, unga xuddi orginal asar yozayotganday sevib kirishsin. Badiiy tarjima – badiiy sharafli ish bo'lib, bilim va san'atkorlikni talab etadi. [5;68]

Xulosa qilib aytganda, S. Ibragimov tarjimalarida imkon qadar asliyat ruhini saqlab qolishga intilgan. Qayd etilgan ayrim kamchiliklar esa tanqid sifatida emas, balki tarjimonning keyingi ishlarida ularga yanada e'tibor qaratishi uchun bildirilgan mulohazalar sifatida baholanishi lozim. Tarjimalarda uchraydigan ba'zi nuqsonlarga

qaramay, qoraqalpoq kitobxonlarini Navoiy g'azallari bilan tanishtirishda ushbu tarjimalar muhim manba vazifasini o'taydi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II том. –Т.:Фаннашриёти,1983. – Б. 644.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III том. –Т.:Фаннашриёти,1984.– Б. 624.
3. Hojiahmedov A. Mumtozbadiiyatmalohati, “Sharq” nashriyot-matbaakontserni bosh tahririyatinT.:–1999.
4. Hasanov B. Navoiyasarlarichunqisqachalug‘at, “Fan” nashriyoti, T., 1993
5. SalomovG‘. Til va tarjima. – T.:Fan nashriyoti,1966.385 bet.

ALISHER NAVOIY MEROSINING BUGUNGI YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

*Boltayeva Zilola Bobojonovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy merosining bugungi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni, uning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilmga intilish, vatanparvarlik va komil g'oyalari zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi yori tiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, komil inson, tarbiya, adolat, ilm, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar*

Аннотация: *В данной статье освещается роль наследия великого мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои в повышении духовности современной молодежи. Раскрывается значение идей гуманизма, справедливости, стремления к знаниям, патриотизма и нравственного совершенства, выдвинутых в его произведениях, в воспитании современного поколения.*

Ключевые слова: *духовность, совершенный человек, воспитание, справедливость, знание, патриотизм, нравственные ценности.*

Annotation: *This article highlights the role of the heritage of the great thinker and statesman Alisher Navoi in enhancing the spirituality of today's youth. It explains the importance of the ideas of humanism, justice, pursuit of knowledge, patriotism, and moral perfection put forward in his works for the upbringing of modern young people.*

Key words: *spirituality, perfect person, upbringing, justice, knowledge, patriotism, moral values.*

Har bir xalqning ma'naviy taraqqiyoti uning buyuk allomalari va ma'rifat parvarlari merosi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqining bebeho ma'naviy xazinasini hisoblangan Alisher Navoiy ijodi asrlar davomida inson qalbini poklash, uni ezgulikka yetaklash, komillikka undash vazifasini bajarib kelmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongini turli zararli g'oyalardan himoya qilish, ularning qalbida mustahkam ma'naviy immunitetini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Bu borada Navoiy merosi bebeho manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodining markazida “komil inson” tushunchasi turadi. Uning mashhur asari - Xamsa – insonni ma'naviy poklik, sabr, halollik va sadoqatga chorlaydi. Bugungi yoshlar uchun komil inson timsoli - bu nafaqat bilimli, balki yuksak axloq egasi bo'lgan shaxsdir. Navoiy asarlaridagi qahramonlar ana shunday fazilat larni mujassam etgan.

Navoiy ilmni insonni yuksaltiruvchi, uni jaholatdan xalos etuvchi nur sifati da talqin qiladi. Uning fikricha, ilm- jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Bugungi kunda yoshlar zamonaviy fan- texnologiyalarni o'rganish bilan birga, ma'naviy bilimlarni ham egallashi zarur. Ilm va ma'naviyat uyg'unligi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy shartidir. Navoiy o'z asarlarida ilmni amal bilan uyg'unlash tirish g'oyasini bilgari suradi. Bu esa yoshlarni bilimni jamiyat foydasiga xizmat qilishga undaydi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida yurtga sadoqat, xalq manfaatini himoya qilish, aqdolatli jamiyat qurish g'oyalari ilgari surgan. Uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati ham yoshlar uchun ibrat maktabidir. Bugungi yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash da Navoiy merosi mugim o'rin tutadi. Uning asarlarida milliy o'zlikni anglash, tilga hurmat, madaniyatni asrab- avaylash masalalari keng yoritilgan.

Navoiy asarlarida halollik, mehr- shafqat, saxovat, sabr- toqat kabi fazilatlar ulug'lanadi. Ayniqsa, Mahbub ul – qulub asarida turli toifadagi insonlarning fe'l- atvori tahlil qilinib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farq aniq ko'rsatib beriladi. Bugungi yoshlar uchun bu asar axloqiy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin. Chunki unda insonning jamiyatdagi o'rni, muomila madaniyati, odob - axloq me'yorlari batafsil bayon qilingan.

Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ham adolatli jamiyat qurish g'oyasini ilgari surgan. U xalq manfaatini himoyan qilgan, obodonchilik ishlarini amalga ashirgan.

Bugungi yoshlar uchun Vatanga sadoqat, xalq manfaatini ustivor qo'yish, jamiyat ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatish muhim fazilatdir. Navoiy merosi yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda mustahkam ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy merosi bugungi yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan komil inson konsepsiyasi, ilmga intilish, axloqiy poklik vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari zamonaviy tarbiya jarayonida muhim metodologik asos hisoblanadi.

Yosh avlodni ma'naviy barkamol, yuksak axloqli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs qilib tarbiyalashda Navoiy merosidan foydalanish- bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xamsa.- Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.
2. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch- Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2008.

YOSHLAR TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY MEROSINING O'RNI (boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida)

*Boltayeva Zilola Bobojonovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kata o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosining boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasidagi ahamiyati, Navoiy asarlarida ilgari surilgan ezgulik, odob, ilmga muhabbat, kattalarga hurmat, do'stlik va halollik g'oyalari kichik yoshdagi bolalar ma'naviyatini shakllantirishda muhim ekanligi yoirtilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, odob - axloq, ezgulik, komil inson, bolalar tarbiyasi.

Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol, axloqan yetuk va vatan parvar ruhda tarbiyalash davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

boshlang'ich sinf bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi davrdir. Shu davrda bola ongida ezgulik va yozuzlik, halollik va insof sizlik, hurmat kabi tushunchalar mustahkam o'rnashadi.

Boshlang'ich sinf – bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolada yaxshilik va yomonlik, halollik va insof sizlik, hurmat vabepisandlik tushunchalari paydo bo'ladi. Shuning uchun kichik yoshdagi o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash dolzarb vazifadir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga nafaqat savod o'rgatish, balki ularda milliy qadriyatlarga hurmat, ona tiliga muhabbat, kattalarga ehtirom, do'st larga sadoqat kabi fazilatlarini shakllantirishdir muhimdir. Bu jarayonda milliy adabiyotimiz namoyondalari merosidan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy ijodi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bebaho manbadir. Navoiy asarlarida in sonparvarlik, adolat, ilmga muhabbat, halollik, saxovat, kamtarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug'langan. Uning asarlari asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmay, har bir avlod uchun ibrat maktabi bo'lib kelmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Navoiy merosining ahamiyati shundaki, undagi hikmatlar va ibratli voqealar bolalar ongiga soda va tushunarli tarzda yetib boradi. Shu bois, ta'lim jarayonida Navoiy merosidan foydalanish bolalarda komil inson fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida insonning go'zal xulqi eng kata boylik sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, Mahbub - ul – qulub asarida odob, halollik, kamtarlik, rost go'ylik kabi fazilatlar keng yoritilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ushbu g'oyalar juda muhimdir. Masalan:

- Kattalarga hurmat ko'rsatish
- Do'stlarga mehribon bo'lish
- Yolg'on gapirmaslik
- Mehnatsevar bo'lish.

Navoiy ilmni insonni yuksaltiruvchi nur deb bilgan. Uning asarlarida ilmi inson hurmatli va ulug' ekani ta'kidlanadi. Bu g'oya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayniqsa muhimdir, chunki aynan shu davrda bolada o'qishga qiziqish shakl lanadi.

Masalan, Xamsa dostonlarida qahramonlarning bilimli, dono va sabrli bo'li shi ulug'lanadi. O'qituvchi Navoiy hikmatlari asosida bolalarga limning ahamiya tini soda misollar bilan tushuntirsa o'quvchilarda ilmga bo'lgan qiziqishi tushu nishi osonlashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq o'yin va muloqot orqali tarbiya lanadi. Navoiy asarlarida do'stlik, sadoqat va mehr- shafqat alohida o'rin tutadi. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida sadoqat va vafodorlik g'oyalari aks etadi. Bu orqali o'quvchilarga do'stga xiyonat qilmaslik, bir- birini qo'llab – quvvatlash tushunchalari singdiriladi.

Shuningdek, Navoiy mehribonlikni insoniylikni eng oliy belgisin sifatida ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarda rahm – shafqat tuyg'usini rivojlantiradi.

Alisher Navoiy turkey tilni ulug'lagan va uning boyligini himoya qilgan. Muhokamat ul –lug'atayn asarida ona tilining qadri ilmiy asosda isbotlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini sevish, to'g'ri va chiroyli gapirish, kitob o'qishga mehr qo'yish Navoiy merosim orqali singdiriladi. Bu esa o'quvchilarda milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy merosi boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarida ilgari surilgan ezgulik, ilmga

muhabbat, odob- axloq, do'stlik va mehr – shafqat g'oyalari kichik yoshdagi bola larda komil inson fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim jarayonida Navoiy merosidan keng va samarali foydalanish ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillari dan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul – qulub.- Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopedi yasi nashriyoti

Ec 2. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti.- Toshkent,2021.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SHAXS TARBIYASI MASALALARI VA BUGUNGI KUNDA IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR ODOB- AXLOQIGA TA'SIRI

*O'tapov Ziyo Bakirovich,
Navoiy viloyat PMM katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan shaxs tarbiyasi g'oyalari bugungi globallashuv va raqamli makon sharoitida yoshlar odob-axloqiga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan axloqiy inqiroz, kiberbulling va agressiv xatti-harakatlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri Navoiy qarashlari asosida ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, hikmatlar, kasb-hunar, ilm-fan, ma'rifat, shaxs tarbiyasi, odob-axloq, komil inson, ijtimoiy tarmoqlar, kiberbulling, ma'naviy tahdid, ta'lim-tarbiya.

Annotation. In this article, the ideas of personal education put forward in the works of Alisher Navoi are analyzed in comparison with the negative effects on the morals of young people in today's globalization and digital space. The impact of the moral crisis, cyberbullying and aggressive behavior observed in social networks on the educational process is scientifically substantiated based on Navoi's views.

Keywords: Alisher Navoi, wisdom, profession, science, enlightenment, personal education, morality, perfect person, social networks, cyberbullying, spiritual threat, education.

Аннотация. В данной статье анализируются идеи личностного воспитания, выдвинутые в работах Алишера Навоя, в сравнении с негативным влиянием на мораль молодежи в условиях современной глобализации и цифрового пространства. На основе взглядов Навоя научно обосновывается влияние морального кризиса, кибербуллинга и агрессивного поведения, наблюдаемых в социальных сетях, на образовательный процесс.

Ключевые слова: Алишер Навои, мудрость, профессия, наука, просвещение, личностное воспитание, мораль, совершенная личность, социальные сети, кибербуллинг, духовная угроза, воспитание.

XXI asr – axborot va texnologiyalar asri. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Virtual muloqot, tezkor axborot almashinuvi, ommaviy madaniyat oqimi yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kiberbulling, onlayn tajovuzkorlik, haqorat, yolg'on axborot tarqatish kabi holatlar yoshlar ruhiyati va axloqiy qarashlariga salbiy ta'sir qilmoqda. Bunday sharoitda milliy-ma'naviy merosga murojaat qilish dolzarbdir. Xususan, Alisher Navoiy ijodida shaxs tarbiyasi, komil inson g'oyasi, odob-axloq, til va muomala madaniyati masalalari chuqur yoritilgan.

Mutafakkirning qarashlari bugungi kunda nafaqat o'z ahamiyatini saqlab qolgan, balki yanada ortib bormoqda.

Navoiy ijodida shaxs tarbiyasi va komil inson g'oyasi

Ma'lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lgan kishi, demakdir.¹ Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do'st va dushmanlik, diyonat va hiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahurat bilan aks ettirilgani e'tiborga molikdir.

*Nafsing etsa shuxlug', charx emgagidin qil adab, Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib.*²

Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asaridan olingan mazkur misrada Navoiy shunday demoqchi:

-inson o'z nafsini jilovlamasa, hayot uni mashaqqat bilan tarbiyalaydi.

-qiyinchilik – jazodan ko'ra tarbiya vositasidir.

-komil inson bo'lish uchun nafs ustidan g'alaba qilish zarur.

Bu g'oya bugungi kunda ham nihoyatda dolzarb, ayniqsa: Ijtimoiy tarmoqlardagi haddan oshish, tajovuzkorlik, axloqiy cheklovlarning buzilishi holatlarida Navoiy nafs tarbiyasini shaxs kamolotining asosi deb biladi.

Alisher Navoiy asarlarida inson kamoloti, avvalo, axloqiy poklik, halollik, sabr, hayo, kamtarlik, ilmga muhabbat orqali belgilanadi. Uning Mahbub ul-qulub asarida inson fazilatlarini va illatlarini keng tahlil qilinadi. Navoiy insonni nafs balosidan, jaholatdan, g'iybat va hasaddan tiyilishga chaqiradi.

Hazrat Navoiyning quyida berilgan hikmatida esa kishi jamiyatda qanday qilib o'z o'rniga ega bo'lishi xususida so'z boradi:

Xo'b el bila suhbat tutubon xo'b o'lg'il,

Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il,

Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,

*Yumshoq de hadisingni-yu, mahbub o'lg'il.*³

Yani: "Yaxshi odamlar bilan birga bo'lib, o'zing ham yaxshi bo'l. Doim yaxshi odamlarning suhbatini izla-yu, o'zing ham boshqalarga yoqimli bo'l. Shirin so'zing bilan kishilarning ko'nglini top, muloyim gapir-u, sevimli bo'l" – degan lo'nda, oqilona fikrlar bayon etilgan.

Darhaqiqat, donishmand shoir yaxshi odamlar bilan birga bo'lish negizida umuminsoniy qadriyatlarni: yaxshilik, shirinsuhanlik, yoqimlilik, muloyimlik bilan har bir inson qalbiga to'g'ri yo'l topa bilish insoniy fazilatlarining eng ulug'i, oddiy haqiqat ekanligini uqtirib, ko'rsatib o'tadi. Bu hikmat bugungi kunda ayniqsa dolzarb. Ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan bir og'iz haqorat yoki masxara minglab insonlar qalbini jarohatlaydi. Kiberbulling aynan til va so'z orqali amalga oshiriladi. Demak, Navoiy ta'kidlagan nutq madaniyati bugungi raqamli makonda ham asosiy axloqiy mezon bo'lib qolmoqda. Xamsa dostonlarida ham komil inson timsoli yaratiladi. Xususan, adolat, vafodorlik, mehr-shafqat inson kamolotining ajralmas mezoni sifatida ko'rsatiladi. Bu g'oyalar yoshlarni ma'naviy immunitet bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda quyidagi salbiy holatlar kuzatilmoqda:

-kiberbulling (onlayn haqorat va tahqirlash)

¹ Alisher Navoiy "Hikmatlar". O'zbekiston. – T. 2011

² Alisher Navoiy "Hikmatlar". O'zbekiston. – T. 2011

³ Алишер Навоий, Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикमतлар, 106 – бет.

- soxta qahramonlar va yengil mashhurlik targ'iboti
- zo'ravonlik va tajovuzkorlikni normal hol sifatida ko'rsatish
- axloqsiz kontent tarqalishi
- g'iybat va bo'htonning tez yoyilishi

Kiberbulling – yangi davr tajovuzkorligining ko'rinishidir. U psixologik zo'ravonlik shaklida namoyon bo'lib, o'quvchilarda qo'rquv, tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik, hatto depressiya holatlarini keltirib chiqaradi. Bu esa ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi: diqqat pasayadi, o'qishga qiziqish kamayadi, ijtimoiy faollik susayadi.

Biz bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek zalvorli, mashaqqatli, hech qachon kechiktirib bo'lmaydigan, uzluksiz ravishda olib boriladigan komil inson tarbiyasida ulug' shoirning hikmatli so'zlaridan keng foydalanish dolzarb ekanligini ko'ramiz. Hazratning hikmatlarini o'qib, uqigan har bir inson qalbida iliqlik sezilganday dilimiz yorishadi. Xuddi izlayotgan jumboqqa javob topilganday tuyuladi, nazarimizda.

Ulug' shoirning quyidagi hikmatli so'ziga e'tibor beramiz:

*Uch qism ila iymong'a bino fahm ayla,
Avvalg'isini aning hayo fahm ayla,
Ikkinchisini dag'i vafo fahm ayla,
Uchunchini bilmasang, saxo fahm ayla.⁴*

Ya'ni: "Iymon binosini uch qismdan iborat deb angla: birinchisi hayo, ikkinchisi – vafo, uchinchisi – saxiylik." – degan fikrlarni bildiradi ulug' shoir. Demak, iymonli, e'tiqodli inson tarbiyasi haqida gap borar ekan, avvalo: hayo, vafo, saxiylik kabi fazilatlarisiz komillikka erishib bo'lmazligi lo'nda tarzda izohlab berilgan

Bugungi raqamli tahdidlarga qarshi kurashishda Navoiy merosi ma'naviy qalqon vazifasini o'tay oladi. Hazrat Navoiy nazdida kishi komillik rutbasiga yetmog'i uchun: odobli, muloyim tabiatli, hayoli, iboli, andishali; hayo pardasiga o'ralgan, vafoli, sadoqatli, mehribon, izzat – ikromli, hayo va vafo birligini jamlagan⁵; saxovatpeshalikda bulutdek bo'lishi darkor.⁶

Navoiy hikmatlarida ilm olish, hunar kasb etishga da'vat yetakchilik qiladi:

*Donish tilayu, har sori gar ketgaysan,
Hifz aylamasang, varaq yig'ib netgaysen,
Sa'y aylaki, hifzi ganjig'a yetgaysen,
Yo'q ulki, kutub sa'y ila jam etgaysen.⁷*

Ya'ni: "Qayerga borma, ilm o'rganish payida bo'l, lekin kitob yiqqandan ko'ra, ilm ganjini xotirangga jo qilganing yaxshi, bas, kitob yig'ishga emas, yodingda saqlashga intil," – deya nasihat qiladi shoir. U ilmni qunt bilan egallash kerakligi haqida ham o'z fikrlarini sodda, lo'nda holda uqtiradi:

Navoiy yoshlarni sabr-toqatli, andishali va pok niyatli bo'lishga da'vat etadi. Uning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogika bilan uyg'unlashadi. Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U

⁴ Алишер Навоий, Ҳикматлар, 159 – бет.

⁵ "Vafog'a hayo bila payvastaliq, andoqki, hayog'a vafo bila vobastaliq." Ya'ni: Vafo bilan hayoni qo'shish hayo va vafo birligini hosil qiladi. Алишер Навоий, Ҳикматлар, 41 – бет.

⁶ Saxiy bulutdur – ishi xirmon, balki maxzan bermak. Ya'ni: Saxiy kishi hosil xirmoni, balki xazinaga sabab bo'ladigan bulutga o'xshaydi. Алишер Навоий, Ҳикматлар, 138 – бет.

⁷ Алишер Навоий, Ҳикматлар, 56 – бет.

ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o'zining kuch-quvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsa-tadigan olim sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni "Nazm ul-javohir" asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,
Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni,
Har kimsaki yo'q ilmga anga ahmoq de oni,
Majlisdagi ilm bo'lsa uchmas de oni.

Yoki ilmli, aqlli odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikka ham chidaydi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo'lmaydi va ilmning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, – deb ta'kidlaydi.

Demak, Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlari deb qanoat, adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, rostgo'ylik va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonga yomonlik razillik bo'lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, – deb hisoblagan.

Agar yoshlar Navoiy asarlaridagi komil inson mezonlarini anglab yetsalar, ular ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta'sirlarga nisbatan barqarorroq bo'ladilar. Bu esa ma'naviy immunitetni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Kiberbulling va agressiv muloqot shakllari ta'lim-tarbiya jarayoniga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bunday sharoitda Alisher Navoiy merosi yoshlar axloqiy tarbiyasini mustahkamlashda muhim manba bo'la oladi. Navoiy ilgari surgan komil inson g'oyasi, nutq madaniyati, mehr-shafqat va adolat tamoyillari bugungi kunda ham dolzarbdir. Demak, milliy ma'naviy merosni ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish yoshlarni kiber tahdidlardan himoyalashning samarali yo'llaridan biridir. Ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat Navoiy asarlari, hikmatli so'zlari balki boshqa mumtoz adabiyot vakillarining asarlaridan unumli foydalanish bo'yicha innovatsion metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish dolzarb masaladir. Bunda Navoiy asarlari bo'yicha namunaviy dars ishlanmalari, tarqatma materiallar, slayd va videoroliklar tayyorlash, shuningdek navoiyshunos olimlar, shoirlar bilan jonli muloqotlar va sayyor darslar tashkil qilish kabi usullarni taklif etgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. нашрга тайёрловчилар а. тилавов, и. сайдуллаев. - т.: "sano - standart" нашриёти, 2016.
2. Алишер Навоий . Ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар: С. Муталлибов, Э. Очилов. – Т.: "Шарқ", 2006.
3. Alisher Navoiy. "Hikmatlar". O'zbekiston. – Т. 2011.
4. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. Fan. – Т. 2007.
5. Muxtorov A. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. O'qituvchi. – Т. 1995.
6. Inoyatov S. Do'stlik va adolat kuychisi // Adolat gazetasi // 2020 yil, 18-son.

NAVOIY G'AZALLARIDA "NAFS" KONSEPTINING FREYM TAHLILI

Xakimova Dilorom Ikramovna,

Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsept tushunchasi, uning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, Navoiy g'azallarida "nafs" konseptining voqealanishi masalalari o'z aksini topgan.

Abstract: This article reflects the concept of the concept, its study in world and Uzbek linguistics, and the occurrence of the concept of "nafs" in Navoi's ghazals.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие «нафс», его изучение в мировой и узбекской лингвистике, а также встречаемость понятия «нафс» в газелях Навои.

Kalit so'zlar: konsept, lug'aviy ma'no, "nafs" konsepti, ishq, komillik.

Keywords: concept, lexical meaning, concept of "nafs", love, perfection.

Ключевые слова: понятие, лексическое значение, понятие «нафс», любовь, совершенство.

Jahon tilshunosligi bilan bir qatorda o'zbek tilshunosligida ham konseptning o'rganilishiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Konsept tushunchasining yaratilishi va muomalaga kirishi yuzasidan turlicha fikrlar, izohlar mavjud. Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan kiritildi. S.Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko'ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo'lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o'ziga xosligini belgilaydi⁸. O'zbek tilshunosligida "konsept" atamasi 1990-yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Ko'plab olimlar bu borada o'z tadqiqotlarini olib bormoqda. Konsept zamonaviy tilshunoslikning tadqiqot sohasidan biridir. Ayniqsa, badiiy tushunchalarni ifodalovchi konseptlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki *konsept inson ongida turlicha voqealanishi mumkin. Lisoniy ifoda qaysidir xalqning olamni qay tarzda ko'rishiga asoslanadi.* Obrazli va qadriyatli munosabatlar asosida shakllangan konseptual tushunchalarning farqlarini aniqlash juda muhim. Bu orqali o'zbek xalqining konsept haqidagi qarashlari, tushunchalari, obrazli tafakkuri, bu boradagi xulosa va tajribalarini milliy ruh va til orqali o'ziga xos ekanligi ko'rsatiladi. Negaki har qanday so'zni tushunish uchun madaniy tushunchalarni ifodalovchi konseptlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Konseptni madaniyatni ifodalovchi asosiy til birligi sifatida belgilash mumkin. Chunki konseptlar shaxs ongida faqat lug'aviy ma'nolari asosida shakllanmaydi. Konsept milliy, madaniy-tarixiy tajriba asosida inson ongida voqealanishi uning barcha qirralarini yaqqol yoritib beradi. Til inson ongida tushunchalar shakllanishiga yordam beradi. Aynan til orqali tushuncha obrazli, hissiy va bog'lanishli bo'ladi. Tushunchaning lisoniy mazmuni uni to'liq ifodalaydi va belgi vazifasini bajaradi. Mazmun ham, tushunchalar modeli ham borliqni, ya'ni voqelikni aks ettiradi.

M.X.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektda tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo'nalishning tilshunoslik boshqa yo'nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik

⁸ Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–280.

tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan⁹.

“Nafs” konsepti insonni halollikka undovchi, mol-dunyoga ruju qo'ymaslikka, ochko'zlikni jilovlashga chorlaydigan yetaklovchi tushunchalardan biri bo'lib, ichki tarbiya tizimi sifatida talqin etiladi. Bu tushuncha insonni vaqtinchalik manfaatlardan ustun qo'yib, ma'naviy poklik, vijdoniy mas'uliyat va adolat tamoyillariga sodiq bo'lishga undaydi. Nafsnı tarbiyalash orqali odam haromdan tiyilish, mehnat bilan topilgan rizqni qadrlash, boriga shukr qilish va ortiqcha boylikka berilib ketmaslikni o'rganadi. Natijada inson nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham halollik va ishonch ustun bo'lgan muhitga yetaklaydi.

“Nafs” konsepti ijodkorlarning asarlarida, ayniqsa, nazmda keng yoritilgan tushunchalardan bo'lib, insonning ichki dunyosida joylashgan, uning xatti-harakati va qarorlarini boshqaruvchi yagona ruhiy-axloqiy birlik sifatida izohlanadi. U insondagi istaklar, hissiyotlar va irodaviy turtkilarni bir butun holatda mujassamlashtirib, shaxsning qanday yo'l tutishini belgilaydi. Nafs aql, ruh va jism o'rtasida vositachi bo'lib, ularning o'zaro ta'sirini muvozanatlashtiradi va shu orqali insonni yaxshilikka ham, yomonlikka ham yetaklashi mumkin. Tarbiya, ong va ma'naviy yetuklik darajasiga qarab nafs yuksaladi yoki pasayadi, natijada insonning halollik, mas'uliyat va vijdoniylik kabi fazilatları shakllanadi. Shu ma'noda, nafs inson shaxsiyatining markaziy ichki mexanizmi bo'lib, uning hayotiy yo'nalishini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Alisher Navoiy g'azallarida “nafs” freymi tasavvufiy va axloqiy-estetik qarashlarning markaziy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uni freym tahlili asosida o'rganish “nafs” tushunchasining ichki tuzilmasini, semantik maydonini hamda u bilan bog'liq komponentlarni aniqlash imkonini beradi.

Navoiy ijodida nafs insonni ilohiy kamolotdan uzoqlashtiradigan, uni dunyo hirsiga, xudbinlikka yetaklaydigan ichki dushman sifatida talqin qilinadi. Shoir uchun nafs bilan kurash haqiqiy oshiq va komil inson bo'lishning asosiy shartidir. Navoiy g'azallarida nafs dushman sifatida tasvirlanadi, shayton bilan hamohang kuch deb qaraladi, ruh va aqlga qarshi qo'yiladi. Shu bois shoir nafsnı sindirish, dunyoga bog'lanmaslik g'oyalarini targ'ib qiladi. Navoiy g'azallarida ishq va nafs doim qarama-qarshi qo'yiladi: ishq poklanish, fidoyilik, Haqqa yetish, nafs esa insonni komillikdan to'suvchi asosiy to'siq. Shoir nafsnı yengishni ruhiy yuksalish va ilohiy ishqqa eltuvchi yo'l sifatida talqin qiladi. Nafs insonni doimiy ravishda moddiy manfaatga, mansabga va o'z “men”ini ustun qo'yishga undovchi kuchdir.

Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o'zin Qilib ma'muri amr istar amorat nafsi ammora.¹⁰

Shoir baytda so'z o'yini orqali nafsning tabiatini ochib bergan. Amorat – amirlik, hokimlik, boshqaruv, ammora esa o'ta buyuruvchi, bo'ysundiruvchi. Nafs shunchaki istak emas, u inson ustidan “amir” bo'lishni istovchi qudratli kuch sifatida tasvirlangan.

“Nafs” konsepti o'zbek tili va mumtoz adabiyotda juda keng qamrovli bo'lib, u faqatgina davlat (boylik) timsolida emas, balki boshqa ko'plab so'z shakllari, iboralar va ramziy ma'nolar orqali ham ifodalanadi. Bu ifodalar, asosan, insonning ichki istaklari,

⁹ Hakimov M.X. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. - Toshkent: O'zR FA TAI, 2001. – 283 b.

¹⁰ АЛИШЕР НАВОИЙ, ХАЗОЙИН УЛ-МАОНИЙ, Наводир уш-шабоб, «Фан» нашриёти
Тошкент —1989, 385-бет.

ehtiyojlari va kamchiliklarini tasvirlashga xizmat qiladi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'z maqolasida nafs haqida shunday jumalarni yozgan. "Buyuk Nasimiy bir g'azalida:

Nafsini har kimsa kim tanidi, ul Haqni bilur,

Orifi Rab o'ldi ul kim, tanidi topdi sabot, –

deydi. Ushbu bayt "Nafsini bilgan, Rabbini bilur" hadisi sharif asosida yaratilgan.

Chindan ham nafsni tanish va bilish, Haqqa yetgunga qadar nimani anglash zarur bo'lsa, komillik yo'lidagi shaxs shularning hammasini imkon darajasida mushohadadan o'tkaza oladi"¹¹.

Nafs turli lug'atlarda ruh, jon, jasad, qon, shuningdek, biror bir narsaning asli, javhari, o'zligi kabi ma'nolarda sharhlangan. Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida Hudhud tilidan kim mard va matonatli bo'lsa, nafsoniyatni yengib ruhoniyatni g'olib aylaydi va u chinakam poklik sharafiga yetishadi, – degan g'oya ilgari suriladi. Bu g'alaba komillikka erishish demakdir. Mumtoz she'riyatimizda bu masalada, ya'ni ruh va nafs o'rtasidagi kurashning sabab va ehtiyojlarini mushohada qilishga undovchi baytlar talaygina.

Nafsing halokin istayu topsang ani halok,

Zinhor motam ahli kabi qilmag'il jaza'.¹²

Ushbu baytdagi "nafs" konseptining freym tahlili orqali nafs insonning ichki, ruhiy va istaklar bilan bog'liq qismi sifatida namoyon bo'ladi, u halok bo'lish istagiga ega bo'lsa-da, motam ahli kabi noto'g'ri, haddan tashqari harakatlardan saqlanish zarur. Bu freymda nafsning yo'lidan borish yoki o'zini yo'q qilishga intilishi harakat sifatida ko'rsatiladi, kontekst ma'naviy-axloqiy, diniy me'yorlar bilan bog'langan bo'lib, natijada halokatdan saqlanish va jazo oldini olish mumkin. Shu tarzda nafs konsepti ichki qaror qabul qiluvchi, intilish bilan bog'liq va boshqarilganda ijobiy natijaga olib keluvchi ichki kuch sifatida ko'rsatiladi.

Bir qadam nafs uzra qo'yg'il, birni maqsadga dedim,

Yo'l uzun deb yema g'amkim, asl erur avval qadam.¹³

Bu baytda "nafs" konsepti freym sifatida insonning ichki hislari va xohishlari sifatida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etadi, unga qarshi bir qadam qo'yish tavsiya etiladi. Harakat sifatida bu qadam nafsni nazorat qilish va maqsad sari intilishdir, kontekst esa ma'naviy-axloqiy va hayotiy tajriba bilan bog'langan, yo'l uzunligi yoki qiyinchiliklar natijasida xavotirga tushmaslik kerakligini ko'rsatadi. Natijada, birinchi qadamni tashlash orqali inson nafsini boshqarishni boshlaydi va maqsad sari muvaffaqiyatli intilishga erishadi, shunday qilib nafs konsepti boshqariladigan ichki kuch hamda insonning ruhiy va ma'naviy o'sishiga xizmat qiluvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir xalqning dunyoqarashida, konseptosferasida o'sha millatga xos bo'lgan muhim tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar milliy tafakkur, yashash va fikrlash tarzining asosini tashkil etadi hamda xalqning o'ziga xosligini yaqqol

¹¹ Ibrohim Haqqul. Ruhoniyyat va nafsoniyat tazodi, «*Jahon adabiyoti*» jurnali, 2015, oktabr.

¹² АЛИШЕР НАВОИЙ, ХАЗОЙИН УЛ-МАОНИЙ, Наводир уш-шабоб, «Фан» нашриёти Тошкент —1989, 209-bet.

¹³ АЛИШЕР НАВОИЙ, ХАЗОЙИН УЛ-МАОНИЙ, Наводир уш-шабоб, «Фан» нашриёти Тошкент —1989, 286-bet.

ko'rsatadi. Ko'pincha bunday tushunchalarni boshqa tilga to'liq tarjima qilib bo'lmaydi yoki juda qiyin bo'ladi, bu esa ularning betakror va faqat shu millatga xos ekanini tasdiqlaydi. Konseptning pragmatik tahlili natijasida tushunchalarni anglash osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–280.
2. Hakimov M.X. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. – T.: O'zR FA TAI, 2001. – 283 b.
3. Ibrohim Haqqul. Ruhoniyat va nafsoniyat tazodi // «Jahon adabiyoti» jurnali, 2015, oktabr.
4. Алишер Навоий, Хазойин ул-маоний, Наводир уш-шабоб, «Фан» нашриёти, Тошкент —1989, 385-bet.
5. Алишер Навоий, Хазойин ул-маоний, Наводир уш-шабоб, «Фан» нашриёти, Тошкент —1989., 209-bet.
6. Алишер Навоий, Хазойин ул-маоний, Наводир уш-шабоб, «Фан» нашриёти, Тошкент —1989., 286-bet.

O'QUVCHI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING O'RNI

*Aliqulova Matluba Toshmurodovna,
Xatirchi tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bilimlarni o'rgatish hamda o'rganish jarayonida ta'lim beruvchi va o'quvchilarning o'zaro faolliklari va buning ahamiyati, interaktiv usullarni tashkil qilish, takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish masalasidir. O'tgan asrlarda mutafakkirlar, ustozlar o'z shogirdlari bilan o'tkazgan mashg'ulotlarida, hozirgi davrlarda esa, pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida va amaliy faoliyatlarida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nazariy, zamonaviy, pedagog, usul, faollik, interaktiv.

Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishi, hozirgi kunda zamonaviy usullarning ijobiy jihatlari ta'lim jarayonida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bilimlarni o'rgatish hamda o'rganish jarayonida ta'lim beruvchi va o'quvchilarning o'zaro faolliklari va buning ahamiyati, interaktiv usullarni tashkil qilish, takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish masalasidir. O'tgan asrlarda mutafakkirlar, ustozlar o'z shogirdlari bilan o'tkazgan mashg'ulotlarida, hozirgi davrlarda esa, pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida va amaliy faoliyatlarida bunday jarayonlarga jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar.

Jumladan, Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetguncha ma'lum tartibda tarbiyalab boorish, lozimligini qayd etib o'tgan. Buyuk mutafakkir bolalarni nimalarga o'qitish va uqitish usullari haqida muhim fikrlarni olg'a suradi. Shu o'rinda Ibn Sinoning "Tadbir-ul manozil" asaridagi maxsus bo'limda, bolani o'qitishda qanday didaktik yondoshish zarurligi haqida so'z yuritilgan. Uning ta'kidlashicha:

- Bolani birdan kitobga jalb qilib qo'ymaslik kerak.
- O'qitish asta-sekin osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.
- O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiyalarning yoshiga mos bo'lishi shart.
- O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi dardkor.

- Bolaning mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.
- Jismoniy mashqlar bilan qo'shib borilishi zarur.

Bu jarayonda, Ibn Sino o'qituvchining oldiga ham bir nechta talabni qo'yadi.

Uning fikricha:

Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak. Pedagog o'qituvchilar ta'limni qanday o'zlashtirib borayotganini kuzatib borishi lozim.

O'qitish jarayonida pedagog har xil usullarni qo'llashi lozim.

O'qituvchi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim.

O'qituvchi fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin, masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, uni qisqa, aniq, adabiy tilda tushuntirishi, bunda ko'p gapirishdan qochishi lozim.

Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi lozim.

Ibn Sino bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tarzida o'qitishni afzal deb biladi va bu usulning ustunligi haqida shunday deb yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. O'quvchilar birga bo'lganlarida doim o'zaro gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar".

Allomaning bu fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bolalarni birgalikda, ya'ni interfaol jarayonda o'qitish va tarbiyalash ularda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishi to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

Bular:

- o'zaro, muloqot-kommunikativ kompetensiya;
- motivatsiya;
- o'ziga ishonch;
- boshqalarning yutug'ini ko'rish, ya'ni tahlil qilish;
- o'z ustida izlanish, ya'ni ijodkorlik;
- sog'lom raqobatni yuzaga keltirish, ya'ni izlanuvchanlik;
- o'z fikrlarini bayon etish, ya'ni notiqlik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Umuman olganda, kompetensiya so'zi XX asrning 70-yillarida paydo bo'lib, 80-yillarning oxirlarida pedagogik jarayonga kirib kelgan. Kompetensiya lotin tilidan olingan bo'lib, (competere)-mos, loyiq degan ma'noni anglatadi. XXI asrda o'quvchilarning ta'lim jarayoniga mos, loyqligini bildiruvchi shaxsiy va tayanch kompetensiyadan iborat ikkita asosiy kompetensiyalar yo'nalishini ko'rsatib o'tish mumkin:

Shaxsiy kompetensiyalar (ular o'quvchining shaxs sifatidagi kompetenligini ifodalaydi), bular quyidagilar:

- tarbiyali;
- muloqotga kirishuvchan;
- fikrini mustaqil bayon etuvchi;
- lider, o'ziga ishonuvchi;
- o'zini va o'zgalarni hurmat qiluvchi;
- jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etuvchi;
- umummadaniy qadriyatlarga ega va ularni hurmat qiluvchi;
- sog'lom turmush tarziga amal qiluvchi.

Tayanch kompetensiyalar:

- bilimli;
- jodkor;

- izlanuvchan;
- zamonaviy texnologiyadan foydalana oladigan;
- xorijiy tillarni biladigan;
- tahliliy yondasha oladigan;
- obyektiv baholay oladigan.

Abu Ali Ibn Sino aynan shu masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon etgan. Shunga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining kompetensiyasini rivojlantirish masalasi avvaldan ham mavjud ekanligi va hozirgacha o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi ayon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, innovatsion ta'lim jarayonida o'quvchi kompetensiyasi an'anaviy ta'limga nisbatan samaraliroq shakllanadi va rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tal'at G'afforova. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent – 2011
2. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsiya" Toshkent -2010

O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Sultonova Gulhayo Sa'dullayevna,
Xudayqulova Umsinoy Pirmamatovna,
Xatirchi tuman 16-umumiy o'ra ta'lim maktabi o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shakllari, didaktik o'yinlar ularning mazmun mohiyati va o'qish darslarida foydalaniladigan didaktik o'yinlardan namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: *motiv, didaktik, texnologiyalar, usul, vosita va shakllar.*

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri

tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Boshlang'ich sinflarda darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng ma'suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini rivojlantiradi. Darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi. Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi. Motiv kishi-ni biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtkidir. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi. Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan:

"Ta'lim krediti" metodi

O'quvchilarni baholash uchun **"Ta'lim krediti"** metodidan foydalanamiz. Bu metodni bajarishda dars boshida metod qoidalari tushuntiriladi. Har bir jamoaga darsda ishtirok etishi uchun 40 kredit miqdorida qarz beriladi. Shundan so'ng dars jarayoni boshlanadi. Jamoalar o'ziga berilgan topshiriqlarni bajarish evaziga umumiy kredit miqdoridan 5 kreditdan qarzlarini so'ndirib borishadi. Dars yakuniga qadar barcha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va to'g'ri bajarib, kreditlarini 100% so'ndirgan jamoaga o'liblikni qo'lga kiritadi. Agar savolga javob berolmasa, jarima ball sifatida kreditning ustiga foiz qo'shiladi.

Ushbu metod o'quvchilarda ma'suliyat, shijoat, serg'ayratlilik, birdamlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash hissini oshiradi. Jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu metoddan foydalanish tavsiya etiladi.

"Orzular daraxti" metodi— bu ta'lim jarayonida, shaxsiy rivojlanish yoki motivatsion treninglarda qo'llaniladigan samarali vizual va interaktiv metodlardan biridir. Bu metod inson orzularini tizimli ravishda aniqlash, ularni maqsadlarga aylantirish va ularga erishish yo'lini ko'rsatishga yordam beradi.

Orzular daraxti metodining mohiyati:

Bu metod daraxt tasviri asosida tuziladi. Har bir qismi ma'lum ma'noni anglatadi:

Ildizlar – shaxsning qadriyatlarini, ishonchlari, bilimlari va qobiliyatlarini. Bu orzularga erishishdagi ichki resurslardir.

Poya – hozirgi holat, asosiy motivatsiyalar va mavjud imkoniyatlar.

Shoxlar – orzular va maqsadlar yo'nalishlari.

Barglar, yaproqlar – kichik maqsadlar, orzularni amalga oshirish uchun zarur qadamlar.

Mevalar – orzular ro'yobga chiqqanda olinadigan natijalar, muvaffaqiyatlar yoki mukofotlar.

Qurtlar yoki to'siqlar – orzular yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan muammolar, qo'rquvlar yoki cheklolar.

Metoddan foydalanish bosqichlari:

Daraxtni chizish yoki tayyor shablondan foydalanish.

O'quvchi/talaba/davlat yoki jamoa a'zosi daraxtning har bir qismiga o'z tafakkuriga asoslanib ma'lumotlar yozadi:

Ildizlarga – o'zining kuchli tomonlari.

Shoxlarga – asosiy orzular.

Barglarga – orzularga olib boradigan harakatlar.

Mevalarga – orzular amalga oshgandagi natijalar.

Qurtlarga – muammolar yoki to'siqlar.

Taqdimot yoki fikr almashish orqali orzularni tahlil qilish, maslahat berish.

Bu metod psixologiya bilan bog'lanib bizga o'quvchini ichki olamini o'rganib borishimizga va dars jarayonida psixologik dam olishga yordam beradi.

Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofdagi sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi. Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi,

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlantirishga, fikrlashga o'rgatishini ta'kidlab o'tgan. "Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tal'at G'afforova. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent – 2011
2. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsiya" Toshkent -2010

**БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ БЕБАҲО
ЎРНИ***Суванова Соҳиба,**Навбаҳор туман 1-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада узлуксиз таълим тизимини юқори сифат босқичига кўтарилишида аждодларимиз яратган ўлмас-маънавий мероснинг ўрни беқиёс эканлиги ҳақидаги фикрлар билдирилган.

Калим сўзлар: эзгу фазилат, юксак маънавият, Алишер Навоий қолдирган маънавий мерос

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан кейин халқ таълими тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар нафақат соҳа мутахассисларини, балки кенг жамоатчиликнинг диққат-эътиборини тортмоқда. Биз фарзандларимиз, қолаверса, халқимизнинг ҳеч кимдан кам бўлмаслиги учун фаровон турмуш тарзини яратмоқдамиз. Мана шу йўлда таълим мазмунига миллий қадриятлар, улуғ аждодларимиз яратган меросни ёш авлод онгига сингдириш асосида, узлуксиз таълим сифат ва самарадорлигини оширишга эришилмоқда. Албатта, фарзандларимизнинг бугунги кундаги ютуқлари кучли, билимли ҳар томонлама доно эканлиги кенг имкониятларимизнинг гаровидир.

Дарҳақиқат, истиқлол даврида барпо этилган, барча шарт-шароитларга эга бўлган билим масканлари-мактаблар, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари, олий ўқув юртларида таҳсил олаётган замонавий касб-ҳунар ва илм-маърифат сирларини ўрганаётган, ҳозирданок бир неча тилларда эркин мулоқотга кириша оладиган минг-минглаб ўқувчи-талаба ёшлар ҳаёт остонасидан дадил ва шахдам қадамлар билан олға бориб, жамиятимиз томонидан ўз олдиларига қўйилаётган талабларга тўла-тўқис жавоб бермоқдалар.

Шундай экан, узлуксиз таълим тизимини юқори сифат босқичига кўтарилишида аждодларимиз яратган ўлмас-маънавий мероснинг ўрни алоҳида ажралиб туради.

Жумладан, Навоий инсонга, халқга, Ватанга бўлган чексиз муҳаббатини ўз ижоди ва ижтимоий фаолиятини мағзида ифодалайди. У ўз замонасидаги зулм ва қашшоқлик исканжасида қолган халқни улуғлаб, умуминсоний фазилатларни тарғиб этиш билан халқни бахтиёр қилиш йўлида, бутун вужуди билан кураш олиб борди. Мана шу фидойилик узлуксиз таълимнинг ҳар бир босқичида ўз ифодасини топди. Ўз ифодасини топиши билан биргаликда ўзининг улкан самарасини ҳам бермоқда.

Миллатимизнинг ғурури, шон-шарафини дунёга тараннум қилиш ва ёш авлодни баркамол авлод қилиб тарбиялашда қудратли маърифий қурол-Алишер Навоийнинг бой маънавий мероси муҳим аҳамият касб этади. Бебаҳо мерос яратган, Алишер Навоий асарларида маънавиятнинг инсоний негизини ташкил қиладиган тушунчалар кенг талқин ва таҳлил қилинади. Меҳр-оқибат, меҳр-мурувват, меҳр-муҳаббат, ҳалоллик, поклик, адолат, инсоф, ватанпарварлик сингари эзгу фазилатларнинг ўқувчи онгига юксак маънавият пайдо бўлишига урғу берилади. Алишер Навоий асарларидаги бош йўналишлардан бири, инсон қалбининг энг нозик туйғулари, қувончу қайғулари эзгулик ва ҳаёт мазмунини теран англаб етишга даъватдир. Бунинг эса ёш авлод тарбиясидаги аҳамияти беқиёсдир. Алишер Навоий қолдирган маънавий мерос ўз муаллифининг нозик диди, юксак салоҳияти ва ҳозиржавоблигидан далолат беради.

Умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежларида ҳамда олий ўқув юртлари, умуман, таълимнинг ҳар бир босқичидаги фанларни ўқитишда Алишер Навоий асарларида баён қилинган воқеалар, образлар, тарихий жойлар, тарихий шахслар ҳақида маълумот беришда ҳам ёш авлодга мутафаккирлар мутафаккирининг эзгу инсоний фазилатлар ҳақидаги қарашларини сингдириб бориш ҳамда Алишер Навоийнинг олийжаноб фазилатларини кўрсатиш баркамол авлод тарбиясида муҳим ҳисса бўлиб қўшилади.

Навоий ўзининг “Хамса” асаридаги “Фарҳод ва Ширин” достонида инсон тарбиясига катта эътибор берилган. Бунга Фарҳод билан устозлари ўртасида бўлиб ўтган суҳбат далилдир. “Кунлардан бир куни Фарҳод ўзи учун қурилаётган қасрни томоша қилгани боради, у ердаги хунармандлардан сангтарошликни ўрганмоқчилигини айтиб мурожаат қилганда, улар сизга хунарни ҳожати йўқ, сиз шоҳ ўғлисиз деб эътироз билдиришади.” Шунда Фарҳод уларга:

Хунарни асрабон нетгумдир охир

Олиб туфроққа му кетгумдир охир,- деган байтни айтганда устозлари хунар ўргатишга рози бўлишади. Бу билан Навоий демоқчики, ҳар бир хунарни ўрганиш ва ўргатиш билан дунё ободлигига эришиш мумкинлиги айтилади. Навоий бу достони орқали инсон баркамолликка ва комилликка хунар орқали эришишини Фарҳод мисолида кўрсатиб ўтади.

Баркамол авлод қалбида илму маърифатга бўлган чанқоқликни қондириш вазифаси илм аҳли олдига энг катта масъулиятни қўйди. Ушбу хайрли мақсадни амалга оширишда Ҳазрат Навоийнинг бой адабий мероси катта ўрин эгаллаётганлигини алоҳида эътироф этиш жоиздир. Шундай экан, биргина Ўзбекистон эмас бутун дунё аҳли баркамол авлод тарбиясида Навоий ҳазратларининг олтинга тенг меросидан кенг фойдаланмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Нишонова С. Комил инсон тарбияси.-Т.:”Истиқлол”, 2003,197 б
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин.Т.:”Фан”.1991 й.299 бет.

НАВОИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҲОЯСИ

Тоъжиева Насиба,

Учкудук тумани 10-умумий ўрта таълим мактабининг ўқув ишлари бўйича директор ўринборсари

Аннотация. Ушбу мақолада Алишер Навоий адабиётнинг башарият ҳаётида тутган ўрнини тўғри ва чуқур тушунганлиги, жумладан, у ўзининг муқобилсиз “Хамса”сида шахснинг комил инсон билан этишиши учун нималардан ўзини тийиши, ҳазар қилиши, аксинча, қандай хулқ-атворга, хислат ва фазилатларга рағбат кўрсатиши лозимлиги ҳақидаги фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар: ахлоқ, дид, эътиқод, тасаввур ва тафаккур, эзгу гоя, маънавий жасорат.

Инсониятнинг шу кунгача босиб ўтган мураккаб ривожланиш йўли мақсадларга фақат ва фақат узлуксиз маънавий тарбия билангина эришиш мумкинлигини исботлаган. Маънавият – инсон ҳаётининг асоси. Иродани бақувват қиладиган ва виждонини уйғотадиган беқиёс куч. Барча дунёқарашнинг муҳим мезонидир.

Мумтоз адабиётимиз намоёндаси Алишер Навоий даҳоси ва унинг асарларидаги қаҳрамонлар тимсолида комил инсонни англаш унчалик қийин эмас.

Миллат қалбини билиш, халқимиз ҳамиша умумбашарий тараққиёт марказида яшаганини, ўзига хос ҳаёт қоидалари ва тафаккур тарзига эга миллат эканини, бировдан ўрганишдан кўра ўргатишга арзирли мероси кўплигини бошқаларга англайтиш ҳар бир ўзбекнинг бурчидир.

Донишмандлар айтганидек, илм, китоб-кўнгил шамчироғи. Авлодларимиз ўз аждодлари қолдирган маънавий меросларини билишлари, уларга муносиб бўлиб яшашга интилишлари керак. Бунинг учун эса уларни китоб билан дўстлаштириш лозим. Зеро, аҳли илмлар айтганидек: “Китоб қалбни ёритади, инсонни юксакликка кўтаради, энг яхши орзу-истакларни уйғотади, ақлни чархлайди”. Алишер Навоий: “Бу дунё – кўҳна карвонсарой, карвонлар ҳали тўхтаб улгурмасдан кўчиш ноғораси чалинади” - дейди. Аслида ҳам ақли расо одам бебаҳо нарсага эмас, икки дунё саодатига муҳаббат боғлайди. Ҳазрат Навоий айтадики, булут ўз сувларини экинлар униши учун сочгани туфайли ҳам у “гардунжаноб” бўлди – юксакликка кўтарилди, дўл дов-дарахтлар мевасига зарар етказгани учун ҳам қора тупроққа қорилди, дейди. “Режа чекмай зеб берилган боғ” ва чангалзорни фарқсиз кўради. Шатранж доналари тартиб билан терилмаса, мақсад сари йўналтирилмаса, улар бир уюм ёғоч холос, дейди. Инсон ўз ҳаётини улуснинг навобахш бўлиш йўлида бахшида этиши, ўзидан яхши ном қолдириб, ажаб, чин саодатга эришиши лозимлигини, бунинг учун худди шам каби фидойи бўлиш кераклигини таъкидлайди.

То ҳирсу ҳавас хирмани барбод ўлмас,
То нафсу ҳаво қасри барафтод ўлмас,
То зулму ситам жониға бедод ўлмас,
Эл шод ўлмас, мамлакат обод ўлмас.

Навоийнинг ушбу сатрлари қайси замон ва маконда янграмасин, инсонга ахлоқ, дид, эътиқод, тасаввур ва тафаккурнинг энг эзгу ғояларидан, ҳар қадамда маънавий жасорат ҳисси билан яшаш саодатидан сабоқ беради. Алишер Навоий сахийликни комилликка элтажак йўл дейди. Аммо бугун атрофимиздаги кўп одамларнинг бу борадаги тушунчаси, дунёқараши, исрофгарлиги улуғ шоирнинг: “Ёяр анга суфраки – ул оч эмас, берур анга тўнки – яланғоч эмас”, - деган ҳикматини эсга солади. Улки эл кўрмагунча бермас – лаимдур (хасис, очкўз ва пасткашдир), сахий эмас. Тилаб берганни ҳам саходан йироқ бил; ибром (қистов) билан бергандан бермагани яхшироқ бил. Битта ўтмакни (нонни) икки бўлуб, ярмин бир очға берганни сахий де, ўзи емай барин муҳтожға берганни ахий (жавонмард) де, - дея уқтиради Навоий.

Алишер Навоий адабиётнинг башарият ҳаётида тутган ўрнини тўғри ва чуқур тушунган. Жумладан, у ўзининг муқобилсиз “Хамса”сида шахснинг комил инсон билан етишиш учун нималардан ўзини тийиши, ҳазар қилиши, аксинча, қандай хулқ-атворга, хислат ва фазилатларга рағбат кўрсатиши лозимлигини юксак маҳорат билан тасвирлаб беради. Шоирнинг инсон ҳақидаги фикрлари “Хамса”нинг “бисмиллоҳ”идан бошланади, яъни унингча, “бисмиллоҳир раҳмонир раҳийм” шундайин бир бебаҳо маржондир-ки:

Ҳар дур анга жавҳари жондин фузун,
Ғиймат аро икки жаҳондин фузун.

Ана шундай дурлар тузилган маржоннинг ипи эса “жаҳону жон” риштасидур. Агар буларни биз маржоннинг хусусияти деб қабул қилсакб унинг фазилати бошқа ҳолатда намоён бўлади. Кимки, шу маржонни тасбиҳ этиб, кўнгил билан ҳақ йўлига ҳаракат қилса, ганжи бақони (абадийлик хазинасини) қўлга киритади.

Нега инсон бунчалик шарафга лойиқ ва эъзозли? Чунки у ўзга махлуқотлардан фарқ қилиб, Оллоҳнинг каломига комил: бундан ташқари, у яратганнинг яширин сирларини ўзида ташувчи гўё Оллоҳ ҳикматлар хазинасининг бир бўлаги бўлган махлуқдир:

Турфа камолингга доғи комил ул,
Сирри ниҳонингга доғи ҳомил ул.
Кўнглига қилдинг чу яқин ганжи қисм,
Жисмини ул ганжга қилдинг тилсим.

Шунинг учун ҳам инсон, шаънига: “каррамно-бошқа махлуқлардан мукаррам қилдик”. “Аҳсани тақвим – энг чиройли яратилган”, деган мақтовлар ёзилган.

Инсон, қолаверса комил инсон Алишер Навоий талқинига кўра, Тангри таоло томонидан ожиз, ҳикмат ва фазилатлардан холи сифатида яратилмаган. У – Оллоҳнинг мўъжизалар хазинаси. Шу билан бирга инсон комил ақл ва фаҳмга эга бўлган ориф махлуқдир.

Маънавиятга таянган инсон икки дунё саодатига, яъни комил инсон даражасига эришади. Шундай фарзандлари кўп миллат абадул-абад ҳаётни англаб, ўзгаларга ҳам англариб яшайди. Алишер Навоий ҳикмати, насихати, дуоси билан айтганда, инсон “қуёшлик истаса”, “касби камол эт” иши - ҳар ишда мукамалликка, баркамолликка интилиб яшаши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мухтов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи.-Т, 1995, 133 б.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб. Т.: ”Фан”. 1998 й. 110 бет.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIY XUSUSIYATLARI

Umarova Feruza,

Navbahor tumanu 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xilligi, dostonidagi yigirma bitta hikoyatda o'nlab so'fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ishq-muhabbat, yaxshilik, yomonlik, nafs, razolat, jaholat, Vatan, do'stlik, himmat

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir. Dostonidagi yigirma bitta hikoyatda o'nlab so'fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog'liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog'lanadi, ularning orasida “sof” to'qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo'lmay, balki ayrim jihatlarni saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to'qima bilan yo'g'rib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflotun, Luqmon, Faxriddin Roziy va

boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San' o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an'anaviy oshiq-ma'shuqlar. Bu an'anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko'ramiz. Masalan, "Hayrat ul-abror"dagi "Shoh G'oziy" hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostonidagi "Ikki vafoli yor" hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan"¹⁴

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroq vaqt mansabdor ham bo'lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o'qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba'zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo'lida tahsil ko'rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in'om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar "Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan" deyishadi.

Ikkinchi hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o'zini islom yo'liga bag'ishlagan mashhur so'fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo'liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.¹⁵

Robia Adviya (Adaviya) ham mashhur so'fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oraliq'ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to'rtinchi farzand bo'lgani uchun unga "Robiya" deb nom qo'yishgan.

To'rtinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so'fiylardan. O'z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo'lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko'handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan.

O'n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. "Faxriddin Roziy (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O'n sakkizinchi maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag'dodda Abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. "Qur'onni ko'chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so'fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustozlari, oriflar yo'l boshchisidir.

Dostonida Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg'ambardan biri. Ayyub nomi va Qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har "Qanday musibatlar"ga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo'lsa, ba'zilar afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga "Shoh G'oziy" haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G'oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy "Xamsa" dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisini ham unga bag'ishlaydi. "Shoh G'oziy" hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko'rsatadi.

"Hayrat ul-abror"da "No'shirvon hayosi" bilan bog'liq hikoyat mavjud. Unda No'shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. "Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va

¹⁴ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.

¹⁵ Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.

folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No'shiron (Anushiron)dir. Navoiy No'shiron nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to'g'risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar "Hayrat ul-abror" va "Tarixi muluki Ajam"dan o'rin olgan".¹⁶

Dostondagi "Ikki vafoliq yor" hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. "Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko'ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o'rnatuvchi) kabi qator ulug' va qutlug' nomlar bilan ham tilga olinadi.

O'n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta'kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandar Qur'onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O'n to'qqizinchi maqolatdan so'ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko'pgina asarlarida, ayniqsa, "Xamsa"ning to'rtinchi dostoni – "Sab' ai sayyor"da keng tasvirlangan. "Bahrom Go'r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o'g'li. Yaman shohi No'mon va uning o'g'li Munzir tarbiyasida o'sgan. Nizomiyning "Haft paykar", Xusrav Dehlaviyning "Hasht bihisht" va Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostonlarida Bahrom Go'r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Go'r 63 yil (ba'zi manbalarda 70 yil) umr ko'rgan".¹⁷

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo'lib ular tarixiy, afsonaviy, an'anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.
2. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.
3. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.
4. O'zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.

PEDAGOGIK MAHORAT-ZAMONAVIY O'QITUVCHINING ASOSIY FAZILATI

*Rashidova Nargiza Haydaraliyevna,
Navoiy shahar 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik mahorat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni yoritiladi. O'qituvchining kasbiy bilimlari, metodik tayyorgarligi, muloqot madaniyati hamda shaxsiy fazilatlarini pedagogik mahoratning asosiy mezonlari sifatida tahlil qilinadi.

¹⁶ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

¹⁷ O'zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.

Kalit so'zlar: *Pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, metodika, muloqot madaniyati, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va pedagogik mahoratni talab etadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va shaxs shakllantiruvchi yetakchi hisoblanadi. Shu bois, pedagogik mahorat masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan.

1. Pedagogik mahorat tushunchasi

Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan to'g'ri muloqot o'rnatish hamda o'z fanini mukammal o'qita olish qobiliyatidir. U bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligidan iborat.

2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

a) Kasbiy bilim va kompetensiya

O'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, metodik jihatdan tayyor bo'lishi lozim. Zamonaviy pedagog yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalana olishi kerak.

b) Muloqot madaniyati

O'qituvchining nutqi ravon, aniq va ta'sirchan bo'lishi muhim. O'quvchilar bilan hurmat asosida muloqot qilish pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi.

c) Pedagogik texnika

Bu o'qituvchining ovoz ohangi, mimika, imo-ishora va sinfni boshqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. To'g'ri tashkil etilgan dars jarayoni intizom va qiziqishni ta'minlaydi.

d) Shaxsiy fazilatlar

Sabr-toqat, adolat, mehribonlik, talabchanlik kabi sifatlar pedagogik mahoratning muhim jihatlaridir. O'qituvchi o'z shaxsiy namunasi bilan tarbiya beradi.

3. Zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratning ahamiyati

Bugungi raqamli davrda o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni qo'llay olishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi zarur. Pedagogik mahorat o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, ularni faol va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy yondashuviga bog'liq. Hozirgi davrda pedagogdan faqat bilim yetkazish emas, balki o'quvchini mustaqil izlanishga yo'naltirish, natijani tahlil qilish va ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish talab etiladi. Shu ma'noda pedagogik mahorat – bu uzluksiz rivojlanib boradigan kasbiy jarayondir.

1. Darsni loyihalash – mahoratning boshlang'ich bosqichi

Pedagogik mahorat avvalo puxta rejalashtirishdan boshlanadi. Darsning maqsadi aniq, o'lchanadigan va natijaga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. O'qituvchi:

mavzuga mos metod tanlaydi;

vaqt taqsimotini belgilaydi;

kutilayotgan natijani oldindan aniqlaydi;

baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

Bunday tizimli yondashuv darsning mantiqiy va samarali o'tishini ta'minlaydi.

2. Refleksiv faoliyat va o'zini tahlil qilish

Yuksak pedagog o'z faoliyatini muntazam tahlil qiladi. Darsdan so'ng "Nima muvaffaqiyatli bo'ldi?", "Qanday kamchilik kuzatildi?" degan savollarga javob izlaydi.

Refleksiya o'qituvchining kasbiy o'sishiga xizmat qiladi va keyingi darslarni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

3. Baholashning zamonaviy mexanizmlari

Pedagogik mahorat baholash jarayonida ham namoyon bo'ladi. Faqat yakuniy natijani emas, balki o'quvchining jarayondagi harakatini ham inobatga olish muhim. Formativ (joriy) baholash usullari o'quvchini qo'llab-quvvatlaydi, xatolarini vaqtida tuzatishga yordam beradi va motivatsiyani oshiradi.

4. Individual yondashuv

Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va o'zlashtirish darajasi turlicha. Pedagogik mahorat – bu individual yondashuvni qo'llay olishdir.

Pedagogik mahorat – bu o'qituvchining kasbiy yetukligi va insoniy fazilatlarining uyg'unligidir. U doimiy o'rganish, tajriba va o'z ustida ishlash orqali shakllanadi. Yuksak pedagogik mahoratga ega o'qituvchi ta'lim sifatini oshiradi va jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan” nashriyoti.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI METAFORIK BAYTLARNING LINGVISTIK VA SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI

*Isaqulova Aziza Rustamovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodida ilm tushunchasining lingvistik va sotsiopragmatik talqini bayt tahlili asosida yoritiladi. Ilm ko'ngil bilan bog'liq metaforalar orqali insonning ichki ma'naviy kamoloti va tafakkur kengayishi jarayoni sifatida izohlanadi. Tadqiqotda abstrakt tushunchalarning makoniy ifodasi hamda ilmning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Bayt tahlili, ilm konsepti, ko'ngil metaforasi, lingvistik tahlil, sotsiopragmatika, ma'naviy kamolot.

Abstract: The article examines the concept of knowledge in Alisher Navoi's works based on the linguistic and sociopragmatic analysis of a bayt. Knowledge is interpreted through metaphors associated with the heart as a process of inner spiritual development and the expansion of human thinking. The study reveals the spatial representation of abstract notions and highlights the personal and social significance of knowledge.

Keywords: Alisher Navoi, bayt analysis, concept of knowledge, heart metaphor, linguistic analysis, sociopragmatics, spiritual development.

Аннотация: В статье рассматривается концепт знания в творчестве Алишера Навои на основе лингвистического и социопрагматического анализа бейта. Знание интерпретируется через метафоры, связанные с сердцем как процесс внутреннего духовного становления и расширения человеческого мышления. В исследовании раскрывается пространственное выражение абстрактных понятий, а также личностное и социальное значение знания.

Ключевые слова: Алишер Навои, анализ бейта, концепт знания, метафора сердца, лингвистический анализ, социопрагматика, духовное развитие.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida inson qalbi, ma'naviy kamolot va axloqiy qadriyatlarini badiiy vositalar, xususan metaforalardan foydalangan holda ifodalaydi. Metaforalarning sotsiopragmatik qatlami baytda hissiy va tafakkurni

uyg'otadi. Ushbu maqolada dostonning tanlangan 4 qator bayti misolida lingvistik va sotsiopragmatik tahlil qilamiz.

Ko'ngli bo'lub maskanu ma'voyi ilm,
Qatra kibi paykari daryoyi ilm.
Ko'ngil uyin ilm etibon bir jahon,
Qatrada ul nav'ki, daryo nihon. [H.A.-B.154]

| Bayt matni | Metafora | Lingvistik tahlil | Sotsiopragmatik ta'sir |
|------------------------------------|--|--|--|
| Ko'ngli bo'lub maskanu ma'voyi ilm | Ko'ngil -maskan Ilm-ma'voyi (makon) | Otlar: ko'ngil, maskan, ilm, ma'voyi. Fe'l: bo'lub. | Qalbni ilm bilan to'ldirish, ma'naviy o'sish. |
| Qatra kibi paykari daryoyi ilm | Qatra-daryo Paykar -ilm | Otlar: qatra, paykar, daryo, ilm. Bog'lovchi: kibi. | Ilmni qabul qilish va rivojlantirish, tafakkur kuchayishi. |
| Ko'ngil uyin ilm etibon bir jahon | Ko'ngil uyi-jahon | Otlar: ko'ngil, uy, ilm, jahon. Fe'l: etibon | Shaxsiy va jamiyat axloqini uyg'unlantirish. |
| Qatrada ul na'vki, daryo nihon | Qatra-daryo, nav'-ilm | Otlar: qatra, na'v, daryo, nihon. Fe'l: ul | Ilmning kichikdan buyukgacha rivojlanishi, ma'naviy targ'ib. |

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining ushbu baytida — “Ko'ngli bo'lub maskanu ma'voyi ilm” — inson ko'ngli ilmning maskani va panohi sifatida talqin qiladi. Mazkur misra badiiy jihatdan kuchli metaforik yuklama kasb etib, Navoiy poetikasida muhim o'rin tutgan “ko'ngil–ilm” konseptual bog'liqligini yaqqol namoyon etadi. Shoir uchun ko'ngil oddiy psixologik hodisa emas, balki ilohiy nur, aql va ma'rifat jam bo'ladigan ruhiy makondir.

Lingvistik jihatdan bayt tarkibidagi asosiy ot birliklari — “ko'ngil”, “maskan”, “ilm”, “ma'voyi” — o'zaro metaforik maydon hosil qilib, abstrakt tushunchalarni makonlashtirish (konseptual metafora) usuli orqali ma'noni chuqurlashtiradi. Xususan, “maskan” va “ma'voyi” leksemalari ko'ngilni statik emas, balki faol, qabul qiluvchi va saqlovchi ruhiy makon sifatida ifodalaydi. Fe'l shakli “bo'lub” esa holatning barqarorligini, ya'ni ko'ngilning ilm bilan uzviy birikkan holatini ta'kidlaydi. I.Haqqulovning fikricha, Navoiy asarlarida ko'ngil — ilohiy haqiqatni anglash vositasi bo'lib, ilm esa shu haqiqatga eltuvchi yo'ldir.¹⁸

Sotsiopragmatik nuqtai nazardan mazkur metafora o'quvchiga bevosita ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan. Shoir ilmni tashqi ijtimoiy mavqiyi yoki mansab bilan emas, balki ichki axloqiy poklanish va shaxsiy mas'uliyat bilan bog'laydi. Sh.Sirojiddinov qayd etganidek, Navoiy didaktik asarlarida ilm doimo axloq bilan uyg'un holda talqin qilinadi va bu holat shoirning jamiyatni ma'naviy isloh qilishga qaratilgan pragmatik strategiyasini belgilaydi.¹⁹ Shu jihatdan, “Ko'ngli bo'lub maskanu ma'voyi ilm” misrasi “Hayrat ul-abror” dostonida markaziy g'oyaviy tayanchlardan biri bo'lib, unda ilm, ko'ngil va kamolot tushunchalari yagona konseptual tizimda mujassamlanadi. Navoiy bu metafora orqali o'quvchini ilmni qalbiga joylashga, ya'ni bilimni ichki e'tiqod va axloqiy

¹⁸ Ibrohim Xaqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007. - 33-bet.

¹⁹ Sh. Sirojiddinov. Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent: “Akademik nashr” 2011.- 87-bet.

mezon darajasiga ko'tarishga chorlaydi. Natijada bayt nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki kuchli tarbiyaviy va sotsiopragsmatik ahamiyat kasb etadi.

“Hayrat ul-abror” dostonida ilm tushunchasi ko'pincha tabiiy jarayonlar orqali obrazlashtiriladi. Xususan, ilmning “qatra” va “daryo” obrazlari orqali ifodalanishi Navoiy tafakkurida bilimning shakllanish va kamol topish jarayonini badiiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi. “Qatra kibi paykar” metaforasi ilmning ibtidosi kichik, ammo mazmunan salohiyatli ekanini, izchil rivojlanish natijasida esa u keng va qudratli oqimga — daryoga aylanishini anglatadi.

Lingvistik jihatdan mazkur qatorda ishtirok etuvchi “qatra”, “paykar”, “daryo”, “ilm” kabi ot birliklari semantik qarama-qarshilik asosida metaforik maydon hosil qiladi. Qatra — kichiklik va boshlanish, daryo esa — kenglik va yetuklik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. “Kibi” bog'lovchi unsuri tashbehni faollashtirib, ilmning rivojlanish jarayonini obrazli idrok etishga imkon yaratadi. Semantik jihatdan qatra–daryo birikmasi ilmning miqdoriy va sifat jihatdan o'sishini ifodalaydi. Ilm bu yerda tayyor va yakuniy holat emas, balki bosqichma-bosqich shakllanadigan, to'planib boradigan jarayon sifatida talqin qilinadi. Qatra obrazidan daryo obraziga o'tish ilmning shaxsiy idrok doirasidan chiqib, umumiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Bu jarayon ilmning uzluksizligi va davomiyligini ta'kidlaydi.

Sotsiopragsmatik nuqtai nazardan mazkur metafora o'quvchini ilmni faol egallashga undovchi ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy ilmni faqat tug'ma iste'dod yoki alohida qatlamga xos hodisa sifatida emas, balki har bir inson kichik qadamlar orqali rivojlantira oladigan jarayon sifatida ko'rsatadi. Qatra obrazi orqali ilm yo'lidagi dastlabki kichik sa'y-harakatlar ham muhim ekaniga ishora qilinadi. Shu tariqa, ilmning “qatra–daryo” metaforasi “Hayrat ul-abror” dostonida chuqur g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ushbu metafora orqali ilm shaxsiy kamolotdan ijtimoiy taraqqiyotgacha bo'lgan uzluksiz jarayon sifatida talqin qilinadi hamda o'quvchida ilmga nisbatan mas'uliyatli va ongli munosabatni shakllantiradi. “Ko'ngil uyin ilm etibon bir jahon” ifodasi orqali Navoiy insonning ichki ruhiy olami — ko'ngilni ilm bilan to'ldirilgan, mazmunan butun bir jahon darajasiga ko'tarilgan makon sifatida tasvirlaydi. Bu yerda ilm shaxsni nafaqat bilish jarayoniga olib kiruvchi vosita, balki uni ma'naviy va axloqiy jihatdan boyituvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvistik jihatdan qatorda ishtirok etuvchi ot birliklari — “ko'ngil”, “uy” (uyin), “ilm”, “jahon” — abstrakt tushunchalarni makon va kenglik orqali ifodalovchi yagona konseptual tizimni hosil qiladi. “Etibon” fe'li esa ilmning ko'ngilga faol va ongli tarzda singdirilishini anglatib, mazmuniy dinamikani kuchaytiradi.

Semantik va sotsiopragsmatik qatlamda ushbu metafora ilm orqali shaxsning ichki dunyosi va tashqi borliq o'rtasida uyg'unlik vujudga kelishini ifodalaydi. Bu jihat Shuhrat Sirojiddinovning Navoiy poetikasiga oid quyidagi fikri bilan hamohangdir: “Navoiy nazarida ko'ngil — ma'rifat tajallisi yuz beradigan makon bo'lib, ilm insonni ichki olamdan ijtimoiy kamolot sari yetaklovchi asosiy kuchdir.”²⁰ Mazkur iqtibos baytdagi metaforik ifodaning mohiyatini yanada aniqlashtiradi. Navoiy uchun ilm ko'ngilni tor shaxsiy makondan chiqarib, uni “bir jahon” darajasiga ko'taradi, ya'ni inson tafakkuri va axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu holat shaxsiy kamolot bilan jamiyat axloqining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. “Ko'ngil uyin ilm etibon bir jahon” qatori

²⁰ Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik.- Toshkent: “Akademik nashr” 2020. – 456-bet.

“Hayrat ul-abror” dostonida ilmning inson ichki dunyosini boyituvchi va uni ijtimoiy-ma'naviy borliq bilan uyg'unlashtiruvchi kuch ekanini metaforik tarzda ifodalaydi. Ushbu obraz orqali Navoiy o'quvchini ilmga intilish, tafakkurni kengaytirish va axloqiy yetuklik sari yo'naltiradi.

So'nggi qator ilmning rivojlanish va kamol topish jarayonini metaforik tarzda yakunlaydi. Unda kichik “qatra”ning oxir-oqibat “daryo”ga aylanishi tasviri orqali ilm va tafakkurning bosqichma-bosqich kengayishi ifodalanadi. Bu metafora ilmni statik holatda emas, balki uzluksiz harakat, o'sish va tarqalish jarayoni sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Natijada bayt ilmning ibtidoiy shakldan mukammal va keng qamrovli darajaga yetishini obrazli tarzda ko'rsatadi.

Lingvistik jihatdan qatorda ishtirok etuvchi ot birliklari — “qatra”, “nav”, “daryo”, “nihon” — semantik zanjir hosil qilib, ilmning yashirin boshlanishdan oshkora va keng miqyosli holatga o'tishini ifodalaydi. “Qatra” ilmning boshlang'ich, individual holatini bildirsa, “daryo” uning jamlanib, ijtimoiy va umuminsoniy ahamiyat kasb etgan darajasini anglatadi. “Nihon” leksemasi esa ilmning dastlab ichki va ko'zga ko'rinmas shaklda bo'lishini, biroq rivojlanish jarayonida oshkoralashib borishini ifodalaydi. Fe'l birligi “ul” esa mazkur jarayonning tabiiy va uzluksiz kechishini ta'kidlab, bayt mazmunini dinamik tarzda mustahkamlaydi. Semantik qatlamda mazkur metafora ilmning nafaqat ko'payishini, balki uning ma'naviy kamolotga olib boruvchi kuch ekanini ham anglatadi. Ilm dastlab shaxs ongida shakllanib, keyinchalik tafakkur, tajriba va ijtimoiy muhit ta'sirida kengayib boradi. Shu tariqa ilm insonni ichki kamolot sari yetaklab, uning dunyoqarashini boyitadi va axloqiy yetuklikni ta'minlaydi.

Sotsiopragmatik nuqtai nazardan ushbu qator o'quvchiga aniq tarbiyaviy xabarni yetkazadi. Navoiy bu metafora orqali ilmni qadrlash, uni muntazam rivojlantirish va tafakkurni kengaytirish zarurligini uqtiradi. Qatra obrazidan daryo obraziga o'tish o'quvchini kichik bilimni ham mensimaslikka, ilm yo'lida sabr va izchillik bilan harakat qilishga undaydi. Natijada ilm shaxsiy fazilat bo'lish bilan birga, jamiyat axloqini rivojlantiruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Ushbu tahlildan xulosa qilib aytganda, Navoiy “Ko'ngil uyin ilm etibon bir jahon” ifodasi orqali ilmni shaxsning ichki ruhiy olamini boyituvchi va axloqiy kamolotga yetaklovchi asosiy kuch sifatida tasvirlaydi. Lingvistik va semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, qatordagi birliklar ilmning shaxs ongida shakllanishidan boshlab ijtimoiy va umuminsoniy ahamiyat kasb etguncha uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi, shu bilan birga, u ilmni shaxsiy fazilat va jamiyat axloqini rivojlantiruvchi kuch sifatida talqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy Hayrat ul-abror.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-jild. Toshkent: “Fan”,1987.
3. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
4. Ibrohim Xaqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik.- Toshkent: “Akademik nashr” 2020.
6. Valixo'jayev, M. Navoiy didaktik dostonlarining sotsiopragmatik tahlili. -Toshkent: Sharq, 2012.

3-SHO'BA. ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI. NAVOIY POETIKASI.

ALISHER NAVOIY IJODIDA MORFEM BIRLIKLARNING ISHLATILISHI VA BUGUNGI KUN TILSHUNOSLIGIGA TA'SIRI

*Uralov A.,
filologiya fanlari doktori, professor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida morfem birliklarning ishlatilishi va ularning bugungi kun o'zbek tilshunosligiga ta'siri tahlil qilinadi. Morfemlarning so'z hosil qilish, sintaktik va leksik funksiyalari, shuningdek fonetik va morfonologik jihatlari o'rganiladi. Navoiy asarlaridagi qo'shimchalar va ildizlar kombinatsiyalari misol qilib keltirilib, ularning she'riy va badiiy matnlarda estetik rolini ko'rsatadi. Maqolada Navoiy ijodidagi morfem birliklari bugungi tilshunoslikda morfemik tahlil, so'z hosil qilish qonuniyatlari va leksik tadqiqotlarda amaliy qo'llanilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: morfem, morfonologiya, morfemik tahlil, so'z hosil qilish, sintaktik va leksik funksiyalar, o'zbek tilshunosligi, fonetik xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируется использование морфем в творчестве Алишера Навои и их влияние на современное узбекское языкознание. Рассматриваются морфемы в процессах словообразования, их синтаксические и лексические функции, а также фонетические и морфонологические особенности. Приводятся примеры комбинаций корней и аффиксов в произведениях Навои, показывающие их эстетическую роль в поэтических и художественных текстах. Статья демонстрирует практическое применение морфемного анализа, закономерностей словообразования и лексических исследований в современной узбекской лингвистике.

Ключевые слова: морфема, морфонология, морфемный анализ, словообразование, синтаксические и лексические функции, узбекское языкознание, фонетические особенности.

Abstract. This article analyzes the use of morphemes in the works of Alisher Navoi and their impact on contemporary Uzbek linguistics. The study examines morphemes in word formation, their syntactic and lexical functions, as well as phonetic and morphophonological features. Examples of root and affix combinations in Navoi's works are provided, demonstrating their aesthetic role in poetic and literary texts. The article highlights the practical application of morphemic analysis, word formation patterns, and lexical research in modern Uzbek linguistics.

Keywords: morpheme, morphophonology, morphemic analysis, word formation, syntactic and lexical functions, Uzbek linguistics, phonetic features.

Kirish. Tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri – tilning tarkibiy birliklarini, xususan morfemlarni o'rganishdir. Morfem tilning eng kichik ma'noli birliklaridan biri bo'lib, so'z hosil qilish, so'z tarkibini aniqlash va ma'noni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilining tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda adabiy asarlar, xususan, klassik yozuvchilar ijodi beqiyos manba sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan Alisher Navoiy ijodi tilshunoslikda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy o'z asarlarida boy leksik, morfemik va stilistik imkoniyatlarni namoyish etgan. Uning asarlarida morfemlarning ishlatilishi nafaqat adabiy ifoda vositasi, balki tilning morfonologik va morfemik qonuniyatlarini tadqiq qilish uchun

qimmatli manbadir. Navoiy ijodini morfem birliklar nuqtayi nazaridan o'rganish orqali o'zbek tilining leksik va morfemik tizimi, so'z hosil qilish qoidalari va tarixiy rivojlanish jarayonlari haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish mumkin. Navoiy asarlaridagi morfem birliklarining xususiyatlari, ularning sintaktik va leksik vazifalari, shuningdek, zamonaviy o'zbek tilshunosligiga ta'siri tahlil qilar ekanmiz, tadqiqot jarayonida adabiy manbalar, morfemik tahlil usullari va zamonaviy tilshunoslik nazariyalari asos qilib olindi.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy ijodida morfem birliklari tilning leksik va morfologik rivojlanishini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Morfem bu so'z tarkibidagi eng kichik ma'noli birlik bo'lib, u so'z hosil qilish, grammatik shakllanish va ma'noni aniqlash jarayonlarida faol qatnashadi. Navoiy asarlarida morfemlarning ishlatilishi ularning semantik va fonetik boyligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Navoiy ijodida so'z hosil qilish morfemlari, xususan asos va qo'shimchalar, keng qo'llanilgan. Masalan, "mehr" (sevgi) asosidan "mehribon" so'zi hosil qilingan. Bu yerda **"-ibon"** morfemasi so'zga yangi ma'no va grammatik funktsiya beradi. Shu tarzda Navoiy morfemlarni ijodiy va stilistik maqsadlarda ishlatgan, ularning kombinatsiyasi tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirgan.

Alisher Navoiy ijodida morfemlar nafaqat so'z hosil qilish vositasi sifatida, balki sintaktik va leksik tizimda ham muhim rol o'ynaydi. Sintaktik jihatdan morfemlar gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanishini belgilashda, ularning grammatik vazifalarini aniq ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, fe'l qo'shimchalari orqali fe'lning shaxs, vaqt va hollik kabi grammatik xususiyatlari aniqlanadi. Navoiy asarlarida "ketdum", "yozilmakda", "kelar erdi" kabi shakllar keng qo'llanilib, morfemlarning gap tarkibidagi vazifasi yaqqol ko'rinadi. Shu bilan birga, ot va sifatlarga birikadigan qo'shimchalar ham sintaktik munosabatlarni belgilaydi.

Shu o'rinda grammatik morfemalarning tarixiy ko'rinishlari haqida ham fikr bildirish lozim. Jumladan, Navoiy asarlari tilida morfem birliklarning tadrijiy taraqqiyoti va o'zgarishi xususida quyidagilarni aytish mumkin. O'zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkir Mir Alisher Navoiy haqida so'z borar ekan, "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlar ning sultonidir" [2. 47], – Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning ushbu so'zlari beixtiyor yodimizga tushadi. Bu mutafakkirning asarlari bugungi kunga qadar sevib o'qiladi, tahlil etiladi, chog'ishtiriladi, milliy tilimizning asoslaridan biri sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlari tilining bugungi kundagi tadrijiy taraqqiyoti keng ko'lamda o'rganilmoqda. Uning asarlari tilidagi morfem birliklar va ularning o'zgarishlari xususida "Mukammal asarlar to'plami"[1.] (20 tomlik, 14-tom)dan misollar ko'rsatamiz. Yuqoridagi kitobning 57-betida "xorxori", "asas", "ta'zib", "navmidlig'din", "muhiq", "diram", "etidoldin", "tahammul", "naz zoragar", "maraze", "rahre", "halohil", "sahih", "suubat", "nokor", "taallul", "bodiya", "zuloli", "homil", "sa'b" singari yigirmadan ortiq eskirgan (tarixiy-arxaik) so'zlarni uchratish mumkin. Bu so'zlar qaysidir ma'noda arxaik yoki tarixiylashib qolgan. Bu so'zlarni lug'atlar yordamida tushunishga to'g'ri keladi. Navoiy asarlari tilida mustaqil so'zlar va ularga qo'shilayotgan qo'shimchalar bugungi kunda to'liq amalda deyish biroz qiyin. Lekin shuni alohida ta'kidlash mumkinki, asosan morfemalarda tarixiy taraqqiyot tufayli ayrim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Asos – leksemalarning ayrimlari turli o'zgarishlarga uchragan.

Natija va muhokama. O'sha davr tilida ham tovush almashishi hodisasi mavjud: "arig'i", "zarnigorlig'idin" kabi so'zlar tarkibidagi "q" va "k" tovushlari "g" tovushiga almashayotganini kuzatamiz. Ot so'z turkumiga xos egalik qo'shimchalarida ham o'zi ga

xos o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Bugungi kundagi "ko'ngil" so'zining "ko'nglumni" (191-bet), "ko'nglungga" (49-bet), "nutqung" (160-bet) variantida tovush tushishi hodisasi bilan bir qatorda egalik qo'shimchasining "-um", "-ung" ko'rinishlarini ham kuzatamiz. "Vaqufung" (49-bet) so'zida ham bu holatni kuzatish mumkin. Shu bilan bir qatorda bugungi tilimizda mavjud bo'lgan egalik qo'shimchalarining ham parallel ishlatilganining guvohi bo'lamiz: "shuuring", "namozi", "ichiga", "nidosi" (49-bet). Kelishik qo'shimchalarining ham turli ko'rinishda (variantlarda) kuzatish mumkin. Chiqish kelishigi "-dan" shakli eski o'zbek adabiy tilida "-din" shakli bilan ifodalangan. "Munsha ot" asarining 191-betida "atrofdin", "alardin", "ishidin", "bun din", "yodidin", "qatoridin", 193-betida "duodin", "zulmatidin", "mazmunidin", "falakdin" kabi so'zlarda va "Mahbub ul-qulub" asarida esa "xayolidin" (48-bet), "shiddatidin", "nidosi din", "huridin", "uyotdin" (49-bet) kabi so'zlar tarkibida chiqish kelishigi shakli "-din" variantida ishlatiladi. Asarning boshqa qismlarida ham "-dan" shaklini uchratish qiyin. Bundan aniq bo'ladiki, eski turkiy tilimizda chiqish kelishigi shakli "-din" variantida mavjud bo'lgan va tarixiy taraqqiyot natijasida bu gungi holatga kelib qolgan. Buni til tarixidan yanada ko'proq bilib olish mumkin.

Tushum kelishigi asosan ikki variantda ishlatiladi. Bugungi kunda she'riyat talabi bilan qisqargan shakli "-n" hamda adabiy tildagi to'liq shakli "-ni" teng qo'llanilgan: "takallumin" (57-bet), "tutmog'onni" (87-bet). Jo'nalish kelishigining ishlatilishida 4 variantlilik, ya'ni to'rtta morf – -g'a (190-betda qaysig'a, holig'a, 191-betda devoniylarg'a, bandag'a, 192-betda o'tig'a, jarohatig'a, 193-betda qotillarig'a, tang'a, jong'a, 48-betda yo'lg'a, ishqig'a, husnig'a), -ka (49-betda sulukka), -qa (87-betda valene'matqa, 160-betda tufroqqa), -ga (49-betda ko'ngliga, o'ziga, ishiga) orqali ifodalangan. Biroq bular orasida eng faoli "-g'a" shakli hisoblanadi. "-g'a" morfemasining Navoiy asarlarida juda ko'p uchrashi hozirga adabiy tildagi «-ga» morfemasining ko'p qo'llanishi o'z navbatida bir vaqtlar faol bo'lgan bu morf endilikda nafaol morfega aylangan va eski o'zbek adabiy tilida nafaol bo'lgan "-ga" shakli esa bugun o'ta faol morfemaga aylangan. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatmoqdaki, eski o'zbek tilidagi "-g'a" shakli bugun "-ga" shakliga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Qaratqich shaklini esa "-ing" va "-ning" shakllarini ko'ramiz: tabiating komi (49-bet), tilning ofati.

Ismlardagi kesimlik shakllari (bog'lamalar)ni (-man, -san, -dir...) eski o'zbek adabiy tilida "-men", "-sen", "-dur, -tur" shakllarida ishlatilishi mavjud bo'lgan: "ishtur" (189-bet), "bordur", "ekandur", "vojibdur", "zabtidur" (190-bet), "bermakdur" (192-bet), "xushvaqtdurlar" (193-bet), "nidosidur", "kechmakdur" (49-bet), "ulfatdur" (50-bet), "qilgaysen", "degaysen" (136-bet), "yururmen" (194-bet). Misollardan ko'rinib turibdiki, eski o'zbek adabiy tilidagi shakllardan bugungi shakllarning farqi mavjud. Hozirgi o'zbek adabiy tilida "edi" to'liqsiz fe'li mavjud. Bu morfema Navoiy davrida "ermishkim", "erdi", "erdikim" (48-bet), "ermish" (57-bet), "erdingiz" (193-bet) so'zlarini kuzatadigan bo'lsak, tarkibda "e"dan keyingi "r" tovushining ortishi kuzatiladi. Demak, aslida bu so'z "erdi" shaklida bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida "r" tovushi fusiyyaga uchrab, tushib qolib, so'z yanada qisqarishga uchragan (soddalashgan).

Fe'llar borasida so'z ketganda (A.Hojiyev ham ta'kidlagan) eski o'zbek adabiy tilidagi ko'pgina so'zlar bugungi ko'rinishidan farq qiladi. Bu holatlar zamonlarda ham, nisbatlarda ham, fe'l shakllarida ham kuzatiladi. Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz, buning yaqqol aksini ko'rish mumkin. Eski o'zbek adabiy tilida "bo'lgay" so'zi tarixiy taraqqiyot natijasida "bo'ladi" shakliga kelib qolgan. "-di" zamon shaklini "-ti" varianti qo'llanilgan so'zlar ham juda ko'p: "tushti", "etti" (49-bet). Kelasi zamon qo'shimchasi "-adi" shakli esa Navoiy davrida "-gay" shaklida qo'llanilgan: "yetkurgaylar" (259-bet).

Bu yerda nisbat shaklining ham boshqa variantlarini kuzatish mumkin: “yetkurgaylar” (259-bet). -kur shaklidagi variant bugungi kunda -kaz (-gaz) shaklida ishlatiladi. Fe'ning vazifa shakllarida ham o'zgarishlarni kuzatish mumkin: “-ib” ravishdosh shaklining “-ub” ko'rinishi ko'proq iste'molda bo'lgan. Bu holat bugungi kunda singarmonizm hodisasidan yiroqlashib, asosiy so'zlarga “-ib” shaklida qo'llaniladigan bo'lgan. Aslida esa, Navoiy “o'shub” (49-bet), “keltu rub” (191-bet), “yetkurub” (193-bet) shaklida qo'llagan.

Sifatdosh shakli “-gan”ni esa “-g'on”, “-qon” (ba'zi hollarda “-ur”) shakllarida ishlatilganligini ko'ramiz. Tarixiy taraqqiyot “g” va “q” shakllarini “g” shakliga, “o” shaklini “a” shakliga o'tib ketganligini ko'rsatmoqda. Morfema tarkibining asosiy qismi o'zgarib ketgan bo'lsa-da mohiyatidan yiroqlashmagan. Bu shakllar “qochqon” (49-bet), “qilg'on” (191-bet), “ozg'onlar”, “bo'lg'on” (259-bet), “o'qur kishi” (190-bet) holatda keltirilgan bo'lib, bugungi kunda “qochgan”, “qilgan”, “ozgan”, “bo'lgan”, “o'qigan kishi” shakllarida ishlatiladi. Bu holatdan anglashiladiki, so'z tarkibidagi morfem birliklar diaxron va sinxron nuqtayi nazardan qaralganda turli o'zgarishlarga uchragan.

Harakat nomi shaklining “-ur” (190-betda “o'qurda”), “-mak” (49-betda “kechmakdur”), “-moq” (50-betda “turmoq”) ko'rinishlari amalda bo'lgan. Bugun esa “-ish” va “-moq” variantlari saqlanib qolgan. “-mak” holati esa batamom “-moq” holatiga, “-ur” shakli esa “-ish” shakliga o'tib ketdi. Qiziq tomoni fe'ning vazifa shakllari orasida omonimiya hodisasi Navoiy davrida ham bo'lgan, keyinchalik bu morfemalar o'z mustaqilligiga erishib, ko'rinish jihatidan o'zgargan. “O'qurda” (o'qishda) – “o'qur kishi” (o'qigan kishi). Misollarda ko'rinish turibdiki, “-ur” fe'l shakllari ichida omonim qo'shimcha hisoblangan.

Fe'l nisbatlarida ham shakllar bugungidan ko'p. Hozirgi o'zbek adabiy tilida “-in”, “-il” (ko'rindi, ko'rildi) shaklidagi fe'l nisbatlari mavjud. Navoiy asarlari tilida bu shakllarning turli morflari qo'llangan. Bundan shuni aniqlash mumkinki, eski o'zbek adabiy tilida fe'l nisbat shakllarining turi ko'p bo'lgan. Masalan, hozirgi “-in” shakli o'rnida “-un” (192-betda “ko'rundi”), “-il” (189-, 190-, 191-, 259-betlarda “qililsa”), “-ul” (191-betda “bo'lulmasa”) shakllari qo'llangan. Bu shakllarga teng morflar bugungi tilimizda bitta shakl bilan ifodalanishga kelib qolgan. Hozirgi “-il” shakli esa “-ul” (191-betda “ko'rulsa”) shaklida ham ishlatilgan. Orttirma nisbat shakllarida ham o'ziga xoslik kasb etadi: hozirgi “-ir” shakli “-ur” (191-betda “kelturub”) shaklida, “-giz” shakli “-gur” (67-betda “ko'rguzsa”) shaklida, “-kaz” shakli “-kur” (259-betda “yetkurgaylar”) shaklida, “-ar” shakli “-or” (259-betda “chiqordilar, 136-betda “chiqormoqliq”) shaklida keng qo'llanilgan. Bu holatlar eski o'zbek adabiy tilida morfemalar rang-barangligini ko'rsatadi.

Ko'rsatish olmoshlari xususida ham ikki og'iz to'xtalib o'tsak. Leksemalarning tarixiy taraqqiyoti davrlar o'tishi bilan o'zgarib turadi. Tilning ijtimoiyligi ham shunda. Navoiy asarlari tilida ko'rsatish olmoshlarining eskicha ko'rinishlari yaqqol seziladi. Aslini olganda, hozirgi olmoshlarimizning tarixdagi qiyofalari morfem hamda leksem birliklarning qonuniyatiga mos tushadi. “U” olmoshining “a” (49-betda “aning”, 49 – 103-betlarda “anga”, 57-betda “ani”, 191-betda “alardin”, 190-betda “alar”, “andoq”), “ul” (190-betda “ulcha”, 49-betda “ul”) variantlari, “bu” olmoshining “mu” varianti, “shu” olmoshining “ul” varianti tarixan mavjud bo'lgan. Hozirga “bu” va “shu” olmoshlarining esa “mu” va “ul” shakllari keng iste'molda bo'lgan: “mundin” (191-bet), “mundagi” (190, 193-betlar); “iltimosim ulkim” (191-bet).

Eski o'zbek adabiy tilidan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha besh asr vaqt o'tganligi bois so'z tarkibining o'zgarishlari ham kuzatiladi. Birinchi holatda tovushlarning

o'zgarishini kuza tish mumkin: "bila" (191-bet) – "bilan" holatiga kelgan, "qilinur" (190-bet) "qilinadi" holatiga, "ko'ngul" (192 – 193-betlar) so'zi "ko'ngil" holatiga, "qo'yub" so'zi "qo'yib" holatiga, "yetkursalar" (191-bet) "yetkazsalar" holatiga kelib qolgan. Shu bilan birgalikda "ortuq" (ortiq), "topshurulsa" (topshirilsa), "yetkurdi" (yet kazdi), "yetkurib" (yetkazib), "o'tkarib" (o'tkazib) kabi so'zlarda ham turli tovush o'zgarishlari bo'lgan. "Yafrog'lari", "yovushti" (49-bet) so'zlari tarkibida ikkitadan tovush o'zgarishlarini sezish mumkin. Bunda asosan "p" tovushi "f" bilan ifodalanayotganligini kuzatamiz. "Sovug'" (49-bet) (sovuq), "orig'ay" (50-bet) (arigay). "O'qusa", "uzottilar", "yig'och" (57-bet) so'zlari tarkibi ham bugun o'zgargan. Ikkinchi holatda ortiqchalikni kuzatamiz: "-kim" shakli bilan ortiqchalik (murakkablashuv) hosil qilayotgan so'zlarga to'xtalib, u so'zlar tarkibidagi bu birlik hozirda batamom yo'q bo'lib ketganligini ko'ramiz: "bu mahaldakim", "qilsakim" (190-bet), "bitilsakim", "ulkim", "bo'lsakim", "qililsakim", "har qaysi ishkim" (191-bet). Uchinchi holatda qisqarish yoki asosning o'zini o'zgarishini kuzatish mumkin: so'z tarkibi qanchalik murakkablashmasin, tabiiy ravishda qisqarishga intilaveradi. "Aytur erdi", "tutub erdi" (49-bet) shakli bugun "aytardi", "tutardi" shakliga kelib qolgan. Ikki so'zning qo'shilishi va ular orasidagi birikuvning natijasida ikki so'z tarkibida ham o'zgarish sodir bo'lib, bir so'z shaklida qisqardi. Bugun bu so'zni biz tub so'z deb ataymiz. Navoiy davrida esa bu ikki so'z bilan ifodalangan. "Edikim" (48-bet) so'zining qisqarishi tufayli oxiridagi "m"ning tushib qolishi "ediki" holatiga asos bo'ldi. "sirrin" (57-bet) tarkibidagi bitta "r"ning qisqarishi ham yuqoridagi holatni ko'rsatadi, "andoq" (59-bet) so'zi esa "ozroq" shakliga kelib qoldi.

Xulosa. Umuman olganda, eski adabiy til namunasi bo'lmish Navoiy ijodi tili bugungi tilimiz uchun tegishli miqdorda asos vazifasini o'taydi. Tarixiy taraqqiyot natijasida ro'y bergan tildagi ba'zi o'zgarishlarni Navoiy asarlari misolida ko'rishimiz mumkin. Aslini olganda, bu tadqiqot juda katta ish bo'lganligi sabab biz uning ba'zi elementlariga to'xtaldik xolos. Navoiy asarlari tilida qo'llanilgan morfemalar bugungi tilshunosligimizda turli o'zgarishlarga uchragan. Tadqiqotchilar so'z tarkibini o'rganayotganda, morfem birliklar xususida fikr bildirayotganda, ularning tarixiy ildizlarini, kerak bo'lsa, kelib chiqishini Navoiy davri adabiyotlari bilan ham solishtirib ko'rishligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tarixiy taraqqiyot bugungi kun holati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. ("Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya") 20 tomlik, 14-tom. – T.: 1967.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T: Ma'naviyat, 2008.
3. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

NAVOIYNING MAVZU TANLASHDAGI O'ZIGA XOSLIK

*Suvonova Mavjuda Xamraqulovna,
Navoiy viloyati prgagogik mahorat markazi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning lirik merosi, mavzu tanlashdagi o'ziga xoslik, o'zbek lirikasining milliy hamda qardosh adabiyotlarning eng ilg'or an'alarini o'zida mujassam etgan lirik meros haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ishq-muhabbat, yaxshilik, yomonlik, nafs, razolat, jaholat, Vatan, do'stlik, himmat

Olimlarimizni ilhomlantirib kelayotgan Navoiy ijodini o'rganish, uni ilmiy tahlil qilish so'nggi yillarda ko'pgina tadqiqotlarning olib borilishiga sabab bo'lmoqda.

Alisher Navoiyning lirik merosi, mavzu tanlashdagi o'ziga xoslik, o'zbek lirikasining milliy hamda qardosh adabiyotlarning eng ilg'or an'alarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichi hisoblanadi. Navoiy lirikasining tub mohiyati – falsafiy, ijtimoiy va etik qarashlarning yuksak poetik shakldagi ifodasi bo'lganligi bilan boshqa lirik shoirlardan ajralib turadi. Masalan, oddiy olib qarajak, g'azal tarixda “ishq - muhabbatni kuylash” degan ma'noni anglatadi. Navoiy ijodida esa nafaqat ishq-muhabbat balki, yaxshilik, yomonlik, nafs, razolat, jaholat, Vatan, do'stlik, himmat va shunga o'xshagan ko'pdan-ko'p, rang barang mavzularda g'azallar ijod qildi. Nafaqat, g'azallari, balki Navoiy ijod qilgan barcha janrlar mavzusi xilma-xildir.

Navoiy lirikasi tarkibida ishqning xarakterigina emas, balki uning muhim qonuniyatlari, ijtimoiy hayotda hamda shaxsning kamoloti jarayonida tutgan o'rni masalalariga doir nazariy mulohazalar bayoniga bag'ishlangan baytlar ham anchagina uchraydi.

Adib g'azallaridagi poetik obrazlar munosabati bilan bir masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Chunki mazkur ta'rifning oxiri ana shu masalaga daxldor bo'lib, ishq, aql va din xirmonini kuydiruvchi chaqmoq sifatida tasvirlanadi. “Ishq bilan aqlni bir-biriga zid qo'yib, ishqning ustunligini ta'kidlash g'azallar tarkibida ham uchraydi”. Navoiy fikricha, ishqda hech kimga imtiyoz bo'lishi mumkin emas, Oshiq, u xoh shoh bo'lsin, xoh gado ishq bobida buning hech qanday ahamiyati yo'q. Bu fikr shoirning butun hayoti davomida yaratilgan barcha badiiy asarlari zamiriga singib ketgan. U “Mahbub-ul qulub” asarining “Ishq zikrida” ham xuddi shu masalaga to'xtalib o'tadi: “Inodi oldinda teng ham podshoh, ham gado; Bedodi qoshinda bir ham fosih, ham porso”. Haqiqiy oshiq o'z qalbining chinakam sofligiga erishmog'i lozim. Uning qalbidan o'rin olishga loyiq yagona tushuncha – bu mehr va sadoqat. Bu masalada uning tili bilan dili doimo muvofiq bo'lishi shart.

Navoiy g'azaliyotidagi ishq mavzusi bilan bog'liq ikkinchi muhim masala mashuqa shaxsi bilan aloqadordir. Demak, ishq uchun mashuqa millati va nasl-u nasabining mutlaqo ahamiyati yo'q.

Navoiy ishq mavzusidan keyin himmat va nafs mavzularida ham anchagina ko'zga tashlanarli darajada ijod qildi.

Himmat shoirning butun ijodiyotida muhim o'rin tutgan masalalarining mavzularidan biridir. Himmat Navoiy lirikasida keng qo'yilgan dolzarb masalalardan bo'lib, o'z ichiga inson ma'naviy olami bilan bog'liq bir qator fazilatlarni qamrab oladi. Shuning uchun shoir lirik asarlarida ham, “Xamsa” va “Mahbub-ul qulub” asarida ham bu mavzuga alohida ahamiyat bergan. Shoir nazarida himmat barkamol insonning chinakam yetukligini namoyish qiladigan haqiqiy mezon. Bu mezon masalasi birorta g'azalda yaxlit qo'yilgan emas. Lekin ayrim she'rlarga uning ba'zi bir qirralari asos qilib olingan va u goho ochiq, gohida umumiy fonda namoyon bo'ladi.

Kimki bir ko'ngli bizug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay
 (“Badoyi-ul vasat”, 396)

Himmatning muhim qirralaridan biri insonning insonga munosabatida namoyon bo'ladi. Muhtojlarga muruvvat va e'tibor, ojizlarga g'amxo'rlik haqiqiy himmat egasi uchun xos fazilat hisoblanadi.

Yuqorida biz Alisher Navoiyning ijobiy xususiyatlarga xos mavzulari xususida soʻz yuritdik. Endi esa salbiy xususiyatlarning zamini boʻlgan hayvoniy hirs – nafs xususida soʻz yuritsak.

Shoir fikricha, insonning kamoloti uning oʻziga bogʻliq. Har bir inson nafsni oʻz irodasiga tobe qila olsagina, kamolotga erishish imkoniyati paydo boʻladi. Lekin bunga osonlikcha erishib boʻlmaydi. Shuning uchun ham toʻqaydagi sherni yengish shijoat emas, balki haqiqiy shijoatni talab qiladi. Navoiyning yigitlik davrida (1465-1476) yozgan nafs haqidagi quyidagi gʻazaliga nazar tashlaylik:

Boʻlib nafsingga tobe, band etarsen tushsa dushmani,
Senga yoʻq nafsdek dushman qila olsang, ani qil band.

Agar insonning oʻz vujudida mavjud eng qudratli dushmani nafs boʻlsa, uning xarakteridagi eng tuban xususiyat- bu vafosizlik deydi Alisher Navoiy. Vafo inson zoti uchun zarur boʻlgan eng olijanob fazilat. Lekin, afsuski, bunday noyob gavharni zamon kishilarida uchratish amrimahol.

Demak, Navoiyning inson shaxsining turli qirralari bilan bogʻliq didaktik fikr va gʻoyalari har bir masalada oʻziga xos shaklda ifodalangan. Jumladan, himmat masalasida u bevosita murojaat tarzidagi tashviq-tartib usulini qoʻllasa, vafo masalasida keskin tanqid yoʻlidan boradi. Lekin mohiyat jihatidan olganda, har ikki oʻrinda ham shoirning maqsadi himmat va vafo kabi yuksak insoniy fazilatlarni ulugʻlash va targʻib qilishdan iborat.

Xullas, Navoiyning inson haqidagi qarashlari, mavzu tanlashdagi oʻziga xosligi va xilma-xilligi ruhiyatda keng va koʻp qirrali boʻlib, jamiyatdagi deyarli barcha tabaqalar uchun taalluqli fikr-mulohazalarni qamrab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova S. “Komil inson tarbiyasi”.-T.:”Istiqlol”,2003,197 b
2. Alisher Navoiy. “Badoyi-ul vasat”.T.: “Gʻafur Gʻulom”.1991-y.381 bet.

ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA QARASHLARI VA POETIK MEROSI

*Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi kafedrasi mudiri*

Annotatsiya. Maqolada, Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodining tilshunoslik hamda poetika nuqtayi nazaridan ahamiyati tahlil qilinadi. “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida turkiy va forsiy tillar qiyosiy tahlil qilinib, turkiy tilning semantik boyligi va adabiy imkoniyatlari ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, Navoiy poetikasida komil inson orzusi, adolat, mehr-shafqat va ezgulik gʻoyalari yoritilib, uning asarlari millat va davr chegaralaridan yuqori turuvchi universallik kasb etgani koʻrsatiladi.

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, tilshunoslik, poetika, turkiy til, “Muhokamat ul-lugʻatayn”, komil inson, universallik.

Annotation. This article examines the significance of Alisher Navoi's personality and works from the perspectives of linguistics and poetics. In his treatise Muhokamat ul-lughatayn, Navoi compares Turkic and Persian languages, scientifically substantiating the semantic richness and literary potential of Turkic. His poetics emphasize the ideal of the perfect human, justice, compassion, and benevolence, highlighting the universality of his works that transcend national and temporal boundaries.

Keywords: Alisher Navoi, linguistics, poetics, Turkic language, Muhokamat ul-lughatayn, perfect human, universality.

Аннотация. В статье рассматривается значение личности и творчества Алишера Навои с точки зрения лингвистики и поэтики. В трактате «Мухокамат ул-луғатайн» Навои сопоставляет тюркский и персидский языки, научно обосновывая семантическое богатство и литературные возможности тюркского языка. В его поэтике раскрываются идеи совершенного человека, справедливости, милосердия и добра, что свидетельствует об универсальности произведений, выходящих за рамки национальных и временных границ.

Ключевые слова: Алишер Навои, лингвистика, поэтика, тюркский язык, «Мухокамат ул-луғатайн», совершенный человек, универсальность.

Kirish. Alisher Navoiy — o‘zbek va umuman turkiy xalqlar ma’naviy hayotida beqiyos o‘rin tutgan shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida jahon adabiyoti tarixida alohida mavqega ega. Uning ijodi nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham insoniyat uchun ma’naviy dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Hazratning asarlari inson ruhiyatining eng nozik qatlamlariga kirib borib, har bir davrning ijtimoiy-ma’naviy muammolariga javob topishga yordam beradi.

Navoiy turkiy tilning fidoyisi sifatida forsiy til hukmron bo‘lgan muhitda turkiy tilning go‘zalligini, poetik imkoniyatlarini namoyon etib, uni adabiyotning yuksak cho‘qqisiga olib chiqdi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida u turkiy va forsiy tillarni qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning semantik boyligini ilmiy asoslab berdi. Bu asar tilshunoslik tarixida qiyosiy tahlil metodining ilk namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. Shuningdek, “Majolis un-nafois”da turkiy tilda ijod qilgan yuzlab shoirlar haqida ma’lumot berib, adabiy muhitning kengligini ko‘rsatdi.

Bugungi kunda Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha tadqiqotlar nafaqat O‘zbekistonda, balki Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda ham faol olib borilmoqda. Eng yirik navoiyshunoslar qatoriga Yevgeniy Bertels, Shuhrat Sirojiddinov, Ibrohim Haqqulov, Aftondil Erkinov, Komil Arslon va Ayshexan Deniz Abik kiradi.

O‘zbekistondagi tadqiqotchilar: Shuhrat Sirojiddinov – Navoiy merosi va XXI asrda uning o‘rni haqida ilmiy monografiyalar yozgan, turkiy tilning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilgan. Ibrohim Haqqulov – Navoiy matnshunosligi va poetikasini o‘rganib, uning asarlaridagi falsafiy qatlamlarni tadqiq qilgan.

A. Erkinov – Navoiy asarlari va tilshunoslik muammolarini o‘rganib, qiyosiy tahlil metodini ilmiy asoslagan. Qurbonov Abdumalik – Navoiy ijodi bo‘yicha zamonaviy filologik tadqiqotlar olib borib, turk olimlarining qarashlarini tahlil qilgan. Navoiy shaxsiyati va ijodi komil inson orzusi, adolat, mehr-shafqat va ezgulik g‘oyalarini tarannum etish bilan birga, ularni amalda qaror toptirishga bag‘ishlangan hayotiy fidoyilikdir. Shu boisdan ham uning asarlari millat va davr chegaralaridan yuqori turib, har bir avlod uchun donishmand suhbatdoshlik vazifasini bajaradi.

Asosiy qism. Alisher Navoiy tilshunoslikka oid qarashlari

Alisher Navoiy o‘z davrida turkiy tilning nazariy asoslarini belgilab, uni adabiy til darajasiga ko‘targan buyuk mutafakkir sifatida e’tirof etiladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida u turkiy va forsiy tillarni qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning semantik boyligini ilmiy asoslab berdi. Masalan, forsiy tilida mavjud bo‘lmagan “yemoq”, “simirmoq”, “sipqormoq”, “ho‘plamoq”, “tomshimoq” kabi fe’llar turkiy tilning nozik ma’nolarni ifodalash imkoniyatini ko‘rsatadi. Bu hodisa keyinchalik tilshunoslikda “lakuna” termini bilan izohlangan.

Shuningdek, Navoiy nutq madaniyatiga alohida e’tibor qaratib, so‘zning o‘rinli ishlatilishi, mantiqiyliги va ta’sirchanligini muhim mezon sifatida belgilagan. “Mahbub ul-qulub” asarida esa muloqot etikasi, ma’naviy poklik va so‘zning ijtimoiy vazifasi

haqida chuqur mulohazalar bildiradi. Navoiy poetikasining asosiy tamoyili — insonparvarlik va komil inson g'oyasidir. Uning she'rlari millat va davr chegaralaridan yuqori turib, har bir avlod uchun donishmand suhbatdoshlik vazifasini bajaradi. Obrazlilik, tashbeh va metaforalarning keng qo'llanilishi, tovush uyg'unligi va ritmik tuzilish poetik merosining estetik kuchini belgilaydi.

Alisher Navoiy o'z davrida forsiy va arab adabiyotlari yuksak mavqega ega bo'lgan sharoitda turkiy tilni adabiy til darajasiga ko'tarib, uni xalqaro miqyosda tanitdi. Bu jarayon nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida ham baholanishi lozim. Professor **Shuhrat Sirojiddinov** ta'kidlaganidek, Navoiy turkiy tilning nazariy asoslarini yaratib, uni "xalqning ma'naviy birligi va o'zligini ifodalovchi vosita" sifatida mustahkamladi.

Turk olimlari ham Navoiy merosini yuksak qadrlashadi. Masalan, **Komil Arslon** Navoiy ijodini "mumtoz turkiy adabiyotning dunyoga kelishi zarur bo'lgan davrda amalga oshgan tarixiy hodisa" sifatida baholaydi. Bu fikr Navoiy ijodining turkiy dunyo adabiyoti va madaniyatidagi birlashtiruvchi rolini ko'rsatadi.²¹

Shuningdek, **Ibrohim Haqqulov** va **Aftondil Erkinov** tadqiqotlarida Navoiy asarlarining matnshunoslik va tilshunoslikdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Ularning fikricha, "Muhokamat ul-lug'atayn" asari qiyosiy tilshunoslik metodining ilk namunasi bo'lib, turkiy tilning semantik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Navoiy shaxsiyati va ijodi komil inson orzusi, adolat, mehr-shafqat va ezgulik g'oyalari tarannum etish bilan birga, ularni amalda qaror toptirishga bag'ishlangan hayotiy fidoyilikdir. Bu jihatni **Ramiz Asker** (Ozarbayjon) "Navoiy asarlari millat va davr chegaralaridan yuqori turuvchi universallik kasb etadi" deya izohlaydi.²²

Navoiy she'riyatida muhabbat, adolat, mehr-shafqat va ezgulik g'oyalari tarannum etiladi. Bu jihatlar uning poetikasini universallikka olib chiqadi. Hazratning "Turk nazmida chu tortib alam, ayladim ul mamlakatni yakqalam" degan misrasi turkiy dunyoni qalam orqali birlashtirish orzusini ifodalaydi. Navoiy va turkiy adabiyotning shakllanishi: Navoiydan avval ham turkiy tilda ijod qilgan shoirlar bo'lgan. "Majolis un-nafois" asarida muallif turkiy tilda qalam tebratgan 150 nafar shoir haqida ma'lumot beradi. Ammo Navoiy bu an'anani yangi bosqichga olib chiqib, turkiy tilni xalqaro miqyosda tanitdi.

XV asrda forsiy va arab adabiyotlari yuksak darajada rivojlangan bir davrda turkiy adabiyotning mumtoz shaklda dunyoga kelishi zarur edi va bu sharaflil vazifani Alisher Navoiy ado etdi. Shaxsiyat va insonparvarlik g'oyalari: Navoiy shaxsiyati komil inson orzusi bilan uyg'unlashgan. U millati, tili, dini qaysi bo'lishidan qat'i nazar, odam zotini birdek barobar ko'rish, uning shani va qadr-qimmatini ulug'lashni hayotiy ideal sifatida belgilagan. G'arib va muhtojlarga ko'mak berish, mehr-shafqat ko'rsatish, jamiyatda adolat va ezgulikni qaror toptirish. Navoiy hayoti va ijodining mazmuni bo'lib xizmat qilgan.

Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi o'zbek hamda butun turkiy xalqlar ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutadi. U forsiy til hukmron bo'lgan davrda turkiy tilning poetik imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab, uni adabiy til darajasiga ko'tardi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy va forsiy tillarni qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning semantik boyligini ko'rsatib berdi. "Majolis un-nafois"da esa yuzlab shoirlarning turkiy tilga qo'shgan hissasini qayd etib, adabiy muhitning kengligini tasdiqladi.

²¹ Haqqulov, I. *Navoiy merosi va matnshunoslik*. Toshkent: Ma'naviyat, 2019.

Erkinov, A. *Navoiy asarlari va tilshunoslik muammolari*. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.

²² Sirojiddinov, Sh. *Alisher Navoiy va XXI asr*. Toshkent: Fan, 2021

Navoiy poetikasida insonparvarlik, adolat, mehr-shafqat va komil inson g'oyalari yuksak darajada tarannum etilgan. Bu jihatlar uning asarlarini millat va davr chegaralaridan yuqori turuvchi universallikka olib chiqdi. Hazratning ijodi zamon tanlamaydi, balki har bir avlod uchun donishmand suhbatdoshlik vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy nafaqat o'z davrining mutafakkiri, balki bugungi kunning ham zamondoshi sifatida yashaydi. Uning merosi tilshunoslik, adabiyotshunoslik va ma'naviy tarbiya sohalarida ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam manba bo'lib, insoniyatni ezgulik va komillikka chorlovchi abadiy xazina sifatida qadrlanadi.

Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyati o'zbek hamda turkiy dunyo adabiyoti tarixida beqiyos o'rin tutadi. U forsiy va arab adabiyotlari yuksak mavqega ega bo'lgan davrda turkiy tilni adabiy maqomga ko'tarib, uning semantik boyligi va poetik imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy va forsiy tillarni qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning o'ziga xosliklarini ko'rsatdi. "Majolis un-nafois"da esa yuzlab shoirlarning turkiy tilga qo'shgan hissasini qayd etib, adabiy muhitning kengligini tasdiqladi.

Navoiy poetikasida insonparvarlik, adolat, mehr-shafqat va komil inson g'oyalari yuksak darajada tarannum etilgan. Bu jihatlar uning asarlarini millat va davr chegaralaridan yuqori turuvchi universallikka olib chiqdi. Hazratning ijodi zamon tanlamaydi, balki har bir avlod uchun donishmand suhbatdoshlik vazifasini bajaradi.

Olimlarning fikrlari ham bu haqiqatni tasdiqlaydi. Masalan, **Yevgeniy Bertels** Navoiy ijodini "turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisi" deb baholagan. **Shuhrat Sirojiddinov** esa Navoiy tilshunoslikdagi qarashlarini "xalqning ma'naviy birligini mustahkamlovchi nazariy asos" sifatida ko'rsatadi. Turk olimi **Komil Arslon** Navoiy ijodini "mumtoz turkiy adabiyotning dunyoga kelishi zarur bo'lgan davrda amalga oshgan tarixiy hodisa" sifatida ta'riflaydi. Ozarbayjonlik tadqiqotchi **Ramiz Asker** esa Navoiy poetikasining universalligini alohida ta'kidlab, uni turkiy dunyo adabiy merosining birlashtiruvchi kuchi sifatida baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov, Sh. (2021). Alisher Navoiy va XXI asr. Toshkent: Fan.
2. Haqqulov, I. (2019). Navoiy merosi va matnshunoslik. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Erkinov, A. (2020). Navoiy asarlari va tilshunoslik muammolari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. Arslon, K. (2018). Navoiy va mumtoz turkiy adabiyot. Istanbul: Turkiya adabiyot jamiyati.
5. Asker, R. (2017). Turkiy dunyo va Navoiy poetikasi. Boku: Elm.

СЛОВОСЛОЖЕНИЕ КАК СПОСОБ НОМИНАЦИИ ФИТОНИМОВ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

*Мажидова Хулкар Иброхимовна,
Преподаватель НГУ кафедры русского языка и литературы*

Аннотация: в данной работе основное внимание уделяется к деривационным особенностям словосложения в фитонимической лексике русского языка

Ключевые слова: фитонимы, словообразование, русский язык, узбекский язык, деривация, словообразовательная модель, сложение, простые и составные словосложения.

Abstract: *This paper focuses on the derivational features of word composition in the phytonymic vocabulary of the Russian language.*

Keywords: *phytonyms, word formation, russian, uzbek, derivation, word-formation model, composition, simple and compound word compositions.*

Фитонимы, будучи неотъемлемой частью языковой картины мира, играют центральную роль в раскрытии хозяйственной и культурной специфики народа. Они не только отражают его нравственные ориентиры, выработанные в рамках национально-лингвокультурного сообщества, но и служат индикаторами его миропредставления и миропонимания.

В соответствии с антропоцентризмом, который стал основой современных научных исследований, лингвистика рассматривается в контексте связи с человеком, его восприятием мира и мышлением. Важное внимание уделяется языковой картине мира, которая представляет собой совокупность устоявшихся представлений народа о реальной действительности на определённом этапе его развития. Язык, формируя эту картину, позволяет передать и отразить другие картины мира человека, которые через конкретную лексику вливаются в язык, обогащая его культуру.

С давних времён человек воспринимал себя как неотъемлемую часть природы, осознавая свою зависимость от флоры, которая определяла внешние условия его существования.

Растения жизненно важны для человека. В процессе освоения природы, люди, давая названия растениям, часто исходили из их внутренних свойств, считая, что само слово может содержать ключевую информацию. Эти названия образуют специфическую лексико-семантическую группу – фитонимическую лексику, которая выполняет целый ряд функций: номинативную, прагматическую, оценочную, экспрессивную и другие. Фитонимы являются одним из древнейших слоев лексики, в которых накоплен бесценный опыт практического и культурного взаимодействия с растительным миром. Этнокультурные сведения, содержащиеся в фитонимической лексике, ярко демонстрируют, как тот или иной народ воспринимал и осмысливал мир растений и его терминологию.

Наряду с этим изучение фитонимической лексики проливает свет на ее культурологический аспект. Ботанические названия позволяют проследить связь между наименованиями растительного мира и духовной культурой народа.

Представляя собой ценный источник обширных сведений о мировоззрении народа, фитонимическая лексика помогает выделить своеобразные национальные особенности языковой картины мира.

С учетом структурных особенностей, на основе словообразовательного анализа фитонимическая лексика делится на однословные и составные наименования.

Однословные фитонимы включают простые и сложные наименования, сформированные в результате заимствования или словообразования.

Составные фитонимы состоят из двух и более лексических компонентов, отражая более сложную структуру наименований.

Среди однословных русских фитонимов также выделяются те, которые возникли путём словосложения, например, сон-трава, плакун-трава и другие. С помощью основосложения с соединительной гласной образованы такие лексемы, как *желтокорень* (*желтый + корень*), *златоцвет* (*златой + цвет в значении "цветок"*), *солнцецвет* (*солнце + цвет*) и подобные.

Кроме того, существуют лексемы, созданные методом производного словосложения, то есть аффиксально-сложного сложения. Примеры включают зимолюбка (зима + любить), песколюб (песок + любить), камнеломка (камень + ломать) и другие.

Составные фитонимы занимают значительную часть лексико-семантического поля русского языка. Примеры таких наименований включают: *ипомея пурпурная, акация белая, мимоза стыдливая* и другие. В данных случаях структура составных фитонимов (членимых и нечленимых) строго бинарна.

Важно отметить, что фитонимы в русском языке характеризуются как использованием «чистых» способов словообразования, так и комбинированных. Например, к «чистым» способам относятся такие названия, как *луговой чай, подлесник, медуница, шиповник, молодило* и другие. В то же время комбинированные способы проявляются в таких фитонимах, как *сабельник, ужомник, хрустальная трава, меч-трава, адамово ребро* и так далее.

Таким образом, в фитонимах русского языка заметна доминирующая роль связующих составных обозначений, в то время как у однословных фитонимических лексем наблюдается разница с другими языками. Это объясняется тем, что в русском языке при словосложении активное участие принимают основы.

Литература:

1. Абдурахмонова А.К. Способы номинации лиц как отражение языковой картины мира в русском и узбекском языках, Ташкент, 2007.
2. Бабакулов И.Т. Рус ва ўзбек тилларида сўз ясалиши усуллари типологик детерминантинг ифодаланиши сифатида :Автореф .дис...докт.филол.наук.- Самарканд, 2008
3. Мажидова Х.И. *Об изучении и словообразовании ботанических терминов. «Филологиянинг долзарб масалалари» халқаро илмий-амалий анжумани материаллари.* Самарканд, 2023- йил. 5-6 май.
4. Мажидова Х.И. Сопоставление лингвистических терминов русского и узбекского языков. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, eISSN: 2660-6828 | Volume: 03 Issue: 11 Nov 2022.
5. Хошимхўжаева М. Оламинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. –Т., 2019;

ДЕРИВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФИТОНИМИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА: СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СУФФИКСАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ

*Мажидова Хулкар Иброхимовна,
Преподаватель НГУ кафедры русского языка и литературы*

Аннотация: в данной работе рассматриваются деривационные процессы в фитонимической лексики русского языка, точнее структурно-семантический анализ суффиксальных моделей

Ключевые слова: фитонимы, словообразование, русский язык, узбекский язык, деривация, словообразовательная модель, приставочный способ, суффиксальный способ, суффиксы.

Abstract: this paper examines the derivational processes in the phytonymic vocabulary of the Russian language, more precisely, the structural and semantic analysis of suffix models.

Keywords: *phytonyms, word formation, Russian language, Uzbek language, derivation, word formation model, prefix method, suffix method, suffixes.*

Мир растений является важной частью языковой картины мира, и фитонимы играют ключевую роль в отражении хозяйственной и культурной деятельности народа, а также системы нравственных ценностей, выработанных в рамках его национально-лингвокультурного сообщества. Эти термины также связаны с миропредставлением и миропониманием людей.

В рамках современной антропоцентрической парадигмы в языкознании фитонимы русского и узбекского языков представляют собой ценнейший материал для анализа, особенно в контексте их словообразования. Исследование таких процессов, как словосложение, суффиксация и заимствование, а также составление классификаций фитонимов по определенным группам, позволяет выявить закономерности в этих языках. Такой анализ помогает выявить сходства и различия в фитонимической лексике, а полученные результаты могут быть полезны в изучении лексикологии, лингвокультурологии, ономастики и других областей.

В этом контексте особое значение имеет фитонимическая лексика, которая отражает динамику развития человека, его жизненный опыт, а также передает нравственные ценности и познание мира флоры. Через неё ярко проявляются характерные черты национального менталитета.

В настоящее время растительный мир представляет для человека важную жизненную составляющую. Оберегая природу, человек при обозначении растения исходил из того, что его внутренняя форма содержала информацию о растении, в том числе о его важных признаках. Наименование представляет определенную лексико-семантическую группу – фитонимическую лексику, выполняющую комплекс функций – номинативную, прагматическую, оценочную, экспрессивную и др. В этом контексте общность лексем отражает один из самых древних пластов лексики. В этих наименованиях аккумулирован бесценный опыт практического и культурного освоения растительного мира, являющегося важной частью природы, окружающей человека. Содержавшаяся в фитонимической лексике этнокультурная информация отражает восприятие народом реалий растительного мира и его терминологии.

Термин «фитоним» обозначает собственное индивидуальное название конкретного растения, например, *пустырник, облепиха, горечавка, дуб, дерево* и др. В фитонимах находит отражение познавательный процесс человека, сложившаяся у него картина мира. Выделение объектов растительного мира обеспечит познание традиций народа и его менталитета.

Исследование фитонимов с точки зрения их словообразовательной структуры позволяет выявить семантическую мотивированность, а также закономерности смысловых и формальных связей, объясняющих происхождение слова. Важно отметить, что один и тот же фитоним может обозначать предметы, которые не обладают однозначными характеристиками ни в лингвистическом, ни в лингвогеографическом аспектах.

Фитонимы могут быть представлены такими типами словообразования, как аффиксальное словопроизводство, т.е. суффиксация, субстантивация и сокращение. Например, в простых фитонимах, созданных суффиксацией, в качестве производных аффиксов применяются суффиксы *-ток (любисток), -к (кровохлебка)*.

Формирование ботанических терминов, помимо заимствования, осуществляется через словообразование различными способами: суффиксальным,

приставочно-суффиксальным, сращением и сложением. Среди них наиболее продуктивным в русском языке является суффиксация.

Систематизация рассматриваемых деривационных моделей представлена в таблице ниже, где приведены примеры аффиксального образования фитонимов.

| Способ (словообразовательный тип) | Название | Происхождение | Таксономическая принадлежность |
|--|--------------|-----------------|---|
| основа прилагательного, образованного из сочетания имени существительного с предлогом под- + -ик-: | подосиновик | ← подосиновый. | шляпочный гриб из рода лекцин. |
| | подберезовик | ← подберезовый. | шляпочный гриб из рода лекцин. |
| бессуффиксная основа имени прилагательного + -ик-: | рыжик | ←рыжий. | род травянистых растений семейства крестоцветных. |
| сочетание именной основы или основы глагола с суффиксом -ух-/-ушк-: | волнушка | ← волна. | шляпочный гриб из рода млечник. |
| | говорушка | ←говорить. | род базидиальных грибов. |
| | горькушка | ←горький. | шляпочный гриб из рода млечник. |
| | резуха | ←резать. | род травянистых растений семейства крестоцветных. |
| | резушка | ←резать. | род травянистых растений семейства крестоцветных. |
| | свинушка | ←свиной | род шляпочных базидиальных грибов. |
| | синюха | ←синий. | род травянистых растений семейства синюховых. |
| | чернушка | ←черный. | род травянистых растений семейства лютиковых. |

| | | | |
|--|-----------|-----------|---|
| сочетание основы с суффиксом - янк- (а): | белянка | ← белый. | шляпочный гриб из рода млечник. |
| | веснянка | ← весна. | род травянистых растений семейства крестоцветных |
| | дымянка | ← дым. | род травянистых растений семейства дымянковых. |
| | зубянка | ← зуб. | род травянистых растений семейства крестоцветных. |
| | росянка | ← роса. | род насекомоядных травянистых растений семейства росянковых. |
| | солянка | ← соль. | род травянистых растений, кустарников и полукустарников семейства маревых. |
| | тростянка | ← трость. | род травянистых растений семейства злаков. |
| сочетание основы имени прилагательного с суффиксом -як: | синяк | ← синий. | род травянистых растений и кустарников семейства бурачниковых. |
| | чистяк | ← чистый. | род травянистых растений семейства лютиковых. |
| сочетание основы имени существительного с суффиксом -ник-: | ваточник | ← ватка. | род травянистых растений семейства ластовневых. |
| | щетинник | ← щетина. | род травянистых растений семейства злаков. |

| | | | |
|--|----------|------------|--|
| | орешник | ← орех. | род кустарников и деревьев семейства ЛЕЩИНОВЫХ. |
| | татарник | ← татар. | род травянистых растений семейства СЛОЖНОЦВЕТНЫХ |
| | ослиник | ← ослиный. | род травянистых растений семейства кипрейных. |

Литература

1. Абдурахмонова А.К. Способы номинации лиц как отражение языковой картины мира в русском и узбекском языках, Ташкент, 2007.
2. Бабакулов И.Т. Рус ва ўзбек тилларида сўз ясаши усуллари типологик детерминантнинг ифодаланиши сифатида :Автореф .дис...докт.филол.наук.- Самарканд, 2008.
3. Мажидова Х.И. Сопоставление лингвистических терминов русского и узбекского языков. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, eISSN: 2660-6828 | Volume: 03 Issue: 11 Nov 2022.
4. Пазлитдинова Н. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. Фарғона, 2018;

MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA YARATILGAN ADABIYOT DARSLIKLARIDA NAVOIY IJODINI 7E MODEL ASOSIDA O'RGATISH

Imomova Gulnafis,

Navbahor tuman 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan adabiyot darsliklarida Navoiy ijodini 7E modeli yordamida o'rgatish masalasi yoritiladi. Unda 7E modelining bosqichlari — aniqlash, qiziqtirish, tadqiq etish, tushuntirish, chuqurlashtirish, baholash va kengaytirish jarayonlarining adabiyot darslarida qo'llanish usullari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, badiiy tafakkuri, ijodiy faolligi hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmatini shakllantirishdagi ahamiyati bilan asoslanadi. Ma'ruza zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali Navoiy merosini samarali o'qitish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: 7E modeli, Elicit, Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate, Extent.

Hazrat Navoiyga berilgan ta'riflarning eng go'zali va unutilmas satrlarni eslab o'tmoqchimiz. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Bugun "Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan adabiyot darsliklarida Navoiy ijodini 7E modeli asosida o'rgatish" mavzusida fikr yuritamiz. Ushbu ma'ruzada zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo'lgan 7E modelining adabiyot darslaridagi o'rni, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri hamda milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ma'ruza davomida 7E

modelining har bir bosqichi 5-11-sinflarda keltirilgan Navoiy ijodini o'qitish misolida yoritib beriladi. Maqsad — dars jarayonini samarali, qiziqarli va natijador tashkil etish yo'llarini ko'rsatishdir. Ushbu ma'ruzada vaqtni inobatga olgan holda 7E modelining har bir bosqichini bir sinf asosida tahlil qilganmiz.

Fanlar ichra sardori adabiyot fanidir,

Xasta dillar sarkori adabiyot fanidir .

Dunyo fanlari bori

Jahonda bir bog' bo'lsa ;

Eng muattar gulzori, Adabiyot fanidir .

O'quvchilarga 7E modeli asosida Navoiy ijodini o'rganishda yangi texnologiya va modellarni qo'llash, ularning fikrlashini faollashtiradi va yangi ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. 7E modeli orqali o'quvchilarga bosqichma-bosqich yondashuvni o'rgatish, ularga o'quv jarayonini yanada aniqroq va tushunarliroq qilishda yordam beradi. Mavzulararo integratsiya, o'quvchilarda mavzu bo'yicha chuqurroq bilim olish imkoniyatini yaratadi. Menimcha, bunday integratsiya o'quvchilarning bilimlarini bir-biri bilan bog'lashga yordam beradi. Shunday ekan, o'quvchilarga nimani o'ylashni emas, qanday o'ylashni o'rgatish - bugungi kun talabidir.

Demak, 7 E modelining 1-bosqichi - Aniqlash bosqichidir. (Elicit). Bu bosqich 7E modelining birinchi va eng muhim qadamlaridan biridir. Ushbu bosqichda 5-sinf adabiyot darsligida keltirilgan "Xamsa" dostonining ilk dostoni hisoblangan "Hayrat-ul-abror" dostonidan keltirilgan hikoyatlar va rivoyatlar asosida tahlil qilganmiz. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi, ularning e'tiborini jalb qilishi va oldingi bilimlarini aniqlashi hamda faollashtirishi kerak. Adabiyot darslarida bu bosqichni samarali tashkil etish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

"Nimalarni bilasiz?" metodi asosida o'quvchining tayanch bilimlarini faollashtirish; Asos: 5-sinf adabiyot darsligida keltirilgan "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlar mazmunini xotirada qayta tatbiq etish hamda zamonaviy multimedialar asosida o'quvchilarga "Sher va Durroj" multafilmini namoyish etish nazarda tutilgan. Natijada, dars avvalidanoq o'quvchilar faolligi oshiriladi.

7 E modelining 2-bosqichi- Qiziqtirish (Engage) bosqichidir.

Ushbu bosqichda o'quvchilarda mavzu doirasida intellektual qiziqish uyg'otish, ularni yana-da faollashtirishdan iborat. Masalan, 6-7-sinf adabiyot darsliklarida berilgan ruboiy, tuyuq, qit'a, fard kabi adabiy janrlar haqida ma'lumot berilib, ularning fikrlarini olish va o'quvchilarda ushbu janrlarni o'rganish istagini uyushtirishdir. Bunda **"Muallifni anglash" metodidan** foydalanish ayni muddao. O'quvchilar mavzu doirasida bilim va ko'nikmaga ega bo'lgach, turli tarqatmalarga yozilgan adabiy janrlarning qaysi muallifga tegishli ekanini aniqlashadi, shu o'rinda ularda zukkolik, tezkorlik, fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Ushbu metodning mohiyati esa, janrlarning mavzu doirasi asosida muallifning asl maqsadini anglash va u bilan dildan suhbat qilishdir.

7 E modelining 3-bosqichi- tadqiq qilish (Explore) bosqichidir.

Bu bosqich 8-sinf adabiyot darsligi asosida tahlil qilingan bo'lib, **"Kungaboqar" metodi** orqali mavzu o'quvchiga singdiriladi. Bunda o'quvchilar g'azal haqida ma'lumot va mumtoz adabiy tushunchalar ilmida mavzuni o'z ko'zi bilan ko'rib tahlil qilishadi va jamoaviy ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Bu bosqichda, ular g'azallarni o'zlari tahlil qilib, mavzu doirasida tushuncha, ko'nikma hosil qilishadi. Darslikda keltirilgan **"Qoshi yosinmu deyin..."**, **"Qaro ko'zim..." radifli** g'azallar asosida mavzu tahlil qilinadi. O'quvchilar guruhlarga ajratilib, 1-guruh-radif ilmi, qofiya ilmi to'g'risida; 2-guruh-

badiiy san'atlar ilmi xususida; 3-guruh- g'azallarda keltirilgan lug'atlar izohini; 4-guruh- g'azaldagi g'oyalar bilan ishlashadi. Natijada, o'quvchilarda tahlil qilish va jamoada ishlash ko'nikmasi rivojlanadi.

7 E modelining 4-bosqichi- Tushuntirish (Explain) bosqichidir.

Ushbu bosqichda darslarni tashkil etish yuqori natijalar beryapti. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimanki, aynan 7E modelidan pedagogik faoliyatim davomida samarali foydalanib kelmoqdaman. Navbatdagi 4-bosqichni **9-sinf adabiyot** darsligida keltirilgan "Xamsa" dostonining "Farhod va Shirin" dostonidan berilgan parchani "**Singapur**" **metodi** orqali izohlab, mavzu doirasida yoritib o'tamiz. Bu metod bosqichma-bosqich tushuntirish metodidir. "Singapur" metodining asosiy yondashuvi shundaki, ushbu metodni qo'llash orqali, o'quvchilarga har bir bosqichni o'rgatish, mavzuni chuqurroq tahlil qilish va o'z fikrlarini to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Shu tariqa, o'quvchilarda nafaqat o'qish, balki mantiqiy fikrlash ham rivojlanadi. Aynan Tushuntirish bosqichi kunlik dars etaplarining Yangi mavzu bayoni bosqichiga to'g'ri keladi. O'quvchiga nazariy tushunchalar berishda "**Yangi g'oyalar ko'rgazmasi**" **metodi** asosida. dostonning mavzu- g'oyasi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. "**So'z o'yini**" metodidan foydalanib, o'qituvchi tomonidan mavzuga oid bir so'z aytilib, o'quvchi unga izoh beradi. Dars shu tariqa o'quvchilar ketma-ketligida davom etadi. Natijada, o'quvchilar o'rgatilganlarni izohlashadi. Bu bosqichda, ular o'rganganlarini bir-birlariga tushuntirishadi, shuningdek, o'z fikrlarini boshqa o'quvchilar bilan baham ko'rishadi.

7 E modelining 5-bosqichi- Kengaytirish (Elaborate) bosqichidir.

Navbatdagi **10-sinf darsligidagi** mavzu asosida ona tili fani bilan integratsiyalashgan holda esse atamasiga to'xtalamiz. Esse haqida o'quvchilarning bilimi kengaytirilib, davr talabi hisoblanmish mini esse yozdiriladi. Esse mavzusi "**Agar Navoiy bugun yashaganida...**" deb nomlanib, o'quvchilarga esse yozish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ko'pchilik Navoiyni faqat darslikdagi siymo deb biladi. Aslida, u o'z davrining eng kuchli strategisti, iqtisodchisi va "Media-magnati" edi. (Magnat- katta odam)U "Xamsa"ni yozishda ChatGPTdan foydalanmagan, lekin uning tafakkur algoritmi bugungi sun'iy intellektdan kuchliroq ishlagan. Bugun biz foydalanayotgan imtiyozlar, grantlar va texnologiyalar uning olti asr avvalgi orzusi edi! O'quvchilarga shu kabi ma'lumotlar beriladi, natijada, ularda ijodkorlik, tasavvur va mustaqil fikrlash kuchayadi, mustaqil fikrlashi bo'lmagan bolalarda ayni shu xususiyatlar shakllantiriladi.

7 E modelining 6-bosqichi- Baholash (Evaluate) bosqichidir.

Baholash bosqichi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Bu bosqich nafaqat o'qituvchi uchun, balki 5-11-sinf o'quvchilari uchun ham muhimdir, chunki ular o'z yutuqlarini va kamchiliklarini anglab oladilar. Ushbu mavzularda baholash bosqichini samarali tashkil etish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: "**Sizga qaysi...?**" **metodi** Ushbu metodda o'quvchilar tayyorlangan baholarni olib, savollarga javob berib o'zlarini o'zlari baholaydi. Natijada, baholash mezonlari, mavzuni tushunish, tahlil qilish qobiliyati, ijodiy yondashuv, guruhdagi faollik asosida shakllangan guruh va guruhning har bir a'zosi alohida baholanadi.

7 E modelining 7-bosqichi- Kengaytirish (Extent) bosqichidir.

Modelning ushbu bosqichida bilimni darsdan tashqari muhitga olib chiqish maqsad qilingan. Bunda "**Eng...eng...eng...**" **metodi** 7-bosqichning talablariga mos keladi. O'quvchining mantiqiy, kreativ va kritik fikrlashini navbatdagi topshiriqlar asosida yana-da kengaytirishga xizmat qiladi. Topshiriq: kutubxonadan Navoiy asarlaridan olib o'qish.

Loyiha ishi tayyorlash. Natijada esa o'quvchilarda doimiy Navoiy ijodini o'rganish ehtiyoji shakllanadi.

7E modelini qo'llashda o'qituvchining roli beqiyosdir. Chunki bu modelda dars jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri yo'naltirilsa, o'quvchi faol va mustaqil o'rganadi. O'qituvchi oddiy ma'lumot beruvchi emas, balki fasilitator va tashkilotchi hisoblanadi.

Shunday ekan, ushbu modelda o'qituvchi — boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va motivator ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. U o'quvchiga bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki bilimni o'quvchining o'zi topishiga ham sharoit yaratadi. Negaki, o'quvchilar o'qigan ma'lumotlarni 10%ini yodida saqlasa, amalda bajarganlarining 90%ini xotirasida saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 5-sinf Adabiyot (1-qism, 2-qism) Q.B. Yo'ldoshev, O.O. Olimjonov, N.N. Yusufjonova, S.I. Qambarova, D.B. To'xliyeva. Toshkent-2024;
2. 6-sinf Adabiyot Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent-2022;
3. 7-sinf Adabiyot Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent-2022;
4. 8-sinf Adabiyot Z.Mirzayeva, N.Qodirova, Q.Mamiraliyev Toshkent-2025;
5. 9-sinf Adabiyot J.Nurmuhammadov, D.Yusupova, O.Olimjanov Toshkent-2025;
6. 10-sinf Adabiyot Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent-2022;
7. 11-sinf Adabiyot. (1-qism, 2-qism) B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova Toshkent-2018.

UMUMINSONIY QADRIYATLARNING ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ULUG'LANISHI

*Qo'ldosheva Mehriniso Mardonovna,
Yangiheyot tumani 32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ilmiy salohiyat bobida aytgan har bir so'z mohiyati turli mazmunga ega ekanligi, tahlil jarayoniga to'g'ri yondashish lozimligi haqida fikr yuritilgan.

“El-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg'uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o'ziga oliy maqsad qilib qo'ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o'chmas iz qoldiradi”²³ Darhaqiqat, bizning yurtimizda nomlari abadiyatga muhrlangan mana shunday ulug' ajdodlarimizning soni bir talay. Xususan, Hazrat Mir Alisher Navoiyning yorqin xotirasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Alisher Navoiy atoqli sho'rgina emas, balki teran mushohada yurituvchi donishmand hamdir. Uning insoniylik borasidagi fikrlari hali-hanuz o'z qimmatini saqlab kelmoqda.” deganlarida to'laqonli haq gapni aytgan edilar.

Bugun biz Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, uning ilmiy salohiyat bobida juda katta mehnat talab qilinishining guvohi bo'lamiz. Chunki Navoiy aytgan har bir so'z mohiyati turli mazmunga ega bo'lib, tahlil jarayoniga to'g'ri yondashish lozimligini talab qiladi.

“Hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosi xalqimiz madaniyatining buyuk sarchashmasi bo'lgani uchun unga takror va takror murojaat etaveramiz. Ular bizni mudom o'qish va uqishga undayveradi.”²⁴

²³ I.A.Karimov. “Vatan va xalq mangu qoladi” Toshkent: “Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona”, 2010.87-bet.

²⁴ A'zamov A. Majnun muhabbati. “Tafakkur” jurnali. 2002. 1-son, 36- bet.

Haqiqatan ham, Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz, bunga o'zimiz amin bo'lib boraveramiz. Ma'lumki, "Xamsa" Navoiyning shoh asarlaridan biri sanalib, uning zamirida insonga xos bo'lgan barcha umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan. Chunki Navoiy inson qadr-qimmatini barcha narsadan ustun qo'ygan. Shuning uchun shoir inson maqomi berilgan har bir shaxsni ushbu sharafga munosib ko'rilganiga shukronalar keltirib, faqat ezgu g'oyalar egasi bo'lishlarini chin dildan xohlaganlar. Bu borada, avvalo, o'zlari har tomonlama o'rnak bo'lib, boy ijodiy merosi zamiriga singdirilgan g'oyalar orqali o'zgalarni ham ana shunday inson bo'lishga da'vat etganlar.

"Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" Navoiyning falsafiy qarashlari zamiriga yo'g'rilgan bo'lib, unda Navoiy haqiqiy umuminsoniy qadriyatlarni to'laqonli shakllantirib bergan. Doston muqaddima, yigirma maqolot, yigirma hikoyat va xotimadan iborat bo'lib, asarda shoir ularda nafaqat insonni insonga, balki Olloh tomonidan tuhfa etilgan barcha yaratilarga bo'lgan insoniy munosabatlari qay darajada bo'lmog'i lozimligi xususida so'z yuritadi. Dostonning uchinchi maqolati "Salotin bobida" deb nomlanib, Navoiy yurtning kelajagi, xalqning ishonchi, ezgu g'oyalarning asosiy tayanchi faqat adolat orqali yuzaga chiqishini mahorat bilan aks ettirgan. Har qanday zulm o'chog'ining birgina adolat mezoni orqali bartaraf qilinishi Shoh G'oziy timsolida yoritib berilgan. Shoh G'oziyning tinchlik o'rnatish maqsadida yo'l qo'ygan birgina xatosini adolat tarozisi oydinlashtirib berdi. Shu orqali el orasida uning martabasi yanada ulug'landi. Chunki shoh G'oziy va jabrdiyda kekxa bir kampirning o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatni adolatli hal etilishi umuminsoniy qadriyatlarning bir ko'rinishi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari dostonning beshinchi bobida shoir Hotami Toy hikoyasi orqali ham ushbu fikrlarni ilgari suradi. Hotami Toy – bu shaxs nihoyatda saxiy, o'zgalardan yordamini ayamaydigan, ko'ngli keng inson qiyofasini shakllantirgan. U timsol orqali shoir insonlarni saxiylikka da'vat qiladi. Ammo hikoyaga boshqacha yondashadigan bo'lsak, har bir ishning chegarasi borligini anglab olishimiz mumkin. Chunki hikoya qahramoni Hotami Toy nihoyatda saxiy kishi bo'lib, borini xalq oldiga to'kadi. Uning bu ishiga faqat bir kishi qarshi chiqib, o'z fikrini ayta oladi.

Naqdni dog'i guldek sovurmag'il,

G'uncha kibi dog'i girih urmag'il.

Hotami Toy bir yo'qsil kishining mag'rur turib aytgan ushbu so'zlaridan so'ng, chuqur o'yga tolib, o'zining himmatidan ham yuqori turuvchi himmat egasini ko'rib, u kishiga tasannolar aytishida ham umuminsoniy qadriyatlarni ko'rishimiz mumkin.

Dostonning oltinchi maqoloti odob masalalariga bag'ishlanadi. Navoiy bu maqolotda kishilar bilan munosabat va muomala odobi, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi hamda ota-onaga qay darajada g'amxo'rlik qilish lozimligi xususida so'z yuritadi. Masalan, birgina quyidagi mashhur bayt zamiriga singdirilgan g'oyani tahlilga tortadigan bo'lsak, umuminsoniy qadriyatlarning tub negizini anglab yetamiz:

Boshni fido ayla ato boshig'a,

Jismni qil sadqa ano qoshig'a...

Dostonning o'ninchi bobi rostlik ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, "Sher va Durroj" hikoyati orqali shoirning asl maqsadini bilib olamiz. Hikoyada to'g'rilik ko'klarga ko'tarilib, egrilik qattiq tanqid ostiga olinadi. Chunki ularning birinchisi kishini yuqori martabalarga ko'tarsa, ikkinchisi qaysidir ma'noda inson umriga raxna soladi. Shuning uchun Navoiy barchamizni hamisha to'g'rilikka qalqon bo'lishga undaydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, shoirning asarlari umuminsoniy qadriyatlarga, ezgu g'oyalarga boyligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Buni har birimiz anglab yetmog'imiz lozim. Zero, Navoiy asarlari g'oyasi va undagi jamiki pand - nasihatlar kaliti so'z bo'lib,

ular hamisha mangukka daxldordir. Shoir asarlariga qayta-qayta murojaat qilishimizning boisi shunda bo'lsa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. T.: "Fan". 1991-y. 299 bet.
2. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. T.: "Fan". 1998-y. 110 bet.

КЎНГИЛ КАЪБАСИНИ ОБОД ЭТ...

*Раҳмонқулова Садоқат,
Навбаҳор туман 5-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада Навоий ижодини, унинг пурмаъно ҳикматлари мағзини қанчалик англашга уринсак шоир қаламга олган умумбашарий ва барҳаёт мавзуларнинг нақадар бизга яқин, қадрдон ва долзарб эканлиги ҳақидаги фикрлар билдирилган.

Калим сўзлар: “Маҳбуб ул-қулуб”.

Навоий ижодини, унинг пурмаъно ҳикматлари мағзини қанчалик англашга уринсак шоир қаламга олган умумбашарий ва барҳаёт мавзуларнинг нақадар бизга яқин, қадрдон ва долзарб эканлигига шунчалик кўп амин бўламиз. Буюк гуманист шоир, халқпарвар аллома, миллатсевар давлат арбоби Ҳазрат Алишер Навоий башарият тарихидаги энг улуғ даҳолардан биридир. Аллома ижодида бирор мавзу йўқки, қаламга олинмаган, таҳлил қилинмаган ва ҳаётий мисоллар билан далилланмаган бўлса. У қандай асар яратмасин, қайси мавзунини қаламга олмасин бир лаҳза ҳам инсонни севиш ва ардоқлашни унутмади.

Зеро инсонга бўлган чексиз муҳаббати туфайли асрлар оша бутун дунё халқи уни эъзозлади, таъқиқ ва чекловларга қарамасдан ўқийверди. Шоир асарларининг барҳаётлиги шундаки, у зулм ва зорликни, зиёкорлигу мунофиқликни, хийнату хоинликни, беҳаёлику орсизликни аёвсиз қоралади, улар туфайли келажак офатларни рўй-рост кўрсатиб берди, аксинча, дўстлик, мардлик ва жасорат, ҳалоллик, ростгўйлик, ғурур ва ҳалимликни, сабр ва матонат каби чин инсоний фазилатларни улуғлади.

Кимки бир кўнгли бузуқнинг
Хотирин шод айлағай,
Онча борким, Каъба вайрон
Бўлса обод айлағай, - дейди шоир.

Навоий нафақат шоир ва қомусий олим эди, у ислом дини ақида ва аҳкомларини мукамал билар, ҳадис илмини чуқур ўрганган ҳадисшунос ҳам эди. Шоирнинг фикрича, кўнгили Каъбадан ҳам муқаддасроқ. Чунки Оллоҳга бўлган муҳаббат дастлаб Каъбада эмас, инсон кўнгилида пайдо бўлади. Каъба Оллоҳнинг уйи, бу шунчаки бир бино, холос. Ҳақиқий ишқнинг жойи нафсдан покланган кўнгилида. Инсон ҳаммадан пинҳон тутса ҳам Оллоҳдан яшира олмайдиган туйғулар унинг кўнгилида бўлади. Яъни кўнгили Оллоҳ назаргоҳидир. Шунинг учун улуғ аллома ҳам кўнгилини шод этишни бузилган Каъбани обод этишдай олийжаноб иш деб билади.

Навоий бутун умри давомида кўрган-кечирганларини, фалсафий ва ахлоқий қарашларини таҳлил қилиб умрининг сўнгида “Маҳбуб ул-қулуб” номли гўзал асар яратди ва инсонга хос бўлган яхши ва ёмон хулқлар ҳақида сўзлар экан, бир ўринда “ўзинг оч бир очни тўқ қил” дейди. Навоий ижодида нафсни енгиш ғояси бош мавзу ҳисобланади. У Фарҳодни тасвирлар экан, унинг тимсолида барча

иллатлардан холи Нафсга қул эмас подшоҳ бўлган Комил инсонни кўз олдимизда гавдалантиради.

Ҳақиқий комил инсон эса ўз манфаатини эмас, ўзгалар манфаатини ўйлайди, ўзидаги нафсни енга олади. Ўзи емаса ҳам бир мухтожни тўқ қилади, яъни беминнат яхшилик қилади:

Мурувват барча бермоқдур демак йўқ,

Футувват барча қилмақдур, емак йўқ.

Улуғ мутафаккир инсониятни эзгулик қилишга, ёвузликни яхшилик билан энгишга чорлар экан:

Олам аҳли, билингизки, иш эмас душманлиғ,

Ёр ўлунг бир-бирингизгаки, эрур ёрлиғ иш, - дейди.

Хўш, нима учун Ҳазрат Навоий одамлар тақдирига бунчалик жонкуяр, уларнинг қисматига ўзини жавобгар сезади? Нега замондош шоирлар ҳамду сано айтиб, шоҳлардан инъомлар олиб, ҳамёнини бойитганда у халқнинг маънавий оламини бойитишга уринади? Гап шундаки у ҳақиқий шоир эди. Авлиёмонанд ижодкор эди. Халқ маънан қашшоқ бўлса, ҳар қандай бой мамлакат ҳам таназулга учрашини, ўзаро нифоқ-у урушлар мамлакатни ичдан емиришини олдиндан ҳис этганди. Бу ҳолат кейинчалик темурийлар сулоласининг таназули билан ўз исботини топди. Чунки уруш ва низолар ҳеч қачон халққа манфаат келтирмаган. Ўзбек халқининг ардоқли адиби Ўткир Ҳошимов айтганидай: “Урушда ғолиб ва бахтли подшоҳ, ғолиб ва бахтли кўшин, ғолиб ва бахтли давлат, ғолиб ва бахтли тузум бўлиши мумкин. Аммо ғолиб ва бахтли одам бўлмайди. Негаки уруш одамни одам ўлдиришга мажбур қилади. Одам ўлдирган одам эса ҳеч қачон бахтли бўлмайди!” шунинг учун ҳам Навоий умр бўйи уруш ва жаҳолатга қарши курашди, одамларни бир-бирини кадрлаш ва инсон зотининг буюклигини англаб яшашга чорлаб ўтди. Нафақат асарларида, балки ҳаётда ҳам мазлумларга қарам кўрсатди, мухтожларга ёрдам қўлини чўзди, бева-бечораларни қўллаб-қувватлади. Шунинг учун ҳам ҳаж сафарига отланганда халқнинг илтимоси учун йўлдан қайтди, инсон кўнглини обод этишни юзта Ҳаж зиёратидан афзал билди.

Навоий ҳикматлари ўзининг гўзал шакли, теран мазмунни ўзида мужассам этгани ва барча замонлар учун, абадий мавзуларда яратилгани учун ҳам эскирмайди, тиллардан ва диллардан тушмай барҳаёт яшайверади, ўз кадрини ҳеч қачон йўқотмайди. Чунки Навоий инсоннинг улуғ хилқат эканлигини англаган ва англаган буюк сўз санъаткоридир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Нишонова С. Комил инсон тарбияси.-Т.:”Истиқлол”, 2003,197 б
2. Алишер Навоий. Ҳайрат-ул-аброр.Т.:”Фан”.1991 й.299 бет.
3. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб.Т.:”Фан”.1998 й.110 бет.

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA QO‘LLANGAN O‘SIMLIK NOMLARI SEMANTIKASI

*Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asaridagi fitonimlar leksik-semantik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lib, asarda qo‘llangan o‘simlik nomlarining o‘z va ko‘chma ma‘nolari alohida o‘rganilgan. O‘simlik nomlarining turkiy tilda hamda boshqa tillarda qanday nomlanishiga to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari,

eski o'zbek tilida faol bo'lgan o'simlik nomlarining asarda qanchalik darajada qo'llanganligi statistik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fitonimlar, o'simliklar dunyosi, leksika, o'z qalam, o'zlashgan qatlam, eskirgan leksika, neologizmlar.

Аннотация. В данной статье лексико-семантически исследуются фитонимы произведения Алишера Навои «Хайрат уль-аброр» и отдельно изучаются собственные и переносные значения названий растений, использованных в произведении. Упоминается, как называются названия растений на тюркских и других языках. Кроме того, статистически проанализирована степень использования в работе названий растений, действующих в древнеузбекском языке.

Ключевые слова: фитонимы, растительный мир, лексикон, собственный қтлам, освоенный пласт, устаревшие лексиконы, неологизмы.

Abstract. In this article, the phytonyms of Alisher Navoi's work "Hayrat ul-abror" are investigated lexico-semantically and the own and figurative meanings of the plant names used in the work are separately studied. How plant names are named in Turkic and other languages are mentioned. In addition, the extent to which plant names, active in the Old Uzbek language, were used in the work were statistically analyzed.

Keywords: phytonyms, plant world, lexicon, own qtlam, mastered layer, obsolete lexicons, neologisms.

KIRISH

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun Sharq mumtoz adabiyotining bebaho durdonalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar, diniy-ma'naviy tushunchalar chuqur tahlil qilinib, hikmat va o'gitlar orqali bayon etilgan.

Mazkur asarda til vositalarining, jumladan, fitonimlarning (o'simlik nomlarining) ishlatilishi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Fitonimlar asarning badiiyligini oshirish bilan birga, undagi ramziy va majoziy ma'nolarni boyitishda muhim rol o'ynaydi. Ulardan foydalanish orqali shoir tabiat manzaralarini tasvirlabgina qolmay, o'quvchini chuqur falsafiy mushohadaga undaydi.

Ushbu maqolada "Hayrat ul-abror" asarida uchraydigan fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning badiiy-estetik va semantik vazifalari o'rganiladi. Bundan tashqari, fitonimlarning asardagi umumiy kontekst bilan bog'liqligi, ularning obraz yaratishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shu orqali Navoiyning til vositalaridan naqadar mohirona foydalanganini ko'rsatish maqsad qilingan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ma'lumki, o'simliklar olami tabiat boyliklaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bizning xalqimiz eng qadimgi davrlardan boshlab o'simliklarning xosiyatini bilishga intilishgan hamda ulardan turli kasalliklarni davolashda foydalanishgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" da nafaqat adabiyot va san'at, balki tarix, geografiya, hayvonot olami va o'simliklar dunyosi haqida ham batafsil ma'lumotlar keltirgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi, Samarqand, Kobul va Hindistonda tarqalgan 150 dan ortiq o'simliklar nomlarini, ta'rifini, tarqalishini va shu bilan birga, ushbu o'simliklarning arabcha, turkiycha hamda hindcha nomini yozib qoldirgan.

Hozirgi kunda ham mamlakatimizda o'simliklarga bo'lgan qiziqish nihoyatda katta. Fitonimlarga nafaqat biolog va zoologlar, balki tilshunos olimlar ham qiziqib, samarali ishlarni amalga oshirmoqdalar. Masalan, D.Yormatovanning "O'simlikshunoslik",

H.Yo'ldoshevning "O'simlik kasalliklari", S.Muhammadjonov va F.Jonguzarovlarning "O'simlikshunoslikka oid Ruscha-o'zbekcha izohli lug'at" ini misol keltirish mumkin²⁵.

O'simlik nomlari eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgacha qo'llanib kelinmoqda. O'simlik nomlari fitonimlar nomi ostida ham ataladi. "Fitonim" so'zi lotincha "fitos" – "o'simlik", "onuma" – "nom" degan ma'noni bildiradi²⁶.

Fitonimlar - o'simliklarga qo'yilgan nomlari bo'lsa, Fitonimiya o'simlik nomlarining majmui, Fitonimika esa fitonimlarni o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limidir. Fitonimikaning umumiy va xususiy ko'rinishlari bor. Umumiy fitonimika bugungi dunyo zaminidagi o'simliklar dunyosini ilmiy me'yorlarda tadqiq etish yo'lidan boradigan sohadir. Fitonim nomlari qadim tarix asarlari orqali bizgacha yetib kelgan bo'lib, xususan, bir o'simlik nomlarining ikki-uch xil varianti qo'llangan Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub "Saydana", tibbiyot qonunlarining mashhur vakili Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Kitob ush-shifo", Boburning "Boburnoma" va shu kabi qator asarlari o'simlik nomlari qayd etilgan mashhur asarlar hisoblanadi. O'zbek tilida qo'llanilayotgan fitonimlar tadqiqi grammatik, leksik, semantik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ularning mazmunini aniqlashda o'simliklar nomlarini chuqur tahlil qilish yordam beradi. Yuqorida qayd etilgan asarlarda keltirilgan fitonimlar davr nuqtayi nazaridan o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, ular hozirgi o'zbek tilida qo'llaniladigan o'simlik nomlaridan talaffuz jihatdan ham, nomlanish jihatdan ham biroz boshqacharoq ko'rinish kasb etishi mumkin. O'simlik nomlarini ifodalovchi lug'aviy birliklarga nisbatan lingvistik tadqiqotlarda o'simlik nomi, o'simliklarni ifodalovchi leksemalar, o'simlik otlari, o'simliklarni atovchi otlar, botanik terminlar, fitonim, fitonimik leksika, floristik leksika kabi terminlari qo'llangani kuzatiladi²⁷.

MUHOKAMA VA TADQIQOT NATIJALARI

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-Abror" asarida fitonimlar (ya'ni o'simliklarning nomlari) muhim o'rin tutadi. Fitonimlar Navoiy asarining badiiy tilini boyitish va g'oyaviy mazmunni chuqurlashtirishda xizmat qiladi.

"Hayrat ul-Abror" asarida quyidagi fitonimlar mavjud: *gul, g'uncha, sarv, sunbul, firuza, xoshok, giyoh, nishtar, lola, sabza, zahrgiyoh, bargi suman, vard, poya, xas, tikan, barg, rayhon, nasrin, binafsha, misvok, axzar giyoh, arpa, bug'doy, nargis, sumanbar, bodom, shalg'am, nilufar, sidra, qamish, gulshakar, sholi, tariq, mehriyoy, shamshod, savsan* va boshqalar. Ushbu fitonimlar asar tarkibida o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llangan bo'lib, ayrim misralarda o'z leksik ma'nosini yo'qotib badiiy san'atlarni yaratishda foydalanilgan.

Yuqorida aniqlangan fitonimik birliklarning asardagi misralarda qaysi ma'noda kelayotganligini birma-bir ko'rib o'tamiz²⁸.

Lolasini shu'lai oh aylabon,

Sabzasini zahrgiyoh aylabon. [muqaddima, 19-bet]

Ushbu baytda *lola, sabza, zahrgiyoh* kabi o'simlik nomlari qo'llangan bo'lib, o'z leksik ma'nosini yo'qotgan.

Esti nasimi bu guliston sari,

²⁵ Murodova N. O'zbek tilida fitonimlar. – Qarshi., BMI, 2016.

²⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-,2-,3-,4-,5-jild. 2006.

²⁷ Rahimova S. Fitonimlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYASI . 92-93-bet.

²⁸ Alisher Navoiy . Hayrat ul-abror.G'afur G'ulom ,Toshkent: - 2009. (Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni asosida)

Sunbulu sarvu gulu rayhon sari. [muqaddima, 76-bet]

Ko'rinib turibdiki, baytda qo'llanilgan *sunbul, sarv, gul, rayhon* leksemalari o'z ma'nosida kelgan.

Dasht anga gulshanu *nasrin – tikan,*

Yo'liki yonida mug'ilon chaman. [ikkinchi maqolat, 123-bet]

Bu baytda esa *nasrin, tikan* fitonimlari o'xshatish ma'nosida kelib, o'z ustiga konnotativ ma'no yuklaydi.

Sanga *binafsha* kibi qaddi nigun,

Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun. [uchinchi maqolat, 131-bet]

Ekmak emas, borcha bukim to'rg'asen,

Arpau bug 'doy sochibon o'rg'asen. [beshinchi maqolat, 161-bet]

Yuqoridagi misralarda *binafsha* fitonimi bilan tashbeh san'ati hosil qilingan; *arpa, bug 'doy* fitonimlari esa o'z ma'nosida qo'llangan.

Ravshan erur ko'zki, tutar kom ila,

Go'shai mehrob iki *bodom* ila. [yettinchi maqolat, 179-bet]

Oshig'a kim solsa qilib ziynat ish,

Zardagu shalg'am kibi oltun-kumush. [yettinchi maqolat, 180-bet]

“Hayrat ul-abror” asarining to'qqizinchi maqolati “Ishq o'ti ta'rifida” deb nomlanib, ushbu bobda ham bir qancha fitonimlar mavjud. Masalan:

Qomat o'lub *savsani* ozod anga,

Balki sihi *sarv* ila *shamshod* anga. [to'qqizinchi maqolat, 203-bet]

baytida *savsan, sarv* va *shamshod* o'simliklari o'z ma'nosida emas, balki yor qomatini ta'riflash uchun ishlatilgan.

Zulf anga *sunbuli* mushkin bo'lub,

Yuz bila eng *lolavu nasrin* bo'lub.

Ko'zdin o'lub *nargisi* fattonlari,

Labdin o'lub *g'unchai* xandonlari. [to'qqizinchi maqolat, 203-bet]

Ushbu misralarda ham aynan yuqoridagidek *sunbul, lola, nasrin, nargis, g'uncha* fitonimlari orqali yor ko'rinishi ta'riflangan.

XULOSA

Fikrimiz nihoyasida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiyning har bir asarida so'zlar nihoyatda tartibli va keng ma'noli qilib ishlatilgan. Bir leksema necha marotaba takrorlanishiga qaramay har bir misrada o'zgacha mazmun bilan sayqallangan. Shuningdek, o'simlik nomlari hisoblanmish fitonimlardan ham yetarli darajada foydalanilgan. So'zimiz dalili sifatida “Hayrat ul-abror” dostonidagi ayrim fitonimlarning statistikasini keltirib o'tamiz. Masalan: *gul* – 55 marta, *g'uncha* – 22 marta, *lola* – 26 marta, *sarv* – 30 marta, *nargis* – 17 marta, *tikan* – 14 marta, *vard (atirgul)* – 7 marta va boshqa o'simliklar bir necha marotaba qo'llangan.

Bundan tashqari, fitonimlarning leksik ma'nosi (ya'ni so'zning lug'aviy ma'nosi) hamda konnotativ ma'nosi (ya'ni ma'no ustiga yuklangan badiiy yoki falsafiy mazmun) o'quvchida yuksak badiiy va lingvistik tafakkurni shakllantirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985;
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-, 2-, 3-, 4-, 5-jild. 2006;
3. Alisher Navoiy . Hayrat ul-abror. - Toshkent: G'afur G'ulom , 2009. (Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni asosida)
4. Murodova N. O'zbek tilida fitonimlar. – Qarshi., BMI, 2016;

5. Mirzayeva D. Fitonimik komponentli ingliz birliklarining leksik-semantik tahlili . SCIENCE AND INNOVATION. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 6 , 925-929-b;

SHAXSDA MEHNAT MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Ramazonova Madinabonu Yunus qizi,
Buxoro Xalqaro Universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson his-tuyg'ulari, uning shijoatkorona ta'siri ostida vujudga keladi. vaziyatlar va ob'ektlarga yanada barqarorroq munosabatda bo'lish "yo'l-yo'riq" tushunchasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Mehnat faoliyatida", xatti-harakatlar, yo'l-yo'riq, xodimlarning xulq-atvori, mehnat motivatsiyasi.

Har bir inson ishlashi va yashashi uchun motivatsiya zarur. Motivatsiya bu – inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omildir.

Mehnat motivatsiyasi – bu shaxsda ichki va tashqi tomondan paydo bo'ladigan, uni ishlashga undaydigan xatti-harakatlar bilan namoyon bo'ladigan kuchli xohish hisoblanadi. Inson hayotining asosiy vaqti ma'lum ma'noda ish jarayonida kechadi. Demak, insoning hayotida ish juda muhim, hayotiga ma'no bag'ishlovchi omil hisoblanadi. Ishlashdan asosiy maqsad moddiy manfaatdorlikdir.

Xodim mehnat faoliyatida ishtirok etar ekan, ayni paytda bir qator ehtiyojlar, manfaat va qadriyat yo'nalishlariga ega bo'ladi. Ular muhim va nomuhim, turli darajada ahamiyatli va qardli bo'lishi mumkin. Bu hamma omillar ichida eng asosiylarini tanlash ehtiyojlar, qiziqishlar, qadriyatlarni mehnat vaziyati bilan taqqoslash jarayonida sabablar (yo'l-yo'riqlar) vositasida amalga oshadi.

O'z-o'zidan sabab va vaziyatlar etarli darajada harakatchandir, chunki ular inson his-tuyg'ulari, uning shijoatkorona ta'siri ostida vujudga keladi. vaziyatlar va ob'ektlarga yanada barqarorroq munosabatda bo'lish "yo'l-yo'riq" tushunchasi bilan ifodalanadi. Shunday qilib, "sabab" va "yo'l-yo'riq" bir-biriga to'la o'xshash bo'lmasa ham, ma'no jihatdan yaqindir.

Mehnat sohasidagi sabablar xilma-xil funktsiyalarni bajaradi va ular xodim hulq-atvorida ro'yobga chiqadi. Bular quyidagi funktsiyalar:

yo'naltiruvchi funktsiya bunda sabab xodimning xulq-atvorini vaziyatdan xulq-atvor variantlarini tanlashga yo'naltiradi;

ma'no hosil qiluvchi funktsiya, bunda sabab xodimning mazkur xulq-atvoridagi sub'etiv ahamiyatini belgilab beradi, uning shaxsiy ma'nosini aniqlaydi;

vositali funktsiya, bunda sabab ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar tutashgan joyda vujudga keladi, ularni xulq-atvorga bo'lgan ta'sirini vositalaydi;

safarbar qiluvchi funktsiya, bunda sabab xodim organizmi kuchlarni o'zi uchyaun ahamiyatli faoliyat turlarini amalga oshirishga safarbar etadi;

oqlovchi funktsiya, bunday holatda shaxsning tashqaridan nomallashtiradigan xulq-atvor namunasiga, etaloniga, ijtimoiy va axloqiy normaga munosabati ifodalangan bo'ladi.

Haqiqiy real sabablar bilan e'lon qilinadigan, oshkora e'tirof etiladigan sabablarni farqiga etish lozim. Haqiqiy sabablar bular undovchi sabablardir. Ikkinchi sabablar bular mulohaza sabablar bo'lib, ularning vazifasi o'zining xulq-atvorini o'ziga va boshqalarga tushuntirishdir. Oshkora e'lon qilinadigan sabablarni undovchi sabablardan farqli o'laroq ko'pincha dalillar deb atashadi.


Insonning faoliyati ayni vaqtda bir necha sabablar bilan aniqlanadi, chunki ular narsa-buyumlar olami, jamiyat, atrofdagi kishilar va o'z-o'zi bilan xilma-zil munosabatlar tizimiga qo'shiladi. Xodimlarning xulq-atvorini belgilab beradigan etakchi sabablar guruhini sabablar o'zagi deb atashadi, u o'z tuzilishiga egadir. Sabablar o'zagingining tuzilishi muayyan mehnat vaziyatlariga qarab farqlanadi:

- mutaxassislikni yoki ish joyini tanlashga;
- korxonada mazkur kasb bo'yicha kundalik ishga;
- muayyan nizoli vaziyatga;
- ish joyini almashtirishga yoki kasbni o'zgartirishga;
- mehnat muhitining tavsiflari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan innovatsion vaziyat va hokazolarga.

Ko'rib turibmizki, mehnat xulq-atvoriga uni tashkil etuvchi turli tarkiyuiy qismlar ta'sir ko'rsatadi (chizma).

Keyingi o'n yilliklarda mehnat sotsiologiyasi ijtimoiy xulq-atvor mexanizmini bilishni bir muncha chuqurlashtirish imkonini beradigan g'oyalarni ishlab chiqmoqda. Bu jihatdan V.V.Yadovning yondashuvi qiziqarlibo'lib, u shaxs ijtimoiy xulq-atvorini depozitsion kontseptsiyasini ifodalab bergan edi. Bu erda gap insonning murakkab dispozitsiyalar tizimini (shaxsiy moyillik) egallashi haqida boradi, ular inson xulq-atvorini tartibga soladi. Ular murakkab tuzilishga ega bo'lgan qiziqishlar va vaziyatlar tutashgan joyda hosil bo'ladi. Ehtiyojlar, vaziyatlar va ularga mos keladigan dispozitsiyalarni to'rtta darajasi ajratib ko'rsatiladi:

chizma. Mehnat xulq-atvorini tartibga solish sabab mexanizmini tasniflash



Eng oddiy vaziyatlarda, maishiy sharoitlarda biologik ehtiyojlarga bog'liq yo'l-yo'riqlar;
Odatdagi kundalik sharoitlarda muomalaga bo'lgan ehtiyojlar asosida shakllantiriladigan ijtimoiy yo'l-yo'riqlar;

Shaxsning muayyan mehnat sohasi yoki dam olish sohasidagi qiziqishlarning umumiy yo'nalishini ta'riflab beradi (bular bazaviy ijtimoiy yo'l-yo'riqlardir);

Shaxsning qadriyatli mo'ljallar tizimi.

Sabablar tuzilishi juda moslashuvchan va doimiy ravishda o'zgaruvchandir (to'g'rilanib boradi). Mehnat faoliyati jarayonidagi bunday to'g'rilanib borish uch un asos sifatida ishlab chiqarish vaziyatining turli tomonlaridan qoniqish hosil qilish namoyon bo'ladi. Xodim vaziyatning barcha elementlarini qanchalik qulaylik bilan qabul qilsa, mehnat xulq-atvori sabablari shunchalik to'g'rilangan bo'ladi. Sabablarni o'rganishning sotsiologik va psixologik darajalarini farqlash kerak bo'ladi. Psixologik darajada harakatdan odingi maqsadani bilib olish va qaror jarayoni tekshiriladi. Butun sabablarni asoslash jarayoni maqsad qo'yish bilan tugaydi.

Sabablar yo'l-yo'riqlarini o'rganishda shuni nazarda tutish kerakki, ularning mazmuni ko'proq qadriyatlar va normalar mazmunini, avvalo shaxsiy ehtiyojlar hamda qiziqish yo'nalishidan ko'ra ijtimoiy jihatdan maqullangan qadriyatlar va normalar mazmunini, avvalo shaxsiy ehtiyojlar hamda qiziqish yo'nalishidan ko'ra ijtimoiy jihatdan ma'qullangan qadriyatlar va normalar mazmunini aks ettiradi. Bunda sabablar ierarxiyasi qadriyatlar ierarxiyasidan dalolat beradi. Ehtiyojlar va qiziqishlar tuzilishini esa faoliyatning har xil turlariga doir vaqt sarflari aks ettiradi. Turli ijtimoiy guruhlar xodimlarining xulq-atvorining sabablari, yo'l-yo'riqlari, qadriyatli yo'nalishlarini, shuningdek, ularning tuzilishini o'rganish xodim nima sababdan mehnat qilayotganligini aniqlash imkonini beradi. Mehnat faolligiga undovchi ichki sabablarni bilish asosida yaratiladigan rag'batlar tizimi mehnatga munosabatlarning optimal tipin shakllantirishning asosi hisoblanadi. Jamiyatda amal qilayotgan rag'batlar tizimi faqat xodimlarning yetakchi ehtiyojlari va qiziqishlarini amalga oshirishga yordam bergandagina samarali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat motivatsiyasining asosiy omillari ehtiyojlar va qiziqishlar bo'lib, ular moddiy va nomoddiy bo'lishi mumkin.

Mehnat motivatsiyasi jarayonining eng muhim elementlari qadriyatlar - sub'ektning, ijtimoiy guruhning hayot va ishlashning asosiy va muhim maqsadlari to'g'risidagi tassavurlaridir, qadriyatli yo'nalishlar esa, inson xulq-atvoridagi yo'nalish, mo'ljaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev 2017-2021 Harakatlar strategiyasi (2017)
2. Aristotel. O dushe // Aristotel. Sobr.soch.V 4 t. M., 1975. T.1.
3. Ivannikov V.A. Psixologicheskie mexanizmø volevoy reguliyasii. M., 1991.
4. Ivannikov V. A. Psixologicheskie mexanizmø volevoy reguliyasii: Uchebnoe posobie. M., 1998.
5. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya: darslik.T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008.

DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Hotamov Sultonxo'ja Sulaymon o'g'li
Buxoro Xalqaro Universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu deviant xulq-atvorli o'smirlarda kasb tanlashga munosabatning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxsning, oilaning, deviant xulq-atvorli, o'smirlarni kasbga yo'naltirish, ijtimoiy, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy psixologik xususiyatlar.

Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs tarbiyasi va uni ijtimoiy-psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish shu sohaga daxldor barcha sohalar tizimlariga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bu masala, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratishni, o'sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasbiy tayyorgarligini va kasb tanlashga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy talablari asosida to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa, Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" ushbu masalaning o'ziga xos yechimlarini izlashda muhim o'rin tutmoqda. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Aynan ushbu shaxs sifatlarini rivojlantirish va to'g'ri yo'naltirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarni kasbga yo'naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaning, balki butun bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta o'rganish, tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga ma'lum darajada hissa qo'shish mumkin. Qolaversa, mana shunday o'smirlarni kasb tanlashdagi muvaffaqiyatsizliklar shaxs faoliyati va faolligiga salbiy ta'sir etishi, ayni paytda u yoki bu sohalarda mehnat unumdorligining pasayishi shaxs va faoliyat nomutahosisligining yuzaga kelishi kabi ayanchli ijtimoiy psixologik asoratlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan muhim vazifalar belgilangan. Chunki deviant xulqli o'smirlarni biror-bir kasbga yo'naltiradigan bo'lsak va ularni kasb-hunarga yo'naltirish mexanizmlarini ishlab chiqadigan bo'lsak, kelajakda yuzaga keladigan turli xil jinoyatlarni oldini olishimiz mumkin.

XXI asrda «postindustrial» (Deniel Bell) va «informatsion» (Elvin Toffler) kabi yangi jamiyat tiplari shakllanmoqda. Ushbu turdagi jamiyatning o'ziga xos xususiyati axborotlashtirishning yuqori darajasi bilan belgilanadi. Rivojlanayotgan dunyoda axborot va bilimlar asosiy qadriyatga aylanmoqda. Ushbu jamiyatning har tomonlama yetuk faol a'zosi bo'lish, unga moslashishga tayyor bo'lgan maktab o'quvchilarini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya uchun bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyot va uning rivojlanish yo'nalishi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillardan xabardor bo'lish juda muhim omil sanaladi.

Ijtimoiy jarayonlarga olimlar texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarning tezlashishi bilan bog'liq tendensiyalarni, shuningdek, biznes va davlat boshqaruvi modellarining o'zgarishi, iste'molchilik jamiyati hamda o'rta sinfning o'sishi va boshqalarni bilan belgilashadi. Zamonaviy dunyoda va mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilish, yangi dunyo jamiyati sezilarli o'zgarishlarni kutayotgani haqida fikrlash imkonini beradi. Jumladan, kompyuterda operatsiyalarni bajarishni o'z ichiga olgan muntazam jismoniy mehnat yo'qoladi; yangi kasblar tezda paydo bo'ladi va doimiy ravishda o'zgaradi, virtual haqiqatda ish o'rinlari paydo bo'ladi, bu esa deviant xulq-atvorli o'smirlarning kasbiy yo'nalishi jarayonida kasbiy muhim ko'nikma va qobiliyatlarni (qattiq ko'nikmalar) shakllantirishni ahamiyatsiz qiladi; ko'plab mutaxassislar iqtisodiy faoliyatning bir qismini ofisdan o'z uyiga raqamli iqtisodiyot maydoniga o'tkazadilar, ko'p tilli, ko'p madaniyatli o'zaro ta'sir esa yagona mahsulot yaratish uchun ishlaydigan gorizontol jamoalarda kengayadi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda kasb tanlashga munosabatning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy psixologik

xususiyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar asosida ochib berish, bugungi kunda ta'lim – tarbiya muassasalari oldida turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biridir.

Darhaqiqat, bugun har jihatdan omilkor, mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli – faol ijtimoiy shaxsini tarbiyalash, uni o'z salohiyatiga mos kasbga yo'naltira olish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Kasb tanlashning psixologik masalalari F.Temurov, texnik kasblariga yo'naltirish motivatsiyasi Q.Turg'unov, B.Boymuratov, o'qituvchilik kasbini tanlash motivlari N.Majidov, kitobxonlik qiziqishlari M.Muratxonova, o'quv motivlari F.Haydarov, I.B.Suvanov, E.Quljonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Bizning fikrimizcha, yurtimiz psixologlarining deviant xulqli o'smirlarda kasbiy tiklanishining turli bosqichlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi rolga asosiy e'tibor qaratiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyun, 2018-yildagi PQ-3775-sonli Qarori
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
3. Aristotel. O dushe // Aristotel. Sobr.soch.V 4 t. M., 1975. T.1.
4. Ivannikov V.A. Psixologicheskie mexanizme volevoy regulyasi. M., 1991.
5. Ivannikov V. A. Psixologicheskie mexanizme volevoy regulyasi: Uchebnoe posobie. M., 1998.
6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya: darslik.T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008.

TA'LIM JARAYONIDA MUALLIFLIK KORPUSLARIDAN FOYDALANISH

*Maxamova E'zoza Ravshan qizi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti*

Annotatsiya: Mualliflik korpuslari muallif asarlari tilini to'liq va aniq ko'rsata olishi bilan boshqa axborot banklaridan ajralib turadi. Korpus dunyodagi ko'plab sohalarda ma'lumotlarning keng va to'liq manbai vazifasini o'tay olishi bilan amaliy ahamiyati oshib bormoqda. Korpuslarsiz raqamli texnologiyalarga asoslangan axborot asrida ta'lim jarayonini tasavvur qilish juda qiyin.

Kalit so'zlar: korpus, lingvistika, uzluksiz ta'lim, izohtalab so'z, istorizm, arxaizm, lug'at, hikmat.

Umumta'lim maktablarida adabiyotimiz namoyandalari, jumladan Navoiy ijodini o'rganishda ham Alisher Navoiy mualliflik korpusi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy mualliflik korpusidan mutafakkir so'z birliklarining barcha lingvistik xususiyatlari, undagi o'zgarishlar – o'sha davr nuqtayi nazarida tildagi yangilanish va bugungi ijtimoiy hayotda so'zlarning iste'moldan chiqishi, faollashish va passivlashish holatlari hamda lingvistik hodisalari haqida tezkor, aniq va to'liq ma'lumotni oladi,

osonlik bilan turli tipdagi katta hajmli akademik lug'atlar tuzish, matnlarga avtomatik ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Mualliflik korpuslaridagi ma'lumotlarning ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi, unda berilgan ma'lumotlarning aniqligini va ishonchlilikini kafolatlaydi hamda lingvistik hodisalarning butun spektrini to'liq aks ettirishi bilan ularni har tomonlama va obyektiv o'rganishga imkon beradi. Katta hajmdagi ma'naviy xazina joylangan korpusdan tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, va chog'ishtirma-tipologik tadqiqotlarda, leksikografik izlanishlarni olib borishda, Alisher Navoiy asarlari yordamida XV asr chastotali lug'atlarini yaratishda, istorizm va arxaizmlarni jamlashda, so'zlar etimologiyasiga oid tadqiqotlarni olib borishda, bugungi zamon o'quvchisi tushunishi qiyin bo'lgan so'zlar izohini korpusdagi tezkor ravishda taqdim etilgan kontekstual misollar massivi yordamida tushunish, uning semantik izohini topish kabi ko'plab lingvistik imkoniyatlarni beradi. Bu esa auditoriya yoshidan qat'i nazar mumtoz adabiyotimizga qiziquvchilar, Navoiy davri tilini tushunuvchilar va uning asarlarini mutolaa qilib Navoiy ma'naviy xazinasidan bahramand bo'luvchilar safining oshishiga xizmat qiladi. Mualliflik korpusining lingvistik asosi "so'z – leksemadan uning mazmuniga qarab borish" hisoblanadi. Bunda tarjima tilning morfologik, sintaktik va semantik tahlili, lug'atlar, grammatik qoidalar, matnlar korpusiga asoslanib amalga oshiriladi.

Mualliflik korpuslari ta'lim jarayonida muallif asarlarining ta'limiy, ijtimoiy, tarixiy, lingvodidaktik, ahamiyatini yoritib berishda, muallif asarlarida qo'llanilgan so'zlarning dialektal xususiyatlarini tasniflashda, milliy tilning semantik xususiyatlarini o'rganishda muhim sanaladi. Mualliflik korpusi materialidan ta'limiy maqsadda foydalanish o'ta ahamiyatli masala hisoblanadi. Darhaqiqat, til korpuslari ta'lim jarayonida eng muhim o'quv quroli. Sababi mavzulashtirilgan matn ta'lim jarayonida o'quv materiali tayyorlashda qulay axborot manbai vazifasini bajaradi. Lingvodidaktikada mualliflik korpusining ahamiyati shundan iboratki, o'qituvchi uchun korpus tengsiz xazina, undan o'quv mashg'uloti uchun serqirra, mazmunli o'quv materialini tayyorlashi mumkin. XV asr til uslubini bugungi tilga qiyosan o'quvchilarga o'rgatish mumkin. Badiiy matnlarning statistik tahlili natijasida matnda tez-tez ishlatiluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so'zlar, fe'llar, grammatik shakllar, jumla qurilishi, bir so'z bilan aytganda, yozuvchining uslubini – o'ziga xos yozish uslubini ko'rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi. Alisher Navoiyning mualliflik korpusida bugungi kunda iste'moldan chiqqan, tarixiy va arxaik so'zlar, kam qo'llanilgan izohtalab so'zlarga asosiy e'tibor qaratilgan. Navoiy bilan bizni, eh-he, qancha – qancha zamonlar-u necha-necha makonlar ajratib turibdi Bu zot asarlaridagi asl ma'noni tushunish uchun o'sha zamona va o'sha makonga "qaytish" kerak. Ta'kidlash joizki, Navoiy yashagan davr ruhiyatiga kirmasdan, izohtalab so'zlarning mazmunini anglamasdan turib tuyuqlarning chin ma'nosini anglash mushkul va bu mushkulotni kitobxon tomonidan yechilishida Navoiy asarlari tilining izohli lug'atlariga tayanib Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi 210 ta tuyug'ining semantik teglangan bazasi asosida yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusi tez, qulay, ishonchli ma'lumotlarni beradi. Korpusda baytlar, misralar Navoiy yashagan davr mulohazalari bilan yondashilgan, izohtalab so'zlar manbalar asosida tahlil qilingan. Navoiy tuyuqlarida bugungi kunda iste'moldan chiqqan, talaffuzi va ma'nosi mutlaqo o'zgarib ketgan so'z va so'z birikmalar ko'p sonni tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida ayrim adabiyot darg'alari ijodiga bot-bot murojaat qilishning asosiy sababi ijodkor iste'dodining serqirraligi, teran mulohazaga yetaklovchi yuksak saviyadagi asarlarining mavjudligi, shuningdek, ularga berilgan jahoniy e'tiroflar,

asarlaridagi badiiy-estetik g'oyalarning san'atkorona ifodalari bilan bog'liq. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida yangi davr Milliy o'quv dasturida Alisher Navoiyni ta'lim va tarbiya berishda o'rganish boshlang'ich hamda yuqori sinf o'quvchilarida milliy g'ururni yuksaltiradi. Milliy g'urur insonni ma'naviy jihatdan shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. O'quvchilarning Navoiyona aks etuvchi nodir adabiy durdonalarni falsafiy, ilohiy-irfoniy mohiyatini his qilishda, mag'zini anglashda umumta'lim maktablari uchun yaratilayotgan o'quv dasturlarining ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, misralar mag'ziga chuqur mulohazasiz yetish imkondan tashqaridir. Uzluksiz ta'lim tizimida Navoiy qit'alarining o'quvchi yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o'rgatilishi samarali ta'limga erishishning yo'llaridan biri hisoblanadi.

Mualliflik korpuslari o'quvchilarning izlanuvchanlik salohiyatini o'stirib, kichik tadqiqotlarni ishonchli dalillar asosida bajarishiga imkoniyat beradi. Ta'kidlash joizki, mualliflik korpuslarining ijtimoiy ahamiyati – keng qamrovli hisoblanib, undan lingvistik, etnopsixolingvistik tadqiqotlarda, ona tili, adabiyot, xorijiy til ta'limida, matnga avtomatik ishlov berish, tarjima dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin. Mualliflik korpuslaridan – “ish quroli – so'z” bo'lgan barcha soha vakillari: tilshunos, tarjimon, o'qituvchi, dasturchi, jurnalist, muharrir kundalik faoliyati jarayonida keng foydalanishlari mumkin.

Muayyan muallifga tegishli bo'lgan parafraza, parema, hikmatli so'zlar so'z boyligimizni oshirib, nutqiy ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Mualliflik korpuslari tilning lug'at boyligida bo'layotgan o'zgarishlar (neologizm, istorizm, arxaizm hodisalari)ni kuzatishning eng qulay vositasi hamdir. Muallif qo'llagan so'zlarning leksik-semantik birikish imkoniyati tahlil qilish jarayonida qadimiy va yangi avlod lug'ati, grammatikasini taqqoslash imkoniyati kengayadi. Mualliflik korpusi vositasida muallif so'zining serqirraligi, bir paytning o'zida bir necha semantik kategoriyaga mansub bo'la olishi imkoniyatlarini farqlashda amaliy yordam beradi. Mualliflik korpuslari orqali shoirning lisoniy qarashlari bilan bir qatorda, ijtimoiy sohalarga munosabatini, siyosiy masalalarga qarashlarini ham bilish imkoniyati bo'ladi.

Ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, ajdodlar ruhini ulug'lash ko'nikmalarini shakllantirish, mutolaa madaniyatini oshirish natijasida teran fikrga ega bo'lish, tafakkurni kengaytirishga erishiladi. Axloqiy-ta'limiy mavzuda Ibrohim Haqqul shunday mulohaza yuritadi: “Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so'zlari diliga o'rnashgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch qudratini idrok etadi. Navoiy saboqlarga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dardi – tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi. Fikrni fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat, imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demakdir”.

Umuman, Alisher Navoiy o'ta keng qamrovli ijod mahsuliga ega bo'lib, Alisher Navoiy mualliflik korpusi o'quvchiga Navoiydagi komillik fazilatlarini, asarlaridagi falsafiy, ishqiy, ta'limiy, tarbiyaviy, axloqiy, ijtimoiy, lingvistik kabi ma'lumotlarni anglashga yordam beradi, foydalanuvchini mushohada yuritishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 78.
2. Olimov M. Navoiy qanday mutolaa qilgan. – Tafakkur jurnali. 2017. 2-son.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi. 2006. – B. 255.

4. Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2021-2022-o'quv yiliga mo'jallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 297-buyrug'i. 2020-yil, 9-dekabr.
5. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1965. – Б. 556.
6. Иброҳим Н. Navoiyga qaytish. – Toshkent: – 2007. – B. 10.

RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA MUALLIFLIK KORPUSLARI

*Maxamova E'zoza Ravshan qizi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola kompyuter lingvistikasi sohasining rivojlanishi jahon andozalariga mos keladigan milliy ko'rinishga ega bo'lgan zamonaviy mualliflik korpuslarining yaratilishi uchun muhim ekanligi hamda bunday korpuslar ma'lum bir muallif tili, ijod uslubi bilan tez va qulay tarzda tanishish imkoniyatini berishi haqida yozilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy mualliflik korpusining ilk versiyasidagi o'ziga xoslik to'g'risida ham mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, korpus, muallif tili, lingvistik izoh, semantik teg.

Korpus lingvistikasi rivojlangan mamlakatlar tilshunosligida chuqur o'rganilgan soha hisoblanadi. Korpus lingvistikasining paydo bo'lishidan oldin korpus usullarini qo'llash va matn korpuslarini yaratish bo'yicha izlanishlar boshlandi. Kompyuterning ixtiro qilinishi korpus lingvistikasining rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun yangi bosqichni boshlab berdi – yaratilgan korpuslar oldingilaridan nafaqat saqlash formatiga ko'ra, balki hajm jihatidan ham farqlanadigan bo'ldi. Matnlarni elektron shaklga aylantirishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat tilshunoslik, tarix, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlarning dolzarb muammolarini hal qilish uchun yangi korpuslarni yaratishga, balki eski korpuslarning salmog'ini oshirishga, ularni raqamlashtirish va turli eslatmalar hamda izohlar bilan to'ldirishga, shu bilan mazmunan kengayib borishiga imkon berdi. Korpus lingvistikasi zamirida uning zamonaviy bo'limlari sifatida bo'y ko'rsatayotgan korpus semantikasi, korpus morfologiyasi, korpus sintaksisi, korpus matnlarini tahlil qilish, korpus stilistikasi, kognitiv korpus tilshunosligi shakllanmoqda.

Korpuslar umumiylikiga ko'ra umumiy va yakka muallifli bo'ladi. Umumiy korpuslar muayyan tilning bir yoki bir necha masalalari bo'yicha yaratiladi. Unda matnlarning grammatik yoxud semantik teglari berilishi, parallel tarjimai taqdim etilishi, matnlar manbasi haqida metama'lumotlar ko'rsatilishi mumkin. Yakka muallifli korpuslarda, asosan, muayyan ijodkorga mansub materiallar qamrab olinadi va ular mualliflik korpuslari hisoblanadi.

Mualliflik korpuslari muayyan bir muallif tili, yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi tizim sanaladi. Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar mualliflik korpuslarini yaratish borasidagi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mumtoz adiblar asarlarini o'rganish, adib shaxsiga oid ma'lumotlar va yozish uslubini raqamlashtirish natijasida muallifi noma'lum asarlarning muallifini topish, muayyan mashhur ijodkorlar ijodini keng targ'ib etish va ularning asarlaridan tadqiqotlar jarayonida foydalanish, asosan, qo'l mehnatiga asoslangan kartotekalash jarayonidan voz kechib, asarlardan leksik birliklarga misollar massivini topish maqsadida mualliflik korpuslari yuzaga kelgan. Aniqroq aytganda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan yirik hajmdagi materiallar bilan ishlash imkoniyati oshganligi sababli mualliflik korpuslari ham vujudga keldi.

Mualliflik korpuslari bazasini yaratish uchun tanlab olingan ijodkorning davridan qat'i nazar, sotsiolingvistik ko'rinishdagi badiiy, so'zlashuv, jonli so'zlashuv, qisman dialektal matnlar tashkil qiladi. Korpusga badiiy qimmatga ega bo'lgan va til o'rgatishga qiziqish uyg'otadigan, original (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (nasr, nazm, drama ham). Badiiy asarlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalardan publitsistika, ilmiy-ommabop va ilmiy adabiyotlar, ma'ruzalar, shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, hujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Muayyan adib qalamiga mansub asarlar korpusi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ijodkor uslubi va uning so'z qo'llash mahoratini o'rganish;
- adib ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
- ijodkor qo'llagan turg'un birikmalarni (iboralar) tahlil qilish;
- asar badiiyligini oshirishda keng foydalanilgan she'riy san'at turlarini tahlil etish;
- lirik turdagi janrlar qatoriga yashiringan xalq og'zaki ijodi namunalari (maqol, topishmoq)ni aniqlash;
- ijodkor asarlarini auditoriya yoshiga mos ravishda taqsimlash;
- izohtalab so'zlarning izohini, matnning g'oyasi va mazmunini korpusdagi semantik izohga tayanib teran anglash;
- raqamli texnologiyadan keng foydalangan holda axborot olishni tezlashtirish kabi bir qator qulay imkoniyatlarni beradi.

Mualliflik korpuslari muallif asarlari tilini to'liq va aniq ko'rsata olishi bilan boshqa axborot banklaridan ajralib turadi. Dunyodagi ko'plab sohalarda ma'lumotlarning keng va to'liq manbasi vazifasini o'tay olishi bilan korpusning amaliy ahamiyati oshib bormoqda. Bunday maxsus tizimlar turli xil lingvistik ma'lumotlarga ega bo'lish, til tarixi, tillarni shakllantirish va tushunish jarayoni hamda evolyutsiyasi sohasidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga yordam beradi. Jumladan, Alisher Navoiy mualliflik korpusi ham yuqorida sanab o'tilgan jarayonlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ijodiy merosini jahon miqyosida targ'ib etish, Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish, buning uchun ham ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o'rtasida targ'ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o'qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, maqsadida 2022-yilda mutafakkir Alisher Navoiy mualliflik korpusining ilk versiyasi va 2024-yilda mazkur korpusning takomillashtirilgan versiyasi foydalanishga topshirildi. Bu Alisher Navoiy mualliflik korpusining turkiy xalqlarning daho yozuvchisi bo'yicha dastlabki elektron model hisoblanadi.

Mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbasi hisoblanib, nazariy hamda amaliy tilshunoslikning uzviy va muhim qismiga aylanib ulgurdi. Tilning ming yilliklarga daxldor betakror milliy merosidan yosh avlodni bahramand etish, ularni milliy qadriyatlarga, jumladan, o'z ona tiliga hurmat va qiziqish ruhida tarbiyalashda Alisher Navoiy mualliflik korpusining o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti g'azallarining tanlanishi. O'zMU xabarlarini // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.
2. Якубовский К.И., Якубовская К.А. Обзор современных лингвистических технологий и систем // Вестник МГУП. 2015. №2 – С. 315.
3. Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – Санкт-Петербург. 2020. – С. 13.

4. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodir ush-shabob" devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlarini // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.

**ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI:
LINGVISTIK TAFAKKUR VA TURKIY TIL KONSEPSIYASINING NAZARIY
ASOSLARI**

*Qodirova Sevara Shuxratovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti*

Аннотация. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari manbashunoslik va qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning asosiy manbai sifatida "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon" va boshqa asarlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Navoiy turkiy tilning fonetik, leksik va semantik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilib, uni fors tiliga nisbatan qiyosiy ustunliklarini argumentatsion model orqali asoslab bergan. U til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilgari surgan hamda milliy adabiy tilning me'yorlashuviga konseptual hissa qo'shgan. Navoiy qarashlari zamonaviy sotsiolingvistika, tipologik lingvistika va til siyosati nazariyalari bilan uyg'unlikda baholandi.

Аннотация. В данной статье на основе источниковедческого и сравнительно-аналитического подхода исследуются взгляды Алишера Навои на лингвистику. Основными источниками исследования послужили «Мухокамат уль-лугайин», «Мезон уль-авзон» и другие работы. Результаты показывают, что Навои научно анализировал фонетические, лексические и семантические возможности тюркского языка и обосновывал его сравнительные преимущества перед персидским посредством аргументативной модели. Он выдвинул неразрывную связь между языком и мышлением и внес концептуальный вклад в стандартизацию национального литературного языка. Взгляды Навои оценивались в соответствии с теориями современной социолингвистики, типологической лингвистики и языковой политики.

Annotation. This article studies Alisher Navoi's views on linguistics based on source studies and a comparative-analytical approach. The main sources of the study were "Muhokamat ul-lughayin", "Mezon ul-avzon" and other works. The results show that Navoi scientifically analyzed the phonetic, lexical and semantic capabilities of the Turkic language and justified its comparative advantages over Persian through an argumentative model. He put forward the inextricable link between language and thought and made a conceptual contribution to the standardization of the national literary language. Navoi's views were evaluated in accordance with the theories of modern sociolinguistics, typological linguistics and language policy.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Muhokamat ul-lug'atayn, turkiy til, qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, adabiy til me'yorlari.

Ключевые слова: *Алишер Навои, Мухокамат уль-дугайин, тюркские языки, сравнительная лингвистика, социолингвистика, литературно-языковая норма.*

Keywords: *Alisher Navoi, Muhokamat ul-lughayin, Turkic language, comparative linguistics, sociolinguistics, literary language norm.*

XV asr Markaziy Osiyo ilmiy-madaniy muhitida Alisher Navoiy nafaqat shoir va mutafakkir, balki til masalalariga ilmiy yondashgan nazariyotchidir. Ayniqsa, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy va fors tillarini qiyosiy tahlil qilgan ilk fundamental risolalardan biri sifatida baholanadi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy va fors tillarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, uni ilk sistematik qiyosiy-lingvistik risolalardan biri sifatida baholash mumkin. Asarda Navoiy turkiy tilning leksik boyligi, semantik differensiasiyasi va morfologik tuzilishini dalillash orqali uning adabiy va ilmiy ifoda imkoniyatlarini asoslaydi.

Navoiy til masalasini adabiy-estetik muammo doirasidan chiqarib, uni ijtimoiy-madaniy va gnoseologik hodisa sifatida ko‘rib chiqadi. Bu jihat uni o‘rta asr sharq mutafakkirlari orasida alohida ajratib turadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, “Muhokamat ul-lug‘atayn” turkiy tilning strukturaviy va semantik imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan dastlabki konseptual ishdir.

Navoiy tilni inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi sifatida talqin qiladi. Uning qarashlarida til – bu fikrni moddiylashtiruvchi, ma’no yaratish jarayonini tashkil etuvchi tizimdir. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da u turkiy tilning ma’no ifodalash imkoniyatlarini misollar orqali ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotchilar Navoiyni turkiy adabiy til asoschisi va til siyosati konseptualizatori sifatida e’tirof etadilar. Biroq uning tilshunoslikka oid qarashlarini strukturaviy-lingvistik va sotsiolingvistik metodlar asosida tizimli tahlil qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Masalan, u turkiy tilda ot, tuya, yilqi, qush kabi leksik birliklarning ko‘plab differensial variantlarini sanab o‘tadi va ularning semantik aniqligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv zamonaviy semantik maydon nazariyasiga yaqin turadi.

Navoiy til boyligini miqdoriy emas, balki sifat jihatdan baholaydi. U turkiy tilning sinonimik, metaforik va derivatsion imkoniyatlarini tizimli tarzda ko‘rsatadi. Bu jihatni struktural tilshunoslik bilan qiyoslash mumkin. Saussure (tilni belgilar tizimi sifatida talqin etgan bo‘lsa, Navoiy ham leksik birliklarning ichki semantik farqlarini tahlil qiladi. U tilni mexanik yig‘indi emas, balki ichki tartibga ega tizim sifatida ko‘radi.

Navoiyning tilga doir qarashlari turkologiya va filologiya doirasida keng o‘rganilgan. Chig‘atoy tilining grammatik xususiyatlarini tahlil qilgan holda Navoiy ijodining normativ rolini ta’kidlaydi. Eraslan esa Navoiyning turkiy tilni adabiy maqomga ko‘tarishdagi tarixiy xizmatini yoritadi. Tipologik lingvistika nuqtayi nazaridan turkiy tillar agglutinatив tuzilishga ega bo‘lib, grammatik ma’no qo‘shimchalar orqali izchil ifodalanadi. Til siyosati nazariyasida esa tilning ijtimoiy maqomini shakllantirish jarayoni “status planning” va “corpus planning” tushunchalari bilan izohlanadi. Til va tafakkur o‘zaro bog‘liqligi haqidagi konsepsiyalar tilni milliy ong va dunyoqarash bilan chambarchas bog‘laydi. Navoiy qarashlari mazkur nazariyalar bilan muayyan uyg‘unlik kasb etadi. Navoiy asarida turkiy va fors tillarini qiyosiy metod

asosida tahlil qiladi. U har ikki tilning leksik qatlamini solishtirib, turkiy tilning ustun jihatlarini ko'rsatadi.

Qiyosiy tilshunoslik XIX asrda mustaqil fan sifatida shakllangan bo'lsa-da, Navoiy undan ancha avval komparativ yondashuvni amaliy ravishda qo'llagan. Bu holat uning ilmiy tafakkurining ilg'orligini ko'rsatadi. U tilni ijtimoiy mavqe asosida emas, balki ichki lingvistik imkoniyatlari asosida baholaydi. Bu esa ilmiy obyektivlik tamoyiliga yaqin yondashuvdir. Navoiy turkiy tilni faqat poetik vosita sifatida emas, balki mustaqil ilmiy kategoriya sifatida asoslaydi. U tilning fonetik moslashuvchanligi, morfologik boyligi, so'z yasash imkoniyatlari, sinonimik qatlam kengligi kabi xususiyatlarini dalillar bilan ko'rsatadi. Bu jihatlar zamonaviy agglutinativ tillar tipologiyasi bilan hamohangdir. Turkiy tillarning agglutinativ xususiyati ularning semantik aniqligini oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi - Navoiyning tilshunoslikka oid konseptual qarashlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan uyg'un jihatlarini aniqlashdir.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandi:

1. **Manbashunoslik tahlili** – Navoiyning asosiy asarlari (“Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”) matnlarini filologik o‘rganish.

2. **Qiyosiy-tarixiy metod** – turkiy va fors tillari o‘rtasidagi strukturaviy farqlarni aniqlash.

3. **Diskursiv tahlil** – Navoiyning argumentatsion strategiyasini o‘rganish.

4. **Sotsiolingvistik yondashuv** – tilning ijtimoiy maqomi va prestiji masalalarini baholash.

Nazariy tahlil va zamonaviy lingvistika bilan qiyos

| Nazariya | Asosiy g‘oya | Navoiy qarashlari bilan uyg‘unlik |
|-------------------------------------|------------------------------|--|
| Lingvistik relativizm | Til tafakkurga ta’sir qiladi | Turkiy tilning ma’no differensiasiyasi orqali tafakkur boyligi isbotlanadi |
| Strukturalizm | Til belgilar tizimi | Leksik birliklarning tizimli tahlili mavjud |
| Sotsiolingvistika | Til – ijtimoiy hodisa | Tilning ijtimoiy mavqeini himoya qilish |
| Tipologik lingvistika | Til strukturasi tasniflash | Agglutinativlik afzallik sifatida ko‘rsatiladi |
| Nazariya | Asosiy g‘oya | Navoiy qarashlari bilan uyg‘unlik |
| Lingvistik relativizm (Sapir-Whorf) | Til tafakkurga ta’sir qiladi | Turkiy tilning ma’no differensiasiyasi orqali tafakkur boyligi isbotlanadi |

XV asrda fors tili adabiy va ilmiy til sifatida ustun mavqega ega edi. Navoiy esa turkiy tilni davlat, madaniyat va adabiyot tiliga aylantirish g‘oyasini ilgari suradi.

Bu jarayonni zamonaviy sotsiolingvistika doirasida tilni standartlashtirish va prestij masalasi bilan izohlash mumkin. Navoiy turkiy tilning ijtimoiy nufuzini oshirish orqali milliy identitetni mustahkamlashga intilgan.

Nazariy asos sifatida zamonaviy tipologik lingvistika va til siyosati nazariyalari konsepsiyalari qo'llanildi. Navoiy turkiy tilning sinonimik boyligini asosiy dalil sifatida keltiradi. Masalan, "yig'lamoq" fe'lining turli semantik nozikliklarini ifodalovchi variantlarini sanab o'tadi. Bu hodisa zamonaviy semantik differensiasiya nazariyasiga mos keladi.

Navoiy turkiy tilning agglutinatív xususiyatini amaliy misollar bilan ko'rsatadi. Agglutinatsiya orqali grammatik ma'no aniq va izchil ifodalanishini ta'kidlaydi. Bu xususiyat bugungi tipologik tasnifda turkiy tillarning asosiy belgisi sifatida qayd etiladi. Navoiy tilni milliy tafakkur ifodasi sifatida ko'radi. Bu yondashuv keyinchalik Humboldt va Sapir-Whorf gipotezasida nazariy shakl olgan. Navoiy tilni millatning ruhiy-ma'naviy asoslari bilan bog'laydi. Navoiy turkiy tilni adabiy til darajasiga ko'tarish orqali uning standartlashuv jarayoniga turtki bergan. Bu jarayon zamonaviy til siyosati nazariyasidagi "status planning" tushunchasiga mos keladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Navoiy til masalasiga emotsional emas, balki analitik va qiyosiy yondashgan. Uning metodologiyasi empirik misollarga tayanganligi, strukturaviy tahlil elementlarining mavjudligi, til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglaganligi jihatlari bilan ajralib turadi. Turkiy tilning qo'shimchalar orqali grammatik ma'no hosil qilishi uning strukturaviy izchilligini ta'minlaydi. Zamonaviy tipologiyada bu agglutinatív model sifatida tasniflanadi.

Navoiy qarashlari tipologik tasnif, semantik differensiasiya, sotsiolingvistik maqom nazariyasi jihatidan zamonaviy lingvistik paradigmalarga yaqin. Navoiy turkiy tilning sinonimik boyligini ko'rsatib, masalan, "yig'lamoq" fe'lining turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi variantlarini sanab o'tadi. Navoiy tilni milliy identitet va siyosiy nufuz vositasi sifatida ko'radi. Bu holat "status planning" konsepsiyasiga mos keladi. Bu leksik-semantik tafovut sistematik differensiasiyani anglatadi.

Shu jihatdan, Navoiy nafaqat adabiy til asoschisi, balki turkiy lingvistik tafakkurning ilk nazariyotchilaridan biridir.

Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Turkiy tilning strukturaviy va semantik boyligini ilmiy asosda himoya qilgan.
2. Qiyosiy lingvistik metodni amaliy qo'llagan.
3. Til va milliy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni konseptual darajada asoslagan.
4. Adabiy til me'yorlashuviga nazariy va amaliy hissa qo'shgan.

Uning qarashlari zamonaviy lingvistika bilan uyg'unlashadigan nazariy asosga ega bo'lib, tarixiy-lingvistik tafakkur rivojida muhim bosqich hisoblanadi. Navoiy tilni gnoseologik kategoriya sifatida talqin etadi. U turkiy tilni qiyosiy metod asosida ilmiy himoya qiladi. Uning leksik tahlillari semantik differensiasiya nazariyasiga mos keladi. Til va milliy identitet o'rtasidagi bog'liqlikni konseptual asoslaydi. "Muhokamat ul-lug'atayn" Sharq komparativ tilshunosligining dastlabki namunalaridan biridir.

Alisher Navoiy tilshunoslik tarixida nafaqat adib, balki nazariy lingvistik tafakkur asoschisi sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Uning turkiy tilni ilmiy asoslashga qaratilgan harakatlari lingvistik relativizm, strukturalizm va sotsiolingvistika nazariyalari bilan uyg'unlik kasb etadi. Navoiy tilni madaniy suverenitet vositasi sifatida talqin qilib, turkiy tilni nazariy jihatdan legitimlashtirdi. Shu bois, uning merosi nafaqat adabiyotshunoslik, balki zamonaviy lingvistika uchun ham dolzarb ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Navoiy *Muhokamat ul-lug'atayn* (nashr). Toshkent: Fan. (Asl asar 1499 yilda yozilgan). 1967 y.
2. G'.Abdurahmonov *Alisher Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan. 1983y.
3. A. Hayitmetov *Alisher Navoiy lirikasi*. Toshkent: Fan. 1961 y.
4. A.Hayitmetov *Navoiy poetikasi masalalari*. Toshkent: Fan. 1991 y.
5. R.Rasulov *Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili tarixi*. Toshkent: Fan. 1970 y.
6. E.Rustamov *Alisher Navoiy badiiy mahorati*. Toshkent: Fan. 1972 y.

4-SHO'BA. ALISHER NAVOIYNING MA'RIFIY-MADANIY, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI.**АЛИШЕР НАВОИ И ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР: ДВА СТОЛПА УЗБЕКСКОГО ГУМАНИЗМА И ЛИТЕРАТУРНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ**

*Кадиоров К.Н.,
профессор Навоийского университета инноваций*

В истории мировой литературы немного найдётся эпох, когда два великих современника одновременно оставили столь глубокий след в культуре своего народа и всего региона. Алишер Навои (1441–1501) и Захириддин Мухаммад Бабур (1483–1530) - именно такие фигуры. Они жили в один исторический период, в пространстве Тимуридского государства и его наследников, и вместе символизируют расцвет узбекской (чагатайской) литературы XV–XVI веков.

В 2026 году мы отмечаем 585-летие со дня рождения Алишера Навои и 543-летие Захириддина Мухаммада Бабура. Эти юбилеи - не только повод для торжеств, но и возможность осмыслить, как их творчество сформировало национальное самосознание, литературный язык и гуманистические идеалы, которые остаются актуальными в современном Узбекистане.

Алишер Навои родился в Герате - культурной столице тимуридского мира. Он был поэтом, учёным, музыкантом, меценатом и крупным государственным деятелем при дворе Хусейна Байкары. Однако главное его достижение - превращение чагатайского тюркского языка в полноценный инструмент высокой литературы.

До Навои персидский (фарси) считался единственным языком поэзии и науки на Востоке. Навои в трактате «Мухокамат ул-луғатайн» («Суждение о двух языках», 1499) провёл смелое сравнение двух языков и доказал, что тюркский не уступает персидскому по богатству лексики, гибкости грамматики и выразительности. Этот труд стал первым манифестом языковой и культурной самостоятельности тюркских народов.

Поэтическое наследие Навои огромно:

- «Хамса» - первая полная пентерия поэм на тюркском языке, где он творчески переосмыслил сюжеты Низами Гянджеви, добавив собственные философские, этические и социальные мотивы.

- Четыре дивана лирики (газели), в которых он довёл классическую форму газели до совершенства.

Пример газели Навои (в переводе С. Липкина):

Сверкнула в темноте ночной краса её чела - свеча, И словно солнце вдруг
взошло - светлее звезд была свеча! Ей голову сжигает страсть, а ноги держит медь
оков, - Не потому ль от безумств себя уберегла свеча? И каждой ночью до зари она,
рыдая, жжёт себя - Печальным другом стала мне в юдоли бед и зла свеча.

Образ свечи здесь символизирует самоотверженную любовь, духовное горение и мученичество - ключевые мотивы суфийской поэзии.

Другой пример газели (в переводе Б. Пастернака):

Кто увидит твой лик - в сердце огонь загорится, Из глаз моих слёзы текут, в
сердце огонь загорится. Увижу тебя хоть раз - душу отдам, А без тебя умру - в
сердце всё равно огонь горит.

Фрагмент из поэмы «Лейли и Меджнун» (в переводе С. Липкина):

Меджнун стал пламенем в сердце, слезами в глазах, Имя Лейли - его душа, его разум. Всё в мире для него чужое, Только Лейли - его жизнь, его сознание.

Здесь Навои раскрывает идеал абсолютной, всепоглощающей любви.

Захириддин Мухаммад Бабур, потомок Тимура по отцу и Чингисхана по матери, родился в Андижане. Его жизнь - драматическая череда войн, изгнаний, побед и создания новой империи в Индии (Великие Моголы).

Но Бабур вошёл в историю литературы благодаря двум главным произведениям:

– «Бабур-наме» - первая подробная автобиография в тюркской литературе. Написана без прикрас, с поразительной откровенностью.

– Лирическая поэзия: газели, рубай, мустазады, в которых он предстаёт тонким лириком и философом.

Пример газели Бабура (в переводе М. Салье):

Я наперсницы, кроме души своей, - не нашёл,
Бескорыстней, чем сердце своё, - друзей не нашёл.
Приучись без подруги своей век прожить, о Бабур,
Если верности ты на земле на всей не нашёл.

Рубай (в переводе С. Липкина):

Коль было б у небес побольше доброты,
Чтобы сбывались все влюблённых душ мечты.
Тогда и я, Бабур, своё зажжёт бы сердце,
И, может быть, меня тогда б любила ты.

Газель о тоске по родине (в переводе М. Салье):

Сады Андижана, цветы его, воды его
Стоят перед глазами каждый миг, каждый час.
Вдали от той земли, в чужбине скитаясь,
Сердце горит, душа плачет постоянно.

Навои и Бабур вместе представляют вершину чагатайской литературы: Навои - поэт-мыслитель, реформатор языка, создатель эпической и лирической традиции; Бабур - поэт-жизнеописатель, первый великий мемуарист тюркского мира.

Их творчество объединяет гуманистический взгляд на человека, любовь к родной природе и родине, синтез тюркских и персидских традиций, внимание к этике, справедливости и внутреннему миру личности.

Наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура - это не только памятник прошлого, но и живой источник вдохновения. Навои учит гордости за родной язык и культуру, Бабур - мужеству, честности перед самим собой и открытости миру. В независимом Узбекистане их идеи помогают формировать национальную идентичность, воспитывать молодёжь и укреплять духовные основы общества.

Пусть юбилеи 585-летия Навои и 543-летия Бабура станут поводом для новых исследований, переводов, популяризации их произведений и осмысления их места в мировой культуре.

От Алишера Навои (в переводе Б. Пастернака):

«Любовь к тебе - это пламя, что жжёт меня изнутри,
Но в нём я нахожу свет и истину бытия».

От Захириддина Мухаммада Бабура (в переводе С. Липкина):

«Мир — это караван-сарай, мы в нём лишь гости.

Но пока мы здесь, да будем достойны гостеприимства жизни».

Список использованной литературы

1. Навои А. Хамса. — Т.: Шарк, 2001.
2. Навои А. Мухокамат ул-луғатайн. — Т.: Фан, 1992.
3. Бабур З. М. Бабур-наме / Пер. М. Салье. — Т.: Шарк, 2002.
4. Эркинов А. Алишер Навои: эпоха и творчество. — Т.: Университет, 2001.
5. Болдырев А. Н. Очерки по истории чагатайской литературы. — Т.: Фан, 1987.
6. История узбекской литературы. Т. 2: Средние века. — Т.: Фан, 1993.
7. Nayitmetov A. Navoiy va uning davri. — Toshkent: Fan, 1991.
8. Бартольд В. В. Сочинения. Т. V. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. — М.: Наука, 1968.

АЛИШЕР НАВОИ И ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР: ГЕНИИ ЗОЛОТОГО ВЕКА УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ (к 585-летию Алишера Навои и 543-летию Захириддина Мухаммада Бабура)

*Усманова Р.М.,
доцент ЦПМ Навоийской области*

В культурной истории узбекского народа особое место занимают фигуры Алишера Навои (1441–1501) и Захириддина Мухаммада Бабура (1483–1530). Эти два великих современника воплотили в себе вершины духовного и интеллектуального развития Центральной Азии XV–XVI веков - периода, который по праву называют золотым веком узбекской литературы и культуры. В 2026 году исполняется 585 лет со дня рождения Алишера Навои и 543 года со дня рождения Захириддина Мухаммада Бабура - юбилеи, которые дают повод вновь обратиться к их творческому наследию.

Навои и Бабур не только создали выдающиеся произведения, но и совершили настоящий переворот в литературном сознании: первый поднял тюркский язык до уровня классического литературного языка, второй заложил основы мемуарной прозы и лирической поэзии на чагатайском языке. Их творчество объединяет гуманистические идеалы, глубокий интерес к человеку, природе и обществу, синтез тюркской и персидской традиций. Наследие этих двух гениев остаётся живым источником национальной идентичности и духовного вдохновения для современного Узбекистана.

Алишер Навои - отец узбекской литературы и реформатор языка

Алишер Навои родился в 1441 году в Герате - одном из крупнейших культурных центров тимуридской эпохи. Он был не только поэтом, но и государственным деятелем, мыслителем, музыкантом и покровителем искусств. Главная заслуга Навои заключается в том, что он поднял чагатайский (староузбекский) язык до статуса полноценного литературного языка, равного персидскому.

В трактате «Мухокамат ул-луғатайн» («Суждение о двух языках», 1499) Навои убедительно доказал богатство, гибкость и выразительные возможности тюркского языка, опровергнув бытовавшее мнение о его «второсортности» по сравнению с фарси. Этот труд стал манифестом национального самосознания и культурной независимости тюркских народов.

Вершиной поэтического творчества Навои является «Хамса» - цикл из пяти поэм-месневи:

- «Хайрат ул-аброр» («Смятение праведных»),
- «Фархад ва Ширин»,
- «Лайли ва Мажнун»,
- «Сабъаи сайёр» («Семь планет»),
- «Садди Искандарий» («Стена Искандера»).

В этих произведениях Навои не просто перерабатывает классические сюжеты Низами Гянджеви, а наполняет их новым содержанием: идеями труда, социальной справедливости, нравственного совершенствования человека и гуманизма.

Лирическое наследие Навои представлено четырьмя диванами газелей, где он достиг абсолютного мастерства в этом жанре. Один из характерных примеров:

Сверкнула в темноте ночной краса её чела - свеча,
И словно солнце вдруг взошло - светлее звёзд была свеча!
Ей голову сжигает страсть, а ноги держит медь оков, -
Не потому ль от безумств себя уберегла свеча?
И каждой ночью до зари она, рыдая, жжёт себя -
Печальным другом стала мне в юдоли бед и зла свеча.
(в переводе С.Липкина)

Образ свечи здесь символизирует самоотверженную любовь, духовное горение и страдание - ключевые мотивы суфийской поэзии.

Захириддин Мухаммад Бабур - полководец, мемуарист и поэт

Захириддин Мухаммад Бабур родился в 1483 году в Андижане. Его жизнь - это череда военных походов, утрат и побед, завершившаяся созданием империи Великих Моголов в Индии. Однако Бабур вошёл в историю не только как завоеватель, но и как выдающийся писатель.

Его главное прозаическое произведение - «Бабур-наме» - первая в тюркской литературе подробная автобиография. Написанная живым, искренним языком, она лишена всякого приукрашивания: Бабур честно описывает свои поражения, радости, тоску по родине, красоту природы Ферганской долины, Кабула и Индии, обычаи и нравы разных народов.

Поэтическое наследие Бабура включает газели, рубай и мустазады. Пример газели:

Я наперсницы, кроме души своей, — не нашёл,
Бескорыстней, чем сердце своё, — друзей не нашёл.
Приучись без подруги своей век прожить, о Бабур,
Если верности ты на земле на всей не нашёл
(в переводе Л. М. Пеньковского)

Рубай Бабура:

Коль было б у небес побольше доброты,
Чтобы сбывались все влюблённых душ мечты.
Тогда и я, Бабур, своё зажжёт бы сердце,
И, может быть, меня тогда б любила ты.
(в переводе С.Липкина)

Бабур высоко ценил Навои: вёл с ним переписку, считал его своим учителем и духовным ориентиром.

Навои и Бабур вместе символизируют золотой век узбекской культуры XV–XVI веков. Они осуществили синтез тюркской традиции и персидского влияния, развили гуманистические идеалы, внимание к внутреннему миру человека, природе

и обществу. Их произведения заложили прочный фундамент национальной идентичности, который ощущается и в современном Узбекистане.

Наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабур остаётся живым и актуальным. Навои учит гордости за родной язык и культуру, Бабур - честности, мужеству, любви к родине и открытости миру. Их идеи о гармонии личности и общества, о красоте и нравственности служат важным ориентиром в воспитании молодого поколения, укреплении духовности и просвещения.

В эпоху независимого развития Узбекистана обращение к этим великим предкам помогает осмыслить корни национальной культуры и найти вдохновение для решения современных задач. Пусть их светлые образы продолжают освещать путь творчества, науки и служения своему народу.

Список использованной литературы

1. Навои А. Избранные произведения: В 10 т. — Т.: Шарк, 1987–1995.
2. Навои А. Мухокамат ул-луғатайн. — Т.: Фан, 1992.
3. Бабур З. М. Бабур-наме. — Т.: Шарк, 2002.
4. Эркинов А. Алишер Навои и его время. — Ташкент: Университет, 2001.
5. Болдырев А. Н. Зайниддин Васифи и его «Чудеса происшествий». — Ташкент: Фан, 1985.
6. История узбекской литературы: В 6 т. Т. 2. — Т.: Фан, 1993.
7. Nayitmetov A. Alisher Navoiy ijodi. — Т.: Fan, 1991.
8. Бартольд В. В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. — М.: Наука, 1968.

ALISHER NAVOIY DAVRIDA ILM-FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI: PEDAGOGIK VA MATEMATIK QARASHLAR

*Rasulov Jaxongir Sindarovich,
Sirdaryo viloyati PMM metodisti*

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy davri (XV asr) pedagogikasining tarixiy-pedagogik tahlilini o'tkazib, ikkinchi renessansi davrida ta'lim tizimining rivojlanishini va matematika fanining uyg'unlashuvini ko'rib chiqadi. Maqolada Navoiyning insonparvarlik tamoyillari, Ulug'bekning ilmiy yutuqlari va madrasa tizimi batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, o'sha davr pedagogikasi hozirgi zamon ta'lim modellariga (4K va 5E yondashuvlari) ta'siri baholanadi. Tadqiqot tarixiy hujjatlar va pedagogik adabiyotlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, ta'lim rivojida Temuriylar merosining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Аннотация: Эта статья проводит историко-педагогический анализ педагогики периода Алишера Навои (XV век), рассматривая развитие системы образования в эпоху второго ренессанса и интеграцию математики. В статье подробно анализируются гуманистические принципы Навои, научные достижения Улугбека и система медресе. Кроме того, оценивается влияние педагогики того периода на современные модели образования (подходы 4K и 5E). Исследование основано на исторических документах и педагогической литературе, подчеркивая значение наследия Тимуридов в развитии образования.

Abstract: This article conducts a historical-pedagogical analysis of pedagogy during the era of Alisher Navoi (15th century), examining the development of the education system in the second renaissance and the integration of mathematics. The article analyzes in detail Navoi's humanistic principles, Ulugbek's scientific

achievements, and the madrasa system. Additionally, it evaluates the impact of that era's pedagogy on modern educational models (4K and 5E approaches). The research is based on historical documents and pedagogical literature, emphasizing the significance of the Timurid legacy in the development of education.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, pedagogika rivoji, matematika uyg'unlashuvi, Ulug'bek madrasasi, 4K va 5E modellar, tarixiy-pedagogik tahlil.

Ключевые слова: Алишер Навои, развитие педагогики, интеграция математики, медресе Улугбека, модели 4K и 5E, историко-педагогический анализ.

Keywords: Alisher Navoi, pedagogy development, mathematics integration, Ulugbek madrasa, 4K and 5E models, historical-pedagogical analysis.

KIRISH

Alisher Navoiy (1441–1501) davri, Temuriylar imperiyasi cho'qqisiga chiqqan XIV–XV asrlarda O'rta Osiyo madaniyati va ta'lim tizimining eng yorqin davri sifatida tanilgan. Bu davrda ta'lim nafaqat ilmiy bilimlarni tarqatish, balki insonni axloqiy va intellektual jihatdan komillashtirish vositasi sifatida qaralgan. Navoiy o'zi shoir, mutafakkir va davlat arbobi bo'lib, uning asarlarida, masalan, "Hayrat ul-abror" va "Farhod va Shirin"da, ta'limning jamiyatni adolatli va farovon qilishdagi roli ta'kidlangan. Temuriylar renessansi davrida pedagogika rivoji, xususan, Ulug'bekning Samarqand madrasasi va observatoriyasi orqali matematika, astronomiya va boshqa fanlar ta'lim tizimiga chuqur kirib borgan. Bu davrda ta'lim insonparvarlik tamoyillari asosida qurilgan bo'lib, yosh avlodni nafaqat ilmiy, balki ma'naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan edi. Ushbu maqola Temuriylar davri pedagogikasining tarixiy-pedagogik tahlilini o'tkazib, matematika fanining ta'limdagi o'rnini va uning zamonaviy pedagogikaga ta'sirini ko'rib chiqadi. Tadqiqot maqsadi – Navoiy va Ulug'bek kabi shaxslarning pedagogik qarashlarini tahlil qilish orqali, o'sha davr ta'lim tizimining xususiyatlarini ochib berish va hozirgi kun ta'lim modellariga solishtirish. Metodologiya sifatida tarixiy hujjatlar tahlili, pedagogik adabiyotlar sintezi, qiyosiy va tizimli yondashuvlar qo'llaniladi. Temuriylar renessansi davrida ta'lim tizimi katta yutuqlarga erishgan: madrasalar va kutubxonalar qurilishi, ilmiy munozaralar va amaliy tadqiqotlar rivoji. Masalan, Ulug'bek madrasasida 60 dan ortiq olim ishlagan va u yerda matematika va astronomiya fanlari markaziy o'rin tutgan. Bu yutuqlar nafaqat O'rta Osiyoda, balki butun Islom olamida ta'sir ko'rsatgan. Navoiy o'z asarlarida ta'limni "insonni komil qilish" deb ta'riflagan, bu esa bugungi kunning 5E (Engage – jalb qilish, Explore – o'rganish, Explain – tushuntirish, Elaborate – kengaytirish, Evaluate – baholash) modeli bilan taqqoslaganda, o'sha davrda ta'limning izchil va faol jarayon sifatida qaralganini ko'rsatadi. 5E modeli ta'limni talaba markazida quradi, xuddi Navoiy davrida madrasalarda munozaralar orqali bilimni faol qurish kabi. O'zbekistonning zamonaviy 4K modeli (Kreativlik, Kritik fikrlash, Kommunikativlik, Kollaboratsiya) bilan taqqoslaganda, Temuriylar davri ta'limi ham shunga o'xshash elementlarni o'z ichiga olgan: Ulug'bek observatoriyasida olimlar birgalikda ishlagan, bu Kollaboratsiya va kritik fikrlashni rivojlantirgan. Navoiy asarlaridagi hikmatlar esa kreativlik va Kommunikativlikni tarbiyalagan. Bu taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'sha davr yutuqlari bugungi ta'lim standartlariga asos bo'lgan.

Ushbu tahlil orqali, Temuriylar renessansining ta'limdagi noyob yutuqlarini batafsil ochib beramiz, masalan, Ulug'bekning trigonometriya jadvallari va Navoiyning axloqiy tarbiya g'oyalari. Bu yutuqlar nafaqat ilmiy, balki jamiyatni birlashtiruvchi kuch bo'lgan.

1.1. Temuriylar davri pedagogikasining rivojlanishi: tarixiy kontekst

Temuriylar imperiyasi (XIV–XV asrlar) davrida O'rta Osiyoda ta'lim tizimi jadal rivojlandi, bu Amir Temur va uning avlodlarining fan va madaniyatga bo'lgan e'tibori natijasida yuzaga keldi. Amir Temur o'zi ta'lim muassasalarini qurishga katta mablag' sarflagan, masalan, Turkiston va Damashqdagi masjid va madrasalarni ta'mirlagan. Uning nabirasi Ulug'bek va o'g'li Shohrux ham ta'limni davlat siyosati darajasiga ko'targan. Alisher Navoiy Hirotida Husayn Boyqaro hukmronligi davrida yashab, ta'lim va tarbiya sohasida faol ishtirok etgan. U 370 dan ortiq masjid, madrasa, kutubxon va xayriya muassasalarini qurdirgan, bu esa ta'limni ommaviy va sifatli qilishga yordam bergan. Navoiyning pedagogik qarashlari uning asarlarida, xususan, "Mahbub ul-qulub"da aks etgan, u yerda ta'lim insonni axloqiy fazilatlarga o'rgatish va jamiyat farovonligini ta'minlash vositasi deb ko'rilgan. Bu davrda pedagogika insonparvarlik tamoyillariga asoslangan: yoshlarni ilmiy bilim va ma'naviy tarbiya bilan uyg'unlashtirish. Madrasalar markaziy rol o'ynagan, u yerda diniy fanlar bilan birga falsafa, tibbiyot va matematika o'qitilgan. Samarqand va Hirot kabi shaharlarda ilmiy markazlar tashkil etilgan, bu Temuriylar renessansining asosiy yutug'i bo'lgan. Tarixiy kontekstda, Temuriylar davri pedagogikasi mo'g'ul bosqinlaridan keyingi tiklanish davri edi. Amir Temur ta'limni imperiya birligini saqlash vositasi deb bilgan, uning kutubxonalari esa ilm tarqatish markazi bo'lgan. Ulug'bekning Samarqand madrasasi 1417–1420 yillarda qurilgan bo'lib, u yerda astronomiya va matematika fanlari yuqori darajada o'qitilgan, bu esa yosh olimlarni jalb qilgan.

Navoiy esa ta'limda adolat va inson huquqlarini ilgari surgan, uning qarashlari bugungi 4K modeliga o'xshaydi: kritik fikrlash (masalan, munozaralar orqali), kreativlik (adabiyot va san'atda), Kommunikativlik (hikmatlar orqali) va Kollaboratsiya (jamiyat farovonligi uchun). 5E modeli bilan taqqoslaganda, Temuriylar pedagogikasi "Engage" bosqichini madrasa munozaralari orqali amalga oshirgan, "Explore"ni amaliy tadqiqotlar bilan, "Explain"ni ustoz-shogird munosabatlari orqali, "Elaborate"ni ilmiy asarlar yozish bilan va "Evaluate"ni sinovlar orqali. Bu taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'sha davr ta'limi zamonaviy modellarning prototipi bo'lgan. Temuriylar davrida kutubxonalar va madrasalar soni ko'paygan, masalan, Shohruxning Hirot kutubxonasi minglab kitoblarni saqlagan. Navoiyning tarbiya g'oyalari yosh avlodni "komil inson" qilishga qaratilgan, bu esa jamiyatdagi adolat va farovonlikni oshirgan. Bu davrda ayollar ta'limi ham rivojlangan, masalan, Gavharshod Begimning madrasalari. Umuman, Temuriylar pedagogikasi O'rta Osiyo ta'limining poydevorini qo'ygan.

1.2. Matematika fanining ta'lim tizimiga uyg'unlashuvi: tarixiy-pedagogik tahlil

Temuriylar davrida matematika fanining rivoji Ulug'bek (1394–1449) nomi bilan chambarchas bog'liq. Ulug'bek Samarqandda 1417–1420 yillarda madrasa va 1424–1429 yillarda observatoriya qurdirib, matematika va astronomiyani ta'limning asosiy qismiga aylantirgan. Madrasada Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiy kabi olimlar dars bergan, u yerda arifmetika, algebra, geometriya va trigonometriya o'qitilgan. Ulug'bekning "Zij-i Sultoniy" asari matematik hisob-kitoblarda aniqlikni ta'minlagan va ta'lim materiallari sifatida qo'llanilgan, unda 1019 yulduzning koordinatalari aniqlangan. Navoiy davrida matematika ta'limda uyg'unlashgan: u nazariy va amaliy jihatdan – arxitektura (masjidlar qurilishida), astronomiya (yulduz kuzatuvlari) va iqtisodiyotda (hisob-kitoblar) qo'llanilgan. Navoiy o'zi fanlarga qiziqqan va ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlagan, uning asarlarida matematik mantiq aks etgan. Tarixiy-pedagogik tahlilda quyidagi jihatlar ajralib turadi:

1. **Nazariy asoslar:** matematika diniy va falsafiy fanlar bilan bog'langan, inson

aqlini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rilgan. Ulug'bek trigonometriya jadvallarini sakkiz kasr belgisigacha aniqlagan.

2. **O'qitish metodlari:** madrasalarda munozaralar, amaliy kuzatuvlar va sinovlar o'tkazilgan. Ulug'bek o'zi olimlarni sinovdan o'tkazgan va ilmiy jamoaviy ishni rag'batlantirgan.

3. **Uyg'unlashuv:** matematika ta'limni insonparvarlik bilan bog'lagan, jamiyat farovonligiga xizmat qilgan, masalan, arxitekturada geometriya qo'llanilgan.

Bu davrda matematika va astronomiyaga ko'proq e'tibor bergan, bu esa Temuriylar renessansining yutug'I bo'lib, 5E modeli bilan taqqoslaganda, Ulug'bek madrasasida "Explore" bosqichi observatoriya kuzatuvlari orqali, "Explain" trigonometriya jadvallari orqali amalga oshirilgan. 4K modeli bilan solishtirganda, matematika o'qitish kritik fikrlash (hisob-kitoblarda) va olimlar jamoasi(kolloboratsiya) rivojlangan. Ulug'bek observatoriyasi o'sha davrning eng kattasi bo'lib, u yerda yulduz katalogi tuzilgan, bu esa keyingi asrlar astronomiyasiga ta'sir qilgan. Matematikaga e'tibor berish arxitektura rivojlanishiga ta'sir qilgan, masalan, Registon maydonidagi madrasalar geometrik dizaynga asoslangan. Bu yutuqlar nafaqat ilmiy, balki iqtisodiy rivojga ham yordam bergan.

1.3. Hozirgi zamon pedagogikasiga ta'siri

Navoiy davri pedagogikasi hozirgi O'zbekiston ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi O'zbekiston strategiyasida Navoiy g'oyalari yosh avlodni komil tarbiyalashda qo'llanilmoqda, axloqiy tarbiya va ilmiy bilimlarni uyg'unlashtirish uchun asos bo'lib kelmoqda. Ta'limda Ulug'bek merosi STEM yo'nalishlarida aks etmoqda, masalan, maktablarda astronomiya va matematika klublari yo'lga qo'yilmoqda. Zamonaviy pedagogikada Navoiy asarlaridan hikmatlar tarbiya vositasi sifatida foydalanilmoqda, bu esa kreativlik va kritik fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, maktablarda Navoiy adabiyotini o'qitish orqali tarixiy tafakkurni shakllantirish amalga oshirilmoqda. Bu ta'sir global miqyosda: Navoiy va Ulug'bek merosi xalqaro ta'limda O'rta Osiyo fanlarining hissasi sifatida o'rganilmoqda. 4K modeli bilan taqqoslaganda, Temuriylar ta'limi O'zbekistonning hozirgi 4K (Kreativlik, Kritik fikrlash, Kommunikativlik, Kolloboratsiya) standartlariga asos bo'lgan, Ulug'bek tadqiqotlari kritik fikrlashni rivojlantirgan. 5E modeli esa Temuriylar ta'limining izchil jarayonini eslatadi, masalan, "Elaborate" bosqichi ilmiy asarlar yozishga o'xshaydi. O'sha davr yutuqlari bugungi kun ta'lim tizimida ham qo'l kelmoqda. Ulug'bek jadvallari zamonaviy astronomiyada ishlatiladi, Navoiy g'oyalari esa ma'naviy tarbiyada. O'zbekistonda maktab ta'limida 4K va 5E elementlari qo'llanib kelinmoqda, bu esa ajdodlarimiz ilmiy merosining davomidir.

Xulosa

Alisher Navoiy davri pedagogikasi Temuriylar imperiyasi davrida ta'lim tizimining noyob rivojlanishini ifodalaydi, bu yerda insonparvarlik tamoyillari va ilmiy yutuqlar uyg'unlashgan. Navoiyning asarlarida aks etgan axloqiy tarbiya va komil inson g'oyasi, shuningdek, Ulug'bekning matematika va astronomiya sohasidagi yutuqlari ta'limni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan boyitgan. Matematika fanining uyg'unlashuvi, xususan, Samarqand madrasasi va observatoriyasi orqali, ta'limni yuqori darajaga ko'targan va O'rta Osiyo ilm-fanining global ta'sirini ta'minlagan. Tarixiy-pedagogik tahlil shuni ko'rsatadiki, bu meros nafaqat o'tgan asrlar, balki hozirgi zamonda ham davom etmoqda, masalan, 4K (Kreativlik, Kritik fikrlash, Kommunikativlik, Kolloboratsiya) va 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) modellarida aks etmoqda. Temuriylarlar davri yutuqlari, jumladan, madrasalarda ilmiy munozaralar va

amaliy tadqiqotlar, bugungi ta'limda talaba markazli yondashuvning asosini tashkil qiladi. Masalan, Ulug'bekning "Zij-i Sultoniyy" asari zamonaviy STEM darsliklarida ishlatilmoqda, bu esa matematika o'qitishida aniqlikni ta'kidlaydi. Navoiyning insonparvarlik qarashlari esa axloqiy tarbiyada, xususan, O'zbekiston maktablarida adabiyot va hikmatlar orqali qo'llanilmoqda, bu yosh avlodni ma'naviy va intellektual jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi zamonda bu ta'sir global miqyosda ko'rinmoqda: xalqaro ta'lim dasturlarida Temuriylar renessansi O'rta Osiyo fanining hissasi sifatida o'rganilmoqda, bu esa madaniy almashinuvni kuchaytiradi. 4K modeli bilan taqqoslaganda, Temuriylar pedagogikasi kreativlikni adabiyot orqali, kritik fikrlashni munozaralar orqali, kommunikativlik va kolleboratsiyani jamoaviy ish orqali ilgari surgan. 5E modeli esa o'sha davrning izchil ta'lim jarayonini eslatadi, masalan, "Explore" va "Elaborate" bosqichlari Ulug'bek observatoriyasidagi kuzatuv va hisob-kitoblarga o'xshaydi.

Kelgusida ushbu g'oyalarni raqamli texnologiyalar, masalan, virtual reallik va SI(sun'iy intellekt) bilan bog'lash pedagogika rivojiga yangi imkoniyatlar ochadi. Masalan, Ulug'bek observatoriyasini virtual ravishda qayta tiklash yoki Navoiy hikmatlarini interaktiv darsliklarda qo'llash ta'limni yanada samarali qilishi mumkin. Umuman, Temuriylar merosi ta'limni insonparvarlik va ilmiy innovatsiyalar asosida rivojlantirishning abadiy namunasi bo'lib qolmoqda, bu esa kelajak avlodlar uchun muhim saboqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1966 (yoki keyingi nashrlar). (Axloqiy va pedagogik qarashlarning asosiy manbai, inson tarbiyasi, fazilatlar va ta'lim haqidagi fikrlar).
2. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh jildlik. 13-jild. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1966. (Pedagogik va axloqiy g'oyalar tahlili uchun).
3. Eshonov B.J., Jdilov A.A. O'zbekiston tarixi. II kitob. (Temuriylarlar davri, Alisher Navoiy va pedagogika rivoji haqida bo'limlar).
4. Temuriylarlar renessansi (umumiy ma'lumotlar va ta'lim tizimi). Ilmiy maqolalar va kitoblar to'plami, masalan: "Temuriylarlar davrida madaniy- ilmiy renessans" (Academia.edu va boshqa platformalarda mavjud).
5. Amir Temur va Temuriylarlar davri renessansida ta'lim tizimining tutgan ahamiyati. XS.uz saytidagi maqola (202x yillar).
6. Dalieva E.Z. "Mahbub ul-qulub" asarida inson tarbiyasiga oid qarashlar. Ilmiy maqola (CyberLeninka yoki shunga o'xshash jurnallarda).
7. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari (turli pedagogika institutlari va universitetlarning ilmiy ishlar to'plamlari, Qarshi davlat universiteti materiallari).
8. Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi. Ziyouz.com va Fanlar akademiyasi saytlari (Ulug'bekning matematika va astronomiya yutuqlari haqida).
9. O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi rasmiy sayti (academy.uz).

Internet manzillari (asosiy havolalar)

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy – Alisher Navoiy hayoti, ijodi va ta'limdagi roli.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirzo_Ulug%CA%BBbek – Ulug'bek hayoti, matematika va astronomiya yutuqlari.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ulug%CA%BBbek_madrasasi_\(Samarqand\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ulug%CA%BBbek_madrasasi_(Samarqand)) –

Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi, ta'lim tizimi va fanlar o'qitilishi.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Temuriylarlar_renessansi – Temuriylarlar renessansi va ta'lim rivoji.

5. <https://www.academy.uz/uz/page/ozbekistonda-ilm-fan-taraqqiyoti> – O'zbekistonda ilm-fan, xususan Ulug'bek merosi.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MEHNAT VA HUNAR ULUG'LANISHI

*Boshmanova Madina To'ychiyevna,
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning mehnat va hunarga oid qarashlari tahlil qilinib, ularning texnologiya fanini o'qitish jarayonidagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mehnat va hunar orqali barkamol shaxs tarbiyalash masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning mehnat va hunarga oid qarashlari tahlil qilinib, ularning texnologiya fanini o'qitish jarayonidagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mehnat va hunar orqali barkamol shaxs tarbiyalash masalalari ochib berilgan.

Аннотация: В статье анализируются взгляды великого мыслителя Алишера Навои на труд и ремесло, а также раскрывается их педагогическое значение в обучении предмету «Технология». Освещаются вопросы воспитания гармонично развитой личности через труд и профессиональные навыки.

Ключевые слова: Алишер Навои, труд, ремесло, технология, воспитание, личность.


Abstract: This article analyzes Alisher Navoi's views on labor and craftsmanship and reveals their pedagogical significance in teaching technology education. The role of labor and vocational skills in forming a well-rounded personality is highlighted.

Key words: Alisher Navoi, labor, craftsmanship, technology education, upbringing, personality

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va texnologik taraqqiyot jadallashgan sharoitda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — yosh avlodni nafaqat bilimli, balki mehnatsevar, hunarli, mustaqil fikrlay oladigan va real hayot sharoitlariga moslashgan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlik bevosita mehnat madaniyatiga ega, kasb-hunar egallagan, o'z salohiyatini amaliy faoliyatda namoyon qila oladigan inson omiliga bog'liqdir. Shu jihatdan qaralganda, ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, ijodiy va konstruktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur fan orqali o'quvchilar hayotiy muammolarni amaliy yechimlar asosida hal qilishni, mehnat jarayonida mas'uliyat va intizomni his etishni, jamoada ishlash madaniyatini o'zlashtiradilar. Bunday maqsadlarga erishishda ta'lim mazmunini milliy-ma'naviy merosga tayangan holda tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlarining bebaho merosi, xususan buyuk shoir va faylasuf Alisher Navoiy asarlari yoshlarni mehnat va hunarga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustahkam ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Navoiy o'zining boy adabiy-falsafiy merosida

mehnatni inson hayotining mazmuni, hunarni esa uning eng ishonchli tayanchi va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi omil sifatida ulug'laydi. Uning qarashlarida ilm va hunar bir-birini to'ldiruvchi, barkamol inson shaxsini shakllantiruvchi yagona tizim sifatida talqin etiladi. Shoir nazarida faqat ilmi emas, balki hunarli, mehnatsevar va jamiyatga foyda keltira oladigan inson komillikka erishadi. Alisher Navoiyning mehnat va hunarga oid g'oyalari bugungi zamonaviy ta'lim tizimi, xususan texnologiya fanini o'qitish jarayonida katta pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur maqolada buyuk mutafakkirning mehnat va hunar haqidagi qarashlari



tahlil qilinib, ularning texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ma'naviy rivojini ta'minlashdagi o'rnini yoritiladi. Alisher Navoiy ijodida mehnat g'oyasi inson kamolotining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Shoir mehnatni shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati, o'z hayotiy vazifasini anglash va ijtimoiy hayotda munosib o'rin egallashning eng muhim sharti deb biladi. Navoiy nazarida mehnatsiz hayot ma'naviy bo'shliq va tanazzulga yetaklaydi, insonni ruhiy sustkashlik va befoydalilik holatiga olib keladi. Mehnatni insonni ulug'laydigan, uni jamiyatda e'zozli maqomga ko'targuvchi kuch sifatida baholaydi.

Buyuk mutafakkir asarlarida mehnat faqat tirikchilik manbai sifatida emas, balki shaxs tarbiyasining eng ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy uchun mehnat — insonning ichki dunyosini sayqallovchi, uni sabr-toqat, matonat, qat'iyat, halollik va mas'uliyat kabi yuksak insoniy fazilatlar bilan boyituvchi jarayondir. Mehnat orqali inson nafsini jilovlaydi, iroda kuchini mustahkamlaydi va hayotdagi sinovlarga bardoshli bo'lib yetishadi. Bu g'oya Navoiyning ko'plab asarlarida axloqiy-pedagogik qarashlar tizimi sifatida izchil ifodalangan.

Navoiy qarashlarida mehnat insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi faol jarayon bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Mehnat qilgan inson nafaqat o'z ehtiyojlarini qondiradi, balki jamiyat manfaatiga xizmat qiladi, el-yurt farovonligiga o'z hissasini qo'shadi. Shu jihatdan shoir mehnatsevarlikni ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik burchi darajasiga ko'taradi.

Mazkur g'oyalar bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan hamohang bo'lib, shaxsning har tomonlama rivojlanishida mehnat faoliyatining muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Texnologiya fanini o'qitishda Navoiyning mehnat haqidagi qarashlari o'quvchilarda amaliy faoliyatga ongli munosabatni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash va kasbiy o'zini anglash jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ijodida hunar egallash masalasi insonning mustaqil hayot kechirishi va barkamol shaxs sifatida shakllanishining eng muhim sharti sifatida talqin etiladi. Buyuk mutafakkir hunarni insonning eng katta va eng ishonchli boyligi deb biladi. Uning qarashlariga ko'ra, ilm inson tafakkurini yuksaltirsa, hunar uni hayotda mustahkam tayanch bilan ta'minlaydi. Navoiy ilmi, biroq hunarsiz insonni hayot sinovlari oldida ojiz, turli qiyinchiliklar qarshisida murosasiz qoluvchi shaxs sifatida baholaydi. Shoir asarlarida hunar insonni qashshoqlik va muhtojlikdan, boshqalarga qaram bo'lib yashashdan asraydigan, unga o'z mehnati bilan hayotini barpo etish imkonini beradigan kuch sifatida ulug'lanadi. Hunar egallagan inson nafaqat moddiy jihatdan, balki ruhiy

tomondan ham mustahkam bo'ladi. Chunki hunar insonda o'ziga ishonch, hayotga ijobiy munosabat va kelajakka umid tuyg'ularini shakllantiradi. Bu jihatdan hunar Navoiyning ta'limotida insoniy qadr-qimmat va ijtimoiy erkinlikning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy hunar o'rganish jarayonida **“Ustoz–shogird” an'anasiga** alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, hunar sabr-toqat, izchillik va tinimsiz mehnat orqali egallanadi. Ustoz shogirdga nafaqat kasbiy sir-asrorlarni, balki mehnat madaniyati, axloqiy poklik va mas'uliyat tuyg'usini ham singdiradi. Shogird esa ustozdan o'rganar ekan, kamtarlik, intilish va o'z ustida ishlash orqali yetuklik sari qadam qo'yadi. Bu jarayon Navoiy qarashlarida shaxs tarbiyasining eng samarali shakli sifatida talqin etiladi. Mazkur g'oyalar bugungi zamonaviy ta'lim tizimi, xususan texnologiya fanini o'qitish jarayoni bilan to'liq uyg'unlashadi. Amaliy mashg'ulotlar, loyiha asosida o'qitish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar nafaqat bilim, balki real hayotda zarur bo'lgan hunar va ko'nikmalarni egallaydilar. Alisher Navoiyning hunar haqidagi qarashlari texnologiya fanining maqsad va vazifalarini ma'naviy-axloqiy jihatdan boyituvchi mustahkam pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida Alisher Navoiyning mehnat va hunarga oid qarashlaridan samarali foydalanish ta'limning nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham sezilarli darajada oshiradi. Buyuk mutafakkirning g'oyalari o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, kasb-hunar tanlashda mas'uliyatli yondashuvni qaror toptirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Avvalo, Navoiy asarlaridagi mehnatsevarlik g'oyalariga tayangan holda o'quvchilarda **mehnatga ongli munosabatni** shakllantirish mumkin. Mehnatning hayotiy ahamiyati, uning insonni kamolga yetkazuvchi kuch ekanini anglash o'quvchilarning har bir amaliy mashg'ulotga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlaydi. Bu jarayonda mehnat natijasini qadrlash, bajarilgan ishga tanqidiy va ijodiy baho berish ko'nikmalari rivojlanadi. Navoiy hunarni inson qadr-qimmatining mezoni sifatida ulug'laganligi texnologiya fanida **hunar va kasblarga nisbatan hurmat tuyg'usini rivojlantirish** uchun mustahkam ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar turli kasblarning jamiyat hayotidagi o'rnini anglab, kelajakdagi kasb tanloviga ongli va mas'uliyatli yondashishni o'rganadilar. Bu esa ularni hayotga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya fanida Alisher Navoiyning qarashlariga tayangan holda **milliy hunarmandchilik asoslarini o'rgatish** o'quvchilarda tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlashga xizmat qiladi. An'anaviy hunar turlari bilan tanishish jarayonida o'quvchilar nafaqat amaliy ko'nikmalarni egallaydilar, balki xalqimizning boy madaniy merosiga hurmat bilan qarashni, uni asrab-avaylash va davom ettirish mas'uliyatini his etadilar. Bundan tashqari, texnologiya fanidagi **amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish** ham Navoiy g'oyalariga uyg'un holda amalga oshiriladi. O'quvchilar buyum yaratish, dizayn loyihalarini ishlab chiqish yoki servis xizmatlariga oid topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z tasavvurlari va g'oyalarini erkin namoyon etadilar. Bu esa ularning kreativ tafakkuri, muammoni hal qilish qobiliyati va innovatsion yondashuvini rivojlantiradi. Masalan, texnologiya fanidagi **“Buyum yasash”, “Dizayn asoslari”, “Servis xizmati”** mavzularini o'rganishda Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari, mehnat va hunarga oid qarashlaridan foydalanish dars mazmunini yanada boyitadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshiribgina qolmay, darsning tarbiyaviy, ma'naviy va hayotiy ahamiyatini kuchaytiradi.

Alisher Navoiy ta'limotida mehnat tarbiyaning eng ta'sirchan va samarali vositasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Buyuk mutafakkir yoshlarni kichik yoshdan boshlab mehnatga o'rgatish, ularda hunarga muhabbat va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishni barkamol shaxs tarbiyasining muhim sharti deb biladi. Navoiy nazarida mehnat insonni nafaqat hayotga tayyorlaydi, balki uning ma'naviy-axloqiy dunyosini boyitib, shaxsiy kamolotini ta'minlaydi. Shoir asarlarida mehnat jarayoni insonda sabr-toqat, qat'iyat, halollik va intizom kabi fazilatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Mehnat orqali inson o'zini tarbiyalaydi, iroda va mas'uliyatni his etishni o'rganadi. Hunar esa bu jarayonning mantiqiy davomidir: hunarli inson jamiyatda o'z o'rnini topa oladi, mustaqil hayot kechirishga qodir bo'ladi va boshqalarga foyda keltiradi. Navoiy mehnat va hunarni shaxs tarbiyasining ajralmas va o'zaro bog'liq omillari sifatida ko'radi. Mazkur g'oyalar bugungi texnologiya fanini o'qitish jarayonida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Texnologiya fanida amalga oshiriladigan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi, o'z zimmasiga mas'uliyat olish, belgilangan maqsad sari izchil harakat qilish va natijaga erishish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir bajarilgan ish, tayyorlangan buyum yoki loyiha o'quvchilarga mehnatning qadrini his etish, o'z imkoniyatlarini baholash va kelgusida yanada mukammal natijalarga intilish zarurligini anglatadi.

Alisher Navoiyning mehnat va hunar orqali tarbiya haqidagi qarashlari texnologiya fanining tarbiyaviy salohiyatini yanada kuchaytiradi. Bu g'oyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarni nafaqat kasbiy jihatdan tayyorlaydi, balki ularni ijtimoiy faol, mas'uliyatli, mehnatsevar va ma'naviy yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Bugungi raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar va tezkor kasbiy o'zgarishlar sharoitida ham Alisher Navoiyning mehnat va hunarga oid qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, sun'iy intellekt, raqamli dizayn, ishlab chiqarish texnologiyalari va servis xizmatlari kabi zamonaviy yo'nalishlar rivojlanayotgan bugungi davrda Navoiyning g'oyalari yanada chuqur mazmun kasb etmoqda. Chunki u ilgari surgan mehnatsevarlik, hunarga sadoqat va mas'uliyat tushunchalari har qanday texnologik taraqqiyotning asosida inson omili turishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy merosida mehnat va hunar faqat an'anaviy kasblar bilan chegaralanmaydi, balki har bir davr ehtiyojiga mos ravishda yangicha mazmun bilan boyib boradigan universal qadriyat sifatida talqin etiladi. Bugungi zamonaviy kasblar — dizayner, texnolog, servis mutaxassisi yoki muhandis faoliyatida ham Navoiyning "Ilm va hunar uyg'unligi" haqidagi g'oyasi o'z ifodasini topmoqda. Bu esa uning qarashlari zamon va makondan qat'i nazar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Navoiy merosiga tayangan holda tashkil etilgan texnologiya ta'limi o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlaydi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchilar mehnatning qadrini anglaydi, hunarga nisbatan hurmat tuyg'usi shakllanadi va o'z kasbiy faoliyatida halollik hamda mas'uliyatni asosiy mezon sifatida qabul qiladi. Natijada texnologiya fani nafaqat amaliy bilim beruvchi fan, balki shaxs tarbiyasining muhim vositasiga aylanadi. Alisher Navoiyning mehnat va hunarga oid merosi zamonaviy ta'lim tizimi uchun bebaho ma'naviy-pedagogik manba bo'lib, yosh avlodni raqamli davr talablariga mos, shu bilan birga milliy qadriyatlariga sodiq bo'lgan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining boy adabiy va falsafiy merosida mehnat va hunarni inson kamolotining asosi sifatida talqin qiladi. Uning asarlarida mehnat — hayot mazmuni, hunar esa insonning eng ishonchli tayanchi sifatida

ulgʻlanadi. Navoiy nazarida ilm va hunar uygʻunligi barkamol inson tarbiyasining muhim sharti hisoblanadi.

Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosida mehnat va hunar masalasi inson kamolotining bosh mezon sifatida talqin etiladi. Buyuk mutafakkir nazarida mehnat — bu shunchaki tirikchilik vositasi emas, balki insonni ulgʻlaydigan, uni jamiyatda munosib oʻrin egallashga yetaklaydigan, ma'naviy jihatdan poklaydigan va ijtimoiy mas'uliyatini anglatadigan yuksak qadriyatdir. Hunar esa insonning mustaqilligi, erkinligi va qadr-qimmatini ta'minlovchi eng ishonchli tayanch sifatida e'tirof etiladi. Navoiy ilm va hunar uygʻunligini barkamol shaxs tarbiyasining ajralmas sharti deb biladi. Ilm tafakkurni yuksaltirsa, hunar uni hayotda mustahkamlaydi; ilm yoʻl koʻrsatsa, hunar shu yoʻlda qat'iy qadam tashlash imkonini beradi.

Navoiyning bu qarashlari zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan toʻliq hamohangdir. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalar sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa — o'quvchini nafaqat bilimli, balki amaliy ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlay oladigan, kasbiy jihatdan tayyor va ma'naviy yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishdir. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, texnologiya fani o'zining amaliy yo'nalishi bilan Navoiyning mehnat va hunar haqidagi g'oyalarini hayotga tatbiq etishning samarali maydoniga aylanadi.

Navoiyning "Ilm va hunar uygʻunligi" haqidagi g'oyasi bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Zamonaviy kasblar — muhandislik, dizayn, servis xizmati, ishlab chiqarish texnologiyalari, hatto sun'iy intellekt va raqamli loyihalash kabi yo'nalishlar ham nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmaning uygʻunligini talab etadi. Demak, Navoiyning asrlar avval ilgari surgan fikrlari bugungi innovatsion taraqqiyot davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmayapti, aksincha, yanada chuqurroq mazmun kasb etmoqda.

Buyuk mutafakkir ilgari surgan mehnatsevarlik, hunarga hurmat, ustoz-shogird an'anasi va ilm bilan amaliyot uygʻunligi haqidagi g'oyalar raqamli transformatsiya davrida ham inson omilining ustuvorligini tasdiqlaydi. Navoiyning ma'naviy merosi texnologiya ta'limi mazmunini boyituvchi, uni milliy ruh va zamonaviylik uygʻunligida tashkil etishga xizmat qiluvchi bebaho pedagogik manba bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.
2. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
3. Navoiy, A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006.
4. Navoiy, A. Lison ut-tayr. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Komilov, N. Tasavvuf va Navoiy ijodi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULAR ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

*Fayziyeva Mutabar Mardonovna,
Samarqand viloyati PMM "Fanlarni rivojlantirish" bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida raqamli innovatsion texnologiyalarning (RIT) o'rni va ular orqali o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Unda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri (individualizatsiya, interfaollik, immersivlik, hamkorlik, tezkor qayta

aloqa va kreativlikni rag'batlantirish) tahlil qilinadi. Canva, Padlet, Miro, AI vositalari (ChatGPT, Midjourney), Kahoot! kabi eng samarali platformalar va ularning o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammo yechish, dizayn va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi amaliy misollari keltirilgan. O'qituvchilar uchun yosh guruhlariga moslashtirilgan, real muammolar bilan bog'langan loyihalarni joriy etish bo'yicha amaliy maslahatlar berilgan. Xulosada raqamli innovatsiyalarning barkamol, ijodkor va raqamli muhitda erkin yosh avlodni shakllantirishdagi markaziy roli ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli innovatsion texnologiyalar, kreativ kompetentsiya, zamonaviy ta'lim, ijodiy fikrlash, individual ta'lim, VR/AR, AI ta'limda, Canva, loyihali ta'lim, gamification, o'quvchilar rivoji, raqamli savodxonlik, o'zbek ta'lim tizimi

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ijodkor, tanqidiy fikrlaydigan va raqamli muhitda erkin ishlay oladigan shaxslar etib tarbiyalashdir. Raqamli innovatsion texnologiyalar (RIT) bu jarayonda markaziy o'rin egallab, o'quvchilarning kreativ kompetentsiyasini — ya'ni yangi g'oyalar yaratish, muammolarni ijodiy yechish, loyihalash va hamkorlikda ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositasi bo'lib qoldi.

Raqamli innovatsion texnologiyalarning ta'limdagi o'rni

Raqamli texnologiyalar ta'limni passiv bilim uzatishdan faol, shaxsga yo'naltirilgan va natijaga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi. Ular quyidagi afzalliklarga ega:

Individualizatsiya va differentsiatsiya — har bir o'quvchining tezligi, qiziqishi va darajasiga mos material taqdim etish;

Interfaollik va immersivlik — virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) orqali “tajriba qilish” imkoni;

Hamkorlik va global aloqa — onlayn platformalar orqali nafaqat sinfdoshlar, balki butun dunyo bilan birgalikda loyihalar yaratish;

Tezkor qayta aloqa va baholash — AI asosidagi tizimlar orqali xatolarni darhol tuzatish va muvaffaqiyatni kuzatish;

Kreativlikni rag'batlantirish — o'quvchilar o'zlarining g'oyalarini raqamli shaklda (video, infografika, 3D model, kod) ifodalay olishadi.

Zamonaviy ta'limda RIT o'quvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarda ishlatilmoqda.

Eng samarali raqamli texnologiyalar va ularning kreativlikka ta'siri

| Texnologiya Platforma | Asosiy imkoniyatlar | Kreativ kompetentsiyani rivojlantirish misollari | Samaradorlik jihatlari |
|-----------------------------------|--|--|---|
| Canva, Genially, Piktochart | Infografika, prezentatsiya, interaktiv posterlar | “Mening loyiham — kelajak shahri” infografikasi, tarixiy voqealarni vizual hikoya qilish | Dizayn fikrlash, vizual kommunikatsiya |
| Tinkercad, Blender (boshlang'ich) | 3D modellashtirish va chop etish | “Ekologik muammo uchun 3D yechim” loyihasi, o'zbek milliy naqshlarini 3D da yaratish | Fazoviy tafakkur, muhandislik ijodkorligi |
| Scratch, Code.org | Bolalar uchun | “O'yin orqali | Algoritmik fikrlash, |

| | | | |
|---|--|---|--|
| Blockly | dasturlash (blokli kod) | ekologik masalani hal qilish” o‘yin yaratish | muammoni bosqichma-bosqich yechish |
| Google Earth, AR apps (Merge Cube) | Virtual sayohatlar va kengaytirilgan reallik | “O‘zbekiston tabiat mo‘jizalari” virtual ekskursiya, AR orqali dinozavrlar jonlantirish | Tasavvur, tadqiqotchi fikrlash |
| Padlet, Jamboard, Miro | Birgalikda fikr va brainstorming xaritasi | Guruh loyihasi: “Milliy qadriyatlar — zamonaviy talqin” devori | Hamkorlikdagi ijodkorlik, g‘oyalarni jamlash |
| AI vositalari (ChatGPT, Midjourney, DALL-E) | Matn va tasvir generatsiyasi | “O‘zbek ertaklarini AI orqali yangi tasvirlash” loyihasi | Yangi g‘oyalarni tez sinash, ijodiy tajriba |
| Kahoot!, Quizizz, Mentimeter | Interaktiv viktorina va so‘rovlar | “Ijodiy savollar” musobaqasi: muammoni ijodiy yechish variantlarini taklif qilish | Tez fikrlash, raqobat orqali motivatsiya |

Amaliy maslahatlar (o‘qituvchilar uchun)

Har bir mavzuda kamida bitta raqamli ijodiy vazifa qo‘shing (masalan, oddiy test o‘rniga infografika yoki qisqa video loyihasi).

Yosh guruhiga moslashtiring: 1–4-sinflarda Scratch va Canva, 5–9-sinflarda Tinkercad va Google Earth, yuqori sinflarda AI va kodlash.

Loyihalarni real muammolar bilan bog‘lang: ekologiya, milliy meros, kelajak kasblari.

Natijalarni sinf devorida (Padlet) yoki maktab saytida namoyish eting — bu o‘quvchilarda “men qildim” tuyg‘usini kuchaytiradi.

O‘zingiz ham doimiy o‘rganing: bepul kurslar (Coursera, Google for Education, Scratch Educator) va o‘zbek tilidagi resurslardan foydalaning.

Baholashda kreativlikni alohida kriteriy qiling: original g‘oya, ijodiy yondashuv, sifatli taqdimot.

Xulosa

Raqamli innovatsion texnologiyalar zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishning eng kuchli katalizatori hisoblanadi. Ular nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchini “qidiruvchi va yaratuvchi”ga aylantiradi. O‘zbekistonning kelajagi — ijodkor, raqamli dunyoda erkin va mas’uliyatli yoshlarda. Agar biz ta’limda raqamli innovatsiyalarni faol qo‘llab, ularni ijodiy rivojlanish vositasiga aylantirsak, demak, barkamol va raqobatbardosh avlodni tarbiyalash yo‘lida muhim qadam tashlagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupov R.H. Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari: monografiya. — Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020
2. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti, 2018. — 264 bet.

3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari: metodik qo'llanma. — Toshkent: (raqamlitalim.trm.uz), 2024. — 130 bet.
4. "Raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2023. — 651 bet.
5. "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Qo'qon: Qo'qon universiteti nashriyoti, 2023. — 372 bet.

MAKTAB O'QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PYTHON DASTURLASH TILINING O'RNI

*Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi bo'lim boshlig'i*

***Annotatsiya.** Maqolada bugungi axborot asrida faqat bilim olishning o'zi yetarli emasligi, balki olingan bilimni kreativlik va ijodiy tajribaga aylantirish zarurligi ta'kidlanadi. Alisher Navoiy hikmatlari orqali dasturlash jarayoni o'quvchilarda iroda, sabr va tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida ko'rsatiladi. Python dasturlash tili oddiy sintaksisi bilan o'quvchini murakkab texnik to'siqlardan chalg'itmay, muammolarning yechimiga va ijodiy ishlab chiqarishga e'tibor qaratishga yordam berishi yoritiladi. Shuningdek, vizual ijodkorlik, loyiha asosida o'qitish, xatolarni tuzatish va bosqichma-bosqich o'rganish kabi metodik yondashuvlar orqali o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Axborot asri, kreativlik, Alisher Navoiy hikmatlari, dasturlash metodikasi, python dasturlash tili, virtual ijodkorlik, vizual ijodkorlik (turtle graphics), loyiha asosida o'qitish, debugging (xatolarni tuzatish), bosqichma-bosqich o'rganish, kreativ fikrlash, ta'limda innovatsiya*

Bugungi shiddatli axborot asrida faqat bilim olishning o'zi yetarli emas. Olingan bilimni yangi g'oyalarga tatbiq etish, kreativlik tajribasiga aylantirish zarur. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek: **"Olim bo'lsang, olam seniki."**

Dasturlash – Virtual Ijodkorlik

Dasturlashni o'rganish — bu faqat kod yozishni emas, balki virtual ijodkorlikni rivojlantirishni anglatadi. Python o'zining sodda sintaksisi bilan o'quvchini murakkab texnik to'siqlardan chalg'itmaydi, balki masalaning yechimiga va ijodiy ishlab chiqarishga e'tibor qaratishga yordam beradi.

Python – Ijodkorlik sifatida Kreativ fikrlash muammoning bir nechta yechimini ko'ra olishdir. Python darslarida o'quvchilar tafakkurini charxlash uchun quyidagi yo'nalishlar samarali:

1. **Vizual ijodkorlik (Turtle Graphics):** Oddiy sikllar yordamida geometrik shakllardan murakkab naqshlar yaratish. Bu matematika va san'atning uyg'unlashgan ko'rinishidir.

2. **Loyiha asosida o'qitish:** Masalan, "Aqlli uy" modeli yoki kichik o'yin topshirig'i orqali o'quvchi o'z tasavvuridagi dunyoni kodlar yordamida quradi.

Navoiy hikmatlari va dasturlash metodikasi

Dasturlash jarayoni o'quvchidan iroda va tinimsiz mehnatni talab qiladi. Bu jarayonni Navoiy hikmatlari bilan bog'lash yanada ta'sirli bo'ladi:

- **Xatolarni tuzatish (Debugging):** Navoiy deydilar: *"Kishisini o'zi bilsa, tuzatmoqqadir."* Dasturlashda o'quvchi xatolarini kompyuter yordamida aniqlaydi va mustaqil ravishda tuzatadi.

• **Bosqichma-bosqich o'rganish:** “Hunarli kishi xor bo'lmas.” Pythonni o'rganish XXI asrning eng muhim hunarini shakllantiradi va o'quvchini murakkablikka qarab bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Metodik tavsiyalar

O'quvchilarda kreativlikni qo'llash uchun darslarda quyidagi usullarni tavsiya etish mumkin:

| Usul | Maqsadiy tavsif |
|--------------------------|---|
| “Noma'lum kod” | Tayyor kodning natijasini avvaldan tasavvur qilish. |
| “Optimallashtirish kodi” | Masalani eng qisqa va chiroyli yo'l bilan yechish. |
| “Erkin loyiha” | O'quvchiga mavzu chegaralanmagan holda dastur yaratish imkonini berish. |

Xulosa

Alisher Navoiyning “*Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz*” degan so'zlarini bugun quyidagicha talqin qilish mumkin: **“Dasturlash tiliga ixtiyorsiz – kelajakka e'tiborsiz.”**

Python maktab o'quvchilari uchun nafaqat texnik vosita, balki elektron dunyoqarashni shakllantiruvchi kalitdir. Dasturlashni o'rganish orqali yoshlar muammolarga algoritmik ko'z bilan qarashni, ularga kreativ yechim topishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 56 bet.
2. Mirziyoyev, Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 bet.
3. Mirziyoyev, Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 bet.
4. Navoiy, A. *Xamsa*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2003. – 720 bet.
5. Jo'rayev, M. *Dasturlash asoslari (Python misolida)*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 240 bet.
6. Qodirov, S. *Axborot texnologiyalari va dasturlash*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2019. – 310 bet.
7. Tursunov, B. *Pedagogik innovatsiyalar va kreativ ta'lim*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 198 bet.

QODIRIYNING “O'TKAN KUNLAR” ROMANIDA LEKSIK BIRLIKLARNING GESHTALT ASOSIDA IFODALANISHI

*Niyozova Gulhayo,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti*

Annotatsiya: maqolada Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida leksik birliklarning badiiy-idrokiy tizimda geshtalt asosida shakllanishi tahlil qilingan. Asarda “tulki”, “Toshkand olindi”, “Toshkand foji'asi” kabi so'zlar nafaqat lug'aviy, balki psixologik, ijtimoiy va estetik ma'noga ega idrokiy birliklar sifatida talqin qilinadi. Shu orqali Qodiriyning til orqali siyosiy vaziyatni, inson ruhiyatini va ijtimoiy muhitni ifodalashdagi mahorati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: *geshtalt, badiiy matn, idrok, leksik birliklar, “tulki”, “Toshkand olindi”, “Toshkand foji’asi”, badiiy konsept, yaxlit ma’no.*

Аннотация: *В диссертации анализируется формирование лексических единиц в художественно-познавательной системе романа Кодирия «Уткан кунлар» на основе гештальт-метода. В произведении такие слова, как «тулки», «тошканд олинди», «ташкент фаджиаси», интерпретируются как перцептивные единицы, обладающие не только лексическим, но и психологическим, социальным и эстетическим значением. Это свидетельствует о мастерстве Кодирия в выражении политической ситуации, человеческой психики и социальной среды посредством языка.*

Ключевые слова: *Гештальт, художественный текст, восприятие, лексические единицы, «лиса», «Ташканд был взят», «Ташкандская трагедия», художественная концепция, целостное значение.*

Abstract: *The thesis analyzes the formation of lexical units in the artistic-cognitive system of Qodiriy’s novel “O’tkandan kunlar” based on Gestalt. In the work, words such as “tulki”, “Toshkand olindi”, “Tashkent faji’asi” are interpreted as perceptual units with not only lexical, but also psychological, social and aesthetic meanings. This reveals Qodiriy’s skill in expressing the political situation, human psyche and social environment through language.*

Keywords: *Gestalt, artistic text, perception, lexical units, “fox”, “Tashkand was taken”, “Tashkand tragedy”, artistic concept, holistic meaning.*

Tilni idrok etish va uni qayta ishlash jarayonlari faqat grammatik yoki leksik birliklar orqali emas, balki inson ongida shakllanadigan yaxlit butunlik — geshtalt orqali amalga oshadi. Geshtalt nazariyasining asosiy tamoyili shundan iboratki, inson ongida lingvistik birlik, avvalo, butun holda idrok qilinadi, keyin esa qismlarga ajratiladi. Bu prinsip konseptning kognitiv tuzilishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, lingvistik ma’lumotlarni idrok etishda markaziy ahamiyatga ega. XX asr boshlarida nemis psixologlari M. Vertxaymer, K. Koffka va V. Keler tomonidan ishlab chiqilgan geshtalt nazariyasi inson idrokida elementlarning alohida emas, balki yaxlit struktura sifatida qabul qilinishini ta’kidlaydi.²⁹ Ularning tadqiqotlariga koʻra, idrok jarayonida yaqinlik, oʻxshashlik, yopiq shakl va davomiylik qonunlari muhim rol oʻynaydi. Rus olimi S. Chesnokov esa geshtaltni hodisalarni tushunishning asosiy vositasi deb hisoblaydi va u lingvistik tadqiqotlarda ham dolzarb ekanligini ta’kidlaydi. Kognitiv lingvistika doirasida G. Lakoff va M. Johnson geshtalt tamoyillarini inson tafakkuri va til oʻrtasidagi bogʻliqlikni tushuntirishda qoʻllagan.³⁰ Lingvistik geshtalt matnni yaratishda va uning idrokida muhim rol oʻynaydi. Yaxlitlik prinsipi orqali oʻquvchi alohida birliklarni butun manzara sifatida idrok qiladi va matnning mazmuniy makrostrukturasini anglaydi. Bu tamoyil badiiy matnda ritm, qofiya, metafora va konseptual metaforalarda namoyon boʻlib, oʻquvchining matnni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Soʻnggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar lingvistik geshtaltning ilmiy asoslarini, kognitiv va psixolingvistik mohiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Ularning natijalari badiiy matnni tahlil qilishda yaxlit idrokni, matnning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni, shuningdek, til birliklarini kontekstual va kognitiv jihatdan tushunishni ta’minlaydi.

A. Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanida mavjud leksik birliklar

²⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Max_Wertheimer#cite_note-King,_B._D._1993-11

³⁰ Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 1980.

“Tulki” leksik birligining badiiy-geshtalt talqini

*“Otabek maktubni tugatib, tushunmay o'tkan jumllalarini qayta ko'zdan kechirar ekan, Azizbek voqi'asi ustiga kelganda ixtiyorsiz «tulki» deb yubordi”.*³¹

Matndagi “Toshkand olindi” leksik birligi badiiy nutqda geshtalt asosida shakllangan, voqelikning ixcham va yuqori darajada zichlashtirilgan ma'no birligidir. Ushbu iborada “olmoq” fe'lining asosiy predmet-harakat ma'nosi kengayib, harbiy-siyosiy metaforik mazmun—“zabt etmoq”, “egallamoq”—semalari bilan boyiydi va shahar ustidan to'laqonli hukmronlik o'rnatilgan holatni yaxlit obraz holida ifodalaydi. Bu leksemaning geshtaltligi shundaki, u ikki so'zdan iborat bo'lsa ham, o'quvchi ongida jang, bosqin, xavf, tashvish, kutish va ijtimoiy beqarorlikni o'z ichiga olgan butun bir voqea manzarasini uyg'otadi. Badiiy kontekstdagi “Ammo hanuz — “Toshkand olindi” degan gap yo'q edi” kabi konstruksiya ushbu leksik birlikning semantik og'irligini yanada kuchaytirib, uni matnning dramatik keskinligini belgilovchi axboriy markazga aylantiradi. Demak, bu ibora alohida so'zning emas, balki yaxlit ma'no tuzilmasining (geshtaltning) matnda qanday shakllanishini ko'rsatuvchi tipik leksik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

“Toshkand olindi” leksik birligining badiiy-geshtalt talqini

“Qo'qondan har kun deyarlik xabarlar kelib turar edi. «Qo'qon sipohi tomonidan Toshkand o'raldi» degan xabarga endi o'n besh kunlab vaqt o'tgan edi. Ammo hanuz — «Toshkand olindi» degan gap yo'q edi”.

Matndagi “Toshkand olindi” iborasi badiiy nutqda geshtalt asosida shakllangan, ya'ni ikki so'z orqali o'quvchi ongida jang, bosqin, xavf va ijtimoiy beqarorlikni o'z ichiga olgan yaxlit voqea manzarasini uyg'otadi. Fe'ning harbiy-siyosiy metaforik ma'nosi — “zabt etmoq”, “egallamoq” — bilan boyib, shahar ustidan to'laqonli hukmronlikni ifodalaydi. Shu tariqa, ibora alohida so'z emas, balki voqelikni ixcham, yuqori darajada zichlashtirilgan gestalt-obraz sifatida ko'rsatadi.

“Toshkand foji'asi” leksik birligining badiiy-geshtalt talqini

“Anovi yarasining ustiga Toshkand foji'asi kelib qo'shilg'ach, Otabek tag'in ham xayolchanlangan, tag'in ham xomushligini ortdirgan edi. Hatto ba'zi kunlar hujrasidan tashqarig'a chiqmas, kishilar bilan so'zlashmas, boshqacha aytkanda kundun-kunga go'shanishinlikka yaqinlashib borar edi”.

Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida badiiy matni konseptual tashkil etuvchi leksik birliklar ko'pincha yakka hodisani emas, balki murakkab voqelikni jamlovchi geshtalt sifatida namoyon bo'ladi. Shunday geshtalt birliklardan biri — “Toshkand foji'asi” iborasidir. Ushbu leksik birlik sintaktik jihatdan oddiy izofatli birikma bo'lsa-da, matn kontekstida u o'quvchi ongida shahar hayotidagi notinchlik, siyosiy beqarorlik, urush xavfi, qo'rquv, xalq iztirobi hamda Otabekning chuqur ruhiy tushkunligini o'zida mujassamlashtirgan yig'iq semantik makonga aylanadi. Ya'ni “Toshkand foji'asi” nomi birgina voqeani emas, balki ko'p qatlamli tarixiy-psixologik vaziyatni ifodalovchi global obraz sifatida qabul qilinadi. Bu kabi geshtalt birlikning badiiy samaradorligi shundaki, u alohida gaplar orqali izohlab bo'lmaydigan murakkab ma'no majmuasini bitta leksik shaklga siqadi va shu tariqa qahramonning ruhiy holatini ham, ijtimoiy-madaniy fonni ham umumlashtirib beradi. Natijada matndagi ushbu leksik birlik nafaqat nomlash vazifasini bajaradi, balki o'quvchi tasavvurida yaxlit voqelik modeli — “foji'a”ning konseptual geshtaltini shakllantiradi. Shu boisdan “Toshkand foji'asi” iborasi badiiy

³¹ Qodiriy, A. . O'tkan kunlar: Roman. – Toshkent: Hilol media, 2019. 20- bet.

matnda leksik birliklarning geshtalt asosida ifodalanishiga yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alina Kwiatkowska . Gestalt principles in linguistics, Folia Linguistica. 1997. 36-son.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Max_Wertheimer#cite_note-King,_B._D._1993-11ISSN:
3. Mark Johnson. The body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason. University of Chicago Press, 1990. – 272 p.
4. Ungerer Friedrich, Schmid Hans-Jörg. An introduction to cognitive linguistics — Pearson Education Limited, 2006. — 384 p.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах . “Сангзор”, 2006. – 91 б.
6. Худайберганаева Д. Узбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Т.: “Фан”, 2015. – 136 б.
7. Shoira Usmonova. Lingvokulturologiya. Т.: “Universitet”, 2014. – 100 b.
8. Qodiriy, A. O'tkan kunlar: Roman. – Toshkent: Hilol media, 2019. 399 b.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA INTERAKTIV VOSITALAR ORQALI BOLALARNING O'RGANISH MOTIVATSIYASINI OSHIRISH

*Hamroyeva Anora Faxreddinovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim jarayonida interaktiv vositalar va o'yin asosidagi faoliyatlar orqali 3–6 yoshdagi bolalarning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada motivatsiyaning psixologik asoslari, interaktiv usullarning bolalarga ta'sir mexanizmlari (muvaqqafiyat hissi, tanlov erkinligi, ijtimoiy rag'bat, o'yin musobaqasi) tahlil qilinadi. Rolli o'yinlar, sensor-didaktik faoliyatlar, harakatli musobaqalar, musiqa-harakat o'yinlari, guruh loyihalari, topishmoqlar va oddiy raqamli vositalar kabi eng samarali interaktiv metodlar misollar bilan keltirilgan. Tarbiyachilar uchun amaliy maslahatlar berilgan bo'lib, asosiy xulosa sifatida — maktabgacha yoshda o'rganishga bo'lgan muhabbatni shakllantirish interaktiv o'yinlar orqali eng tabiiy va samarali yo'l ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, interaktiv usullar, o'yin asosidagi ta'lim, bolalar motivatsiyasi, ichki motivatsiya, rol o'yinlari, sensor faoliyat, harakatli o'yinlar, guruh hamkorligi, tarbiyachi maslahatlari, o'rganishga muhabbat, didaktik o'yinlar.

Maktabgacha yosh — bolaning butun keyingi hayotiga asos solinadigan eng muhim davr. Bu yoshda bola o'rganishni “majburiyat” emas, balki quvonch, kashfiyot va o'yin sifatida qabul qilishi kerak. Zamonaviy maktabgacha ta'limda **interaktiv usullar** va **o'yin asosidagi faoliyat** bolalarning ichki motivatsiyasini uyg'otishning eng samarali yo'li sifatida tan olinmoqda.

Nima uchun motivatsiya maktabgacha yoshda bunchalik muhim?

3–6 yoshdagi bolalarda hali “baholar uchun o'qish” degan tushuncha yo'q. Ularning motivatsiyasi asosan quyidagilarga asoslanadi:

- Qiziqish va yangilik tuyg'usi
- O'yin orqali zavq olish
- Muvaqqafiyat va maqtov hissi
- Do'stlar bilan birga bo'lish va birgalikda biror narsa qilish

Agar mashg'ulot qiziqarli bo'lmasa, bola tez charchaydi, diqqati tarqaladi va “Men buni xohlamayman” degan holat paydo bo'ladi. Interaktiv faoliyat esa bolani passiv

tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, o'rganishni tabiiy va yoqimli jarayonga aylantiradi.

Interaktiv vositalar va usullar bolalarni qanday rag'batlantiradi?

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun interaktivlik deganda, asosan quyidagilar tushuniladi:

- Harakatli va jismoniy faol o'yinlar
- Rolli va syujetli o'yinlar
- Didaktik o'yinchoqlar va materiallar bilan ishlash
- Guruhda hamkorlikdagi vazifalar
- Sensor va ijodiy faoliyat (qum, loy, bo'yoq, musiqali harakatlar)
- Oddiy raqamli vositalar (planshet yoki interaktiv doska orqali qisqa o'yinlar)

Bu usullar quyidagi psixologik mexanizmlarni ishga tushiradi:

- **Tezkor muvaffaqiyat hissi** — “Men topdim!”, “Men qildim!”
- **O'z tanlovi borligi** — bola o'zi nima qilishni tanlay oladi
- **Ijtimoiy rag'bat** — tarbiyachi va do'stlarning ijobiy munosabati
- **O'yin musobaqasi** — “Kim tezroq?”, “Kim ko'proq?”
- **Kutilmagan natija** — sir, topishmoq, kutilmagan burilish

Maktabgacha ta'limda eng samarali interaktiv usullar

| Usul / Vosita | Maqsad va rivojlantiriladigan soha | Motivatsion ta'siri | Amaliy misollar (3–6 yosh) |
|---------------------------------------|--------------------------------------|--|--|
| Rolli o'yinlar | Ijtimoiy ko'nikmalar, nutq, empatiya | O'zini boshqa rolda ko'rish – katta zavq | Do'kon, kasalxona, oila, kosmonavtlar |
| Didaktik sensor o'yinlar | Sensorika, mantiq, nozik motorika | Qo'l bilan his qilish va kashf etish | Rangli makaron sortlash, qumda yozish, suv o'yinlari |
| Harakatli musobaqali o'yinlar | Jismoniy tarbiya, muvofiqlashtirish | “Men g'olibman!” tuyg'usi | “Top top”, “Qushlar ucha”, “Hayvonlar harakati” |
| Musiqqa + harakat o'yinlari | Ritm hissi, nutq, hissiy holat | Musiqqa va harakat birlashuvi – tabiiy quvonch | “Agar xursand bo'lsang qo'l ur”, “Chumoli marshi” |
| Guruh loyihalari (kichik) | Hamkorlik, mas'uliyat | Birgalikda natija yaratish | Umumiy rasm chizish, katta qurilish qilish |
| Topishmoq va hikoya davom ettirish | Mantiqiy fikrlash, tasavvur | Sirni ochish istagi | “Bu nima?” rasmlar, ertakni davom ettirish |
| Interaktiv doska / planshet o'yinlari | Rang, shakl, sonlar (qisqa vaqt) | Yorqin ekran, teginish bilan harakat | Peşin o'yinlar, hayvonlarni joylashtirish |
| Tezkor “ball to'plash” o'yinlari | Diqqat, xotira, tezlik | Sticker yoki yulduz olish istagi | “Rangni top”, “Juft rasmlarni top” |

Tarbiyachilar uchun amaliy maslahatlar

1. Har bir mashg'ulotda kamida 60–70% vaqt o'yin va harakatga ajrating.
2. Bolaga tanlov huquqini bering: “Qaysi rang bilan o'ynaymiz — qizil yoki ko'k?”

3. Har kuni yangi element qo'shing — yangi o'yinchoq, yangi qahramon, yangi musiqa.
4. Har bir bolaning kichik muvaffaqiyatini albatta nishonlang (maqtoov, qarsak, sticker).
5. Guruhdagi har bir bola ishtirok etishi uchun "navbat" tizimini yarating.
6. Juda murakkab qoidalardan qoching — 4–5 yoshda qoida 2–3 qadamdan oshmasin.
7. O'yin oxirida har doim ijobiy xulosa qiling: "Bugun qanday qiziqarli bo'ldi!"

Xulosa

Maktabgacha ta'limda interaktiv vositalar va o'yin asosidagi faoliyat bolaning o'rganishga bo'lgan ichki ishtiyoqini uyg'otishning eng tabiiy va samarali usuli hisoblanadi. Bola "Men o'rganaman, chunki bu qiziqarli va yoqimli" degan tuyg'uni his qilganda, u kelajakda ham mustaqil ravishda kashf etishga, savol berishga va yangi narsalarni sinab ko'rishga tayyor bo'lib ulg'ayadi.

Eng muhim natija — bilim emas, balki **o'rganishga bo'lgan muhabbat**dir. Aynan shu muhabbatni maktabgacha yoshda interaktiv o'yinlar orqali shakllantirish — tarbiyachining eng ulug' vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik. — Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013. — 290 bet
2. Turdiyeva I.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol metodlarni qo'llash usullari // Ilmiy maqola — 2021.
3. Buranova M.X. Maktabgacha ta'limda o'yin asosida o'qitish metodlari // OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE. — 2025, №62 (qism 6).
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi — Toshkent, 2018. — taxminan 40–50 bet
5. Boymurodov N. va boshqa o'zbek psixolog va pedagoglarning o'yin faoliyati, motivatsiya va idrok rivoji bo'yicha ishlaridan olingan umumiy nazariy asoslar

ALISHER NAVOIY MEROSI ASOSIDA O'QUVCHILARDA MUSIQIY – ESTETIK ONGNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Turayeva Dilso'z Ixtiyorovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy merosining o'quvchilarda musiqiy-estetik ongni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mutafakkir asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy, estetik va tarbiyaviy g'oyalar musiqa ta'limi jarayoni bilan uyg'un holda yoritiladi. Shuningdek, Navoiy ijodidagi san'at, go'zallik va ruhiy kamolot haqidagi qarashlarning yosh avlodning estetik didini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada umumta'lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etishda Navoiy merosidan foydalanishning metodik yo'llari hamda pedagogik-psixologik asoslari ko'rsatib beriladi.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются педагогические возможности наследия Алишера Навои в формировании музыкально-эстетического сознания учащихся. Рассматривается взаимосвязь духовно-нравственных и эстетических идей мыслителя с процессом музыкального образования. Раскрывается значение взглядов Навои на искусство, красоту и духовное совершенство в развитии*

художественного вкуса подрастающего поколения. Также определены педагогико-психологические основы и методические пути использования наследия Навои на уроках музыки в общеобразовательной школе.

Abstract. *This article examines the pedagogical potential of Alisher Navoi's heritage in the formation of students' musical and aesthetic consciousness. The study highlights the integration of the thinker's spiritual, moral, and aesthetic ideas into the process of music education. It reveals the significance of Navoi's views on art, beauty, and spiritual perfection in developing the artistic taste and inner world of the younger generation. The paper also identifies pedagogical and psychological foundations, as well as methodological approaches to incorporating Navoi's works into music lessons in general education schools.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, musiqiy-estetik tarbiya, ma'naviy meros, pedagogik yondashuv, estetik ong, musiqa ta'limi, komil inson, badiiy did, tarbiya metodikasi.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, музыкально-эстетическое воспитание, духовное наследие, педагогический подход, эстетическое сознание, музыкальное образование, гармонично развитая личность, художественный вкус, методика воспитания*

Keywords: *Alisher Navoi, musical-aesthetic education, spiritual heritage, pedagogical approach, aesthetic consciousness, music education, holistic personality development, artistic taste, educational methodology.*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy dunyosini boyitish hamda estetik didini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Alisher Navoiy merosi o'zining chuqur falsafiy, tarbiyaviy va ma'rifiy mazmuni bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkir asarlarida inson kamoloti, go'zallikni his etish, san'atni qadrlash, ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalish masalalari keng yoritilgan. Musiqa san'ati esa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi, estetik tarbiyani samarali amalga oshiruvchi vosita sifatida o'quvchilarning ichki dunyosini boyitadi. Shu bois Navoiy merosini musiqa ta'limi bilan uyg'unlashtirish pedagogik jihatdan muhim metodik yo'nalish hisoblanadi.

Asosiy qism: Navoiy qarashlarining musiqiy-estetik tarbiyadagi o'rni (Tahlil)

Alisher Navoiy ijodida san'at, ayniqsa, musiqa inson qalbini poklovchi, uni ezgulikka chorlovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Mutafakkirning g'azal va dostonlarida kuy, ohang, soz, navo kabi tushunchalar ramziy ma'noda inson ruhiyati va ma'naviy kamolotini ifodalaydi.

Navoiy estetik qarashlarining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. **Go'zallik va ezgulik uyg'unligi** – Navoiy nazdida haqiqiy go'zallik axloqiy poklik bilan bog'liq. Musiqa orqali o'quvchilarda nafaqat estetik zavq, balki insoniy fazilatlar shakllanadi.

2. **San'atning tarbiyaviy mohiyati** – mutafakkir san'atni insonni komillikka yetaklovchi vosita deb biladi. Bu qarash musiqa darslarining maqsadi bilan hamohangdir.

3. **Ruhiy ta'sir va hissiy tarbiya** – musiqa inson qalbiga tez yetib boradi, bu esa o'quvchilarda mehr-oqibat, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'ularini kuchaytiradi.

4. **Komil inson g'oyasi** – Navoiy ta'limotida komil inson bilimli, ma'naviy yetuk va estetik didli shaxs sifatida tasvirlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya ana shu sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, Navoiy merosi musiqa ta'limining mazmunini boyituvchi ma'naviy asos bo'lib, u o'quvchilarning hissiy-intellektual rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuning nazariy tahlili: Alisher Navoiy ijodiy merosida san'at va go'zallik masalasi inson ma'naviy kamolotining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Mutafakkirning badiiy asarlarida musiqa, navo, ohang, soz kabi tushunchalar nafaqat estetik hodisa, balki ruhiy poklanish, qalb tarbiyasi va ma'naviy uyg'onish ramzi sifatida ifodalanadi. Navoiy insonni komillikka yetkazuvchi omillar qatorida ilm, axloq va san'at uyg'unligini alohida ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar pedagogika fanining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, unda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-estetik dunyosini shakllantirishga xizmat qiladi. Navoiy asarlarida go'zallikni anglash axloqiy yetuklik bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Bu esa estetik tarbiyani faqat san'atni idrok etish emas, balki insoniy fazilatlarini shakllantirish jarayoni sifatida tushunish zarurligini ko'rsatadi. Musiqa inson hissiyotlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi sababli o'quvchilarda mehr-oqibat, vatanparvarlik, milliy iftixor va ma'naviy sezgirlikni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Navoiy merosi musiqa ta'limining mazmuniy asosini boyituvchi muhim manba hisoblanadi.

Pedagogik-metodik yondashuv: Alisher Navoiy merosidan musiqa ta'limida foydalanish integrativ pedagogik yondashuvni talab etadi. Bunda adabiyot, musiqa va tarbiya jarayonlari o'zaro uzviy bog'lanib, o'quvchilarda badiiy asarni kompleks idrok etish ko'nikmasi shakllantiriladi. Navoiy g'azallari yoki hikmatli baytlarini musiqiy namunalar bilan uyg'un holda o'rganish o'quvchilarning nafaqat eshitish madaniyatini, balki mazmunni his etish, obrazli tafakkur yuritish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Musiqa darslarida Navoiy merosiga murojaat qilish o'quvchilarning emotsional tajribasini boyitadi, ularda san'at asariga ongli munosabatni shakllantiradi hamda estetik baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida reflektiv fikrlashni faollashtiradi, ya'ni o'quvchi eshitgan kuy yoki o'qigan matn asosida o'z hissiy holatini tahlil qilishga, badiiy mazmunni mustaqil anglashga o'rganadi. Natijada musiqa darsi faqat ijro yoki tinglash faoliyati bilan cheklanmay, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya maydoniga aylanadi.

Mazkur metodika o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ular Navoiy matnlari asosida musiqiy ifodalar yaratish, sahnaviy ko'rinishlar tayyorlash, kuy va mazmun uyg'unligini izohlash orqali san'atni faol o'zlashtiradi. Bu jarayon shaxsning estetik ehtiyojini shakllantiradi va uni milliy madaniyat bilan ruhiy jihatdan bog'laydi.

Natijalar muhokamasi: Navoiy merosiga tayangan holda tashkil etilgan musiqa ta'limi o'quvchilarda milliy madaniy merosga hurmat, badiiy did, estetik sezgirlik va ma'naviy tafakkurni rivojlantiradi. Bunday ta'lim modeli shaxsning hissiy, intellektual va axloqiy jihatdan uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Musiqa orqali olingan estetik tajriba o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni go'zallikni anglash va qadrlashga o'rgatadi. Shu tariqa ta'lim jarayoni komil insonni shakllantirish g'oyasiga xizmat qiladi, bu esa Navoiy ta'limotining markaziy konsepsiyasi bilan to'liq mos keladi.


Navoiy merosini musiqa ta'limiga integratsiya qilish yo'llari: Navoiy asarlaridan foydalanish musiqa darslarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik metodlar asosida amalga oshiriladi.

1. Integrativ yondashuvda adabiyot va musiqa fanlarini o'zaro bog'lash orqali o'quvchilar asar mazmunini chuqurroq anglaydi.

Masalan: Navoiy g'azallari asosida yaratilgan mumtoz kuylarni tinglaydi. Matn va ohang uyg'unligini tahlil qilish.

2. Emotsional-idrok metodlari musiqa tinglash jarayonida o'quvchilarga savollar berish, kuy qanday kayfiyat uyg'otdi? Asar mazmuni bilan qanday bog'liqlik sezdingiz? Bu usul o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

3. Tarbiyaviy suhbat va mushohada Navoiy hikmatlari asosida:



Tarbiyaviy suhbat va mushohada jarayonida Navoiy hikmatlaridan foydalanishning pedagogik tahlili: tarbiyaviy suhbat va mushohada usuli o'quvchilarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur metod o'quvchi shaxsining ichki dunyosiga murojaat qilish, unda axloqiy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Alisher Navoiy hikmatlari esa ana shunday tarbiyaviy muloqotni tashkil etish uchun boy ma'naviy manba vazifasini bajaradi.

Navoiy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, kamtarlik, ilmga intilish, mehr-oqibat kabi g'oyalar yosh avlod tarbiyasida muhim axloqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkir insonni komillikka yetaklovchi asosiy omil – bu uning ma'naviy pokligi va ezgu amallari ekanligini ta'kidlaydi. Shu bois Navoiy hikmatlarini dars jarayonida muhokama qilish o'quvchilarda nafaqat badiiy idrokni, balki hayotiy xulosalar chiqarish ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Tarbiyaviy suhbat jarayonida o'qituvchi Navoiy hikmatlarini tayyor axborot sifatida bayon qilmaydi, balki ularni muammoli savollar orqali o'quvchilar ongida tahlil qildiradi. Masalan, mutafakkirning ilm va odob haqidagi fikrlari muhokama qilinar ekan, o'quvchilarga quyidagi savollar berilishi mumkin.

- Nima uchun ilm insonni ulug'laydi?
- Bilim va odob o'rtasida qanday bog'liqlik?
- Bugungi kunda bu g'oyalar qanday ahamiyat kasb etadi?

Bunday savol-javob asosidagi suhbat o'quvchini faol fikrlashga undaydi, uning shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu jarayon reflektiv ta'lim mexanizmini ishga soladi, ya'ni o'quvchi o'z fikrini anglaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

Mushohada bosqichida esa o'quvchilar hikmat mazmunini musiqa bilan uyg'un holda his etishga yo'naltiriladi. Masalan, Navoiy asarlaridagi ruhiy poklanish yoki insoniy muhabbat g'oyalari mumtoz kuy namunalarini tinglash bilan bog'lanadi. Natijada

o'quvchi badiiy matn va musiqiy ohang o'rtasidagi uyg'unlikni sezadi, bu esa estetik idrokni kuchaytiradi. Psixologik jihatdan qaraganda, musiqa hissiy ta'sir orqali hikmat mazmunini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Mazkur metod o'quvchilarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi.



Shunday qilib, Alisher Navoiy hikmatlari asosida tashkil etilgan tarbiyaviy suhbat va mushohada jarayoni ta'limning faqat axborot beruvchi emas, balki shaxsni ma'naviy kamol toptiruvchi tizim ekanligini namoyon etadi. Bu yondashuv o'quvchilarning ichki dunyosini boyitib, ularni go'zallikni angalaydigan, ma'naviy yetuk va estetik tafakkurga ega shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy merosi o'quvchilarda musiqiy-estetik ongini shakllantirishda muhim pedagogik manba bo'lib xizmat qiladi. Alloma asarlarida mujassam bo'lgan badiiy-estetik g'oyalar, insonparvarlik, ma'naviy poklik, go'zallikni anglash va san'atni qadrlash kabi fazilatlar yosh avlod tarbiyasida bevosita ta'sirchan vosita hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Navoiy ijodini musiqa ta'limi jarayoni bilan integratsiyalash o'quvchilarning nafaqat badiiy didini, balki ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ham boyitadi. Xususan, mumtoz she'riyat namunalarini kuy-qo'shiqlar, musiqiy tahlil, ijodiy mashg'ulotlar hamda tarbiyaviy suhbatlar bilan uyg'un holda o'qitish o'quvchilarda estetik idrok, musiqiy tafakkur va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari musiqiy-estetik tarbiyani tashkil etishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ekanini ko'rsatdi. Ta'lim jarayonida milliy-madaniy merosga tayanadi. Adabiyot va musiqa fanlari o'rtasida uzviy integratsiyani ta'minlash, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiruvchi interfaol metodlardan foydalanish, badiiy matnlarni musiqiy talqin qilish orqali estetik mushohada ko'nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy merosidan maqsadli va tizimli foydalanish umumta'lim maktablarida musiqiy-estetik ongini shakllantirishning samarali pedagogik asosini yaratadi. Bu jarayon yoshlarni milliy san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash, ularning estetik dunyoqarashini kengaytirish hamda komil inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.
2. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
3. Lison ut-tayr. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Qodirov M. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: Fan, 1963.

РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ИСТОРИИ НАРОДОВ ВОСТОКА

*Машиарипова Шоира Рахмановна,
старший преподаватель кафедры методики преподавания языков
Центра педагогического мастерства Хорезмской области*

Аннотация: Данная статья посвящена изучению роли творческого наследия выдающегося мыслителя Средней Азии XV века Алишера Навои. Анализируется вклад поэта-философа в развитие литературы, науки и культуры своего времени, раскрывается значение его трудов в формировании культурного пространства Центральной Азии и их влияние на последующее поколение ученых и писателей.

Ключевые слова: литературное наследие, формирование, творчество, гуманизм, поэзия, ценности, Восток.

Abstract: This article examines the role of the creative legacy of Alisher Navoi, a prominent thinker of Central Asia in the 15th century. The study analyzes the contribution of Navoi as a poet and philosopher to the development of literature, science, and culture of his time. Particular attention is given to the significance of his works in the formation of the cultural space of Central Asia, as well as their influence on subsequent generations of scholars and writers.

Keywords: literary heritage, formation, creativity, humanism, poetry, values, the East.

Творческое наследие Алишера Навои занимает особое место в истории интеллектуального развития народов Востока. Его творчество охватывает широкий спектр областей знания: литературу, философию, историю, этику и педагогику. Как поэт и мыслитель, он оказал значительное влияние на формирование культурной среды региона и стал символом гуманизма и просвещенности своего времени.

Творчество Алишера Навои, одного из крупнейших представителей средневекового восточного ренессанса, обладает огромной значимостью не только в области литературы, но и в сфере духовного и нравственного воспитания общества. Навои считал искусство средством воздействия на душу читателя, стремясь формировать высокие моральные качества и возвышенные идеалы посредством поэзии и прозы.

Алишер Навои жил в эпоху активного расцвета культуры, науки и искусства Средней Азии, относящуюся ко второй половине XV века. Под влиянием лучших традиций классиков арабской и персидской литературы, он создал собственное уникальное направление в литературе и культуре, став основоположником узбекской письменной словесности.

Алишер Навои родился в 1441 году в семье влиятельного чиновника. Уже в юности проявились его таланты как поэта и ученого. Получив образование в Бухаре, Хорасане и Самарканде, Навои сформировался как зрелый мыслитель и мастер художественного слова. После смерти Улугбека, покровителя наук и искусств, Навои продолжил дело учителя, развивая идеи просвещения и образования среди народа.

Его литературное наследие включает произведения на персидском и тюркском языках, каждое из которых представляет собой глубокий философско-эстетический труд. Среди наиболее известных произведений выделяются поэмы-пятистишия («Хамсе»), дидактическое сочинение «Насрийские беседы» («Муҳакамат ал-лугатайн») и исторические хроники («Рассказы мудреца») [1].

Навои воспринимал поэзию как инструмент воспитания ума и сердца. Центральное место в его трудах занимают темы любви, справедливости, добра и истины. Эти понятия выражены через образы героев, сцены природы и эмоциональные переживания персонажей. Особое внимание уделено внутреннему миру человека — размышлениям о смысле жизни, предназначении, поиске счастья и гармонии. [2].

Одним из ключевых аспектов воспитательного воздействия становится использование метафор и символов. Так, природа часто выступает олицетворением душевных переживаний героя, позволяя глубже раскрыть внутренний мир персонажа. Образ розы символизирует красоту и чистоту чувств, соловей воплощает верность и преданность, море — глубину человеческих страстей и желаний.

Важнейшим элементом мировоззрения Навои является концепция гуманизма. Через художественную форму автор призывает читателей к состраданию, терпимости и уважению друг друга. Герои его произведений сталкиваются с жизненными испытаниями, преодолевают трудности и обретают истинные ценности, такие как дружба, любовь и честность.

Особенное внимание уделялось формированию характера молодых людей. Автор настаивал на важности воспитания благородства, мудрости и стойкости духа. Например, произведение «Фархад и Ширин», основанное на известном сюжете, повествует о бескорыстной любви, самоотверженности и героизме главных героев, демонстрируя образ идеальных взаимоотношений между людьми.

Особое внимание уделяется проблемам воспитания молодежи, развитию творческого потенциала личности и формированию гражданских добродетелей. В труде «Насрийские беседы» рассматриваются вопросы взаимодействия языков и культур, что актуально и в наше время, подчеркивая важность межкультурного диалога и взаимопонимания.

Его поэзия учит доброте, справедливости и человечности, способствует формированию высоких моральных качеств и духовно обогащает каждого, кто обращается к его произведениям.

Философия любви, гуманизма и доброты, заложенная в произведениях автора, помогает современному человеку обрести внутренние ориентиры и сформировать правильное отношение к окружающему миру. [2].

Творческое наследие Навои является ярким примером синтеза научных достижений и эстетического восприятия мира. В его произведениях сочетаются элементы классической восточной философии, научные наблюдения и культурные ценности исламского Востока. Поэт разрабатывал идеи гармонии души и тела, единства нравственности и искусства, влияния красоты на человеческие чувства.

Алишер Навои сыграл ключевую роль в развитии системы народного образования. Благодаря поддержке правителей Герата, он инициировал создание школ и библиотек, способствовал распространению грамотности и научных знаний среди широких слоев населения. Создание литературных кружков и академий стало важным этапом формирования интеллектуальной элиты Средней Азии, способствовало развитию местных традиций и сохранению культурных ценностей.

Таким образом, деятельность Навои стала мощным стимулом для дальнейшего прогресса восточных цивилизаций, вдохнув жизнь в новые поколения художников, литераторов и исследователей. [4].

Сегодня, спустя столетия, творчество Алишера Навои остается актуальной частью мировой культуры. Его труды изучаются в школах и университетах Узбекистана и других стран Центральной Азии, являясь важной частью национальной образовательной программы.

Оно служит источником вдохновения для современных деятелей культуры и науки, продолжающих развивать принципы гуманизма, творчества и уважения к традициям. Творчество Навои продолжает вдохновлять последующие поколения на созидательную работу, направленную на укрепление духовной связи поколений и сохранение исторического опыта человечества.

Список использованной литературы

1. Алиев Б. А. История литературы Узбекистана. Т.: Издательство «Fan va texnologiya», 2007.
2. Алишер Навои. Хамса / Перевод Ю.Н. Прокоповича // Москва : Художественная литература, 1986.
3. Саидов А.Х., Эгамбердиев Ш.А. Феномен творчества Алишера Навои // Ташкент: Фан, 1991.
4. Касымжанов А.Г. Гуманизм Алишера Навои // Алматы : Ёылым, 1996.

BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA “INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING” O‘RNI

Boltayeva Zilola,

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, kabi ko‘plab yangi texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilar faolligini oshirish usullari va vositalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *faollik, texnologiya, interfaol metodlar, multimedia vositalari.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Matematika darslarining qay darajada qiziqarli o‘tishi o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liq. Bolalarning matematik savodxonligini, hisoblash malakalarini oshiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga, mantiqan o‘ylashga, xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosidagi mashg‘ulotlar mazkur fanning boshlang‘ich sinflardan boshlab mukammal o‘rgatilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Matematika darslarida interfaol metodlarning amalga oshirish yo‘llari quyidagicha Jumladan: didaktik o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, tushunchalar tahlili, “Blits – so‘rov”, “Zinama – zina”, BBB (Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman) metodlari darsning uy vazifasini so‘rash, o‘tilgan mavzuni takrorlash bosqichlarida qo‘llaniladi.

Yangi mavzuni o‘rganishda “Hamma bir – biriga o‘rgatadi”, “Klaster”, “Davra”, “KBI (Kuzatish. Bahslashish. Ishontirish), “Muammo”, “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri”

kabi interfaol metodlardan, “Davom ettir”, “Tez javob”, “Zanjir”, “Topag'on” “Sirli son”, “Rebus” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.

Darsni mustahkamlash jarayonida, “Akvarum”, “Blits – so'rov”, “Fikriy hujum”, kabi interfaol metodlardan, “O'zim tekshiraman”, “O'yin topishmoq”, “Nima yo'qolib qoldi?” kabi didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

O'quv jarayonini yuqoridagi metodlar asosida olib borish o'quvchi uchun an'anaviy darsni tashkil etish uslublaridan ko'ra samaraliroq natijalarga erishish jihatdan foydalidir.

Matematika darslarida yangi innovatsion usullardan foydalanish mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida turli matematik o'yinlarning motivatsiyalash imkoniyati kengdir. O'yinni rejali o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'yinni boshlashdan oldin bir mavzu tanlab olinadi va shu o'yinga kerak bo'lgan barcha vositalar tayyorlanadi. Har bir guruhda 5 ta o'quvchi bo'ladi (kam yoki ko'p bo'lishi ham mumkin). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlashga tayanadi. Sinf o'quvchilarini guruhlariga ajratish xohish yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

O'quvchilarning o'yin faoliyati bo'yicha aniq va hajm jihatidan ko'p bo'l- magan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini hisobga olgan holda vaqt chegarasini belgilaydi. O'quvchilar kerakli axborotlar paketi va ma'lumotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko'riladi. O'quvchilar zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib, to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi va ularga yordam beradi.

Guruhlarda ish yakunlangach sardor natijalari bo'yicha og'zaki hisobot beradi. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyat to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi aniq mezon hisoblanadi.

Dars jarayonida multimedia vositalari o'qituvchi uchun birmuncha qulayliklar yaratadi. O'qituvchi tushuntiradi, o'quvchi kuzatadi, bilimlarni an'anaviy idrok etadi, o'quv mashg'ulotlarining har bir o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi nazorat qilinadi. Test, nazorat ishlari interfaol usulda tez va qulay tarzda o'tkaziladi. Dars uchun tarqatma materiallar tayyor holda chop etiladi, foydalaniladi. Jadvallar, turli pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash imkoniyati tug'iladi.

Jamiyatning yangilanishi ta'lim – tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, unga yangicha munosabat va yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, sog'lom, mustaqil fikrlovchi, aqliy jihatdan rivojlangan yuksak axloqli va iste'dodli shaxsni shakllantirish masalasi davlat ahamiyatiga molik masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. T.: “Nihol”, 2013.
2. Yusupova G.Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantiruvchi metodlar // Metodik qo'llanma. Nukus.: 2020

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA 4K MODELINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Bekmirzayev Xasan Safarovich,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil
etish bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: O'quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o'rgatish maktab ona tili ta'limi oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan sanaladi. Ona tilini namunalar va maxsus mashqlar asosida amaliy, muntazam va izchil o'rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borishni taqozo qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Ta'limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday yondashuvlardan biri "4K" modelidir.

Kalit so'zlar: 4K modeli, boshlang'ich ta'lim, bilim, ko'nikmalar, ijodkorlik, xarakter, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, ta'lim nutq, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, metodika, ona tili darslari.

Аннотация: Научить учащихся использовать имеющиеся возможности языка в речевом процессе считается одной из ответственных задач, стоящих перед школьным обучением родному языку. Оно требует формирования формы литературно-художественной речи путем практического, регулярного и последовательного обучения родному языку на основе примеров и специальных упражнений. Основная задача занятий родным языком в начальной школе – подготовить учащихся к учебной деятельности, сформировать личность, умеющую общаться с другими людьми, способную в доступной форме донести до других свои мысли.

Реформа образования связана с внедрением в систему новых инновационных методов. Одним из таких подходов является модель «4К».

Ключевые слова: модель 4К, начальное образование, знания, умения, креативность, характер, сотрудничество, коммуникативное, творческое мышление, критическое мышление, учебная речь, культура речи, начальная школа, ученики смерти, методика, уроки родного языка.

Abstract: Teaching students to use the available possibilities of the language in the speech process is one of the responsible tasks facing school native language education. It requires the formation of a literary and artistic form of speech through practical, systematic and consistent teaching of the native language based on examples and special exercises. The main task of primary school native language lessons is to prepare students for educational activities, to form a person who can communicate with others and convey his or her thoughts to others in an understandable way.

Educational reform is associated with the introduction of new innovative methods into the system. One of such approaches is the "4K" model.

Keywords: 4K model, primary education, knowledge, skills, creativity, character, collaboration, communicativeness, creative thinking, critical thinking, educational speech, speech culture, primary school, students, methodology, native language lessons.

O'tmish mutafakkirlari ijodida nutqning ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd qilinishi bejiz emas. Jumladan, Kaykovus "Suxandon kishilar bila ham suhbatda

bo'lgil va qanday qilib so'zlash shartlarini ham bilgil" 1 Yusuf Xos Hojib "Uquv va bilimning tilmochi tildir... Agar tilga e'tibor bermasa, uni noo'rin qo'llasa, odam boshi yorilishi hech gap emas"2, Forobiy so'zning inson hayotida tutgan o'rni va roli haqida: "...so'zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi"3 deb yozgan bo'lsa, M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida "Adab boshi –til" maqolning keltirilishi, A.Navoiyning "Bir bo'lu, bir ko'r, bir de, bir tila, Mayl qilma munda ikkilik bila" 4 misralarida bir so'zlilik, fikriy sobitlik, so'z va fikr birligi –chin inson uchun bosh dasturdir degan fikr ilgari suriladi.

Boshlang'ich ta'lim – o'quvchi shaxsi shakllanishining poydevori hisoblanadi. Chunki, bu davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham alohida e'tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, bola o'zining o'quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta'lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. Bola aynan shu davrda olgan bilimlari unga kelajakda har bir ishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli bugungi kunda ko'plab pedagog olimlar tomonidan turli xil metodlar ishlab chiqilmoqda. Shu metodlardan biri boshlang'ich sinflar uchun tayyorlangan "4K" modeli hisoblanadi. "4K" modeli ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida "4K" modelidan foydalanishda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan hisoblanadi. Ushbu model orqali o'quvchi nutqining shakllanishida **Kollaboratsiya, Kommunikativlik, Kreativ va Kretik fikrlashning** o'rni muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamon ta'limi oldida turgan asosiy maqsad, o'quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, zamonaviy darslarni tashkil qilish negizida 4 "K" modelini qo'llash asosida o'quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ va kooperativ ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'limni isloh qilish tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday yondashuvlardan biri 4 "K" modelidir.

4 "K" modeli kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kolloboratsiya kabi tushunchalarni qamrab oladi.

1) kritik (tanqidiy) fikrlash - o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir;

2) kreativ fikrlash (ijodiy yondashuv) - o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish;

3) kommunikativlik (muloqatchanlik) - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;

4) kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) - ta'lim oluvchining jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda 4 "K" modeli ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning tayanch va fanga oid kompetensiyalari elementlarini shakllantirishga, har bir fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga, ma'naviy yetuk, sog'lom avlod bo'lib tarbiyalashda, kasb-hunar tanlashlari uchun xizmat qiladi. Tavsiya etilayotgan metod va usullar dars mazmunini ochishiga, o'quvchilar faolligini oshirishga yordam berib, darsning samaradorligini oshiradi.

Quyidada keltirilgan innovatsion metod va interfaol o'yinlar o'quvchilarda 4 "K" modeli tarkibidagi kritik (tanqidiy) fikrlash ko'nikmasi, kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi, kommunikativlik (muloqotchanlik) ko'nikmasi, va kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) kabi ko'nikmalarni rivolantirishda hamda fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, zukkolik, tirishqoqlik, chaqqonlik va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib o'tish esa bolalarni darsdaga faolligini va zo'r ishtiyoq bilan qatnashishlarini ta'minlaydi. Ushbu model orqali o'quvchi har taraflama o'zida shaxs ko'nikmasini shakllantirib boradi. Dastur o'quvchiga faqat nutqni shakllantiribgina qolmay balki, shaxsiy fikrlash doirasi, jamiyatdagi o'rniga ham alohida ta'sir etadi. 4K modeli nafaqat bolalarni o'z navbatida o'qituvchi pedagoglarni ham o'z ustida ishlash uchun undab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'limi tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u «milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, mehnat ko'nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlar olinishini ta'minlash, bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish»ga yo'naltirilgan.

Chiroyli va ravon nutq so'zlashni, savodli, chiroyli to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni uddalay olmagan yoki to'g'ri talaffuz etolmagan o'quvchi hech qaysi bilimlarni muvaffaqiyat bilan uddalay olmaydi. Bu borada so'z va nutqning ma'no-mohiyatini teran idrok etgan buyuk qalam sohiblari so'zlash qobiliyati va go'zal nutq qudrati bemsil bir ne'mat ekanligini takror va takror ta'kidlaganlar. O'quvchilar nutqini o'stirish, avvalo, ularning lug'atini boyitish va ushbu lug'atdagi so'zlarni to'g'ri talaffuz bilan bog'liqdir. So'z boyligini oshirishda lug'at ustida ishlash katta amaliy ahamiyatga ega.

Xususan, boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich

sinf O'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rin egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq sohibi bo'lish haqida shunday deydi: - Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisijismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o'z-o'zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidentiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logic figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Nutq atamasi arabcha soʻzdan olingan boʻlib, soʻzlash, nutq; gapirish qobiliyati ma'nosini bildiradi. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; soʻzlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning oʻrni va roli qadimdan koʻpchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib,

Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar oʻz asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy soʻzlash quvvati haqida shunday deydi: —...soʻzlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va goʻzal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur boʻlgan-boʻlmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazmatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

M.Koshgʻariyning —Devon-u lugʻotit turk asarida —Adab boshi - til maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechogʻli ahamiyatli ekanligiga urgʻu berganini koʻrsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, soʻz orqali a'yon boʻlishini aytib, nutqning ravon boʻlishiga da'vat etadi: —oʻquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir.

Kishiga roʻshnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obroʻ-e'tiborni ham kishi til orqali topadi.

Hech qachon koʻp gapirma. Juda oz soʻzla. Tuman soʻz tugunini bitta soʻz bilan yozib yubor, ya'ni oz soʻzlarga koʻproq ma'no singdirish payidan boʻlgin.

Kaykovus oʻzining —Qobusnoma asarida soʻzlash madaniyati quyidagicha e'tirof etadi:

- xalq oldida gapirganda soʻzing goʻzal boʻlsin, bu soʻzni xalq qabul qilsin.

Xaloyiq sening soʻzing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini soʻz orqali biladilar, har kishining ahvoli oʻz soʻzi ostida yashiringan boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari nutqini oʻstirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lugʻat boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Boshlangʻich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, soʻz yasalishi, morfemik (soʻz tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil oʻquvchilarning nazariy tushunchalarni oʻzlashtirishlariga yordam berishi, lugʻatini boyitishi, bogʻlanishli nutqini oʻstirishi jihatidan keng qamrovli boʻlib, oʻquvchilarning tilni har tomonlama oʻzlashtirishlarini ta'minlashini nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, boshlangʻich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning oʻquvchilar nutqini tadrijiy ravishda oʻstirib borish imkoniyatiga ega emasligini koʻrsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, Oʻquvchilar lugʻatini boyitish, nutqini oʻstirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos boʻla olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga moʻljallangan terma toʻqima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bogʻlanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy soʻzlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn oʻquvchi nutqini boyitish uchun manba boʻla olmaydi. Oʻquvchilarning oʻzbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bogʻliq. Darslarni didaktik oʻyinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham koʻmak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki oʻtgan darsni mustahkamlash paytida didaktik oʻyinlardan foydalanib, oʻquvchilarning darsga boʻlgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin namunalari keltiramiz:

Zanjirli o'yini. O'qituvchi tilda mahnodoshi bo'lgan so'z aytadi, o'quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh so'zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagan paytda navbatdagi o'quvchining o'zi tilda ma'nodoshi bor so'z aytib o'yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator parta o'quvchilari bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. O'yin ketma-ketlikda davom ettiraveriladi. Masalan, bir qatorda 10 ta o'quvchi o'tirgan bo'lsa uchta, to'rtta mahnodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin.

4-sinfda 304-mashq bajarilib bo'lingach bu o'yin uyushtirilishi mumkin.

Zamonaviy ta'limda zamonaviy o'qituvchi ta'lim shaklini mavzu, o'quvchilar va tarjibasidan kelib chiqib tanlaydi. Bunda albatta zamonaviy metodlar qo'l keladi.

Xulosa shuki, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'quvchilarda 4 "K" modelini darslarda tadbiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta zamonaviy

interfaol metodlardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алижонов, Махбуба Рустамжоновна. "Представления и отношение студенческой молодежи к национальным ценностям." *Место социально-гуманитарных наук в развитии современной цивилизации*. 2020.
2. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. -T.: O'qituvchi. 1995.
3. Alijonova, M. "METHODOLOGY OF REMOTE ORGANIZATION OF THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING OF FUTURE AGRICULTURAL SPECIALISTS." *Science and innovation* 2.D7 (2023): 69-71.
4. Низомиддинова, Д. (2023). ТОПОНИМЛАР ТАСНИФИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
5. Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari.
6. Nishonaliyev U.N. Talim standarti va pedagogik innovatsiyalar //Xalq tahlimi j. - T.: 1999. 6-son. - 28-31-b.
7. To'raqulov X.A. Boshlang'ich ta'limda innovasion yondashuvlar qilishning ijtimoiy jihatdan zarurligi // Boshlang'ich ta'limda innovasion texnologiyalar: muammolar, echimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Jizzax, 2006.-III qism.-B.153-157.
8. Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. ped. f. n. dissertatsiya, Qarshi: 2008. 145 b.

O'QITUVCHI SHAXSINING KREATIV SALOHIYATI – KASBIY KOMPETENSIYANING AJRALMAS TARKIBIY QISMI SIFATIDA

*Ashurova Barno Nematovna,
Samarqand Davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyatini shakllantirish va uni kasbiy kompetensiya tizimidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi bugungi kunda ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar, pedagogik jarayonning innovasion yo'nalishga o'tishi hamda zamonaviy o'qituvchidan ijodkorlik, yangilik yaratish qobiliyati va moslashuvchan tafakkurni talab qilayotgan sharoit bilan belgilanadi.

Maqolada “kreativ salohiyat” tushunchasining mohiyati, uning psixologik va pedagogik jihatlari ilmiy manbalar asosida ochib berilgan. Muallif kreativlikni o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini faollashtiruvchi asosiy omil sifatida talqin etadi. Shu asosda, o‘qituvchining kreativ salohiyati – bu shaxsning bilim, tajriba va ijtimoiy faollik uyg‘unligida yangi pedagogik yechimlar yaratish hamda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish qobiliyati sifatida izohlanadi.

Tadqiqotda kasbiy kompetensiya tarkibidagi metodik, kommunikativ, axborot, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar bilan kreativ salohiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar va amaldagi pedagoglar o‘rtasida kreativlikni rivojlantirishning asosiy omillari – motivatsion, psixologik, pedagogik va ijtimoiy shartlar tizimi aniqlanadi.

O‘qituvchining kasbiy kreativligi — bu nafaqat dars jarayonini samarali tashkil etish vositasi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy izlanishga yo‘naltiruvchi muhim pedagogik mexanizmdir. Shu nuqtayi nazardan, maqolada kreativ salohiyatni rivojlantirishning amaliy yo‘llari sifatida muammoli o‘qitish, loyihaviy faoliyat, dizayn fikrlash, kreativ treninglar va innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari o‘qituvchi shaxsining kreativ salohiyatini kasbiy kompetensiyaning markaziy komponenti sifatida shakllantirish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirish va innovatsion fikrlovchi o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi shaxsi, kreativlik, kreativ salohiyat, kasbiy kompetensiya, innovatsion pedagogika, ijodiy fikrlash, ta’lim sifatini oshirish.

Kirish

Zamonaviy globallashuv va raqobat sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan, bilimlar tez yangilanayotgan bugungi davrda o‘qituvchidan nafaqat puxta bilim va kasbiy mahorat, balki ijodiy yondashuv, yangilik yaratish, o‘z faoliyatini tahlil qilib, yangilab borish qobiliyati talab etiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘qituvchi shaxsining **kreativ salohiyatini rivojlantirish** masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar — “**Ta’lim to‘g‘risida**”gi Qonun (2020-yil), **O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi**, shuningdek, “**Innovatsion rivojlanish konsepsiyasi**” kabi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar — pedagogik faoliyatni modernizatsiyalash, o‘qituvchi shaxsining ijodiy va intellektual salohiyatini yuksaltirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab bermoqda. Bu hujjatlarda o‘qituvchi — ta’lim islohotlarining bosh subyekt, innovatsion jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, **kreativ salohiyat** o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibida markaziy o‘rin tutadi. Chunki u o‘qituvchining nafaqat kasbiy bilimlarini amalda qo‘llay olishini, balki ta’lim jarayonida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarda nostandart yechim topish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish qobiliyatini ham ifodalaydi. Kasbiy kompetensiya – bu o‘qituvchining nazariy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari, kommunikativ, metodik, axborot va ijtimoiy malakalari tizimi bo‘lsa, kreativ salohiyat mazkur tizimni harakatga keltiruvchi, uni sifat jihatdan yangilovchi integrativ omildir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar — o'quvchilarda mustaqil fikrlashning sustligi, o'quv motivatsiyasining pastligi, o'quv jarayonining standartlashuvi — ko'p hollarda o'qituvchilarning kreativ yondashuv yetishmasligidan kelib chiqadi. Shu sababli o'qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish masalasini faqat individual sifat sifatida emas, balki **kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi** sifatida o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda.

Kreativ salohiyatni rivojlantirish orqali o'qituvchi:

- o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini ochish;
- o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;
- muammoli vaziyatlarda yangicha yechimlar toppish;
- ta'limni insonparvarlik, hamkorlik va interaktivlik tamoyillari asosida qurish imkoniga ega bo'ladi.

Demak, o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyati — bu nafaqat pedagogik mahoratning ko'rsatkichi, balki ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omildir. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni ilmiy-nazariy asosda yoritish, o'qituvchi kasbiy kompetensiyasi tarkibida kreativ salohiyatning o'rnini aniqlash hamda uni rivojlantirish yo'llarini tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism

1. O'qituvchi shaxsining kreativ salohiyati tushunchasi va uning mohiyati

Zamonaviy pedagogika fani o'qituvchi shaxsini shunchaki bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi va eng asosiysi — yangilik yaratuvchi ijodkor sifatida talqin etadi. Shu boisdan o'qituvchining **kreativ salohiyati** — uning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Kreativ salohiyat — bu shaxsning mavjud bilim, ko'nikma va tajribalarini yangi, samarali yechimlar yaratishga yo'naltira olish qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, bu insonning yangilik yaratish imkoniyati, o'z faoliyatini ijodiy tashkil eta olish salohiyatidir.

Psixologik adabiyotlarda "kreativlik" tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. J. Guilford (1950) kreativlikni "divergent tafakkur" — ya'ni, bir muammoni bir nechta yo'l bilan hal eta olish qobiliyati sifatida izohlaydi. E. Torrance esa kreativlikni yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotda qo'llay olish jarayoni deb hisoblaydi. Mahalliy olimlardan M. Usmonov, N. Sayidahmedova, D. G'oziev va boshqalar kreativlikni pedagogik jarayonning sifat ko'rsatkichi, o'qituvchining yangilikka ochiqlik darajasi sifatida talqin qiladilar.

O'qituvchining kreativ salohiyati uning quyidagi psixologik-pedagogik xususiyatlarida namoyon bo'ladi:

- mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyati;
- o'quv jarayonini yangicha tashkil etish, muammoli vaziyatlarga nostandart yondashish;
- yangilik yaratishga ichki motivatsiya va intilish;
- o'quvchilarni ijodiy faoliyatga ilhomlantirish;
- o'z ustida doimiy ishlash, refleksiv tahlil qilish odati.

Demak, kreativ salohiyat o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy sifatlarini birlashtiruvchi kompleks ko'rsatkich bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

2. Kasbiy kompetensiya va kreativ salohiyatning o'zaro bog'liqligi

O'qituvchining **kasbiy kompetensiyasi** – bu uning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy fazilatlarining integratsiyasidir. Kasbiy kompetensiya o'qituvchining metodik, kommunikativ, axborot, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalaridan tashkil topadi. Shu jarayonda **kreativ salohiyat** ushbu komponentlarning har birini faol harakatga keltiruvchi ichki energiya manbai sifatida xizmat qiladi.

2.1. Kreativlikning metodik kompetensiyadagi roli

Metodik kompetensiya o'qituvchining dars jarayonini to'g'ri rejalashtirish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metod va texnologiyalarni tanlash qobiliyatini bildiradi. Kreativ o'qituvchi standart metodik yondashuvlardan tashqari, o'quvchilarning qiziqishini oshiruvchi interaktiv metodlarni ishlab chiqadi, yangi dars formatlarini sinovdan o'tkazadi va ularni doimiy takomillashtirib boradi.

Masalan, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, dizayn-fikrlash (design thinking), “aqliy hujum”, “rol o'ynash” kabi metodlar o'qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shu jihatdan, kreativ salohiyat metodik kompetensiyani yangilovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

2.2. Kreativlikning kommunikativ kompetensiyadagi ahamiyati

Kommunikativ kompetensiya o'qituvchining o'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali muloqot o'rnatish, ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish ko'nikmasidir. Kreativ o'qituvchi muloqotni faqat ma'lumot yetkazish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarda fikr almashish, hamkorlikda izlanish, g'oyalarni birgalikda yaratish vositasi sifatida qo'llaydi. Bunday o'qituvchi o'quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkor ishtirokchiga aylantira oladi.

2.3. Kreativlikning axborot va shaxsiy kompetensiyalar bilan aloqasi

Axborot kompetensiyasi o'qituvchining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish, ularni dars jarayonida samarali qo'llash malakasini bildiradi. Kreativ o'qituvchi AKT vositalarini faqat tayyor resurs sifatida emas, balki yangi didaktik mahsulotlar — interaktiv testlar, virtual laboratoriyalar, o'quv videolarini yaratish vositasi sifatida ishlata oladi.

Shaxsiy kompetensiya esa o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy o'sishga intilish, yangilikni qabul qila olish qobiliyati bilan bog'liq. Bunda kreativ salohiyat o'qituvchining o'zini doimiy yangilash ehtiyojini rag'batlantiruvchi ichki omil sifatida namoyon bo'ladi.

2.4. Ijtimoiy kompetensiyada kreativlikning o'rni

Ijtimoiy kompetensiya — bu jamoada ishlash, hamkorlik, rahbarlik, mas'uliyat va kommunikativ madaniyatni o'z ichiga oladi. Kreativ o'qituvchi jamoada yangi g'oyalarni ilgari suradi, innovatsion loyihalarni tashabbus bilan amalga oshiradi va boshqalarni ham ijodkorlikka undaydi. Bu esa jamoaning umumiy samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, kreativ salohiyat o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining barcha komponentlarini o'zaro uyg'unlashtirib, ularning sifat ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

3. O'qituvchi shaxsining kreativ salohiyatini rivojlantirish omillari

Kreativ salohiyatni rivojlantirish tabiiy jarayon emas, balki maqsadli pedagogik faoliyat orqali shakllanadi. Bu jarayonga quyidagi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi:

1. **Motivatsion omillar:** o'qituvchining kasbiga bo'lgan qiziqishi, o'zini rivojlantirishga intilishi, o'z kasbiy yutug'idan qoniqish hosil qilishi.

2. **Psixologik omillar:** ijodiy fikrlash, stressga bardoshlilik, yangilikdan qo'rqmaslik, o'z fikrini erkin ifoda eta olish.

3. **Pedagogik omillar:** o'quv jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash, muammoli vaziyatlar yaratish.

4. **Ijtimoiy omillar:** ta'lim muassasasida ijodiy muhitni shakllantirish, jamoaning qo'llab-quvvatlashi, rahbariyatning ijodkor o'qituvchilarga e'tibori.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyatini samarali rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

- pedagogik innovatsiyalarni joriy etish uchun erkinlik;
- o'qituvchilar o'rtasida ijodiy hamkorlik va tajriba almashish maydonlari (seminar, trening, master-klasslar);

- o'qituvchining o'z ustida ishlashi uchun motivatsion rag'bat tizimi;

- oliy ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi o'quv dasturlarning mavjudligi.

4. O'qituvchi faoliyatida kreativ salohiyatni rivojlantirishning amaliy yo'llari

Kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun o'qituvchining kasbiy faoliyatiga quyidagi innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish maqsadga muvofiqdir:

- **Muammoli o'qitish** — o'quvchilarning tafakkurini faollashtiruvchi, mustaqil izlanishga undovchi metod;

- **Loyihaviy faoliyat** — o'quvchilarning real muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyati;

- **Dizayn-fikrlash** — pedagogik jarayonni foydalanuvchi ehtiyojlari asosida yangicha loyihalash yondashuvi;

- **Kreativ treninglar** — o'qituvchilarda ijodiy tafakkur, jamoada ishlash va yangilik yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlar.

Mazkur metod va texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilarda ijodiy faollik, tahliliy fikrlash, innovatsion qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi.

Xulosa

Bugungi ta'lim islohotlari davrida o'qituvchining kasbiy faoliyat samaradorligi, avvalo, uning shaxsiy va kasbiy sifatlarining uyg'unligiga, shu jumladan, kreativ salohiyat darajasiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, **kreativ salohiyat** o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchining yangicha fikrlashi, pedagogik vaziyatlarga nostandart yondashuvi, muammolarni ijodiy hal etishi va o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantira olish qobiliyatini belgilaydi.

Kreativ o'qituvchi — bu faqat tayyor bilimlarni yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarda mustaqil izlanish, yangilikka intilish, fikr erkinligi va hamkorlik madaniyatini tarbiyalovchi shaxsdir. Shunday o'qituvchi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv, innovatsion muhitga aylantira oladi. Bunda kreativ salohiyat o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini — metodik, kommunikativ, axborot, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni — faollashtiruvchi va ularni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadigan integrativ omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kreativ salohiyati tabiiy qobiliyat sifatida emas, balki **maqsadli pedagogik jarayon** natijasida shakllanadi. Uning rivojlanishiga quyidagi shart-sharoitlar muhim ta'sir ko'rsatadi:

- o'qituvchining ichki motivatsiyasi va kasbiy o'sishga bo'lgan ehtiyoji;
- ta'lim muassasasida ijodiy va innovatsion muhitning yaratilganligi;
- o'qituvchi faoliyatida muammoli o'qitish, loyihaviy ishlar, dizayn-fikrlash, kreativ trening kabi metodlarning tizimli qo'llanilishi;

• rahbariyat tomonidan ijodkor o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi.

Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirish alohida o'quv maqsadi sifatida belgilanmog'i lozim. Pedagogik oliy ta'limda kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal etish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanlari va amaliy mashg'ulotlar tizimini joriy etish zarur.

Kreativ salohiyatni rivojlantirish o'qituvchiga quyidagi afzalliklarni beradi:

- ta'lim jarayonida yangi metod va texnologiyalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish imkonini;
- o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishni;
- kasbiy yangilanish, refleksiya va o'z ustida ishlashga doimiy intilishni;
- ta'lim sifatini oshirish orqali raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratishni ta'minlaydi.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, **o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyati — bu uning kasbiy kompetensiyasining yuragi**, ya'ni o'qituvchi shaxsini zamonaviy, yangilikka ochiq, moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassisga aylantiruvchi asosiy omildir. Kreativ salohiyatni rivojlantirish orqali nafaqat o'qituvchining o'z faoliyati, balki butun ta'lim tizimining innovatsion salohiyati yuksaladi.

Shunday ekan, o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi jarayonida kreativlikni shakllantirishga yo'naltirilgan **pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish, kreativ muhit yaratish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish** — bugungi ta'lim siyosatining eng muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi. — Toshkent: Prezident Administratsiyasi nashriyoti, 2022.
3. Usmonov M. *Pedagogik kreativlik va o'qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishi*. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.
4. Sayidahmedova N. *Pedagogik mahorat va kreativlik asoslari*. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. G'oziev D. *Umumiy psixologiya*. — Toshkent: Fan, 2020.
6. Nishonova Z. *O'qituvchi faoliyatida ijodkorlikni rivojlantirish omillari*. // Pedagogika fanlari jurnali. — 2021. — №4. — B. 45–53.
7. Qo'chqorova N. *Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda kreativ tafakkurning o'rni*. // Ta'lim va innovatsiyalar ilmiy jurnali. — 2022. — №6. — B. 77–84.

OILADA KOMIL INSONLARNI TARBIYALASHDA ALISHER NAVOIY MA'NAVY MEROSIDAN FOYDALANISH

*Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna,
Buxoro viloyti pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada oilada komil insonlarni tarbiyalashda Alisher Navoiy ma'naviy merosidan foydalanish masalalari yoritilgan. Yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida qurilgan oilalar mustahkam bo'lishi va ularda ma'naviy sog'lom bolalar tarbiyalanishi tahlil etiladi..

Kalit soʻzlar: axloq, aql, ilm-fan, milliy va umuminsoniy gʻoyalar, aql-idrok, xulq-odob, ta'lim-tarbiya, gʻurur va takabbur, yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlar

Annotatsiya: *V state rassmatrivayutsya voprosy ispolzovaniya duxovnogo naslediya Alishera Navoi v protsesse vospitaniya sovershennoy lichnosti v seme. Analiziruetsya rol semi, osnovannoy na vysokix duxovno-nravstvennyx sennostyax, v obespechenii yee ustoychivosti i vospitaniya duxovno zdorovogo, garmonichno razvitogo pokoleniya.*

Klyuchevye slova: *npravstvennost, razum, nauka, natsionalnye i obshchelovecheskie idei, myshlenie i soznanie, kultura povedeniya, obrazovanie i vospitanie, gordost i vysokomerie, vysokie duxovno-nravstvennye sennosti.*

Abstract: *The article examines the issues of using the spiritual heritage of Alisher Navoi in the process of educating a well-rounded individual within the family. It analyzes the role of families built on high moral and ethical values in ensuring their stability and in raising spiritually healthy and harmoniously developed children.*

Keywords: *morality, reason, science, national and universal ideas, intellect and cognition, manners and behavior, education and upbringing, pride and arrogance, high moral and ethical values.*

““Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida oʻchmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-maʼrifiy faoliyati, boy adabiy-badiiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat va ezgulik timsoli sifatida hamisha jahon ahlining eʼtiborini tortib kelmoqda. Hazrat Mir Alisher Navoiy oʻta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy gʻoyalarni baland koʻtarib maydonga chiqqani, oʻzbek adabiy tiliga asos solib, uning oʻlmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam maʼnaviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz” [1-1]

Yurtimizda qadimdan maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar ardoqlab kelingan. Ayniqsa ilk oʻrta asrlardan boshlab mutafakkirlar maʼnaviyat, axloq, xulq-odob, taʼlim-tarbiya sohasida koʻplab asarlar yozganlar. Ayniqsa, Alisher Navoiyning bu boradagi maʼnaviy merosi beqiyosdir.

Shoirlar sultoni Alisher Navoiy ham oʻzining boy ijodiy faoliyati davomida maʼnaviyat, xususan, axloqning jamiyatda, oilada, insonlararo munosabatda, eng muhimi komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos oʻrnini tarannum etishga alohida eʼtibor qaratdi. Alisher Navoiy ijodining muhim xususiyatlardan biri – axloq, aql va ilm-fanni bir-biri bilan bogʻliq maʼnaviy axloqiy qadriyatlar sifatida talqin qilinishidir.

Maʼlumki, aql insonning boyligi, u Oloh tomonidan inʼom etilgan qimmatbaho sovgʻadir. Inson nimaiki ish bilan mashgʻul boʻlar ekan, biror narsani idrok qilar ekan, bularning hammasi aql tufayli, tafakkur qilish orqali sodir boʻladi.

Alisher Navoiy fikricha, aql ijtimoiy hayotning hamma sohalarida, xoh davlatni boshqarishda, xoh oilada boʻlsin ijobiy xislatlarni kasb qilishda boʻlsin, xoh sheʼriyatda, shirinsuxanlikda, taʼllim-tarbiyada boʻlsin faol qatnashadi. Shuning uchun aqlli kishilarning nasihatini, garchi achchiq boʻlsa ham, quloq solishga, donolarning hikmatli soʻzlaridan bahra olishga daʼvat etadi. Zeroki:

Kishiga har qancha mushkullik kelsa,

Hikmat bilan aql uni hal qiladi.

Tezak otganga kim musht koʻtarsa,

Toʻnini yirtib, soqoloni yuladi. [2-230]

Aliner Navoiy aqli, tafakkurining ilm-fan bilan chambarchas bogʻliqligi haqida fikr yuritir ekan, agar aql mazmun va maqsad boʻlsa, ilm-fan shakl, qurol boʻlib xizmat qiladi, deya baholaydi. Aql ilm-fanni haqiqat yoʻliga boshlaydi, lekin oʻz navbatida aql

ilm-fansiz o'z jilosini yo'qotadi. Aql insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi, yaxshi xislatlarni egallashga, haqiqatni, ilm-fan sirlarini bilishga yordam beradi, deb hisoblaydi buyuk shoir.

Alisher Navoiyning yuqorida qayd qilingan purma'no o'gitlarini oila muhitida farzandlarga izohlab tushintirish ularning komil inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ilmni amaliyot, kishilarning faoliyati, ish harakati bilan bog'lash tarafdori bo'lib, bu ishning uddasidan chiqqan olimlar kamolotga yetgan yuksak iqtidor egalari, deb ta'rifladilar.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ilmni o'rganib unga amal qilmagan kishilarni qoralab, ularni "urug' sohib hosil ololmagan" dehqonga o'xshatadi. Boshqa bir joyda esa fosiq olim bilan davlatmand baxilni bir-biriga qiyoslab, "Bu ikki kishi umrni bekorga o'tqazdi va go'rga hasrat va armon olib ketdi. Biri buki, ilm o'rganishga mashaqqat chekti – amal qilmadi, biri buki, mol yig'ishga mehnat qildi, sarf qilishni bilmadi" – deydi. [3-222]

Demak, olim o'z bilimini turmushga qo'llay olmasa, uning butun harakatlari zoe ketadi, jamiyatga foydasi tegmaydi. Alisher Navoiyning bu o'gitlari bilan oila muhitida yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalangan farzandlar komil inson bo'lmoq uchun qunt bilan o'qiydilar. O'z ilm va mehnatlarini ona-Vatan ravnaqi yo'lga sarflaydilar.

Alisher Navoiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritarkan, tarix fanini o'rganishning afzalligi haqida fikr yuritib, bu fan dunyoda ne-ne saltanat va podshohliklar o'tganini, davlat boshliqlarining ba'zilar xalqqa zulm qilganliklari yana boshqalari esa adolat va xayrli ishlar bilan dong chiqargani, mamlakatlarning obod bo'lishi va inqirozga yuz tutishi haqida xabar berishini ta'kidlaydi. Navoiy tarixni bilishning ahamiyati katta ekanligini ta'riflab, odamlarning eng yuksak ma'naviy qadriyat sifatida tarix fanini o'rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o'rganishi kerak. Navoiy mamlakatni nimalar tanazzulga va nimalar farovonlikka olib kelishini, qanday ishlar tufayli mamlakat obod bo'lishini, xalqqa farog'at va baxt keltirishini tarix ko'rsatib berishi lozim, deb hisoblaydi.

Alisher Navoiy kishilarni nodon va johillardan uzoqda yurishga, ular bilan yaqin munosabatga bo'lmaslikka, do'st tutunmaslikka da'vat etadi. Navoiy fikricha, nodon do'stini do'stlar qatoriga qo'shib bo'lmaydi, chunki undan hamma vaqt zarar yetadi.

"Ishi g'urur va takabbur, xayolida yuz buzuq tacavvur, – deydi nodon va johil kishilar haqida, – har bir mujmal ishi o'ziga ma'qul, barcha jirkanch qiligi o'ziga maqbul, ko'nglida kishilarga yuz ozor, xayoli va johilligidan xalqda ming zarar ehtimoli". [4-226-227]

Shunday qilib, Alisher Navoiy har qanday savodsizlik va jaholatning ko'rinishiga qarshi chiqdilar, aqlning, donolikning qudratiga ishondi hamda jamiyatda uchrab turadigan har qanday tubanlikni, illatlarni yuksak ma'naviy – axloqiy qadriyatlar orqali bartaraf etmoqchi bo'ldilar.

Hozirgi vaqtda ilm-fanga, uning yutuqlariga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa kishilarning aqliy qobiliyati, o'tkir ilmiy salohiyati ma'naviy-axloqiy fazilatlarisiz amalga oshmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mutafakkir shoir Alisher Navoiyning yuksak ma'naviy – axloqiy qadriyatlar bo'lmish axloq, aql va ilm-fan uyg'unligi haqida aytgan qimmatli fikrlari, ibratomuz so'zlari o'zligimizni anglashda kishilarning ma'naviyatini yuksaltirishda, yoshlarni bilimli, aql-zakovatli, odobli, oliyjanob fazilatlar egasi bo'lgan

komil insonlar qilib tarbiyalashda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi deb, o'ylaymiz.

Haqiqatda ham, yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida qurilgan oilalar mustahkam bo'ladi va ularda ma'naviy sog'lom bolalar tarbiyalanadi. "Yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida milliy o'zlikni anglash, ona tilimiz nufuzi va turkiy merosni chuqur o'rganishga qaratilgan izchil davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Ushbu siyosat doirasida buyuk mutafakkir va turkiy adabiyot asoschisi Alisher Navoiy merosini xalqaro miqyosda targ'ib etish muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda". [5-1]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" simpoziumi ishtirokchilariga tabrigidan
2. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" Asarlar, 13-jild, T., 1966, 230-bet
3. Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub", Asarlar, 13-jild, T., 1966, 222-bet
4. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" Asarlar, 13-jild, T., 1966, 226-227-betlar
5. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tashabbusi bilan Turkiyaning Najmiddin Erbakan universitetida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag'ishlangan "Ali Şir Nevâî'nin Türk Edebiyatındaki Yeri ve Önemi" mavzusida xalqaro ilmiy-ma'rifiy tadbir

O'QITUVCHI VA QADRIYATLAR: MUKAMMAL MAQSADLARNI BELGILASH YO'LIDA

*Yunusmetova Nasiba Satimbekovna,
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti*

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy ta'limda o'qituvchining roli va vazifalarini, shuningdek, o'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning ahamiyatini chuqur tahkil qiladi. Muallif ta'kidlashicha, bugungi globallashgan dunyoda o'qituvchi nafaqat bilim tarqatuvchi, balki shaxsning ma'naviy yo'l boshchisi, murabbiyi va jamiyat uchun mas'uliyatli fuqarolar tayyorlovchisidir. Maqolada qadriyatlarni shakllantirish jarayonining asosiy jihatlari (maqsadni anqlash, qadriyatlar ahamiyati, interfaol metodlar, oila-hamkorlik, doimiy rivojlanish) batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar tizimi, o'qituvchi-ustoz (murabbiy), ma'naviy yo'l boshchi, maqsadli ta'lim, shaxsni shakllantirish, interfaol metodlar, pedagogik mahorat, jamoaviylik, doimiy rivojlanish, kreativ pedagogika, differensial yondashuv, maqsad va natijaviylik, vaqtni boshqarish, ilmga chanqoqlik, mas'uliyatlilik.

Annotation: this article provides an in-depth analysis of the role and tasks of the teacher in modern education, as well as the importance of forming a system of values in students. The author emphasizes that in today's globalized world, a teacher is not only a disseminator of knowledge but also a spiritual guide, mentor, and preparer of responsible citizens for society. The article examines in detail the main aspects of the process of value formation (goal setting, the importance of values, interactive methods, family cooperation, continuous development).

Keywords: system of values, teacher-mentor (tutor), spiritual guide, goal-oriented education, personality formation, interactive methods, pedagogical mastery, teamwork / collegiality, continuous development, creative pedagogy, differentiated approach, goal and result-orientedness, time management, thirst for knowledge, responsibility

Аннотация: данная статья представляет собой углубленный анализ роли и задач учителя в современном образовании, а также важности формирования

системы ценностей у учащихся. Автор подчеркивает, что в современном глобализированном мире учитель является не только распространителем знаний, но и духовным наставником, ментором и подготовителем ответственных граждан для общества. В статье подробно рассматриваются основные аспекты процесса формирования ценностей (постановка целей, важность ценностей, интерактивные методы, сотрудничество с семьей, непрерывное развитие).

Ключевые слова: система ценностей, учитель-наставник (тьютор), духовный наставник, целеориентированное образование, формирование личности, интерактивные методы, педагогическое мастерство, командная работа / коллегиальность, непрерывное развитие, творческая педагогика, дифференцированный подход, целе- и результаториентированность, тайм-менеджмент, жажда знаний, ответственность.

Bugungi global dunyoda axloqiy va madaniy qadriyatlar, shaxsning ichki dunyosi va qadriyatlar tizimini shakllantirishni zamonaviy ta'limning eng dolzarb vazifasiga aylantirdi. O'qituvchi-ustoz nafaqat bilim tarqatuvchi, balki inson qalbi va ongiga yo'l topuvchi ma'naviy yo'l boshchi hisoblanadi. Ustoz-murabbiy nafaqat bilim berish, yaxshi-yomon tushunchalarni o'rgatish, balki bolalarga hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish, mas'uliyatni his qilishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish jarayonidir.

O'qituvchi-ustoz o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun qadriyatlarni shakllantirishi bugungi kunda o'qituvchining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarning shaxsiyati va dunyoqarashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'zining eng oliy maqsadini belgilab olishi, nafaqat professional yuksalishi, balki o'quvchilar uchun ham motivatsiya manbai bo'lishi lozim.

Qadriyatlarni shakllantirish jarayonining asosiy jihatlari:

1. O'z maqsadini aniqlash:

- o'qituvchi o'z maqsadini belgilab olish orqali, o'z faoliyatini yo'naltiradi va o'quvchilariga qanday qadriyatlarni yetkazmoqchi ekanligini aniq belgilaydi;
- maqsadlar aniq, o'lchovli va erishish mumkin bo'lishi kerak.

2. Qadriyatlarning ahamiyati:

- qadriyatlar shaxsning axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi;
- o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri qadriyatlarni singdirish orqali ularning kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

3. O'qituvchining roli:

- o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarga namuna ko'rsatuvchi shaxsdir;
- U o'z qadriyatlarini amalda ko'rsatishi, o'quvchilarni rag'batlantirishi va ularga yordam berishi zarur.

4. Interfaol metodlar:

- qadriyatlarni shakllantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish muhimdir. bu o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlaydi;
- muammoli vaziyatlar, guruh ishlari va muhokamalar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishni o'rganishlari mumkin.

5. Oila va jamiyat bilan hamkorlik:

- qadriyatlarni shakllantirish jarayonida oila va jamiyatning roli katta. O'qituvchi oilalar bilan hamkorlik qilib, ularning qadriyatlarini birlashtirishga harakat qilishi lozim;

– ota-onalar bilan mulohaza qilish va ularni jarayonga jalb etish, o'quvchilarning qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

6. Doimiy rivojlanish:

– o'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, yangi metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi zarur;

– bu jarayon davomida o'qituvchi o'z qadriyatlarini ham yangilab borishi va zamon talablariga moslashtirishi kerak.

Qadriyatlarni shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, o'qituvchining maqsadi bu jarayonni samarali amalga oshirishdir. O'z maqsadini belgilash orqali, o'qituvchi nafaqat o'z faoliyatini yo'naltiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Har bir o'qituvchi bu mas'uliyatni his qilib, o'z ishida yuqori natijalarga erishishi lozim.

Qadriyatlar bo'lishi uchun birinchi navbatda o'qituvchida oliy maqsad bo'lishi kerak.

Ya'ni bu kasbni tanlashingizdan, yashashingizda maqsadingiz nima?

Oliy maqsad – o'qituvchilik davringizda amalga oshirgan ishlaringiz evaziga kelgusida erishiladigan natijangizdir.

O'quvchilaringizga sifatli va natijador dars berish orqali ularning qo'li bilan jamiyatni rivojlantirish va buning natijasida Allohning roziligini olish orqali jannatga kirish degan maqsadni oldingizga qo'yadigan bo'lsangiz kasbingizga bo'lgan mehringiz ortadi, darsingizning samaradorligi oshadi. Kimdir sizni doimiy nazorat qilib turishi shart bo'lmay qoladi.

Ana shuning uchun ham qadriyatlar shakllangan bo'lishi kerak.

Qadriyatlar ko'p bo'lishi mumkin, lekin sizga, jamoangizga mos keladigan eng muhim 5 tadan 7 tagacha qadriyatlarni belgilab olishingiz kerak bo'ladi. Bular:

1. "Vaqtning qadralash (vaqt oliy hakam) men o'zimning va boshqalarning vaqtini qadrlayman, bu tiklanmaydigan resurs ekanligini unutmayman" shioringizga aylansin.

2. Natijaviylik (men jarayon uchun emas natija uchun harakat qilaman)

3. Mas'uliyatlilik (men berayotgan va'dalarimni albatta bajaraman)

4. Ilmga chanqoqlik (men har doim ilmlarga, yangi bilimlarga ochiqman. "Yangi bilim -men eng yaxshi ko'rgan taomdir" deb qabul qiling)

5. Jamoaviylik (men har doim jamoa kuchidan foydalanaman, ularga suyanaman. Jamoa bilan bir necha bor kuchayaman. Jamoada mening o'rnim...). Pedagoglarda jamoaviylik birdamlik bo'lsa, o'quvchilarda esa umumiy birdamlilik oshadi.

Muvaffaqiyatga kuchli tartib asosida erisha olish eng to'g'ri yo'ldir.

Avvalo, maqsadlarni to'g'ri belgilang. Maqsadlarni belgilash hayotingizdagi ijobiy o'zgarishlarga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Maqsadlar - bu kelajagingiz uchun qurib boradigan va o'sha obyektida yuradigan asosiy yo'lingizdir. Bugun maktabdagi o'tkinchi o'yin-kulgular sizning kelajagingiz uchun zig'ircha ham foyda keltirmaydi.

1. Hamkorlikda o'rganish

Ushbu usul kichik guruh yoki butun sinf faoliyatini qamrab oladi. Bunda siz yakka o'quvchini yoki o'quvchilar jamoasini bir mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bildirishlarini so'raysiz. O'z fikrlarini og'zaki ifoda etish va boshqalarga javob berish orqali o'quvchilar o'zlariga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi.

2. So'rov tarzidagi jumboq

O'quvchilaringizni o'zlari mantiqiy o'ylashga va mustaqil ravishda o'rganishga undaydigan o'ylantiruvchi savol-jumboqlar bering.

O'quvchilarga savollar berish va o'z g'oyalarini o'rganishga undash ularning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga hamda akademik tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Ikkalasi ham muhim hayotiy ko'nikmalardir.

So'rovlar **subyektiv** bo'lishi mumkin. Tushunishingiz uchun umumiy xulosaviy misollar keltiramiz: masalan, **barcha she'rlar qofiyali bo'lishi shartmi? Yoki barcha o'quvchilar formada kelishi nimani o'zgartiradi?** kabi. Bunday so'rovlar o'quvchida yangi fikrlarni tug'ulishiga ko'makchi bo'ladi va o'qituvchi unga e'tibor berayotganini his qiladi. Bu esa o'z o'zidan o'zaro hurmatni oshiradi.

3. Differentsiatsiya

Ma'lumki, sinfda ikki xil qatlam mavjud, passiv va aktiv qatlam. Xalq tilida bu "ikkichilar" va "a'lochilar" deb ataladi.

Hech kim qolib ketmasligi uchun o'quvchilarning qobiliyatiga qarab vazifalar ajratishga odatlaning. Bu boshqa o'quvchilarga ham psixologik ta'sir o'tkazadi. Sizing barcha o'quvchilarga birdek jon kuydirayotganingizni ko'rib turgan o'quvchilarda pozitiv kayfiyat paydo bo'ladi.

4. Xulq-atvorni boshqarish

Xulq-atvorni boshqarish bo'yicha samarali strategiyani amalga oshirish o'quvchilaringizning hurmatiga sazovor bo'lish va o'quvchilarning o'z salohiyatlariga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlarida juda muhimdir.

Shovqinli, tartibsiz sinflar samarali o'quv muhitini rag'batlantirmaydi, shuning uchun **intizom va mukofot** kombinatsiyasi orqali o'zaro hurmat muhitini yaratish siz uchun ham, o'quvchilaringiz uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Samarali o'qituvchi bo'lish juda qiyin, chunki har bir o'quvchi o'ziga xosdir, ammo o'qitish strategiyasidan foydalangan holda o'z sinfingizni o'quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitga aylantirishingiz mumkin!

1. Tashkillashtirish

Siz birinchi navbatda, agarda dars qilmoqchi bo'lsangiz oz vaqt talab qiladigan darslarni bitirib oling. Shunda samaradorlik yanada oshadi. Vazifalar ro'yxatini tuzing va bajarishingiz kerak bo'lgan har qanday vazifalar uchun eslatmalarni o'rnatib.

2. Belgilangan o'quv maydoni

O'qish mobaynida to'g'ri o'tirish, diqqatni jamlashga yordam beradi. Yotib yoki bukchayib dars qilish yaramaydi. Dars qilish, kitob o'qish mobaynida insonning orqa miyasi to'g'ri shaklda turishi kerak, ya'ni umurtqa pog'onangiz bir chiziqda bo'lishi, sizning yanada samarali o'rganishingizni ta'minlaydi. Shuningdek, xonangizda o'quv maydoni tashkil qiling. U chalg'itadigan narsalardan xoli bo'lishi kerak.

3. Boshqalar bilan hamkorlik qiling

Ba'zan mustaqil ravishda o'qitish pedagoglar uchun ham qiyin va zerikarli bo'lishi mumkin. O'zingizga ma'qul bo'lgan o'qituvchilar va mutaxassislardan iborat o'quv guruhiga qo'shiling yoki yangi bir guruh yarating. Ushbu guruhda o'zaro tajriba almashish, darslarni birgalikda rejalashtirish va o'zaro yordam berish imkoniyatlari mavjud. Bu hamkorlik sizni ko'proq ijodiy yondashuvlarga va yangi pedagogik uslublarni o'rganishga undaydi. Jamoa bilan birga metodikalarni muhokama qilish va o'zaro fikr almashish orqali o'z bilim va ko'nikmalaringizni yanada rivojlantirasiz.

4. O'zingizni sinab ko'ring

Bu sizni imtihon xonasida kutishingiz mumkin bo'lgan narsalar uchun tayyorlaydi. Bundan tashqari, bu sizning erishgan yutuqlaringizni kuzatib borishning bir usuli.

Mag'lubiyatlar oldida bosh egmang, aksincha xulosa chiqaring, bo'shliqlaringizni aniqlab, ularni to'ldirish uchida izlaning.

5.Ijobiy fikrlang

Mutaxassislingiz bo'yicha eng so'ngi yangiliklarni, metodikalarni kuzatib boring, o'rganishga doimo ochiq bo'ling. Sizing ongingiz sizning potentsialingizni yaratishi yoki buzishi mumkin. Shuningdek, salbiy odamlarni o'zingizdan uzoqroq tuting. O'zingizga ishonang!

O'qituvchilik og'ir, ammo sharafligini kasb ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun darsingizdan charchoq o'rniga zavq va energiya olishni o'rganing. Yangi energiyani esa yangi bilimlar orqali olasiz. Bir xillik sizni zerikishga olib keladi.

“Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi. Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi. Agar kishi fikrlamas, aqlda ham shunday holat yuz beradi”,- degan edi Leonardo Da Vinchi.

Yuqorida keltirib o'tilgan bu iqtibos ehtimol oddiy so'zlar va jumladan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Ammo uning zamirida biz doim ham e'tibor bermaydigan katta ma'no-mazmun yashiringandir.

Tasavvur qiling, agar bir sportchi biroz muddat bo'lsada o'zining mashg'ulotlari bilan umuman shug'ullanmas va yoki avval o'rgangan “uslublar”ga tayanib qolsa, o'z ustida har kuni ishlagan, tinimsiz shug'ullangan va mashqlarda chiniqqan boshqa raqibidan ustun kela oladimi? Albatta yo'q!

Endi o'ylab ko'ring bizning bugungi dars o'tish uslubimiz ham yangilanishga, yangi bilimlar va g'oyalar bilan boyitilishga muhtoj emasmi? Bizning metodlarimiz bir xillikdan iborat bo'lib “zanglab” qolmayaptimiki? Nima qilish kerak?

Qiziquvchan bo'ling, doimo yangi bilimlar orttiring, metodlaringizni yangilang. O'quvchilaringizni darsingiz va uslubingiz bilan hayratga soling, bu bilan “Sevimli ustozlar” qatoridan o'rin oling. Natijalarga erishing! Kreativ fikrlovchi va kreativ metodlarga ega haqiqiy pedagogga aylaning!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313–son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 29- apreldagi 2019- yildagi PF–5712–son Farmoni, 29.04.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm–fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2020- yil 29- oktyabrdagi PF–6097–son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim–tarbiya va ilm–fan sohalarini rivojlantirish chora–tadbirlari to'g'risida”gi 2020–yil 6–noyabrdagi PF–6108–son Farmoni – QHMMB, 07.11.2020. 06/20/6108/1483–son.
5. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik–didaktik asoslari (ijtimoiy gumanitar yo'nalishdagi akademik liseylarda matematika o'qitish misolida). T, DPU, 2006

BIOTEXNOLOGIYA FANINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Abdusamatov Qodirjon,
NavDU tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi biotexnologiya ta'limini kreativ yondashuv bilan rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslar, amaliy metodlar va zamonaviy pedagogik

texnologiyalar yoritiladi. Kreativlikning ta'lim jarayoniga ta'siri, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va yangicha qarashlarni shakllantirishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan kreativ metodlarning mazmuni va vazifalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish metodlari, ta'lim jarayonlari, pedagogika interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, kreativlik, texnologiya, ijodkorlik, kabiyo rivojlanish, kreativ pedagogika, STEAM integratsiyasi.

Kreativ yondashuv asosida o'qitish metodlariga ehtiyoj ortib bormoqda, chunki zamonaviy ta'lim tizimi ijodiy fikrlaydigan, yangilikka intiluvchi va muammolarga noodatiy yechim topa oladigan avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli —2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni hamda 2022-yil 12-maydagi PQ-257-sonli —Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risidagi qarorlarda ta'lim sifatini oshirishda kreativ yondashuvga urg'u berilgan.

Shuningdek, —Ta'lim to'g'risidagi Qonun (yangi tahriri, 2020-yil) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4310-sonli qarorida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, innovatsion va kreativ metodlarni tatbiq etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Zamonaviy ta'lim jarayonida kreativ yondashuv asosida o'qitish talaba yoki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muammolarga noan'anaviy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy ta'lim metodlari o'rniga innovatsion, interaktiv va kreativ yondashuvlar kirib kelmoqda.

Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqish ortadi, ularning shaxsiy faolligi oshadi.

Kreativlik – bu ijodiy fikrlash, noodatiy yondashuv, muammolarga yangicha ko'z bilan qaray olish qobiliyatidir.

Kreativlik – bu yangi, original va samarali g'oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yechim topish, mavjud holatga boshqacha nigoh bilan qaray olish qobiliyatidir.

Zamonaviy sharoitda biotexnologiya fani nafaqat ilmiy izlanishlar sohasi, balki iqtisodiyot, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va ekologiya bilan uzviy bog'langan strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu sababli uni o'qitish va rivojlantirish jarayonida an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Biotexnologiya fanini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish va amaliy natijalarga yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omilidir.

Kreativ yondashuv, avvalo, muammoli vaziyatlar asosida o'qitishni tashkil etishni nazarda tutadi. Masalan, talabalarga real ekologik muammolar, antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlar yoki oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq vaziyatlar taqdim etilib, ular biotexnologik yechim ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Bunday metod nazariy bilimni amaliy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, STEAM integratsiyasi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) asosida fanlararo yondashuvni joriy etish biotexnologiyani yanada samarali o'qitishga xizmat qiladi. Biologik jarayonlarni modellashtirishda raqamli texnologiyalar, vizual dizayn va algoritmik fikrlashdan foydalanish talabalarning tushunish darajasini oshiradi. Virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish va sun'iy intellekt vositalaridan

foydalanish esa tajribalarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Kreativ yondashuvning yana bir muhim jihati — loyiha asosida ta'lim (Project-Based Learning) metodini qo'llashdir. Talabalar kichik guruhlarda biotexnologik startap g'oyalarni ishlab chiqish, mahsulot prototipini yaratish yoki ilmiy tadqiqot modeli tuzish orqali nazariy bilimni real natijaga aylantiradilar.

Bu jarayon ularda tadbirkorlik tafakkuri, jamoada ishlash va ilmiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Biotexnologiya fanini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik asoslar.

Quyidagi ma'lumotlar biotexnologiya ta'limini kreativ yondashuv bilan rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslar, amaliy metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yoritadi.

1. Kreativ pedagogika va innovatsion metodlar

Innovatsion interaktiv platformalar biotexnologiya ta'limini tashkil etish samaradorligini oshiradi, chunki ular o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va murakkab biologik jarayonlarni sodda tushunishga yordam beradi.

Kreativ pedagogika metodi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va innovatsion g'oyalarni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa an'anaviy yodlash mashg'ulotlaridan ustun natija beradi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy yondashuv bilan ta'lim olgan o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyati sezilarli darajada oshadi.

2. Interaktiv va innovatsion yondashuvlar

Interaktiv metodlar (muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, argumentatsiya va veb-integratsiyalashgan yondashuv) o'quvchilarning tajriba asosida o'rganishlarini kuchaytiradi va biotexnologik kontsepsiyalarni chuqur tushunishga xizmat qiladi.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar innovatsion yondashuv bilan birgalikda o'tkazilganda, talabalar bilim va texnik ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida rivojlantiradilar (misol: genomik DNK izolyatsiyasi va PCR tajribalari).

Ta'lim jarayonida raqamli vositalar va virtual laboratoriyalar qo'llanilishi nazariy bilimni amaliy tajribaga ulashni osonlashtiradi.

3. STEAM va fanlararo integratsiya

Biotexnologiya ta'limida STEAM integratsiyasi (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at, Matematika) murakkab biologik jarayonlarni turli nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi, dizayn va texnologiyani birlashtiradi.

Fanlararo yondashuv talabalarni biomimikriya, raqamli analitika yoki ekologik tizimlarni tahlil qilish kabi kompleks ko'nikmalar bilan jihozlaydi. (Transdiskiplinariya konsepsiyasi bioilmiy yondashuvni jamiyat, amaliyot va ilmni uzviy bog'laydi.)

4. Muammo va yechimlar orqali o'rganish (Challenge-Based Learning)

Challenge-Based Learning (muammolarga asoslangan o'rganish) kontekstida talabalarga real dunyo muammolari berilib, ular yechim izlash, izlanish o'tkazish va natijalarni baholash orqali chuqur o'rganish jarayoni yo'lga qo'yiladi.

Bu yondashuv 21-asrdagi ko'nikmalar – hamkorlik, kritik fikrlash, texnologiya integratsiyasi va individual mas'uliyatni shakllantiradi.

5. Mediapedagogika va vizualizatsiya

Mediapedagogika (animatsiyalar, simulyatsiyalar, vizual resurslar) biotexnologiya fanini murakkab jarayonlar uchun vizual izoh beradi va tushunishni osonlashtiradi.

Bu yondashuv ayniqsa nazariy kontsepsiyalarni amaliyot bilan bog'lashda samarali bo'ladi va talabalarni motivatsiya qiladi.

XULOSA

Biotexnologiya fanini takomillashtirish uchun kreativ pedagogika, interaktiv metodlar, STEAM integratsiyasi, muammo asosida o'rganish va mediapedagogika vositalari birgalikda qo'llanilishi zarur. Bu yondashuvlar talabalarda nazariy bilimni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtiradi va innovatsion fikrlash, muammoni hal etish hamda ilmiy tadqiqot salohiyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- son Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,2017y.,6-son,70-modda.
2. Guilford J.P. (Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9,444-454.
3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish./Monografiya.-T.: "Fan va texnologiyalar",2016.-B.77
4. Zunnunov A., Xayrullayev M. Pedagogika tarixi.- T.: Sharq, 2000.
5. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. Ibratli so'zlar. – T.: Fan, 1993.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.X va boshq O'quv tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy yetish.- T.: O'zPFITI, 2004 7.
7. journal.nordicuniversity.org
8. maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz
9. researchgate.net
10. mdpi.com
11. worldlyjournals
12. phoenixpublication.net

NAVOIY IJODINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIDAGI O'RNI*Chinqulova Dilafuz,**Qiziltepa tumani 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Navoiy ijodiy merosini ilk maktab davridan o'rgatib borish Milliy g'urur insonni ma'naviy jihatdan shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. Maqolada Navoiy lirikasiga murojaat qilingan bo'lib, ma'nolar xazinasi atalmish bu bo'stondan o'quvchilarni bahramand etish orqali ularning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Yoshlarini ma'naviy yetuk, aqlan barkamol etib tarbiyalashda mutafakkirning hikmatlar yo'g'rilgan lirik asarlari, alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: lirik tur, ma'naviyat, she'riyat, qit'a janri, doston, himmat.

Ta'lim jarayonida adabiyot darg'alari ijodiga bot-bot murojaat qilishning asosiy sababi ijodkor iste'dodining serqirraligi, teran mulohazaga yetaklovchi yuksak saviyadagi asarlarining mavjudligi, shuningdek, ularga berilgan jahoniy e'tiroflar, asarlaridagi badiiy-estetik g'oyalarning san'atkorona ifodalari bilan bog'liq. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida yangi davr Milliy o'quv dasturida Alisher Navoiy hayoti va ijodini ta'lim va tarbiya berishda o'rganish boshlang'ich hamda yuqori sinf o'quvchilarida milliy g'ururni yuksaltiradi. Milliy g'urur insonni ma'naviy jihatdan shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. O'quvchilarning Navoiyona aks etuvchi nodir adabiy durdonalarning falsafiy, ilohiy-irfoniy mohiyatini his qilishda, mag'zini anglashda umumta'lim

maktablari uchun yaratilayotgan o'quv dasturlarining ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, misralar mag'ziga chuqur mulohazasiz yetish imkondan tashqaridir.

Shu o'rinda 1-sinfdan 11-sinfgacha amaldagi dasturlarda Alisher Navoiyning ijodiga ajratilgan vaqt va mavzularga e'tibor qaratish o'rinli. Buning uchun, avvalo, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan tayanch o'quv reja va dasturiga murojaat qilindi.

Kamol et kasbkim olam uyidin,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy axloqiy, ma'naviy fikriy kamolotga erishish mavzuda ko'p asarlar yaratgan. Bunda ulug' shoir har bir janrning talabi, tabiati va ifoda yo'li hamda usullarini hisobga olib qalam yuritgan. Bu holni yuqoridagi qit'a janridagi to'rtlikda ham kuzatishimiz mumkin. Qit'aning dastlabki misralari to'g'ridan-to'g'ri "Kamol et kasbkim...", degan da'vat bilan boshlanishi navoiyvor xususiyatga egadir. Ulug' allomalardan Aziziddin Nasafiyning yozishicha: "Komil inson, yaxshi so'z, yaxshi amal, yaxshi axloq va puxta ilmga sohib bo'lgan kishidir". Navoiyning nuqtayi nazariga ko'ra, mol-u davlatni yig'ish emas, balki xayrli ishlarga, xalq farovonligi yo'lida sarflash himmat va kamolotga yetishishning muhim belgisidir.

Saxiylik va himmat xususida so'z borganda, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini eslamaslikning hech ham iloji yo'q. Negaki bu asarda shoir himmat borasida faxr va iftixor ila shunday yozadi: "Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Navoiy himmati baland insonlarni hamisha ulug'lar ekan, avvalo, o'ziga ham nasihat qilishni unutmaydi. Bu borada "Hayrat ul-abror" dostonida shunday yozadi:

Himmat agar bo'lsa Navoiy sanga,
Bandadurur Hotami Toyi sanga.

Navoiy "Olam tarki kishiga himmatdin erur" degan fikrni ilgari suradi. Ya'ni: kishi bu yorug' olamga kelar ekan, yaratgan unga munosib umr beradi. Ana shu umrni barchamiz ezgu ishlar ila ado etib, bu yorug' olamni tark etsak, bu ham himmatlilik belgisi ekan.

Himmat egasi boshpanasi bo'lmasa-da hamisha boy kishi sanalgan. Chunki ulardagi muloyimlik, mehribonlik, shirinsuxanlik, yomonliklarga yaxshilik ila javob bera oladigan mustahkam iroda, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlarining mujassamligi ularning mol-dunyosi mo'l har qanday himmatsiz insondan ustun ekanligidan dalolat bergan". Saddi Iskandariy" dostonida shu xususidagi ibratli haqiqat o'z aksini topgan.

Birovkim, aning himmati yo'turur,
G'aniy bo'lsa ham hurmati yo'qturur.

Himmat egasi hech qachon shuhratparastlikka intilmaydi. Uning go'zal fazilati bo'lgan himmati bunga yo'l qo'ymaydi. Hatto himmati baland gado ham shohlik tojidan voz kechishi mumkin. Buni biz ushbu dostonidagi "Iskandar va gadolikni ixtiyor etgan shahzoda muloqoti" orqali bilib olamiz. Inson degan oliy maqomni ulug'lovchi himmat tushunchasini anglab yetmoqlik, u bilan oshno bo'lmoqlik bugun barchamiz uchun sharafdir. Hamisha ana shunday ezgu ishlarga posbon bo'lib, hech kimdan saxovatimizni darig' tutmaylik. "Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi-er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam balandparvoz lochindir; behimmat – sichqon ovlovchi kalxatdir deydi. Himmat egasi qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmas;

himmatsiz kishi xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmay. Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir". O'z zamiriga yashiringan ma'no nozikliklarini topishga undayveradi.

Zero, Navoiyning so'zi oddiy so'z emas. Uning qariyb olti asrdan buyon o'rganilishining siri ham ana shunda. Navoiy ijodi o'ziga xos hikmatlar bo'stonidir. O'zingizda tug'ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyatingizga mos bir hikmat topib, murodingiz hosil bo'lishi, ko'nglingiz taskin topishi shubhasiz. Ko'pni ko'rgan donishmand shoir hayotning deyarli hamma yaxshi yomonini boshidan o'tkazgan, insoniyat fe'l-atvorini yaxshi his qila olgan, jamiyat va xalq munosabatlarini tahlil qila olgan va aql tarozisida o'lchab, ko'ngil daftariga bitgandir. Ulug' Navoiyning har bir misrasini o'qib qalbimiz shuurga, nurga to'lgandek bo'ladi. Biz so'z olamining podshohi Mir Alisher Navoiy hazratlarining boy merosini yoshlar ongimizga singdira olsak, har biri bir dunyoga teng misralarni qalb mulkiga aylantira olsak, o'ylaymanki, dunyoda hech qachon, hech kimdan kam bo'lmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom, 2006. – B 389.
2. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti g'azallarining tanlanishi. O'zMU xabarlarini // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.
3. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 36.
4. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – Toshkent: O'qituvchi. 1995. – B. 71.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006. – B. 255.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning almiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi. 1996. – B. 8.

INSON MA'NAVIY TAKOMILI NAVOIY TALQINIDA

*Shamsiddinova Dildora,
Karmana tuman 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson kamolotiga xizmat qiluvchi Alisher Navoiy hikmatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, kamolot, inson, tarbiya, ma'naviy bebaho meros.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ma'naviy merosimiz bo'lgan ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkirlarimizning nasihat-u o'gitlari, ilm egallashdagi intilishlarini, millatimizning milliy qadriyatlarini o'rganish, uni yosh avlodga singdirish imkoniyati kengayib bormoqda. Shu sababli yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda Sharqning buyuk alloma va mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ma'naviyatga yo'g'rilgan madaniy merosi muhim tarbiya vositasi sanaladi.

"Shoirlar sultoni" yaratgan bebaho meros kelajak avlod tarbiyasida ham muhim omil bo'ladi deb ishonamiz. Navoiy asarlaridagi ta'lim-tarbiya g'oyasining negizi inson va uning kamolotini ifoda etishdan iborat bo'lib, ularda insoniy fazilatlar: odamiylik, do'stlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, xayr-ehson, diyonat, sabr-toqat, kamtarlik, qanoatlilik haqida chuqur falsafiy fikr yuritiladi.

Buyuk daho Alisher Navoiy asarlarida ilmi bo'lish uchun, avvalo, ona tilini puxta va chuqur bilish lozimligi, shu bilan birga ko'p tillarni bilish ham muhim ekanligini, ilmi kishilar faqat hunar va ilmda emas, balki axloq-odobda ham o'rnak bo'lishlari, to'g'ri so'z, so'zamol bo'lib hamisha o'z nutqi va o'z g'alar nutqiga e'tiborli bo'lishlarini ta'kidlaganlar.

Alisher Navoiy o'z asarlarida tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ham ko'rsatib o'tadi. Mutafakkirning fikricha, ilmi inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilm insonni, xalqni nopoklikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqning, o'z mamalakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deya ta'kidlaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson ham faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. "Odob Navoiy tasnifida barcha insoniy xislatning boshlanishi hisoblanadi. Komil insonga xos xislatlarga ana shunga bog'liq ravishda ta'rif beradi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar-qanoat, sabr, tavoze, himmat, muruvvat, hilm xuddi shu odobli Kishida tarkib topadi"[1].

Alisher Navoiy yuqori kamolot bosqichidagi buyuk aql egasi-chin ma'nosi bilan buyuk inson edi. Navoiydan qolgan buyuk badiiy meros bir necha asrlar davomida O'rtava Yaqin Sharq xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga mislsiz ta'sir ko'rsatib keldi. O'zbek adabiy tili va adabiyoti so'nggi besh asr ichida Navoiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg'or an'alarini davom ettirdi. Hazrat Alisher Navoiyning buyuk nazmiy va nasriy asarlari so'z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o'rganish hamon dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Asrlar osha yangi ma'no qirralarining kash etilishi bilan Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodi mangulikka daxldorlik qilmoqda. U yaratgan bebaho asarlar davrlar o'tishi bilan yangicha talqinlarga asos bo'la olishi bu ijodiy merosga qayta-qayta murojaat qilishni taqozo etadi.

Alisher Navoiy juda ko'p hikmatlar yaratgan. Ulardagi purma'no fikrlar insonning kamolotida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy o'zining axloqiy-talimiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, boy hayotiy tajribalarini umumlashtirish, ularga yakun yasash asosida yaratgan "Mahbub-ul qulub" asarida axloq-odob, fan va madaniyatning rivojlanishi, xalqning osoyishtaligi va baxt-saodati masalalariga doir o'z aqidalarini, mulohazalarini bayon qiladi, xalq maqollari negizida o'z hayotiy tajribalarining umumlashmasi sifatida juda ko'p maqol hikmatli so'zlar yaratadi[2]. Navoiy yaratgan hikmatli so'zlarning mazmun-mohiyati turli-tuman, purma'no. Ularning ko'pchiligi bugungi kunda xalq orasida faol qo'llanishga aylanib ulgiran: "Sihat tilasang ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema", "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'lib daryo bo'lur", "O't ishi qovurmoq, yel ishi sovurmoq", "Ishqsiz kesak, dardsiz eshak", "Oz degan-oz yengilar, oz yegan oz yiqilar", shukronalik haqida: "Agar shunqordek boshingda zardo'zluk tumog'adin toj emasdir, shukr qilkim, ko'zung yorug' dunyoni ko'rarga muhtoj emasdur", qanoat haqida: "Qone tilanmas farzona, qanoat tunganmas xazina" ya'ni "Qanoatli oqildir, qanoat esa yuganmas xazina", odamgarchilik haqida: "Elga qo'shilg'on oroyish topgi, eldin uzulg'on osoyish topmas", do'st-dushmanlik haqida: "Xasm necha haqir bo'lsa, ko'ngul qo'zg'atar va xas necha ushoq bo'lsa, ko'z bulg'atur, ya'ni "Dushman har qancha kuchsiz bo'lsa ham ko'ngilni notinch qiladi, xas qanchalik kichik bo'lsa ham ko'zni azob beradi", yaxshilik va yomonlik haqida: "Yomondin yaxshilig' ko'z tutmoq fosid xayoldur, itdin kiyikka va mushukdin kabutarga Shafqat maholdur", "Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam

yaxshilig'i so'z bila", "Yaxshidin yomonlar ham yomonlig' ko'z tutmas, yaxshi yomonlarga ham yaxshilig'in unutmas", "Yaxshiliqdin yomonlig'ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo'shil, yaxshilig' tebrasig'a evrula olmasang, yaxshilar tebrasig'a evrul", so'zlash madaniyati haqida: "So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko'nglungda bo'lsa tilg'a surma", "Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni eshiturdin qaytma", ahillik haqida: "Ushoqlar ishi nima bo'lmas, pista qobig'i kema bo'lmas" ma'nosi: "Go'daklar ishi hech narsa bo'lmas, pista qobig'i kema bo'lmas", vafo haqida: "Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q", rost so'zlash haqida: "Chin so'zni yolg'onga cho'lg'ama, chin ayta olur tilni yolg'ong'a bulg'ama" kabi.

"Mahbub-ul-qulub" asarida keltirilgan hikmatlar oradan shuncha asrlar o'tgan bo'lishiga qaramay, bugungi kunda ham o'z ma'nosini, qiymatini yo'qotgani yo'q. Bularni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: "Yomon bila yaxshi orasida ko'p farqdir, ikki kemaning uchin tutg'on g'arqdur", "O'zingni zebo libos xayolidan o'tkar, libos zeboligin tilasang bir yalangni bitkar", "To'qlug' hirsin ko'ngildin yo'q qil, o'zing och bo'lib, bir ochni to'q qil", "Odam bila shayton muxolifatin unutma, ota dushmanin o'zingga do'st tutma" kabi hikmatlar necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Alisher Navoiyning faoliyati va ijodi shunday bir buyuk ma'naviy xazinaki, undan tafakkur doirasidagi juda ko'p muammolarga yechim, savollarga esa javob topish mumkin. Qachonki, ma'naviyat masalalariga kuchli e'tibor berilib, ma'naviy yuksalishga erishilgan davrlarda davlatchiligimiz ham qudratli va salobatli bo'ladi. Alisher Navoiy dahosi o'z-o'zidan vujudga kelgan emas. Albatta, bunga boy madaniy va marifiy zamin, ma'naviy asos bor edi. Bu fikrni birgina Amir Temur va temuriylar davrida erishilgan boy ma'naviyatimiz ham isbotlaydi. Aytish mumkinki, temuriylar davri ma'naviyat bobida jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan eng buyuk ulushi Alisher Navoiy faoliyati, ilmiy va ijodiy merosidir.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlaridan biri deb biladi. Ilm insonni, xalqni nodonlikdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga undaydi.

Navoiy o'z zamonida siyosatda, ijtimoiy munosabatlarda va boshqaruvda insoniy bag'rikenglik ustivor bo'lishiga da'vat etgan. Amal qilayotgan qonunning ahamiyatini belgilashda insonparvarlik eng asosiy mezon bo'lishi kerakligiga chaqirgan.

"Nekim o'z qoshingda erur noravo,

Ulusqa ani ko'rma also ravo.

Yomonga jazo gar siyosatdurur,

Muruvvat taqiri rayosatdurur" [3].

Navoiyning komil inson g'oyasi hayotning sinov va ziddiyatlari bilan to'qnashuvlarda mazmunan yanada ochiladi. Menimcha, bu juda muhim masala. Birinchidan, Navoiyda komil inson hayotdan ajratib qo'yilgan xayoliy orzu emasligini, ikkinchidan esa, Navoiyning muhim an'anaviy qarashlarga tayanishi ularni takrorlashdan iborat bo'lmaganini anglatadi va Navoiyning o'z davri ziddiyatlariga yechim topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganini har jihatdan yoqlaydi.

Navoiy "Hayrat-ul-abror" dostonida:

"Har nafasing xolidin ogoh bo'l,

Balki anga xush ila hamroh bo'l"[4]

Navoiyning barcha asarlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yetuklikka da'vatlari bugungi avlod uchun ham ma'naviy yuksaklikka chaqiriq bo'lib xizmat qiladi.

“Ne elga yorsen o‘zungni ul na‘v tuz,
Nechukki borsen, o‘zungni andog‘ ko‘rguz”⁵.

Istiqlol davrida ulug‘ shoirimiz shaxsiga, merosiga e‘tiborning nechog‘lik baland ekaniga barchamiz guvohmiz. Ayniqsa, Mustaqillik yillarida navoiyshunoslikda erishilgan yutuqlar, bu sohani istiqoldavrida yangi bosqichga ko‘tarilgani ulug‘ shoir ijodining har bir muxlisi uchun qadrlil, albatta. Ulug‘ bobokalonimiz shaxsi, ijodiga ko‘rsatilayotgan yuksak hurmat, e‘tirof hammamizning ko‘nglimizni faxr-iftixor tuyg‘ulari bilan to‘ldiradi. Shunday ekan, Navoiy ijodiga ahamiyat berish, uni o‘qish o‘rgatish har birimizning mas‘uliyatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi.-T.:”Istiqlol”,2003,197-b
2. Muxtov A.,Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi.-T,1995,133-b.
3. Alisher Navoiy.Saddi Iskandariy.T.:”G‘afur G‘ulom”.1991-y.278-bet.
4. Alisher Navoiy.Hayrat-ul-abror.T.:”Fan”.1991-y.299-bet.
5. Alisher Navoiy.Mahbub-ul qulub.T.:”Fan”.1998-y.110-bet.

NAVOIYNING MAHBUB UL-QULUB ASARIDA TARBIYAVIY G‘OYALAR VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKA

*Abdurasulova Mohinur,
Andijon Davlat Universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi tarbiyaviy g‘oyalar tahlil qilingan va ularning zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan qiyosiy taqqoslash amalga oshirilgan. Tadqiqotda Navoiyning komil inson tarbiyasi, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kabi pedagogik qarashlarining bugungi kun ta'lim tizimiga tatbiqi masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada “Mahbub ul-qulub” asaridagi tarbiyaviy g‘oyalarning zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, jumladan, gumanistik pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va axloqiy tarbiya metodlari bilan uyg'unligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, tarbiyaviy g‘oyalar, zamonaviy pedagogika, komil inson, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются воспитательные идеи в произведении Алишера Навои “Махбуб ул-кулуб” и проводится сравнительный анализ с принципами современной педагогики. В исследовании рассматриваются вопросы применения педагогических взглядов Навои о воспитании совершенного человека, формировании нравственно-духовных ценностей, лично-ориентированном подходе в образовательном процессе к современной системе образования. Доказана гармония воспитательных идей произведения “Махбуб ул-кулуб” с современными педагогическими концепциями, включая гуманистическую педагогику, лично-ориентированное образование и методы нравственного воспитания.

Ключевые слова: Алишер Навои, “Махбуб ул-кулуб”, воспитательные идеи, современная педагогика, совершенный человек, нравственное воспитание, духовные ценности.

Abstract. This article analyzes the educational ideas in Alisher Navoi's work “Mahbub ul-qulub” and conducts a comparative analysis with the principles of modern pedagogy. The research examines the application of Navoi's pedagogical views on educating a perfect person, forming moral and spiritual values, and a person-centered

approach in the educational process to the modern education system. The harmony of educational ideas in "Mahbub ul- qulub" with modern pedagogical concepts, including humanistic pedagogy, person-centered education, and methods of moral education, has been proven.

Keywords: Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub", educational ideas, modern pedagogy, perfect person, moral education, spiritual values.

Kirish. Alisher Navoiy – O‘zbekiston xalqining buyuk mutafakkiri, shoiri va davlat arbobi bo‘lib, uning ilmiy-adabiy merosiga bo‘lgan qiziqish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari XV asrda yozilgan bo‘lsa-da, unda ilgari surilgan tarbiyaviy g‘oyalar bugungi kun zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan uyg‘unlasha oladi. Bu asar inson ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishi, bilim va ma'rifat orqali yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga bag‘ishlangan. Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, gumanistik qadriyatlar, axloqiy tarbiya kabi tamoyillarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Navoiyning pedagogik qarashlari ham aynan shu yo‘nalishda rivojlangan va "Mahbub ul-qulub" asarida o‘z ifodasini topgan. Navoiy merosi va uning pedagogik qarashlari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. E.Bertels, A.Kayumov, H.Sulaymonova, N.Komilov, B.Tuxliev kabi tadqiqotchilar Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, estetik va tarbiyaviy g‘oyalarini tahlil qilganlar. Ammo "Mahbub ul-qulub" asaridagi tarbiyaviy konsepsiyalarni zamonaviy pedagogika kontekstida chuqur tahlil qilish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

1. "Mahbub ul-qulub" asaridagi komil inson konsepsiyasining ahamiyati. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari komil inson axloqi hamda uning tarbiyasiga qaratilgan muhim manba hisoblanadi. Asarning ikkinchi qismida bashariyat va jamiyat kamoloti uchun inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi, uni ma'naviy barkamol etadigan yaxshi fe'llar to‘g‘risida so‘z boradi. Komilikka erishish yo‘llari tasavvufiy qarashlar orqali ko‘zdan kechiriladi. Shuningdek, haqiqiy tarbiya faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, inson ruhini, qalbini poklab, uni yuksak insoniy fazilatlarga ega etishdan iborat ekanligi uqdiriladi. Bu qarash zamonaviy pedagogikadagi shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyili bilan to‘liq mos keladi.

2. Axloqiy-ma'naviy tarbiyaning ahamiyati. Navoiy ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani asosiy o‘ringa qo‘yadi. Bu fikr bugungi kunning axloqiy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg‘unlashadi:

“Iymong‘a erur nishon hayo birla adab, Hurmat bila ta‘zim saodatqa sabab.

Hayyivu muaddab angakim, bo‘lsa laqab,

Maqsudig‘a kech yetsa ajab, angla ajab.”

3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Navoiy har bir insoning o‘ziga xos qobiliyatlari, iste’dodi va xususiyatlarini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi. U o‘qituvchining vazifasi – shogirdning yashirin qobiliyatlarini kashf etish va ularni rivojlantirishda yordam berishdan iborat, deb hisoblaydi. Bu qarash zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim (student-centered education) tamoyillarining mohiyatini aks ettiradi.

4. O‘qituvchining o‘rni va mas’uliyati. Navoiy o‘qituvchini "qalb tarbiyalovchisi" deb ataydi va uning shogirdlar oldidagi mas'uliyatini alohida ta'kidlaydi. Xususan, "Mudarrislar zikri" da ularga shunday ta'rif beradi: "Mudarrisning, kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa bilmas ilmni ayturg‘a murtakib bo‘lmasa va xudnamolig‘ uchun dars havzasin tuzmasa va xudsitonlig‘ uchun takallum va g‘avg‘o ko‘rguzmasa. Jahldin dastori uluv va aloqasi uzun bo‘lmasa va mubohat uchun madrasa ayvoni boshi anga o‘run bo‘lmasa. Diniy ulum bilsa va yaqiniy masoil elga ta'lim qilsa. "Bu talablar

o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy-ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi, ustoz va tarbiyachi bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Bu qarash zamonaviy pedagogikadagi o'qituvchining fasilitator roli konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.

5. Doimiy o'z-o'zini takomillashtirish. Navoiy "Mahbub ul-qulub"da inson umr bo'yi o'rganishi va o'zini takomillashtirishga intilishi kerakligini yozadi. "Umrni g'animat bil, sihat va amniyatqa shukr qil. Fano tariyqin tuz, faqr bila mubohot ko'rguz." Bu fikr zamonaviy ta'limdagi "umrbod ta'lim" (lifelong learning) tamoyilining asosidir.

Muhokama. Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, Navoiyning "Mahbub ul- qulub" asaridagi tarbiyaviy g'oyalari zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan uyg'unlikka ega. XV asrda ilgari surilgan bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hatto ba'zi jihatlarda zamonaviy ta'lim konsepsiyalaridan ilg'or bo'lgan.

Navoiyning komil inson tarbiyalash konsepsiyasi bugungi kunning gumanistik pedagogikasi tamoyillariga to'liq mos keladi. Uning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi zamonaviy individual ta'lim (differentiated instruction) metodikasi bilan uyg'unlashadi. Axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berish esa

XXI asr qadriyatlarining go'zal namunasi. Biroq, Navoiyning pedagogik qarashlari o'z davrining ijtimoiy-tarixiy kontekstida shakllangan va ba'zi jihatlarni bugungi kun ta'lim tizimiga bevosita tatbiq etish biroz mushkul. Buni atroflicha o'rganish va to'g'ri tadqiq etish zarur. Alisher Navoiy asarlaridagi umumiy tamoyillari – insonparvarlik, bilimga intilish, axloqiy poklik, o'z-o'zini takomillashtirish – umuminsoniy qadriyatlar sifatida zamonaviy pedagogikada muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida bayon etilgan tarbiyaviy g'oyalar zamonaviy pedagogika uchun boy ilmiy-nazariy manba hisoblanadi. Navoiyning komil inson tarbiyalash, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'qituvchining mas'uliyati va umrbod ta'lim kabi konsepsiyalari bugungi kun ta'lim tizimida tatbiq etilishi lozim bo'lgan muhim-tamoyillardir. Navoiy merosini zamonaviy pedagogika kontekstida o'rganish nafaqat ilmiy- nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham foydalidir. Uning tarbiyaviy g'oyalarini o'zbek milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali biz milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan, xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy ta'lim izimini yaratishimiz mumkin. Kelajakda "Mahbub ul-qulub" asaridagi pedagogik konsepsiyalarni chuqurroq o'rganish, ularni boshqa zamonaviy ta'lim nazariyalari bilan qiyoslash va amaliy tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016.
2. Kayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Sulaymonova H. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. Komilov N. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
5. Tuxliev B. Navoiy merosi va zamonaviy pedagogika. // Xalq ta'limi jurnali. – 2020. – №3. – B. 45-52.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI 3
1-SHO‘BA: ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA
TARJIMASI VA CHET ELLARDA O‘RGANILISHI

| | | |
|--|---|----|
| <i>Mardanov U.R.</i> | Navoiy asarlarida tarbiya masalasi | 5 |
| <i>G‘ulomova N.S.</i> | Alisher Navoiy lirik merosini o‘rganishga innovatsion yondashuv | 7 |
| <i>Normo‘minov Sh.T.</i> | Alisher Navoiy asarlarida lisoniy shaxs va nutqiy madaniyat mushtarakligi | 11 |
| <i>Haydarov Yu.</i> | Tarix fanini o‘qitishda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish | 14 |
| <i>Gaffarov A.M.</i> | Maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va kasbiy rivojlanishiga zamonaviy yondashuvlar | 16 |
| <i>Kushanova D.U., Rahmanova D.A.</i> | Interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning integratsiyasi | 21 |
| <i>Ravshanova O.S.</i> | Alisher Navoiyning tilshunoslikka doir qarashlari | 23 |
| <i>Atayeva B.A.</i> | Boshlang‘ich sinflarda Alisher Navoiyning ma’naviy qadriyatlarini singdirishda tadbirlarning o‘rni | 25 |
| <i>Xudoynazarov D.O.</i> | Navoiy asarlarini o‘qitishning metodik va didaktik usullari | 27 |
| <i>Qurbonova X.T.</i> | Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni | 30 |
| <i>Дадажоновна З.А.</i> | Изучение произведений Алишера Навои на уроках рки | 32 |
| <i>Khodiyeva Yu.Yu.</i> | A modern interpretation of Alisher Navoi’s works and teaching them to students based on the scamper technique | 35 |
| <i>Qurbonova X.T.</i> | Navoiy asarlarining farzandlar tarbiyasidagi o‘rni | 37 |
| <i>Haydarova Sh.S.</i> | Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining badiiy talqini | 39 |
| <i>Berdibayeva N.K., Jumayeva G.N.</i> | Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish | 41 |
| <i>Murodova M.K.</i> | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi | 43 |
| <i>Ergashova M.A.</i> | Alisher Navoiy asarlari –ma’naviy merosimiz | 46 |
| <i>O‘ljayeva G.R.</i> | Navoiy g‘azallarida she’riy san’atlar tadqiqi | 48 |
| <i>O‘ljaboyeva M.</i> | Alisher Navoiy g‘azallarida ishq va ruhiy iztirobning lingvopoetik talqini | 51 |
| <i>Sadriddinov B.B.</i> | Buhoroga islom dinining kirib kelishi va uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati | 53 |

2-SHO‘BA: TA’LIM TIZIMIDA NAVOIY ASARLARINI O‘QITISH
MUAMMOLARI

| | | |
|-----------------------|---|----|
| <i>Djurayeva P.S.</i> | Oybekning “Navoiy” romani misolida badiiy tasvir va estetik tahlil | 55 |
| <i>Razzakova M.N.</i> | Navoiyning “Ayt” va “Deyin” radifli g‘azallari tarjimasida badiiy san’atlarning qo‘llanilishi | 58 |

| | | |
|---|--|----|
| <i>Boltayeva Z.B.</i> | Alisher Navoiy merosining bugungi yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati | 61 |
| <i>Boltayeva Z.B.</i> | Yoshlar tarbiyasida Alisher Navoiy merosining o'rni (Boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida) | 62 |
| <i>O'tapov Z.B.</i> | Alisher Navoiy asarlarida shaxs tarbiyasi masalalari va bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar odob-axloqiga ta'siri | 64 |
| <i>Xakimova D.I.</i> | Navoiy g'azallarida "Nafs" konseptining freym tahlili | 68 |
| <i>Aliqulova M.T.</i> | O'quvchi kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni | 71 |
| <i>Sultonova G.S., Xudayqulova U.P.</i> | O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari | 73 |
| <i>Суванова С.</i> | Баркамол авлод тарбиясида Навоий ижодининг бебаҳо ўрни | 76 |
| <i>Тоъжиева Н.</i> | Навоий асарларида комил инсон ғояси | 77 |
| <i>Umarova F.</i> | "Hayrat ul-abror" dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiiy xususiyatlari | 79 |
| <i>Rashidova N.H.</i> | Pedagogik mahorat-zamonaviy o'qituvchining asosiy fazilati | 81 |
| <i>Isaqulova A.R.</i> | "Hayrat ul-abror" dostonidagi metaforik baytlarning lingvistik va sotsiopragmatik tahlili | 83 |

3-SHO'BA: ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI. NAVOIY POETIKASI

| | | |
|-------------------------|---|-----|
| <i>Uralov A.</i> | Alisher Navoiy ijodida morfem birliklarning ishlatilishi va bugungi kun tilshunosligiga ta'siri | 87 |
| <i>Suvonova M.X.</i> | Navoiyning mavzu tanlashdagi o'ziga xoslik | 91 |
| <i>Dushayeva N.Sh.</i> | Alisher Navoiyning tilshunoslikka qarashlari va poetik merosi | 93 |
| <i>Мажидова Х.И.</i> | Словосложение как способ номинации фитонимов в русском языке | 96 |
| <i>Мажидова Х.И.</i> | Деривационные процессы в фитонимической лексике русского языка: структурно-семантический анализ суффиксальных моделей | 98 |
| <i>Imotova G.</i> | Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan adabiyot darsliklarida Navoiy ijodini 7E modeli asosida o'rgatish | 102 |
| <i>Qo'ldosheva M.M.</i> | Umuminsoniy qadriyatlarining Alisher Navoiy asarlarida ulug'lanishi | 105 |
| <i>Раҳмонқулова С.</i> | Кўнги́л каъбасини обод эт... | 107 |
| <i>Sobirova Sh.F.</i> | Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qo'llangan o'simlik nomlari semantikasi | 108 |
| <i>Ramazonova M.Yu.</i> | Shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari | 112 |
| <i>Hotamov S.S.</i> | Deviant xulq-atvorli o'smirlarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari | 114 |

| | | |
|-----------------------|--|-----|
| <i>Maxamova E.R.</i> | Ta'lim jarayonida mualliflik korpuslaridan foydalanish | 116 |
| <i>Maxamova E.R.</i> | Raqamli texnologiya va mualliflik korpuslari | 119 |
| <i>Qodirova S.Sh.</i> | Alisher Navoiyning tilshunoslikka doir qarashlari: lingvistik tafakkur va turkiy til konsepsiyasining nazariy asoslari | 121 |

4-SHO'BA: ALISHER NAVOIYNING MA'RIFIY-MADANIY, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI.

| | | |
|-------------------------|---|-----|
| <i>Kadirov K.H.</i> | Алишер Навои и Захириддин Мухаммад Бабур: два столпа Узбекского гуманизма и литературного возрождения | 126 |
| <i>Усманова P.M.</i> | Алишер Навои и Захириддин Мухаммад Бабур: гении золотого века узбекской культуры (к 585-летию Алишера Навои и 543-летию Захириддина Мухаммада Бабура) | 128 |
| <i>Rasulov J.S.</i> | Alisher Navoiy davrida ilm-fan va ta'lim integratsiyasi: pedagogik va matematik qarashlar | 130 |
| <i>Boshmanova M.T.</i> | Alisher Navoiy asarlarida mehnat va hunar ulug'lanishi | 135 |
| <i>Fayziyeva M.M.</i> | Zamonaviy ta'limda raqamli innovatsion texnologiyalar va ular orqali o'quvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish | 139 |
| <i>Boboqulov J.Q.</i> | Maktab o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda Python dasturlash tilining o'rni | 142 |
| <i>Niyozova G.</i> | Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida leksik birliklarning geshtalt asosida ifodalanishi | 143 |
| <i>Hamroyeva A.F.</i> | Maktabgacha ta'lim jarayonida interaktiv vositalar orqali bolalarning o'rganish motivatsiyasini oshirish | 146 |
| <i>Turayeva D.I.</i> | Alisher Navoiy merosi asosida o'quvchilarda musiqiy – estetik ongini shakllantirishning pedagogik asoslari | 148 |
| <i>Машиарупова Ш.Р.</i> | Роль творческого наследия Алишера Навои в истории народов востока | 153 |
| <i>Boltayeva Z.</i> | Boshlang'ich sinf matematika darslarida "Innovatsion texnologiyalarning" o'rni | 155 |
| <i>Bekmirzayev X.S.</i> | Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda 4K modelining o'rni va ahamiyati | 157 |
| <i>Ashurova B.N.</i> | O'qituvchi shaxsining kreativ salohiyati – kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida | 161 |
| <i>Abdullayeva M.I.</i> | Oilada komil insonlarni tarbiyalashda Alisher Navoiy ma'naviy merosidan foydalanish | 166 |
| <i>Yunusmetova N.S.</i> | O'qituvchi va qadriyatlar: mukammal maqsadlarni belgilash yo'lida | 169 |
| <i>Abdusamatov Q.</i> | Biotexnologiya fanini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish | 173 |
| <i>Chingulova D.</i> | Navoiy ijodining yoshlar ma'naviy hayotidagi o'rni | 176 |
| <i>Shamsiddinova D.</i> | Inson ma'naviy takomili Navoiy talqinida | 178 |
| <i>Abdurasulova M</i> | Navoiyning Mahbub ul-qulub asarida tarbiyaviy g'oyalar va zamonaviy pedagogika | 181 |

**“ALISHER NAVOIY MEROSINING ILMIY, MA’NAVIY AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2026-yil 12 fevral.

Texnik muharrir: Boboqulov J.Q.

Maqolalar mazmuni va ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

*Konferensiya materiallari to'plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining
(2026-yil 27-fevral, 2-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*